


84
A-14

Yunus BEK

BIR SIQIM TUPROQ



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
изданий

18,03.2016

891
A-14

Yunus Bek

BIR SIQIM TUPROQ

2499

Срок

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

TOSHKENT
«NISO POLIGRAF»
2018

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

A 14

Yunusbek



O'ZBEKISTON
YOSHILAR
ITTIFOQI

Yoshi ijodkorining mazkur ilk kitobi O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Yugori Chirchik tuman kengashi va «Niso poligraf» mas'uliyati cheklangan jamiyati homiyligi ostida nashr etildi.

© Yunus Bek, 2018

© «Niso Poligraf», 2018

Adabiyotning buyukligi esa, millatning xilma-xil ijodkorlari va ularning rang-barang ijodlari bilan belgilanadi. Shu ma'noda o'zbek adabiyoti juda ulkan adabiyot hisoblanadi. Uning yoshi ming yilliklar bilan o'lchanadigan she'riyati, garchand Qodiriy romanlaridan boshlangan desak-da, aslida, badiiy tafakkurdagi yangilanishlar bobida yamada qadimgoqdan, Mirzo Boburning mashhur «Boburnoma»sidan ibtido olgan dunyoni epik ko'lamda ko'rish va tasvirlay olish yo'li – nasri bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Demak, xilma-xil tur va janrlarda turfa xil uslub-u mavzularda ijod qilayotgan yosh-u keksa ijodkorlarimizning hammasi jam bo'lib, adabiyotimizning chinakam boyligini tushkil etadi. Albatta, ularning iste'dod kuchi va qoldingan merosi bir-biridan keskin farq qiladi. Mayli-da. Axir, adabiyot faqat yarq olgan iste'dod-u, daholardan iborat emas-ku!

U yog'ini so'rasangiz, iste'dod-u daholarning

ko'zga yaqqol tashlanishida ham boshqalarning xizmati, o'rni va ahamiyati beqiyos. Chunonchi, Navoiy hodisasi o'z-o'zidan paydo bo'lmadi. Navoiy dahosining qad rostlashida Nizomiy, Attor, Rumi, Jomiy, Hofiz, Sa'diy kabi dahosan'atkorlar muhim rol o'ynagan bo'lsa, uning turkiy adabiyotida eng portloq yulduz bo'lib ko'rinishida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi iste'dodlarning xizmati bor. Katta iste'dodlar ana shu turfaalik ichida tug'ildi, turinadi, surtinadi, axyri yo'lini topib, manaman deya o'zligini namoyon qiladi. Shuning uchun va, umuman, adabiyotning bor bo'lishi uchun ham xilma-xillik kerak.

Qo'lingizdagi «Bir siqim tuproq» deb nomlangan mo'jaz kitob muallifi Yunus Bek (Yunusbek Abdiyev) nasrimizning eng kenja avlod vakillaridan hisoblanadi. Mana, u umid bilan ilk to'plamini Siz – azizlarga ilinib turibdi. Yunus Bek va u mansub avlod ana shu xilma-xillikning bir uzvi. Yunus Bekning katta-kichik hikoyalari va badiiy lavha hamda maqolalarini o'qir ekanman, uning siymosida salafar, xususan, Chingiz Aytmatov ijodiy yo'lidan ta'sirlanib, ayni paytda, o'z yo'lini zo'r berib topishga urinayotgan yosh yozuvchini ko'raman. Hali Yunus Bekning dunyoqarashida, olamni badiiy-estetik tasvirlash yo'llarida, obraz

yaratishda, mavzuning inson va tabiat, inson va hayvon munosabatlariga aloqadorlikda olib badiiy tadqiq etishida ulug'lar ijodiga ergashish seziladi. Mayli, bu ham shakllanishning bitta davri, Zero, odatda, buyuk iste'dodlarning ta'sir maydoni nihoyatda katta bo'ladi va u yaqin-yiroqdagi ko'plab ijodkorlarni o'z mehvari atrofida aylanishga majbur qiladi. Lekin hayotiy tajribalar va ijodiy izlanishlar natijasida Yunus Bek o'z yo'lini topadi, degan ishonchim bor.

Ushbu kitobga Yunus Bekning bir qancha hikoya va zamonamiz haqidagi mulohazalarini o'z ichiga olgan esselari kiritilgan. Uning «Bir siqim tuproq» hikoyasi an'analarning davomi sifatida menda yaxshi bir taassurot qoldirdi. Hikoyada Sur echki haqida bir afsona keltirildi. Afsonada bu yorug' olamda yolg'iz qolgan bir juft echkning qismati aks etgan. Uning mazmun-mohiyati, yuqorida ta'kidlanganidek, qaysi bir jihatlariga ko'ra, Chingiz og'aning «Qiyomat»dagi Toshchaynar va Akbara deb nomlangan bo'rilar qismatiga o'xshaydi. Lekin o'ziga xos, sirli, jozibali afsona. Hikoyada inson va tabiat o'rtasidagi munosabat, bu munosabatda insonning gegemonlik qilishga, o'z haddidan oshishga urinishi ayanchli oqibatlariga olib kelishi ta'sirli ifodalangan. Unda o'ziga xos falsafa, tushish, tanqid bor. Lekin mana shularning

hammasini san'atga aylantirishda Yunus Bek biroz zo'rliqadi. Bu hol Yunus Bekning boshqa bitiklariga ham xos.

Esselarda Vatanimizning bugungi kunidan faxr tuyish, vatanparvarlik tuyg'usi yetakchilik qiladi. Bu – yaxshi. Ammo ko'ngil izhorlarida andak balandparvozlik ham yo'q emas. Chunonchi, muallif «Nurafshon tonglar»da «Biz o'zimizni o'zimiz kashf etdik, dunyoga «O'zbek modeli» degan nom bilan tanilgan kuchli bir davlatga aylandik» deb yozadi. Hay, mayli, deymiz, aytilgan gapda mubolag'a bo'lsa-da, kuchli davlatga aylanish hammanimizning istak va maqsadimizdir. Tabiiy, buning uchun hali juda ko'p va xo'p mehnat qilishimiz lozim bo'ladi. Muhimi, yosh yozuvchi Vatanimiz kelajagini ana shunday baland maqomlarda ko'rmoq istaydi. Ayni shu jihat yo'naltiruvchi kuch (motivatsiya) sifatida ijodkor uchun eng kuchli rag'bat hisoblanadi.

Yunus Bek Toshkent viloyatining go'zal go'shasida, odamlar orasida, tabiat qo'ynida tug'ildi va yashamoqda. Bu esa ijod qilish uchun olam-olam imkoniyat, qat-qat material degani. Odatda, ijodkorlar bosh shaharlarga kelib yashashni orzu qilishadi va ko'pincha shunday qilishadi ham. Men Yunus Bekning o'sha joyda yashab, o'sha joy odamlarining o'ziga xos

olamlaridan badiiy xabar berib turishini qo'llab-quvvatlayman. Demak, biz Yunus Bekdan hali juda yaxshi asarlar kutib qolishga asosimiz bor. Ijod yo'lingiz unumli bo'lsin, Yunus Bek!

*Ulug'bek HAMDAM,
filologiya fanlari doktori,
adabiyotshunos olim, yozuvchi,
2018-yil, ko'klam*

NURAFSHON TONGLAR

Mana, ota-bobolarimiz asrlar osha intiq kutgan Vatan mustaqilligining nurafshon tongi yana bittaga ortdi. Shu qisqa davr ichida yurtimizda olamshumul o'zgarishlar ro'y berdi. Biz o'zimizni o'zimiz kashf etdik, dunyoga «o'zbek modeli» degan nom bilan tanilgan mukammal bir davlatga aylandik. Bir vaqtlar salomimizga alik olmaganlar bugun ahvolimizni so'raydigan bo'lib qoldi. Bularning barchasini bizga faqat va faqat mustaqillik, ozodlik, hurlik in'om etdi, deya hech ikkilanishsiz aytay olamiz.

Ha, bugun dunyoga tanilidik, jahonda o'z o'rimizni topdik. Bunda, albatta, yurtimizda olib borilayotgan odiona siyosat, mamlakatimizda ahil-inoq yashayotgan 140 millat va elatning ulkan hissasi bor. Mustaqillik, eng avvalo, bizga tinchlikni, qaramlikdan ayirib ozodlikni, milliy qadriyatimizni, madaniyatimizni, tariximizni urf-odatlarimizni berdi. Bilsangiz, yillar soniga qarab emas, salmog'iga qarab o'lchanadi. Bundan 30-40 yil avval ham biz shu yerlarda ishlardik, yashardik. Biroq, bizni hech kim tanimadi, tan olmasdi. Qanchadan qancha bu ochiq haqiqatni aytgan yurtparvar azamatlar «xalq dushmani», degan tang'a bilan qoralandi. Mana endi, o'z

millatimizga o'zimiz egalik qilib, o'zimiz uchun o'zimiz yaratish harakatiga tushdik. Yildan yilga turmushimiz yaxshilanib bormoqda. Bularning barchasi odamlarning ertangi kundan umidlari ulkanligidan, ishonch-u tinchlikdan, albatta.

Bizni tashqaridan kuzatgan niyati xolis darg'alar, fikri tiniq odamlar «O'zbekistonliklar buyuk mo'jiza yaradi, ertaklardagi mamlakatni harpo etdi» desa, ajablanishning keragi yo'q. Chunki biz kechagina butun borlig'idan, erkidan ayvillash arafasida turgan bir mustamlaka xalq, butun olish to'g'risida o'ylashga imkon topmay, ehtiz faqat paxta yetishtirishimiz kerak», degan omi dehqon edik. Bugun esa, hamma havas qiladigan kuchli va farovon davlatga aylandik. Bu mo'jiza emasmi?

Kechagina yurtdoshlarimizning do'konlar oldida navbatga turishib, bir buxanka non uchun bi-birini aynamay, kerak bo'lsa, bi-biriga ozor yetkazishdan ham tap tortmay, oqibatsizlikka yuz burgunliklarini keksalardan ko'p eshitganimiz. Hunning birdan bir sababi ajdodlarimizning milliy mentalitetidan, madaniyatidan, tarixidan ayvillayotgani, kimligini unutishiga atigi bir baxxa qolgan mutening mutesiga aylanib borayotgani edi.

Ko'z tegmasin, bugun o'zligini anglagan ozod xalqqa aylandik. Istiqbol sharo'fati bilan

ko'ngildagi qo'rquv, hadik yo'qoldi, hayotimiz farovon. Ayniqsa, bugungi bunyod etilayotgan namunali uy-joylar, keng va ravon yo'llar ko'rgan ko'zni quvontiradi. Shu qisqa davr ichida bizning Yuqori Chirchiq deya atalmish kichkinagina tumanning o'zida faxrlansa arziydigan katta ishlar bo'ldi. Ulardan ko'ngil quvvat oladi, dillar yavraydi. Ayniqsa, so'nggi damlarda tumanimiz markazi Yangibozor qo'rg'oniga kelgan kishining o'zini ulkan bir qurilish vaxtasiga tushib qolganday his etishini zimdan kuzatgan kishining g'ururiga g'urur qo'shihi tayin. Keling, bir xush duoga qo'l ochib, niyat qilaylik, hurriyat sharofati bilan barchamizni shodliklarga burkaguvchi nurafshon tonglar bog'iy shu'la sochaversini!

TOG'LAR BALANDLIGI...

Odamning shakli-u shamoyili, bo'y-basti, ko'z qarashlari, xullas, ichki va tashqi dunyosi uning tavallud topgan, unib-o'sgan va kamolotga yetgan joyiga monand bo'ladi. Gapning qisqasi, odam o'z Vatanning bir zarrasidir. Shuning uchun ham Vatan muqaddas, Vatan buyuk, Vatan suyukdir. Ammo tog'lar balandligi bag'ridagilarga sezilmagandek, Vatan qadri ham yurtda yurganlarga ko'p bilinavermas ekan.

Vatanga muhabbat hissini odam o'zga yurtlarda yurganda yaqol sezar ekan. Axir, musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmas, deb bekorga ayitilmagan. Bunga men o'zim guvoh bo'lganimdan aytayapman. Vatandan atigi uch oy o'lislarda yurgan bo'lsam-da, jannatmakon bu go'shani bir necha kunning o'zida sog'ina boshladim. Uning iliq havosi-yu, olinga almashmaydigan tuprog'i, zamzandek zilol suvlarini odam juda tez qo'msar ekan. Birinchi ota-onamni, keyin yaqinlarimni, o'zim yugurgan o'sha tor ko'chalarni, o'qigan maktabimni, xullas, kindik qonim tomgan tuproqning hamma nurasini orziqib qo'msadm. O'sha onlarda tushundimki, Vatan bejiz onaga qiyos etilmas ekan.

Ha, odam bir dam bo'lsa-da, uning taftini his qilmay yashay olmaydi. U yerda qarindoshlarim bo'lsa-da, hech kamchiliksiz yursam-da, yosh boladek uyimni, ota-onamni, go'zal Toshkentimni sog'indim. O'zimni negadir yolg'iz qolganday, himoyasizdek seza boshladim.

O'sha uch oy men uchun uch yilga tatidi. Lekin pochchamga, opamga: «Bo'pti uch oy turmang», deb va'da berib qo'yganim sababli ixtisizlik qilolmadim. Garchi ularning e'zozida yursam ham, hech narsadan kam bo'lmasam ham, qaytadigan kun yaqinlashgan sari negadir

ichimdan quvonib, entikardim. Nihoyat o'zim
intiq kutgan kun ham keldi. Vatan sarhadiga
yaqinlashganim sari tug'ilib o'sgan yurtning
iliq tafi o'ziga yanada kuchliroq tortayotgandek
edi. O'zbekiston chegarasiga kirar ekanman,
u yerda Vatanni qo'riqlayotganlarni ko'rib,
haligina yuragimni kemirib kelayotgan qo'rquv,
himoyasizlik hissi o'z-o'zidan yo'qolgandek
bo'ldi. To'g'risi, Vatanimiz sarhadlarida kecha-yu
kunduz sergak turib, yurt tinchligini, xalq
xotiramligini ta'minlayotgan himoyachilarimizga
havasim kelib, qalbim faxrga to'ldi.

Darvoqe, o'zbek o'g'lonlarining vatanga
sodiqligiga o'z vaqtida dunyoni egallashga harakat
qilgan Chingizxon ham tan berib, lol qolgan.
Bunga misol qilib Jaloliddin Manguberdining
jasoratini faxr bilan ko'rsatish mumkin. Chunki
butun askaridan ajrab qolgan holda ham u Vatan
uchun kurashib, shahid bo'lgan. Uning jasoratiga
qoyil qolgan Chingizxon o'zining sanoqsiz
qo'shini orasida bitta bo'lsa ham shunday
askar, shunday o'g'lon bo'lishini armon qilib:
«Agar mening askarlarimda ham shunday, shu
o'zbek o'g'loniday jasorat bo'lganda edi, men
dunyoning yarmini emas, hammasini olardim»,
degan ekan. Bugungi o'zbek o'g'lonlari ham
xuddi shunday Vatanni himoya qilmoqda. Bizda
hozir kuchli armiya, zamon talablariga to'la

Javob beradigan mudofaa qudrati bor. Uning
sahnda xizmat qilayotgan bugungi Jaloliddinlar
ham Vatan uchun jonlarini fido qilishga tayyor
bo'lgan haqiqiy Vatan qo'riqchilardir. Ular bor
ekan, biz shodon kulib, ochiq osmon ostida erkin
nafas olaveramiz.

BIR SIQIM TUPROQ

*Ota-bobolarimizni eslasak, bizni
qiyib his-tuy'ular chulg'ab oladi.
Ular uzoqqa kemaganlar. Illo,
o'zimiz ham ularning qavatiga
kirgajamiz...*

*Mudom ularni yodlab turish
bizning burchimiz, ularning xotirasi
o'zimiz uchun zarur. Ullarning
qabriga tashlaganimiz — bir siqim
tuproq bizni bog'lab turgan rishta
hisoblanadi.*

Chingiz AYTAMATOV

Ayni kuz fasli. Dov-daraxtlar
yaproqlari oltin rang olib ulgurgan.
Etil junjikituvchi salqin shabadada qurigan
yaproqlar mayin shirtilagan tovush chiqaradi.
Ayrımlari bandidan chirt-chirt uzilib, shamol
loviga bo'ysungancha har tarafga uchadi-da,
ko'p olislamay, yer bag'ridan qo'nalg'a topadi.

Kechagina soyasida rohat qilib o'tirganlar uning bunday ojiz holga tushganini e'tiborga ham olmay, ularni oyoqlari bilan bosib-yanchib, tuproqqa belaydi. Ammo zarhal tus olgan tog' qo'ynidagi bu qishloq Boboquyosh ufqqa bosh qo'yayotgan damlarda juda ajoyib ko'rinsa-da, qosh qoraydi deguncha hamma suruv atrofdan ketmay, qo'y-echkilarni qo'ralarga qamash bilan andarmon bo'lib qoladi. Chunki olisdan keladigan och bo'rilar qorong'i tushishi bilan ovni boshlab yuboradi. Birgina Ko'kyol va uning jufti bu suruvlarga teginmaydi.

Soddadil tog'liklarning aytishicha, asl bo'rilar shunday bo'lishar ekan. Agar sen ularga ziyon yetkazmasang, ular o'z hududidagi podaga tish solmaydi. Bordi-yu, unga teginsang, xususan, bolasidan ayirsang borni, qo'y-qo'zi, echki-uloqlar uchun qiyomat boshlandi deyaver. Alamzada yirtqichlar kecha-yu kunduz tinchlik bermay qo'yadi. Dala-dashtda uchragan jonivorlarni ayovsiz bo'g'izlashi, qorinlarini yorib, atigi ikki-uchtasininggina yonboshini o'yib yegan bo'ladi. Shu bois bu ovul odamlari Ko'kyolga teginmasdi. Ular, aynigsa, ovchilikni otameros bilgan O'rinboy: «Keng ko'krakli, oyoqlari baquvvat, ko'rinishi siri bu jonivor bekorga bu yerdan qo'nim topmagan, biz ham «ko'k yollarmiz», deya faxrlanardi.

O'rinboy negadir ayoli olamdan o'tgandan so'ng odamlarga unchalik qo'shilmay qo'ydi. Chiqarilgan yig'inlarga ham kamdan kam boradigan bo'lib qoldi. Ehtimol, kimdir uning ko'ngliga og'ir botadigan so'z aytgandir, ehtimol... Nima bo'lganda ham buning asl sababini uning o'zidan bo'lak hech kim bilmadi. Birdan O'rinboy yolg'iz o'g'li Bo'samat bilan yarim kechada qishloqni tashlab, darveshlar yanglig' tarki dunyo qilishga tadorik ko'ra boshladi. Bundan hech kimning, hatto Mamarasul boboning ham xabari bo'lmadi. Cha-bola qo'lga ilinadigan bor budini oldi-da, aravaga yuklagancha olis safarga o'tanishdi. Ho-hoqlarga o'xshab ularning mol-dunyosi ham ko'p emasdi. O'rinboy nomi chiqqan mergan edi, oilasini shu tariqa bogardi. Minib yurgan otini ham qo'shni qishloq boyining to'yidagi merganlar bellashuvda sovringa olgan. Jonivorni oddiy ot deyish biroz o'rinsiz. U haqiqiy tulpor, ha-ha duldulning o'zi edi. Tog'da ham, dashtda ham uning oldiga biron-ta ot tusholmasdi.

Ular qishloqdan chiqib borayotib, Mamarasul boboning uyi oldiga yetganda, O'rinboy otini to'xtatmoqchi bo'ldi-yu, yana tizginni siltab, jonivorni yurishga undadi. Mamarasul boboning uyi hamma qatori pastqamgina bo'lsa-da, deyarli

tun bo'yi chiroqlari yonib turardi. Qishloqda faqat shu odamgina biroz savodli bo'lib, o'qish-yozishni bilardi. Shuning uchun doim vertolyotda kelgan rus ovchilar uning uyiga qo'nishardi. Yoshi ulug' nuroniy bo'lsa-da, u ovchilar bilan rus tilida qiyinatmay gaplasha olar, qayerlarda ov qilish kerakligini yaxshi tushuntirardi. Doim u hammaga Ko'kyolning iniga yaqin bormaslikni va unga ziyon-zahmat yetkazmaslikni qayta-qayta tayinlab uqtirardi.

Boshqa joylardan kelgan merganlar bu yerliklardan farqliroq yo'nalishda ov qilar, ba'zida qo'llaridagi kitoblarni o'qib, ovchilikning yangi usullarini qo'llab ko'rishardi. Bir safar ular ko'ch-ko'ronini yig'ishtirib ketgach, unutilb qoldirgan bir kitobni Mamarasul bobo topib olgandi. Unda ayri ovning yangicha usullari qayd etilgan bo'lib, kelgan ovchilar shulardan foydalanardi. Naqadar jirkanchli: jonivorni o'z chegarasidan haydab chiqarish, ayniqsa, bo'ri peshob qilgan joydan olingan tuproqni boshqa yo'nalish bo'yicha sepish orqali uni yo'llidan adashtirib, ajalga – pisirmaga ro'baro' qilish.

Qishloqda biror kishi olandan o'tsa, albatta, birinchi bo'lib Mamarasul bobo chaqiritirilardi. Xat-savodi bo'lgani uchun milliy urf-odatlardan ham, bog'iy qadriyatlardan ham u kishi ovuldagilarga nisbatan ko'proq bilardi.

Ikkinchi sababi esa, faqat undagina keragicha kerosin zaaxirasi bo'lardi. Unga bu yoqilg'ini rus ovchilari minnadorchilik sifatida qoldirishardi. Qo'lli ochiqlikni otasi Abdinabi mergandan meros olgan Mamarasul bobo ovuldoshlarining yaxshi-yomon kunlarida aslo hech nimani ayab o'tirmasdi. Azali uyning chirog'i qachongacha yomon-da, bepul yonilg'i yetkazib berardi. Anavaga yuklangan yuk ustida bepoyon kengliklarni kuzatgancha xayol daryosiga g'arq bo'lgan O'rinboy bularning barchasini birma-bir xayolidan o'tkazar ekan, tug'ilib-o'sgan joyi, kindik qoni tomgan ona tuprog'i bilan ich-ichidan vidolashib borardi...

– Oia, osmonga qarang, – dedi Do'smat kutilmaganda o'tradagi sukunatni buzib.

– Qaradim, xo'sh nima bo'libdi? – dedi O'rinboy beparvogina.

– Anavi yulduzlarni ko'rayapsizmi? Ular doim bizning uyimiz ustida turishardi. Endi esa, biz bilan birga ergashib kelayapti.

Bu gap O'rinboyi biroz sergak tortirdi chog'i, u osmonga uzoq tikilib qoldi. So'ng

Ular sent-deim kuzatib turishadi.

OLIV VA O'RTA MAXSUS TATLIN VAZIRLIGI
TOSHKENT PEDAGOGIKA INSTITUTI
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Biz qishlog'imizdan ketayotganimiz bilan, bu osmon ostidan chiqib keta olmaymiz.

– Siz bularni qayerdan bilasiz?

Do'smatning savoli javobsiz qoldi. O'rinboy yo'lga termulganча yana xayol ummonida suza boshladi. Balki u bolasining so'zlarini eshitmagandir, balki javob berishni istamagandir. Nima bo'lganda ham u churq etmadi. Ko'p o'tmay bola pinakka ketdi. Bu damda ular so'qmoq yo'lga tushib olishdi. O'rinboyning yuragini tirnayotgan narsa battar avj oldi. U oilasining bir a'zosi dan aytilgani uchun qishlog'ini, ona zaminini tashlab ketayotganini, endi o'ziga biroz qiyin bo'lishini ko'nglidan o'tkazib, goho nimalarnidir o'zicha g'uldurab qo'yardi. Qani edi, u hali bu yerlarning bir sigim tuprog'iga zor bo'lishini bilganda!

Olisdan olis yo'l yurgach, o'ziga tanish yerlar tugar mahalda O'rinboy o'zini batomom unutdi chog'i barcha narsani, hatto yonida uxlab yotgan o'g'lining uyg'onib ketishini ham o'ylamay: «Xayr ota yurt, xayr ona tuproq!» deya hayqirgancha ichini nimadir o'trayotgandek chuqur oh tortganda o'g'li cho'chib ketdi va:

– Ota, kinga gapirayapsiz? – dedi ajablanib.

– Hech kinga, shunchaki bu yerlar bilan xayrlashayapman-da. Xayr ota yurt, xayr ona tuproq, Xush qol, boshida boqiy oq bulut tunagan

buyuk tog'lar. Omon bo'l Ko'kyol, iloyim hech kinga ziyoning tegmasin. Xayr Sur echki, endi seni hech kim bezovta qilmaydi! Biroq sen ham hech kimni qoyalar sari boshlama, iltimos!

Ota, tushummadim, nimalar deyapsiz?

Shu yer mening va sening kindik qonimiz to'kilgan tuproq, ota-onamiz dafn etilgan joy. Ko'kyolni esa o'zing bilasan, to'g'rimi?

Ha. Biroq Sur echkini eshitmagan ekanman.

Bu tog'larning o'z Sur echkisi bor. Bu marotaba men ham ko'rganman uni. Hatto otganman ham. Ammo u joyidan ham qonitlamadi. Na yiqildi, na mendan qochdi. Men unga yaqinroq borganimda esa, u yanayam holandlab keta boshladi. Shunda otam aytib bergan Sur echki shu ekanligini angladim. U hammaga ham ko'rinarvermaydi, o'g'lim!

Otamning aytishicha: «Qadim o'tgan zamonada, ulug' tog'lar tomonda Xo'jayosh degan nomdor bir ovchi bo'lgan ekan. Uni ko'zlagan nishonidan hech adashmagan deysihadi. Yo'lida uchugan har qanday jonzotni – xoh u yirtqich, xoh bezor bir yovvoyi jonivor bo'lsin, uni qurayib yetar, baland cho'qqilarni ham zabt etar ekan. Qo'lga kiritgan o'ljasi nafāqat o'ziga, balki yaqinlaridan ham ortgan deysihadi. Shuning uchun Xo'jayosh o'ziga bino qo'yib, o'zini shu yerning darg'asidek tutar ekan. Kunlarning birida

u bir suluv qizga uylanish uchun qarindoshlarini sovg'a-salom bilan qiznikiga qulchilikka yuboribdi.

Sovchilarning ma'qul-ma'qulga kelib qaytganidan g'ururlangan mergan avvalgidan ham tez-tez ovga chiqadigan, oldidan nima uchrasa, uning qonini to'kadigan bo'libdi. Kularning birida uning qarshisidan kulrang tog'takasi chiqib qolibdi. U ovchi ta'qibidan qochib, undan qutulishga qancha urinmasin, mergan uni bir o'q bilan qulatibdi. Shunda ulardan sal narida paydo bo'lgan Sur echki tilga kirib: «Nima qilganingni bilasami, ey mergan? Biz eng oxirgi juftlik edik. Endi bo'ldi, barchasi tamom. Bizning ortimizda avlod qolmaydigan bo'ldi. Sen esa bugundan boshlab biror ovi baroridan kelmaydigan omadsiz, g'arib kimsaga aylanasan» debdi.

Echkining so'zlaridan qah-qah urgan mergan echkini mo'ljalga olib o'q uzibdi. Ammo uning biror o'qi Sur echkiga yaqinlashmabdi. Ovchining to'xtovsiz o'q uzishiga bardoshi yetmagan miltiq ham yorilib ketib, ko'z o'ngini qora tuman qoplabdi. Bir zumlik karaxtlikdan so'ng hushini yig'ib qarasa, sur echki katta xarsang ustida hamon ko'krak kerib turganmish. Bundan g'azablangan ovchi ko'zlari qonga to'lib, uni bo'g'izlab o'ldirish uchun uning ortidan quvlay

hushlabdi. Xo'jayosh echkini quvlab borar ekan ovchi kiyimlari toshlarda yirtilib ketibdi.

Echki baland qoyaga yetganda atrofini qora hush qoplabdi. Shunda mergan ajaliga oshiqib kelganiga iqror bo'libdi. Sur echki esa yana tilga kirib, ovchini qar'ay boshlagan ekan: «Mergan harbiy turib qol, cho'qqiga ilinib qurib qol. Buzg'ayib cho'plar kuz bo'lsin, tovoning tagi tuz bo'lsin. Seni axtarib kelganing, oldida to'siq zav bo'lsin. Suyaklaring yig'olmay, xalqing otdan xor bo'lsin. Tanlagan yoring Zulayho, yetilmay sening vasingga, tul qolib bir umr, ko'zlari to'la qon bo'lsin. Xayr endi merganim, jannat xudo berganim!» deganicha ko'zdan o'ayib bo'lgan ekan. Shundan beri Xo'jayoshni hech kim bu tog'larda uchratmagan deyishadi. Biroq Sur echki haligacha baland tog'lardan olib bir qo'nim topmay, o'zi uchun bexavotir joy axtarar ekan. Odam bolasini ko'rishi bilan natqatlanib, barchani xuddi Xo'jayosh singari qoyalar qa'riga chorlarnish», deya O'rinboy sur echki afsonasini nadomat bilan hikoya qildi. Do'mnat xuddi bir nimani tushunganday chuqur o'ylga bo'ldi.

Ular tong yoritishgan chog'da tug'ilib o'sgan joyini tark etib ulgurdi. Bu yog'i endi batamom hushga yerlar. Endi qayerdan qo'nim topish kerakligi to'g'risida o'ylash kerak. Albatta,

ovchi uchun tog'li joy qulay. Aksiga olib bu atrofdagilarning barchasi O'rinboyini yaxshi taniydi. Ota-bola bir emas, bir necha kun yo'l yurib, qori cho'qqilar bag'ridagi bir qishloqqa kirib borishdi. U yerdagilar bilan tanishgach, ovul qariyalarining izniga ko'ra yangicha hayot boshlashdi. Bu yerdagilar biroz qo'pol bo'lsalar-da, O'rinboyga ko'mak qo'llini cho'zishdi. Oradan unchalik ko'p vaqt o'tmasdan, O'rinboy ovuldagilar e'tiborini qozona boshladi. Axir u mohir ovchi, qo'li gul usta va polvon ham edi. Shu bois endi bu qishloqdagi nomdor ovchiyu, polvonlarning peshonalari tirisha boshladi. Ular yerning asl egalari kimlar ekanligini bildirib qo'yish uchun tinmay ovga chiqar, har gal kattakatta o'lja bilan qaytishardi. Bir safargi ovning tuzukkina janjalga aylanishiga sal qoldi.

Ovchilar qishloqdan ancha olib, baland cho'qqilar sari o'rlab borardi. Ularning ko'nglida birgina narsa, oldimizdan qanday o'lja chiqadi, degan o'y kechardi. Qalin butazor tugagach, u yog'i toshloq, ba'zi-ba'zi yerlardagina archa borligini aytmaganda cheksiz dara. Hozir yaxshi bir tozi bo'lganda bormi, atrofni bir zunda aylanib chiqardi. Huv ana olib-olibdagi xarsang ustiga qomatdor bir tog' echkisi sakrab chiqdi. Ana sizga o'lja! Ovchi uchun bundan ortig'i kerak emas.

Merganlarning qoni gupurib ketdi shekilli harakatlari tezlashdi. Jism-u tanlarida qandaydir bir g'ayratiy kuch paydo bo'lib, o'zlarini shahol bilan panaga olishdi. Ular o'ljaga yaqin qolganda birdan tog'lar uzra gumburlab, ketma-ket o'q ovozi yangradi. Ko'z ochib yunguncha mag'zur turgan tog' echkisi toshdan toshga urilib, pastga qulay boshladi. Hayron bo'lgan ovchilar bir-biriga qarab qolishdi. Kim u, qanday qilib va qayerdan oldi, deganday bir-birlariga tikilishdi.

— Ana, O'rinboy ekan, — dedi Arsen shoshib o'lja tomon borayotgan merganni ko'rsatib.

— E, ha-al! Hali u bizning o'ljani urib tushadigan bo'lib qoldimi? — deya sheriklari yuragiga o't tashladi Rustam. — Endi u bilan ochiqchasiga gaplashib olish kerak. Toki bizning yo'limizdan boshqa chiqmasin. Bu onada O'rinboy o'ljaning bo'g'ziga pichog tortib olgunchi.

— Hoy, sen kelgindi o'zingni kim deb o'ylayapsan? — dedi g'azabini yashirolmay Rustam. — Nega bizning ortimizdan ergashib yuribsan. Bir o'zing yurishdan cho'chisang, ovozda qo'shilmasmiding bizga.

— Nimalar deyapsan, Rustam? — vajohat bilan javob qaytardi O'rinboy. — Yuragim qo'rguv nimaligini bilmaydi. Men oyog-qo'li ikkiadan ortiq bo'lmasa bas, odam zotidan

cho'chimayman. Qolaversa, sening oringdan ergashganim yo'q. Bilsang, Ko'kyollar yolg'iz yuradi. Men ham...

— Sen o'z yeringda shunday bo'lgandirsan, — so'zga qo'shildi Sobit. — Bu yerlar esa bizga tegishi. Bilsang, bu joylarning har qarichi biz uchun qadri, biz uchun tanish, shuni bilib qo'y. Senga: «Mayli, oramizda yashasang, yashayver» deyishimiz, bilganingni qil deganimiz emas. Ov qilsang bizdan ortganini ovlaysan, bo'lmasa chapagingni cholib, uyingda bolangga qara.

O'rinboy hozir tortishish befoydaligini tushundi. Biroq u: «Mana, senlarga shu kerak bo'lsa, olinglar», deyigan ahmoqlardanmas. Yerlik merganlar ham anoyilardan emas. Birovning o'ljasi o'lsa ham tortib olishmaydi. Bu ovchi uchun isnod. Ular o'z o'ljasi ovlashga chiqqan, birovning nasibasini sadqaday olishga emas. Yerlik ovchilar O'rinboyga bir-bir yovqarash qilganlaridan so'ng yurib ketishdi.

Qosh qoraymasdan O'rinboy ham qishloqqa kirib keldi-yu, go'shtdan keragicha qozonga soldi. Ovul qariyalariga qo'shib o'zi darada dovlashgan ovchilarni ham ziyofatga chaqirdi. Bu murosaga kelishning eng to'g'ri yo'li edi. Chaqirganlarning deyarli barchasi kelishdi. Faqat ovchilardan darak yo'q. O'rinboy ularni

birma-bir qaytadan chaqirishga otlandi. Ularning hammasi Rustanning uyida to'planishgan ekan, u ham aynan shu yerga bordi.

— Qani yuringlar, bir-birimizdan arazlashmaylik, — dedi O'rinboy.

— Biz ovchilarmiz, arazchilar emas, — javob qildi Arsen. — Sal shoshmasang o'zimiz ham boramiz. Ha mayli, ketdik.

Barchalari birgalashib yo'lga tushishdi. Yo'l-yo'lakay ular tog'da bo'lib o'tgan voqeani qariyalar bilmay qo'ya qolishini O'rinboyga hisobotirishdi. Ovchilar yig'indan so'ng, qurol ushlaganlar bir-biriga qasdlashsa, yomon bo'lishini ham mardona yodga olishdi.

Axir inson bolasi qachongacha yer talashadi, boylik uchun bir-birini qurbon qiladi? Lekin vaqt to'xtamaydi, bir maromda olg'a intilaveradi? Hayot esa unday emas. Ba'zan olamni hadsiz quvonch qoplasa, ba'zan ayovsiz qon to'kyladi. Xudbi O'zi insoniyat uchun g'am-g'ussa bilan ahod-u xurramlik orasini bir qadam qilib qo'yganday. Nahot bu davom etaveradi? Bugun sen kuchlisan, ertaga esa sendan kuchlirog'i paydo bo'ladi va seni bosh egishga majbur qiladi. O'z yeringdan haydab chiqaradi yoki o'zing tushlab ketasan. Bu ketma-ketlikning nihoyasi bormi? O'rinboy bahorga borib bunday o'zaki savollarga javob topolmay karaxt

bo'lishini bilmasdi. Ayni Navro'zdek, ulusning ulug' kunida uni yoqtirmaydigan odamlar uning gilamga chiqib, shu yerlik polvonlar bilan kuch sinashishini, kurashda yutisa, ovulda yashab qolishi, yutqazsa – bu yerlardan ketishi kerakligini shart qilib qo'yishi kimning xayoliga kelibdi.

O'sha kuni ovul odamlari bor topganini o'rtaga qo'yishdi. Milliy o'yinlar ayjida. Bir tarafda yosh bolalar oshiq otisha, bir tarafda polvonlar kurash tushardi. Sal narida esa odamlar otlarini poygaga hozirlardi. O'tirganlar davraga chiqqan har bir polvonga kuch-quvvat bag'ishlash uchun qiy-chuv ko'tarib, polvonlarni qo'llashardi.

«Qani endi O'rinboy, sen ham o'zingni ko'rsat. Senga shuncha mahal birov bir narsa degani yo'q. Endi sen ham o'zingni shu yerda yashashga loyqligingni isbotlashing kerak», deya bir guruh o'tirganlar undan kurashga tushishni so'radi. Shart shunday: «Yusang shu yerda yashaysan, bo'lmasa...» So'z o'qdan ham yomon, deganlari rost ekan. O'rinboyning ichidan nimadir chirt etib uzilganday bo'lib, butun vujudini alam o'radi. Kutilmagan gap yuragini qo'rdek kuyirdi chog'i, u shahd bilan davraga chiqdi. Qarshisida qomator alp polvon. Uni yiqitish qiyinligini o'tirganlar yaxshi bilardi.

Kurash boshlandi, biri biridan mohir polvonlar uzoq olishishdi. Shu orada nima bo'ldi-yu, O'rinboyning tizzalari qaltirab, madori qocha boshladi. Biroq, u buni raqibga sezdimaslikka intildi. Kutilmaganda «Ota», degan bo'g'i ovoz eshitildi. Bu O'rinboyning o'g'li Do'smat edi. Butun vujudi madorsizlanib borayotgan polvon bu shiq hayqiriqdan tengsiz kuch oldi. Nima bo'ldi, qanday qilib shunday alp polvon yiqildi, o'tirganlar buni anglolmay qoldi. O'rinboy shu ovulda yashash imkoniyatini yutib oldi. Ammo boyagi davradagilar: «Mayli, sen bizning ovulga a'zo bo'lishga loyiq ekanligingni isbotlading, o'g'ling-chi? U ham o'zini ko'rsatsin», deyishdi. Aytoldi: «Axir u hali bo'g'ini qotmagan bola bo'lsa, qo'ldan nima ham keladi», degan norozi hayqiriqlar yangradi. Qariyalar ham shunday degandek, bosh chayqashdi. Biroq Do'smatning ot minishini yaxshi bilgan boyagi davradagilar oti: «Poygada g'olib bo'lsa, otasi bilan shu yerda qoladi, bo'lmasa...» deya turib olishdi.

Illohqa chora yo'qligini anglagan O'rinboy otiga sakrab mindi-da, jonivorning soniga achchiq-achchiq gamchi tortib, boshini soy tomoniga burdi. O'tirganlar hayron, u nega lom-mim demay uyogga ketayapti? Sababi hech kimga ayon emasdi. Ko'zlari alam yoshiga to'lgan polvon oti shunday savalab borardiki, ot

keragidan ortiq tezlikda soy tomon sho'ng'irli. Ko'zdan panaroq joyga o'tgach, u otdan sakrab tushdi. Jonivorning boshini quchoqlagancha manglayidan suyib, yollarini siliadi. Ayrimlardan o'lsayotgan oqibati odamdan emas, ongsiz, zabonsiz oldan axtarib, pichirlay boshadi: «Endi bor umidim sendan, jonivorim. Bo'g'ini bo'sh qarg'aday bolani senga, seni esa O'ziga topshirmoqchiman, tulporim. Meni maskara qilma, qanoim...» deya pichirlab yolvora ketdi. Qattiq pishqirib olgan ot esa, O'rinboxning yengil silkinayotgan yelkasini asta-asta qintilab, bardam bo'l degandek yuzidan ishashga tushdi. Bundan O'rinboxning ko'ngli to'ldi chog'i, yana egarga o'tirib, o'ni o'tovlar tarafga burdida, sag'rasiga asta qamchi urdi. Ana endi o'ning yugurishini ko'ring. Hamma sabrsizlik bilan poyga boshlanishini kutishmoqda.

Nihoyat otlarni bir qator qilib safga tizishdi. Do'smat ham ot tizginini dadil tutib turardi. O'tirganlar qiy-chuv solishar, bu nafaqat chavandozlarga, balki otlarga ham o'zgacha kuch bag'ishlardi. Bosh hakam qo'lidagi baliqning ko'zidek yaltiragan piston bilan o'qlangan to'pponchadan «tars» degan tovush chiqarishi bilan, otlar chang-to'zon ko'tarib olg'a intilishdi. Chavandozlar olga ustma-ust qamchi tortib, uzangi bilan jonivorlar biqinini

ayovsiz ura boshladilar. Oldinda qaysi biri ketdi, ham hech kim payqamay qoldi. Olomonning tushishi bo'lgan sari avj oldi. Yosh bolalar tepalik tomon yugurishdi. U yerdan otlar aniqroq ko'rinardi. O'rinboxning yuragi bugun ilk bor qo'rqovul his qildi. Uning a'zoyi badanini ter hisab, sho'rlik bir poygachi otlar to'dasiga, bir ommonga qurardi. Bundan uning Yaratgandan o'tirib illojo qilayotganini, o'jiz va hokisor bolasi janni O'ziga saqlashga qodirligini va albatta tulporini ham tuyodan toydirmaslikni so'rab talvonayotganini anglash qiyin emasdi. Poygachi otlar marta sari toborra yaqinlashib kelishardi. Faqat birgina ot to'dadan ancha o'zib ketgandi. «Ana, kelishayapti», degan hayqiriqlar eshitila boshladi. Birdan kimdir: «Oldindagi o'ning ustida odam yo'q. Egasiz ot kelayapti», — deganda O'rinboxning sochlari tikka turib ketdi. U bir qamachda o'z olini tanidi-yu, beixiyor: «Do'smat qayerda yiqildi», «Qaysi o'ning oyoqlari ostida qoldi», degan xayollar iskanjasida qoldi...

Vodanig', nega biz shundaymiz? Nima uchun faqat kuchliharigina yashashi kerak? Qachongacha yer talashamiz? Ey, odam bolasi ota-onang, qizindoshlaring qayon ketganini nega fikr qilmaysan? Bir kun o'sha cho'bin ot senga ham yetadi va sen ham tuproq bilan qorishib yo'q bo'laman. Vaqt esa yeldak o'taveradi. Shunga

o'xshash og'riqli savollar-u, achchiq javoblar O'rinboyning qalbini o'rtab turgan danda odamlar: «O'tangga balli, Do'smat birinchi keldi, u g'olib bo'ldi» deya baqirishganda O'rinboy o'zini batamom yo'qotdi va yugurib kelayotgan otlar tomon otildi. Chindan ham Do'smat mingan tulpor oldiga ot tushirmay marrani birinchi kesib o'tdi. Va u ham g'olib bo'lib, ota-bola shu yerda umr kechira boshladi. Oradan qancha vaqt o'tdi, buni ular payqamay ham qolishdi.

Yillar o'z hukmini o'tkazib, O'rinboy qarib chol bo'ldi. Endi uning yuragida tug'ilgan tuproqqa bo'lgan tashnalik orta boshladi. Aniqrog'i u umri tugab borayotganini angladi. O'zi yer tishlatgan jonivorlar endi uning tushlariga kirib, doim uni quvlaydigan bo'lib qoldi.

– Mening safarim qaridi, – dedi O'rinboy kunlarning birida ulg'ayib qolgan o'g'liga. – Vafotimdan keyin o'zim tug'ilgan qishoqqa bor, u yerliklarga otashin salomimni yetkaz. Mening vafotimni ayt va qaytar chog'ingda o'sha yerning bir siqim tuprog'idan olib kelib, qabrim ustiga soch. Men ham ona tuproq taftini his qilib yotay, rishtalarni uzma. Bu O'rinboyning so'nggi vasiyati bo'ldi.

Odamzod o'zi azaldan shunday. «Mayli» deydi, ammo ko'p narsani bajaravermaydi. O'zi o'sha ahvolga tushgandagina o'ziga aytilgan

nasroniylar maqaddar muhimligini anglaydi. Agar shunga aqli yetlsa. Do'smat ham otasining so'ziga vasiyatini o'zi qarigan chog'da tushunib qoldi va uni ado etish ilinjida o'g'lini yoniga olib, tug'ilgan yurtiga yo'l oldi. Odam odamni kechirishi mumkin, biroq vaqt qo'ldan ketgan narsani qaytarmaydi. Bu hayot qonuni.

Do'smat tug'ilgan joyiga yetib, kindik qoni timgan tuproq taftini tuyganda birdan qalbi aylanib ketib bo'lib keldi. Yuragi ham gursillab, g'ajrabah uyra boshladi. Ayniqsa, u kuchli yur ko'chkisidan cho'chib, yurtdoshlarining avvaligidan ancha pastda – yangi manzilda tashayotganidan xabar topganida ko'z oldi tinib, kamsiz yiqildi. Uning bandalikni bevaqt bajo ko'rganini bois otasi O'rinboyning qabri hanuz bir siqim tuproqqa tashna holda, Vatan taftiga mushoq mung'aygancha abgor qoldi...

SADOQAT HAYKALI

 abtiga mingan qishning izg'irini kunlari tog'li qishloq ahliga o'z hushini o'tkaza boshlagan. Hamma uy-uyida. Hush qalin qor ostida. Faqat pastqam-pastqam inonlar o'rtasidagi yolg'izoyoq yo'llariga hush. Qor uyunlari bilan bezangan uylarning eshiklari oddiy, qo'lbola qilib yasalgan. Oshiq-

moshiqlari undan-da, g'aroyib. Turdibekning hovlisi qish davomida kuralmaydi. Shundan u qor kurayotgan qo'shnilariga: «Qordan tog' yasayapsanlarni?» deya kulib qo'yadi. Egasi erta turib eshik-eligini supurib-sidirgan, qorini kurab, yo'lini ochgan xonadonga farishta qo'nishini, fayz-baraka inishini xayoliga ham keltirmaydi, u. Aksincha, choshgohda arang uyqudan turadi. Uydin uncha olis bo'lmagan chag'ir toshli tog'ning u yon, bu yonida ov qilgan bo'ladi. O'tgan kakliklari bir-ikki juft bo'lib qolsa, «qizil tumshuq»ning semizlaridan bor, deb ularni sotguncha oshiqadi. Ammo bunday tabii bezaklariga doim tajovuz qilishning ertami-kechmi so'rovi borligini o'ylab ham o'tirmaydi.

Nozik qo'llari bilan kurakni mahkam tutgan Faridaning mana shunday – uyi zindon, ko'chasi xandon erkaklarni ko'rgani ko'zi yo'q. Ayniqsa, ularning uzzukun o'zlarini kunga toblab, qarta o'ynashdan bosh ko'tarmay o'tirishlari ko'nglini o'qchitadi, uning. Bunday o'lganning o'rog'ini, ketganning ketmonini «chopib» o'tiradiganlarni ko'rganda fig'onli falakka chiqib, qaynonasi bot-bot hangom qilib beradigan voqeani beixtiyor yodga olaveradi. Haqiqatan, voqea qahramoni Siddiq bobo eslashga loyiq odam bo'lib, juda oriyatli inson bo'lgan ekan. Shundan qaynonasi uning

nomini har safar faxr bilan tilga olardi, garchi u o'z ayolining qotili bo'lsa-da...

Yigirmanchi asrning 37-yillarida qora tomonga qorni to'q oilalarga soya tashlagan so'qir atiyani bizzning xonadoni ham iskanjasidan xoli qoldirmadi, – deya chuqur so'lish olib, hikoya qilardi Faridaning qaynonasi, rahmatli Sora ona. Odam oltin-kumush ishlatadigan nomi chiqqan zarigar bo'lganidan, o'shanda Sibirga atiygan bo'lish xavfi tug'ildi. Darhol ko'ch-ko'chimizni ot-eshakka yuklab, tog' tomonga o'shadi. Bir kecha Qumbelda tunab, ertasiga birdek ota soyida yashaydigan qirg'izlar orasidan jamoat topildi. Chor atrofi tog'lardan tarkib topgan qadimgi uyasi day joy ekan. Suvi zilol, ammo sochlovchi daryoning ikki tarafidagi chog'roq chog'roq tekisliklarda joylashgan xonadonlar sochlovchining bag'rikengligidan til topishimiz hech qiyin bo'lmadi. Tez orada o'zimiz bungi o'g'il-qizlar bilan o'rtoq-o'rtoq bo'lib ketdik.

Biz joylashgan uy kungay tarafda edi. Qarshi tomondagi so'qmoq yo'ldan xo'jalik g'allasini o'rtaqqa boradigan ayollar eshaklarga minib, tomondak tizilib o'tishardi. Har kuni har xil bo'ylak kiyadigan bir kekin tinmay qah-qah o'tib kuldi, hali u, hali bu eshakdagi o'rta yoshlilar o'rtiga sakrab minib, sakrab tushib yurardi.

Kunlarning birida haligi kelinni «eri pichoqlab qo'yibdi», degan shum xabar targaldi.

Taqdir taqozosi bilan o'zim turmush qurgach bilsam, o'sha qo'lini qonga belagan zot qaynotamning tog'asi Siddiq bobo ekan. Aytishlaricha, u kishi mehnatkash inson bo'lib, bot-bot ovga ham borib turgan. O'lja ham qo'radagi qo'y emaski, argonidan tutib kelaveradigan. Agar ov baroridan kelmasa, hafta-o'n kunlab qolib ketishgan ovchilar. Jumladan, Siddiq boboda ham bunday chog'lar ko'p bo'lgan. Bundan foydalangan kelin xiyonatga yuz tutib, og'izga tushgan. Eri ogohilka chaqirsa-da, qaytmagan bu yo'ldan. Oqibatda Siddiq bobo qaynag'asiga yuragini «yoradi».

— El og'ziga elak tutib bo'lmaydi uka, — deydi qaynag'asi unga. — Xiyonat ustida tutib olmadingmi, demak, sening gaping tuhmat.

— Sizga dalil kerak bo'lsa, tutish qiyin emas, — Aybini bo'yniga qo'y, jazosini men beraman.

Bunday munosabat Siddiq boboning oriyatiga tegib, g'azabini qo'zg'atadi. Uning niyati buzilib, o'sha kuniyoq ayoliga ovga bormoqchiligini aytadi. Kutilmagan imkoniyatdan quvongan ayol eriga bir haftaga yetgudek yegulik hozirlab, kuzatib qoladi. Lekin eri quyosh yotog'iga bosh qo'yib, borliqqa tun pardasi tortilgach, ovulga

qotibdi. Tomoqgasining etagidagi ulkan yong'och daraxtiga chiqib, ovchilarga xos sinchkovlik bilan atrofini kuzata boshlaydi. Yer o'choqdagi past olovda biqir-biqir qaynayotgan qozondan haralayotgan yuqimli ifor kishi dimog'ini qutqalaydi. Lekin uni suzib, tanovul qilishga shaholatayotgan kimsa ko'rinmaydi. Tomi tuproq bilan yopilib, ustidan sersomon loysuvuq qilingan xarvon ustidagi kulbaning qibla tarafidagi cho'g'roq hujrasida kerosinli chiroqni yondirgan azot negadir uni ko'tarib, hujrani asta aylanib chiqqanida, so'ng kulba darchasi oldiga keltirib qo'yadi. Chiroq shu'lasida aniq tanidi, u o'z becharasi, Qayin-qayinsingillarini chaqirmagan, uyda yolg'iz o'zi. Demak, kutayotgan arzandasi bahonmay kelib qoladi.

Siddiq boboning bashorati to'g'ri chiqadi. U yonib, oyoq osti bosilar chog'da itlar soy to'rtalga qarab hura boshladi. Ko'p o'tmay chirigi yotib qolgan yog'och qo'ra sirtida qandaydir odam sharpasi ko'zga chalinadi. Xuddi o'g'ri mushukday yerga biqinib borayotgan hamabatladi «mechmon» kulba muyulishidagi g'ov oldida bir zum to'xtab, atrofga alanglab qoladi. Kulbaning ikki hujrasini tutashituvchi darcha eshigi qiya ochilib, qandaydir ishora berilgan chog'i, haligi sharpa misli qirg'iydan qochgan quyonday o'zini ichkariga uradi.

Nazir ko'sa bilan o'z ayolining bu qilmishidan zardasi qaynagan merganni birdan titroq bosadi. No'xatdaygina qo'rg'oshin bilan ularning har ikkisini ham yer tishlatish niyatida qo'ynidagi miltiqni qo'lga olib, qo'ndog'ini yelkasiga mahkam tiragancha yuziga tutadi. Qozondagi taomni suzib, dasturxonga qo'yayotgan juvoni jazmani bilan tutash holda qorovulga qo'ndiradi, ammo tepkini tortmaydi. Shaytonga erk bermay, yana o'zini bosadi. Agar ularni shu yerda, bir o'q bilan o'tib tashlasa, haqiqiy qotilga aylanishini anglaydi.

Axir singlisini tartibga chaqiradimi degan ilinj bilan qaynag'asiga yuragini «yorand» tayyor tulumatchiga aylanganini u unutmigicha yo'q hali. O'shanda qaynag'asi isbot talab qilgandi, mana unga isbot. Jur'ati yetsa, kelib ko'rsin, o'zi. Qani, endi nima der ekan? Miyasida g'ujg'on urgan o'y-fikrlar adog'iga yetolmay halak bo'lgan yigit qaynag'asining oldiga qanday bordi, uni qanday boshlab keldi bilmaydi. Ular kelganda chirog'i o'chiq hujradan gungur-gungur ovoz eshitilgan, xolos.

— Sog'indim, jonim!

— Men ham...

Hujradagi «sirli» subbat, qiqir-qiqir kulgi va holsiz entikish kabi g'ayritabiiy holatlarni tinglashga ortiq bardoshi yetmagan qaynag'a

komatiga o'tib olgan pichog'ini qinidan sug'urib chiqib: «Mana pichog, tinchit bu megajimi. Inoqim men beraman!»

Ko'kalga bolta urilgan yarador sherday shaharidagi yigit bu gapni eshitib-eshimay, o'zini oshqoraga otadi. Uning avzoyidan qo'rqgan juvon o'zining boricha chinqiradi: «Nazir a-k-a! Endi nima qilaman? Anavi cho'chqa kelib qoldi!»

«Anavi cho'chqa kelib qoldi». Bu gapdan hushini yo'qalayozgan er xiyonakor ayolning to'zalgan uzun sochlaridan tutgancha bir siltab zarfa yotqizadi-da, bo'g'ziga... So'ng qon ichagan sherday titrab-qaqshagan holdagi o'kkir ingichkori bilan atrofdan Nazir ko'sani axtaradi. Uning oldi-ortiga qaramay yog'och qo'radan sakrab o'tib, soy tomonga qochayotganini ko'rganach, izidan dovulday ergashadi. Uni ham do'zordan o'tgan joyda tutib yiqitgach... Negadir pichog kesmaydi. G'azabdan hansiragan holda, qotir qaynab yana tortadi pichogini, kesmaydi. Ekan pichog qo'lga teskari tushib qolgan bo'lsa! «A-a-h!» deya uni o'nglab, arslonday boqarib qayta tortaman deganda tasodifan keib qolgan G'ani sher ota: «Ko'zingga bir nima ko'rindimi, Siddiq? Bu nimasi?!» deb uning labidan ushlab, bor kuchi bilan ortga siltaydi. Forsatdan foydalangan ko'sa avval o'rnatilgan, keyin o'rindan turib qochadi.

El og'ziga elak tutib bo'lmas deganlaridek, o'sha zahotiyoq bu mash'um xabar ayrondek uyib yotgan tog'li ovul ahlining kattasidan kichigigacha yetib boradi. Ullarning ulug'lar darhol qonga belangan kulbaga to'planishadi. Hamma bexosiyatlar dastidan qotilga aylangan Siddiq boboga achinish bilan qaraydi va nihoyat

– Bo'lar ish bo'ldi, endi Siddiqni nima qilamiz? – deydi Bo'ta polvon.

– Nima ham qilardik, «javobini men beraman» deb buyuribdi qaynag'asi, – deydi yana kimdir.

– Yo'q, – deydi shunda mulla Almat salmoqdor ohangda. – Uning aka-ukalari xun so'ramagani bilan hukumat da'vo qo'zg'aydi. Demak, vaqtincha bo'lsa ham Siddiq o'zini panaga olishi shart. U ketgin endi, bu yerlardan.

Bu gap ko'pchilikka ma'qul tushadi. Tong otnasdan Siddiq bobo kindik qoni tomtan ona tuprog'ini, tol novdasini toy qilib chopgan ko'chalarni, qardron yurtini tashlab yo'lga tushadi. Esini taniganidan yelkasidan miltiq tushmagan merganning ilk yuz burgan tarati yana serviqor cho'qqilar bo'ladi. Bot-bot boshida bulutlar tunagan, yoz chillasida ham goh-goh oppoq qordan salta o'ragan Choqol tog' tizmalari manglayidan suyib bosh ko'taradigan Boboquyosh borliqni nurga chulg'agan tobdan,

keg va yom-yashil Muzbel davonining chor-chor katdek ko'rinadigan joyiga yetgan Siddiq bobo ot-f-to deguncha, yer bag'irlab yotadi. Yom-yotgan qalbi taftiga «qovurilgan» yuragini dastur qo'ngan maysa ustida hovridan tashlab, so'ng chalganchsiga ag'darilib, sarbasta moviy osmonga termuladi. Biroz yolg'och, qaddini ko'tarib, qo'llarini tizzalariga qo'ygan atrofga qaraydi. O'zi yurgan, ov qilgan joylarni jo'shqin mehr bilan birma-bir kuzata boshlaydi. Har bir o'nqir-cho'nqiri, dov-donari tash va qadri bo'lib ketgan joylarni ko'rib, o'lgan kunlarini eslaydi. Nigohlari Qiziljar oltinligi keng daraga tushganda, bundan atigi iki yil avvalgi bo'rilar to'dasiga sardorlik qilib boshlagan Ko'kyo'lining murosasiz olishuvini ko'rib, vujud allanechuk bo'lib ketadi.

Bu tog'-u toshlar ham, yer bag'irlab o'sgan bulutlar ham qishki uyquda edi o'shanda. Kimsaldek tovlanib yotgan qalin qorni kechib ketayotgan to'da boshi ortidagi bo'rilar bir mironunda yo'rtib borardi. Ular izidan soyaday sig'ayib kelayotgani esa, o'zini to'daga adalatmaslik uchun goh pisib yotisa, goh ularga yolg'ochlash ilinjida gulochkashlab chopardi.

Hu'udagi do'ppidekkina butazorga yolg'ochlaganda bo'rilar sardori birdan o'zini panaga olib, bo'yini qorachakak orasiga yashirdi.

Uning ortidan tizilgan bo'ri va bo'rivachalar ham bir zunda atrofga targalishib, qor qo'yulga singib ketgandek bo'lishdi. Asta-sekin yor bag'irlab, ular butazorni qiblaga qarshi tarafidan qurshovga ola boshladi. Qalin do'lana va gayinlar orasidan hurkib chiqqan tog' echklari jon holatda o'zlarini soyga otishdi. Butazor etagiga yetib qolgan Ko'kyol ulardan bir emma, ikkitasini qanday qilib bo'g'izlab uloqtirganini merganining ko'zi ilg'amadi ham.

To'dadagi eng yosh urg'ochi bo'ri emma, hamma ovga chog'langan dandan foydalanib, orda qoldi. Izidan kelgan sayoq bilan avval nari-beri yugurib, so'ng qorda ag'anab o'yinay boshladi. O'rtasidan bir-ikki lugmani chaynab ham o'tirmay suyagi bilan qo'shib yutgan to'da boshlig'i birdan kelgan iziga qaytdi. Jilg'a ortidagi yoziqqa chiqdi-yu, vajohat bilan sayoq bo'riga tashlandi. Uning avzoyidan cho'chigan urg'ochi bo'ri jon-jahdi bilan to'da tomonga chopdi. Ko'kyol birinchi urinishdayoq daydining bo'g'izidan oldi. Hali u, hali bu tarafga bulg'alab, uzoq ushladi. Avvaliga oyoqlari bilan Ko'kyolning yuz-ko'zlarini timdalab, qutulishga uringan sayoq hash-pash demay jimib qoldi.

Agar bilsangiz, asl bo'rilar o'zidan tug'ilgan urg'ochilarga yaqinlashmaydi. Ayni chog'da duch kelgan qalang'i-qasang'ilarning to'daga

qutqalishiga ham yo'l bermaydi. Shu boisdan sayoq tinchib, to'daga qaytgan Ko'kyol hurkib yosh bo'riga bir-ikki yovqarash qildi, ammo tegmadi.

Eh-h, men notovon, o'sha Ko'kyolchalik ham bo'lmadim-a! Qo'lumni badnafs ko'saning qoniga qirib o'rtinga, ojiza ayolga urib bulg'adim. Hancha u xiyonatga yuz tutgan bo'lsa-da, hech ayol edi. Yo'q, men uni yo'qotganimga ashinaymen. Ammo anavi iliqqan ko'ppakning qonini qolgan a'zoyi badanini larzaga soladi. U bo'lmagan xomkalla. Avval nega uni gum qiladim-a?!

Har kuni uydan chiqib, dalaga yetguncha shu tog'larni tomosha qilib boraman. To'g'ri, hozir u go'zallik bahordagidek emas. Yozi chilla jazirasidan keyin o't-o'lanlar sarg'ayib, dala-dashtlar za'faron tusga kirgan. Ammo har doimgidek mening ko'zlarim tog'ning baland cho'qqilarida. Qo'limdagi chilivirni onda-sonda yengil siltab qo'yaman, shunda otning yurishi jonlanadi, biroq xayolim tamoman boshqa joylarda. Qariyalarning kechagi iftorikdagi gap-so'zlari xayolimdan ketmagan hali. Ulardan biri: «Har bir musulmonning ro'za tutishi shart» desa, ikkinchisi: «Tutmaganlar Yaratganining oldida javob beradi, hali» deydi. Qolganlari ham so'z «tulporini» kelgan joyidan «savashmoqda», Salimboy chaqon juda tez-da, gap kelganda yosh-qari, deb o'tirmaydi. Shundan uning ismiga hamma «chaqon» sifatini qo'shib atashadi.

— Nima biz shunda...? — dedi, u biroz tutoqib, — Sizga birov shundaysiz dedimi? — ajablangandek bo'lib, sergak tordidi domla.

— Sizlarning vazifangiz nima o'zi?

— Bolam sen qizishma, gapni to'g'ri tushun, — deya subhatga ovulning eng yoshi ulug', obro'li qariyasi Yoqub bobo aralashdi. — To'g'ri, domlaniz yoshlik qilib, gapni ko'ngiliga tegadigan ohangda aytib yubordi. Bunga xafa bo'lmaysanlar. Beayb Parvardigor, axir. Bor gap,

ro'za tutishning savobi katta, buni barchangiz yaxshi bilasiz. Ammo ertalabdan kechgacha dalada, quyoshning otashdek nurlari tagida ishlab, jismoniy harakat qiladiganlarni ham tushunish kerak. Kimdir ektigan ekinlarni qarashi, parvarish qilishi lozim, axir. Agar bu ishlar o'z holiga tashlab qo'yilsa, natijasi nima bo'ladi? Hosil bo'y beriladi, daromad yo'qoladi. Qarabsizki, yetishmovchilik, yupunlik kelib chiqadi. Gapni ochig'ini aytak, yil davomida kallasiga kelgan ishni qilib yurib, bir oy ro'za tutgan bilan odam poklanib qolmaydi. Avvalo, odamning ko'ngli toza bo'lmog'i zarur. Shunda uning ishida ham, kasbi-kori-yu, dehqonchilik yo chorvachiligida ham baraka bo'ladi. Agar tiling kalimadan tushmay, boshingni ming sajdaga ursang-u, qalbingda birovga nisbatan g'araz g'ujg'on urib yotsa, so'zsiz jahannam domida qolasan. Rivojat qilishlaricha, qadim zamonda bir tijoratchi yigit qilayotgan harakatining mazmun-mohiyatini tushunib-tushunmay ibodatga yuz burib, muallavachchalarga ergashibdi. Ammo tursa ham, o'tirsa ham mo'may daromad ilinjida birni ikkiga pullashni kanda qilmabdi. Rizq-nasibasini yerdan undirishga bel bog'lagan uning yana bir tengdoshi esa, goh namozni vaqtida o'qishga ulguribdi, goh qazosini yig'ibdi. Lekin topganidan zakot berib, hosildan ushr chiqarishni unutmad.

Kunlarning birida Xizr bobo taqvodor yigitga ro'baro kelib so'rabdi: «Qo'lindagi mana bu uzukdan yetaklab kelayotgan tuyam sig'adimi?» Shunda u: «Ey ahmoq chol, shunday katta tuyaga qanday qilib o'zining ko'zidan ham kichik uzukka sig'ishi mumkin?» deya javob beribdi. Xizir bobo yerdan bosh ko'tarmay ketmon chopayotgan boyagi dehqon yigitga ham shu savolni beribdi. U esa: «Ey bobo, bir tomchi suvdan bizni yaratgan Alloh shu teshikdan tuyani sig'dira olmaydi deysizmi? Agar xudo shuni xohlasa sig'adi», degan ekan qat'iy ishonch bilan. Vaqt yetib, taqvodor tijoratchi omonatini topshiribdi. Ko'p o'tmay dehqon ham olamdan o'tibdi. Taqvodor qarasa, dehqon jamatda yuribdi. «Nega bunday bo'ldi? Axir men Alloh nomini tildan qo'ymay toat-ibodat qildim. U ahyon-ahyonda bir-bir masjidga borardi. Xo'sh, nega bunday bo'ldi?» degan savollarga javob topolmay lol bo'libdi. Shunda boyagi uzukning ko'zidan tuyaga sig'adimi, deb so'ragan chol paydo bo'lib: «Sen taqat tilingda Yaratuvchi nomini ulug'larding. Botiningda esa tamoman boshqa dunyoda eding. U qalbi to'la ishonch bilan Yaratganga sig'inardi», deya sababini tushuntirgan ekan. Demak, kishining doim dili pok bo'lishi kerak. Birovga yomonlik istamagan odamni Egam albat, oxirida yorlaqaydi.

O'tirganlarning nigohi Salimboyga qadaldi. Haligina rani in qurgan qiyofada g'oliblik ifodasi zohir. Buni zimdan kuzatib o'tirgan Obid bobo ham asla tomoq qirib oldi-da, so'z boshladi.

– E-e jigarlarim, qadimgi rivoyalarda ma'no ko'p, falsafa chuqur, – dedi bobo ko'ksini bezab turgan uzun sogolini selkillatib gapirar ekan. – Eshitgan yoki o'qigan bo'lsalaring, men aytib bermogchi bo'lgan bu hikoyani Abu Hurayra (radiyallohu anhu) Payg'ambarimiz (a.s.) nomidan bunday hikoya qilgan ekan: «Rasuli Akram (sallallohu alayhivasallam) sahobalariga debdilar: «Sizdan avvalgi ummatlardan uch kimsaning, ya'ni abras, kal va ko'r bo'lganlari ahvolidan xabar beray. Alloh taolo imtihon qilish uchun ularning oldiga bir malakni yuboribdi. Malak oldin badaniga oq tushgan – abras kasalligiga mubtalo bo'lganning oldiga boribdi va:

– Dunyoda eng yaxshi ko'rganing nima? – deb so'rabdi.

– Tanam go'zal, chiroyli va silliq bo'lib, odamlar meni ko'rganda xursand bo'ladigan husn sohibi bo'lishni yaxshi ko'raman. Eng xohlagan narsam shu, – dedi u odam.

Malak, abras kasalligiga mubtalo bo'lgan odam badanini silab, uni go'zal bir vujud sohibi qilib qo'ydi va yana so'radi:

– Endi senga davlat beraman. Qanday molni yaxshi ko'arding?

– Men tuyani juda yaxshi ko'raman, – dedi abras.

Abrasga o'n oylik urg'ochi bir tuya berildi, Malak: «Bu tuyani Alloh sen uchun barakali qilsin», deya duo qildi-da, kal bo'lib qolgan odam oldiga borib:

– Dunyoda eng yaxshi ko'rganing nima? – dedi.

– Eng yaxshi ko'rganim chiroyli sochli bo'lish. Kallikdan qutulish uchun hech narsamni ayamadim, – dedi kal.

Malak uni ham tuzatdi, u kallikdan qutuldi. Boshidan chiroyli soch o'sib chiqdi. So'ng Malak undan ham:

– Hozir senga davlat, boylik beraman, nimani xohlaysan? – deb so'radi.

– Sigirni juda yaxshi ko'raman, bir sigirim bo'lishini xohlayman, – dedi kal.

Unga bir sigir berildi. Malak:

– Bu sigirni Alloh sen uchun barakali qilsin, – deb, kal bilan ham xayrlashib, ko'rning oldiga bordi.

– Dunyoda eng yaxshi ko'rganing nima? – deb so'radi Malak undan ham.

– Eng katta orzuyim ko'zlarimning ko'rishidir, – dedi u.

Malak uni ham davoladi, ko'zlari ochildi.

Keyin undan:

– Senga boylik beraman, nimani yaxshi ko'rasan? – deb so'rabdi.

– Eng yaxshi ko'rganim qo'ydir. Qo'y suruvlarim bo'lishini istardim, – dedi ko'r.

Ko'rga bir bosh sovliq berildi. Tuya bo'taloq, sigir buzoq tug'ib berdi, qo'y esa qo'ziladi. Oradan vaqt o'tishi bilan ular shunchalik boyib ketdilar,ki, uchalasi ham bittadan vodiya egalik qilib, hammasi o'z chorvasi bilan andarmon bo'ldi. Keyin malak yana yerga tushib, ilgari badaniga oq tushgan odam oldiga abras qiyofasida keldi va:

– Ey, badavlat inson! Men bir g'arib musofirman. Ko'p yo'l yurib charchadim. Menga Alloh rizoligi uchun bir tuya ber, manzilimga yetib olay, – dedi.

– Beradigan narsam yo'q, hamma narsani berib bo'lganman, – dedi u.

– Men seni taniydiganga o'xshayman. Sen hamma hazar qiladigan, odamlar irganadigan abras emasman? Sen juda kambag'al eding. Alloh senga urg'ochi tuya berib, badavlat qilmadimi? – dedi.

– Yo'q, men u odam emasman. Bu mol menga otandan, bobomdan qolgan, – dedi ilgari abras.

– Agar yolg'on so'zlasang, Alloh seni avvalgi holingga qaytarsin, – deb undan nari ketdi malak.

Keyin kal odam suratida kaling oldiga bordi. Abrasga aylagan so'zlarni unga ham aytdi, yordam so'radi. Kal ham o'shanday javob berdi. Malak kalga: «Agar yolg'on gapirsang, Alloh seni avvalgi holingga qaytarsin», deb ko'ring oldiga bordi va:

– Men faqir, yo'qsi bir ko'r odamman, yo'lda qoldim. Yurimga qaytishga imkonim qolmadi. Menga Alloh rizosi uchun yordam ber, – dedi.

– Ey g'arib yo'lehi! Men ham avval sen kabi ko'r edim. Alloh ko'zlarimni ravshan qildi, bu yorug' olamni ko'rdim. Men juda faqir edim, menga bir qo'y berdi, undan davlat orttirdim, baraka topdim. Hozir ko'rib turganing – suruvlarning hammasini menga u berdi. Uning uchun istaganingcha qo'y olishing mumkin. Alloh uchun hech narsamni ayamayman, – deya iltifot ko'rsadi avvalgi ko'r.

Shunda malak: «Moling o'zingga buyursin. Alloh barakasini ortirsin!» dedi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ne baxti abras bilan kal avvalgi hollariga qaytib, xor bo'lishdi. Alloh tarafidan qilingan imtihondan keng fe'lligi bilan o'tgan saxovati sobiq ko'ring esa ishlari baroridan kelib, boyligiga boylik qo'shila Verdi».

Qarang-a, hikmat izlaganga hikmatdir dunyo, illat izlaganga illatdir dunyo degan o'y bilan kechagi eshitganlarimning mag'zini chaqaman, deb cho'birimning sekinlashib ketganini puyqamay ham qolibman. Hademay borliq landirday qizib, zamindan yana kishi nafasini ko'g'adigan issiq hovur ko'tarila boshlaydi. Ungaicha tezroq borib ishlash, jo'yaklarga suv tarib, ekinga mehr berish, zamin qadiri jo'yiga qo'yish kerak. Chu-jonivor, chul...

SOG'INDIM SENI, O'G'LIM

Waligina uzog-uzoqlarda ko'rinayotgan cho'qqilar bulutlar ortiga berkinib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Daraxtlarning olindak sarg'aygan yaproqlari asta shivalay boshlagan yomg'ir tomchilari zarbidan tirab to'kiyotgandek, Nurillo boboning yuragini yana eza boshladi. Tabiatning bu faslini aslida u kishi bolaligidanoq unchalik xushlamasdi. Otasidan o'zi erta ajralganidanni, kuzda daraxtlardan to'kiyotgan barglar ham qiyalayotgandek tuyulaverardi unga. «Axir yaprog' ham daraxning bir bo'lagi-ku, kuzgi xazon davrida xuddi biz cidan tirnoq ajralganda azob chekkanimizdek, ular ham qiyalsa kerak», deb o'ylardi va dov-daraxtlar ichida archaga havas bilan boqardi.

Boboning qariyalar uyiga kelganiga ham bir oyga yaqinlashib qoldi. Mavjud sharoitga ko'nikolmayotgani, o'g'lini, nevarasini sog'inib ko'chada uzoq o'tirishlari otaning sog'ilig'iga zarar yetkazmasa edi. Bu yerda faqat qariyalar. Kimningdir o'g'li yo'q, kimlarningdir farzandi boshqa yurtlarga ketib qaymagan. Ba'zilarining esa o'g'il-qizi ham, uy-joyi ham bor. Lekin jigar bag'rining bir parchasi, orzularining g'unchasi, yaratgandan tilab-so'rab olgan zurriyotlari uchun ota-ona kerak emas. Xullas, hammasining dardi har turli, biroq azobi bir xil. Shundan ham ularning barchasi ertaga nima qilishini emas, shu kungacha nima qilganlarini sarhisob qilib o'tirishadi.

Nurillo bobo negadir keyingi kunlarda o'rtidan qo'zg'algisi kelmaydi. Shu yerda topgan tengdoshi Sodiq ota bilan yaxshigina suhbatlashib o'tirardi. Endi esa uni ham xushlamaydi. Bundan u kishi ham hayron: «Nega Nurillo birdan bu ahvolga tushib qoldi? Axir toza havoda sayr qilishdan, kiraverishdagi chinorlar tagida soatlab suhbatlashib o'tirishdan zerikmasdi-ku, u» degan o'ylarni xayoldan o'tkazardi-yu, ammo boboning o'g'li, nabiralarning yo'iliga zor-intizor ko'z tikishini xayoliga ham keltirmasdi.

— Nurillo aka yuring tashqariga chiqamiz — dedi, o'ylab o'ylarining adog'iga yetolmagan Sodiq ota o'rtadagi sukunatni buzib.

— Zerikingizmi?

— Yo'q, toza havodan nafas olaylik-da, bu yerda biginib yotgandan ko'ra.

— Siz chiqavering, men birozdan keyin chiqaman.

Sodiq ota asta o'rtidan turib, tashqariga yo'l oldi. Oltin kuz borliqqa zarhal chodirini yopgan. Yomg'irdan oldingi sarin sabo ayovsiz to'kkan nafalt yo'lakdagi jiqqa ho'l xazonni mayda qadam bilan bosib borardi. U o'z xonasi ro'parasida bir zum to'xtab, deraza tomon qaradi. Nurillo bobo otoldan bosh ko'tarmay, qog'ozga nimalarnidir yozardi. Sodiq ota ichkariga kirib, o'z tumbasi tortmasidagi ko'zoynagini unga olib bergisi keldi-yu, ammo uning fikrini bo'lishni o'ziga ep bilmadi. Yo'lida davom etdi. Hayhotday binoni bir aylanib kelib, yana derazaga nazar tashladi. Nurillo bobo uxlab qolgan chog'i, otolga peshonasini tiragancha o'tirardi. «Endi ichkariga kiray, uni uyg'otib, joyiga yotqizay. Bo'yni og'rib qolmasin sho'rtikning», degan o'y bilan u ortga qaytdi. Negadir xona eshigini ochayotganda yuragi hapqirib, ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. «Yaxshilikka bo'lsin», degan niyat bilan ota xonaga qadam tashladi. Qay ko'z bilan ko'rsinki, Nurillo bobo Allohga omonatini topshirib ulguribdi. Labi pir-pir uchgan nuroniy moqolini selkillatgancha, ko'zlari to'la yosh bilan darhol qariyalar uyi shifokori tomon

shoshildi. Hamma bir zumda yig'ilib, mayyini g'ildirakli karavotga yotqizishdi. Shifokor qariyaning jon taslim qilgan danda qora terga botgan peshonasiga yopishgan varaqni qo'lga olar ekan, satrlarga ko'z yugurtirdi.

«O'g'lim...» deya boshlangan bitikning oilaviy xatligini anglashi bilan u: «Uyidan kelganlarga berarsiz», deb uni Sodiq otaga uzardi. Qariya xatni buklab-buklab yostig'ining tagiga qo'ydi. Shundan so'ng xodimlar jasadni xonadan olib ketishdi. Kutilmaganda hamxonasidan ayrilib qolgan chol allamahalgacha uxlolmay, to'lg'onib yotdi. Tong yorisha boshlagan tobda uning horg'in qarog'larini uyqu elirdi. Kechasi hamxonasi jasadini oilasidagilar olib keldimi-yo'qmi, uning xabari bo'lmadi. Bir narsa aniqki, marhumning xonadagi buyumlari qanday bo'lsa, shundayligicha rosa uch kun turdi. Nihoyat fartosh ayoli: «So'rab kelishsa aytarsiz. Hozircha omborchiga topshirib qo'yaman», deb yig'ishtirib ketdi ularni.

Demak, mayyitni so'rab hech kim kelmagan. Nahotki ota hurmati farzandlar oldida shunchalar arzonlashib ketayotgan bo'lsa? Yoki Nurillo bolaning o'zi shunga munosibmikin-a? Qiziq, maktubida nimalarni yozgan ekan? Nega shu kungacha uni o'qib ko'rmadim? Balki egasiga yetkazishni kechiktirib bo'lmaz gaplar

yoziygandir? So'ngsiz savollar ummoniga g'arq bo'lgan qariya yostig'i tagidagi xatni olib, o'qishga tutindi.

«O'g'lim yaxshi yuribsammi? Sen yomon xayollarga borma. Nima bo'lganda ham sen o'g'lim bo'lib qolaversan. Hech qaysi ota yoki ona bolasiga yomonlik tilamaydi. Ehtimol, bu mening senga yozayotgan so'nggi maktubimdir. Chunki madorim ketib boryapti. Kundan kunga holisizman. Omonatimni topshiradigan vaqt yettiyov, nazarimda. Sendan so'nggi o'tinchim, meni o'zimizning qabristonga dafn ettir. Shunda onang bilan bir qatordan joy olaman. Bu yerga kelishimdan oldin onangning qabrini ziyorat qilishga borganimda qabrlar qayrag'ochga yetay, deb qolgandi. Imkonini topsang meni shu qayrag'och atrofiga qo'ydirib, qabrimdan bir siqim tuproqni ayama. Atoqli adib Chingiz og'a ta'biri bilan aytganda bu bizlarni bog'lab turadigan uzilmas rishla bo'ladi. Onangni so'nggi manzilga kuzatish senga nasib etmadi. Biroq onang sho'rtlik so'nggi nafasida ham «Sherali, Sherali...» deya ingranib, seni yo'linga intizor bo'lgandi. Men ham undan kam kutmadim seni. Sen tug'ilganda biz ancha nochor turardik. Lekin men biz uchun katta davlat eding. Onangning o'shandagi holatini eslasam, haligacha u sho'rtlikka achinaman. Seni emizardi, bolam och qolmasin, deb nimalarnidir chaynab berardi. Bilsang,

o'shanda onang o'zi yaxshi ovqatlanmasdi. Senga chaynab bergan yeguliklardan tishning kavagiga tiqilganlari u uchun kifoya edi. Xullas, bir parcha etligingdan alpay odam qilganlarga bugun senga suyanib yashash nasib etmadi. Seni boshimga qo'ngan baxtni, desam kipirgimmi yuvib tushayotgan yoshday dard ekansan. Mayli, nima bo'lganda ham seni sog'indim, o'g'lim. Ammo, sog'inganingning soyasi ko'rilmaydi, deganlari rost ekan. Biror marta tushimga ham kirmading. Bo'lmasa, sening haqqingga duo qilib kun bo'lmagan, baxtingni tilab tong o'tirmagan kunim bo'lmadi. Biroq sening ko'rinishing ko'z oldinni tumanday qoplagan. Shunisiga ham shukur, shuning o'zi bir baxt. Farzandi yo'qlarning ko'z o'ngida bunday vaqtda ajali gavdalansa kerak. Sen meni ana shu dahshatdan saqlading. Men sendan roziman, sen archadek yasha, bolam. Chunki archa, birinchidan, uzoq umr ko'radi, ikkinchidan, boshqa daraxtlardek kuz-u qishda ham yaprog'idan ajralmaydi. Biz misli o'rikdek yashadik. Bilsang, bahordagi yomg'ir o'rikning mevalariga tegsa, o'sha mevani dog' bosadi. Biz ham shunday bo'ldik. Ko'zimizdan seni, deb oqgan yoshlarimiz bizning qalbimizda manguikka dog' qoldirdi. Iloym bunday dard sening vujudingni kemirmasin. Baxti bo'l, bolam!»

Maktubdagi bunday o'tli satrlardan hayajonlangan Sodiq otaning lablari titragancha pichirlab, qozoq qardoshlarining qadim qo'shiqlaridan birini hirgoyi qila boshladi:

«Qarigan hasratga boy qari cholman,
Kun sari quvvat qochgan qaddi dolman.
Mayli o'g'lim men kabi azob chekib,
U dunyo, bu dunyoda g'arib bo'lmang.
Uying ham tor emasdi, yursam yetib,
Shu yerga ketding tashlab, olib kelib.
Simobday sirtin bersa, farzandlari,
Otaning o'lgani-ku mag'lub bo'lib...»

OLISLAMA OQIBAT

O amon aslo o'zgargani yo'q, aksincha odamlar o'zgardi, — degan gapni ko'p takrorlaydi, Rahim bobo. — Hali-hanuz boshimiz uzra quyosh nurini sochib, yomg'ir va qor yog'ishdan to'xtaganicha yo'q, to'xtamasin ham. Seni qara bolam, beminmat berilgan yordamni pul bilan o'lcayapsan-al! Nahotki dunyoda sotilmaydigan narsa qolmagan bo'lsa? O'g'lim o'zingni qarzidor deb bilsang, boshiga mushkulot tushgan bir chorasizning hojatini chiqar. So'zsiz qarzingdan qutulasan va o'z navbatida uni ham qarzidor qilasan.

Yashirishning hojati yo'q, boboning gaplaridan uyali, boshim egildi. To'g'risi, yaqin kunlarda u kishining menga began yordamiga o'xshash ishini birotla odamga qilganimi eslay olmayman. Balki bu yil hali qilmagandirman, yana bilmadim. Har ne bo'lganda ham bu juda yaxshi ish bo'ldi. Ishim bitgani uchun emas, ko'zguda o'zinni ko'ra olganimdanda yaxshi deyapman. Ko'nglimga birinchi kelgan narsa, padari buzrukvorimning duosini olishga shoshildim.

Bozorga kirdim-da, sara mevalardan xarid qilib, ukammikiga, katta hovlilga otlandim. O'zimga yurgan o'sha ko'cha, bolalikni eslatuvchi ulkan yong'oq daraxti. Kichkina vaqtimizda bolalar bilan doim shu daraxtning ustiga chiqib o'tirardik, shoxlariga argondan arg'imchoq bog'lab uchardik. Bugun esa, bolakaylar bizga o'sxshab uning ustida taxtda o'tirganday o'tira olmaydi. Sababi, bu ulkan daraxt ham sement qo'ra tutquniga aylandi. Ko'cha avval kelganimdan ham o'zgaribdi, imorat solish uchun anchagina xonadonda poydevorlar ko'tarilgan. Bu yaxshi, ammo odamlar ana shu poydevorlarni biridan-biri qolamanni degandek tobora ko'chaga chiqarib yuboryaptidal! Ko'chaning torayib borayotgani esa ularni qiziqitmaydi ham. Biz kichkina vaqtda uylar atrofi sim qo'ralar bilan o'ralgan edi, otarning

Ko'p o'tmay ukam ham keldi. Turli-tuman yangiliklarni bir-birimizga aytib, ota-onamizning oldida ularning bag'rini to'ldirib o'tiribmiz. Kattalarning so'zi bilan aka-uka yaylovdagi mollarni ko'rib kelishga olandik. Ikkiniz ham velosipedda yo'lga tushdik. Ukam yo'lining ikki chetiga ekilgan ekinlarni kim, qachon ekkani birma-bir aytib borayapti. Nihoyat asfalt yo'l tugab, serso'qmoq tosh yo'l ham boshlandi. Bu yog'i endi turli-tuman bog'lar. Ikkiniz ham charchadik chog'i, soyasi keng o'rik tagida bir dam nafas rostdashga to'xtadik. O'rik shunday pishganki, asi qo'yaverasiz. Tagida mevasi yerga to'shalib yotibdi. Bo'yimiz yetadigan joydagi hosillardan terib eb, biron charchoq chiqargach, yana yo'lga tushdik. Anchagina joyni bosib o'tgandan so'ng, asta-asta ko'tarilgancha, tog'larga tutashib ketgan qishloqqa yetib bordik. Ikki soyning o'rtasida joylashgan ferma atrofida birona ham daraxt yo'q. Buzoqlar oftobda toblanib, tuproq ustida yotibdi. Qir bag'rida mollar ko'rinish qoldi, biz o'sha tarafga yo'l oldik. Mollar yuraverganidan qir bag'rida ajoyib chiyir yo'llar hosil bo'lgan. Yuqoriga chiqqanimiz sari pastdan bizga ko'rinnagan narsalar oydinlasha boshladi. Ulkan bir soyning ichi burqsib yonayapti. Chiqayotgan tutundan hayratlanadi kishi. Tutun

tekislikdagi mahalla tomon samo bo'ylab suzib bormoqda.

Bizga ro'baro' kelgan podachi o'g'li bilan yonimizga kelib, salom-alikdan so'ng mollarimizni ko'rsata boshladi. Boshdagi oppoq qalpog'idan chiqib turgan sochlari ter bosgan yuzlariga yopishib qolgan Erbol ismli podachining o'g'li tinmay gapirib, e'tiborimizni o'ziga tortishga intilardi.

– Sizga tulkning uyasini ko'rsataymi? – dedi u.

– Yaqinni? – deb so'radim qiziqib.

– Yuring, anavi yerda.

– Tulksi ham bormi?

– Bor.

– Bo'lsa nega uni dadang ushlamaydi

– Ushlab nima qiladi?

– Senga chiroyli qalpog' tikib beradi, qishda kiyib yurasan, – gapim tugamasdan bolakay kundan otib yubordi.

– Nega kulasan?

– Axir uning ustida juni yo'q-ku, bari to'kilib kelgan.

– Nega to'kilgan?

– Dadamning aytishicha, anavi tutayotgan tepalik bor-ku, u yerga ko'p chiqindi to'kilgani sababi tulki zaharlanib, shu holga kelgan ekan.

– Bu soy har kuni shunday tutab yotadimi?

– Bilmasam, meni bu yerga uncha ko'p opkemaydi...

E-voh, gap bu yozda ekan-da! Agar shu murg'ak vujud aytmaganda men ham ko'p gatori: «Yonayotgan nima o'zi?» demasdan bee'tibor ketaverar edim. Eh odamlar, odamlar! Chiqindilarni avvaliga oyoq ostidan ozodalik uchun yig'ib olishsa-yu, ortidan mana shunday zaharning havoga tarqalishiga bamaylixotir yo'l qo'yib berisha? Buning oqibati nima bo'ladi? Insoniyatni, natiqat insoniyatni, balki jamiki jonzotni tubsiz fojiga giriftor qilmaydimi bu? Ukam ikkimiz uyga yetguncha shularni muhokama qilib, tayinli javob topa olmay qiyinaldik. Ukamning aytishicha, bahorda daraxt novdalarida ochilgan gullarning meva bo'lib yetilmasdan to'kilishiga ham, tok sho'ralarining g'ujum bo'lmay oqib ketishiga ham shularning kasri tegar ekan.

Yonida Tarzan laqabli katta kuchugi bilan yo'lining boshida bizni o'g'illarimiz kutib turishgan ekan, uzogdan oq bizni tanib, chopib yo'lga tushishdi. Ukamning o'g'ining yuzlari do'imboq, ko'zlari doim kulib turadi. Puchugqina burni o'ziga juda yarashadi. Bolakaylarni velosipedga o'tqazdik-da, haydashni bilmaganliklari uchun yetaklab oldik. Kichikintoylar: «Men sendan o'zib ketayapman», deya o'zlarini o'zlarini quvonitirish bilan ovora. Men bo'lsam ularga

diqqat bilan nazar tashlayman. Hayriyat, soppanog' ular. Bu fikr meni halizamongina o'ylanitra boshlagan edi. Chunki oldinlari menga hech kim podachining o'g'ilday ko'z o'ngimizada yua qurayotgan muammolarni sodda til bilan ochiq va achchiq aytmagani edi-da!

Borliqqa oqshom ham cho'kdi. Yo'l yurib uncha toliqdim chog'i, ko'zim ilinib ketayapti. Biroq ertalab ishga borishim kerak, shaharga quyimasam bo'lmaydi. Ukamning ayoli – kelinim tayyorlagan shohona kechki taomdan ko'ng, uydagilar bilan samimiy xayrlashib, yana ko'cha boshiga – katta yo'lga chiqdim. Tom va ustunlari ko'kka bo'yalgan qadrdon bekat tomon hali yo'lni kesib o'tganim ham yo'q edi. Oldimga zuv etib, bir yengil mashina kelib to'xtadi. Ha, dadam aytgandek: «Qadamingda mashina, puling bo'lsa, yo'lda qolmayсан hozir. U dunyoda jannat qanday bilmadim-u, biz bu dunyoning jannatida yashayapmiz shu tobdan. Ilgarilari bizning qishlog'imizda bitta, qo'shni qishloqda ikkita mashina bo'lar edi. Yuk mashinalarga osilib manzilga yetib olsak, quvonganimizdan, hur ko'rganda olib ketgan haydovchiga egilib rahmat aytib yurardik. Qishlog'imizga bittagina eski avtobus qatnardi, u ham bekatda turmasang to'xtamasdi. Bugun esa, qadamingda yengil moshin...»

Otarning gaplarini tahlil qilib borar ekamman, markazga yetganimni ham sezmay qolibman. Shahar marshrutidagi «Mers» taxi turgan ekan, darhol unga o'tirdim. Barcha o'rindiqlari to'lgandan so'ng avtobus o'rtidan yengil silkinib, asta qo'zg'aldi. Avtobus tekis va ravon yo'lda xuddi mavj urgan sokin dengizda suzayotgan kema-day yengil chayqalib borardi. Uyuq elitib, kipriklarim tutashib ketdi...

Atrofda tumonat odam, har xil millat vakillari. Oq, qora, sariq rangli. Xullas, dunyoning barcha joyidagi odamlar boyagina ko'rganim – tutuni timaydigan soyga yig'ilganday. O'sha qishloqda yashovchi odamlar boshqalardan ajralib turardi. Birining sochi, birining qoshi to'kilib ketgan bo'lsa, boshqasining qo'l-oyoqlari yakkam-dukkam. Barmoqlariyam kammi-yey. Xullas, nuqsonsizining o'zi yo'q. Osmo bir yorisha, bir tundlashib, yong'ir yog'ayapti. Boshimiz uzra goh quyosh, goh oy, hatto yulduzlar ham ko'rinish qolayapti. Hamma hayron. Birdan borliq qattiq silkinib, yer tars-tars yorilgancha cho'ka boshladik. Qayoqdadir allakim baland ovozda baqirayapti. Qizig'i uni hamma eshitayapti... tushunayapti... Bu juda g'alati, shu bilan birga hayratli. Biroq hayratlanishga vaqt yo'q. Hali kimsaning ovozi tobora balandlamoqda: «Yigilayotganlarga yordam bering, bir-biringizni aslo qo'yib yubormang. Hech qayoqqa qochib

ketib bo'lmaydi. Bizni faqat hanjihatlikkina bu holokadan qutqarishi mumkin. Birdamlikni boy bermang, aks holda...» Kutilmaganda haydovchi to'xtatish tepkisini bosdi shekilli mashina qattiq chayqalib, yo'lovchilar hay-haylab yuborishdi. Hayriyat uyg'onib ketdim, bo'lmasa...

Bir amallab uyga yetib bordim, qani endi uyqu kelsa. Ko'rgan tushimni eslab, o'z-o'zidan qo'rqib ketaman. Uzoq o'ylanishdan so'ng achchiq-achchiq ko'k choydan xo'plab o'tirib, kamiga yuna xayol ummoniga g'arq bo'la boshladim. Negadir ko'nglim behuzur bo'lib, ko'z oldim qorong'ilashib ketdi. Quloqlarimga yana o'sha – tushimdagi kimsaning jon holatdagi hayqirig'i eshitila boshladi: «Yerning tabiat izni bilan asta cho'kib, odamlarning osmondan o'lsayotgani hech gap emas. Odamlardan odamiylik, insof, diyonat, oqibat singari oliy xislatlarning o'lsayotgani chatoq. Bilsangiz, bu – qiyomat nuri tashlangan qadam... ulkan fojia... Ogoh bo'ling, ey aqli raso odam!...»

QALDIRG'UCHNING QANOTI YETMAGAN JOYLAR

Qatdagiidek bugun ham o'g'ilchamni yetaklagancha bog'cha tomon borayapman. Bog' orala borar ekamiz, o'g'ilim qo'llimni yengil tortqilab so'rab qoldi:

– Anavi o'tirganlarning uyi yo'qmi?

Atrofga alanglayman, hech kim ko'rinnmaydi.

Kiygan libosi o'ziga yarashmagan ikki yoshni ko'rganimda esa, o'g'limga: «Undaylarga qarama, uyat bo'ladi» dedim.

– Nega? Ular uyat ish qilayaptimi? – deya so'radi u yana bolalarga xos qiziqish bilan.

Ularning o'tirishi shunday ko'rimsiz ediki, qo'lingda xipchin bo'lsa-yu, borib ayovsiz savalayversang. Kalta yubkali qiz o'rindiqqa suyanib o'tirardi. Bola esa uning tizzasiga boshini qo'yganча, oyoqlarini ayqashitirib, «suyuklisi»ning yuziga termulib yotardi. O'zimcha o'ylayman, chindan ham ular tunni shu yerda o'tkazganimi? Va beixtiyor yana o'g'limga qarayman: «bundaylarni har kuni ko'rib o'tayapti u. Ertaga ularning yoshiga yetganda qanday odam bo'lar ekan-a?!

– Dada qarang kechagi qaldirg'och, – deya meni yana boshqa narsalar to'g'risida o'ylashga chorladi o'g'lim.

– Qayerdan bilding?

– Axir o'zingiz aytgansiz-ku, qaldirg'ochlarning hammasi bir deb.

O'g'limning turli-tuman savollari girdobiga ko'milganча bog'chaga qanday yetib borganimi ham sezmay qoldim. Uni bog'cha opasiga topshirgach, yana izimga qaytdim.

Biroq o'tirgan ikki yoshning endigi ko'rinishi tamoman «ajoyib» edi. Xayriyat ertaroq o'tib ketgan ekamiz. Bo'lmasa...

Suvi sokin oqayotgan soy sohilda biroz to'xtab, miyani chalg'itmoqchi bo'ldim. Tabiat chindan ham go'zal. Qirg'oq bo'ylab ketgan keng va ravon yo'lida mashinalar uyodan buyoqqa tinmay o'tayapti. Yonimdan zuv-zuv o'tayotgan qaldirg'ochlarning qanoatlari yerga tegib ketadigandek go'yo. Ular har o'tganda menga nimadir demogchi bo'layotganday jon-jahdlari bilan chug'urlashardi. Ularni diqqat bilan kuzata boshladim. Ahamiyat bersam, ular palaponlarini uchishga o'rgatishayotgan ekan. Soy bo'yidagi o'rindiqqa palaponlarining biri qo'nib qolibdi. Ona qaldirg'och uni tinmay uchishga chorlardi. Xuddi: «Bu yerga o'tirma» deganday. Xayolan ular bilan suhbatga kirishdim.

– Nega dam olishiga qoymayapsiz? – ko'rayman ona qaldirg'ochdan.

– Yo'q, u yerga o'tirish mumkin emas, – degandek chug'urladi u. – Bilasizmi, u yer nimalarga guvoh bo'lmagan, axir? Nomi qiz-u, aslida allagachon nomusini yo'qotganlar yonlarida sheriklari bilan kelib, u yerda nimalar qilishmagan? Biz olamdagi nopokliklar yerdan ko'tarilib ketsin, deb atayin pastlab uchamiz. Biroq ularning oldiga yeta olmaymiz. Ba'zilar

shu yerda o'tirish bilan cheklansa, ayrimlari o'rindiqni uyatdan egilgan novdalari bilan berkitgan majnuntollar tagidan qo'nim topadi. Bizning qanotimiz esa u yerlarga yetmaydi. Mayli, biz-ku, qo'limizdan kelgancha, odam bo'lmasak ham, sizlar bilmasangiz ham, nopokliklarni yo'qotishga intilamiz. Biroq sizlarning bir-biringizga joningiz achimaydimi?

Ko'p ko'rganmiz soy bo'yida kulganlarni, sal o'tmay sochlari to'zg'ib, ko'zlaridan oqqan shashqator yoshlarini. Ba'zilarining keng olamga sig'may, shu soyga o'zlarini tashlaganlariga ham guvoh bo'lganmiz. Bilsangiz, soy ularni bu dunyodan u dunyoga eltadigan ko'priklar emas. Suvda bir marta oqqan bilan ular poklanib ham qolmaydi. Aslida soy ham ularni tezda qirg'oqqa uloqtirib tashlashga shoshiladi. Axir suvda ham dard bor. Anavi yoshlarga bir qarang, bilaklari shu darajada chirmashib ketganki, orasidan bizning qanotlar emas, suv ham sizib o'tolmaydi. Ular taqdirining ertasi nima bo'ladi? So'zsiz, ularning etagayoq bir-birini ko'rishga ko'zi bo'lmay qoladi. Olanda bo'layotgan bunday noma'gulchiliklardan ko'ngillar emas, tabiat ham o'qchib yuborayapti, bilsangiz. Ba'zi joylarni bir zumda sel olib ketishi nimadan deysiz? Butun boshli shahar va qishloqlarning to'fonlar qa'rida qolishi-chi? Barcha-barchasiga sababchi

odamlarning o'zlari. Butun dunyoni yo'q qilishga qodir qora kuchlarni ham yaratdi ajdodlaringiz. Yana bolalaringizga: «Nima qilsam, sen uchun qilyapman», deganlaringiz ortiqcha. Zaharlangan havo, tarkibi buzilgan tuproq, dori bermasa, yetilmaydigan hosil! Shularning burchasini bolalaringizga ravo ko'rasizlarmi?

– Bo'ldi yetar, bas. Senga boshqa savolim yo'q, faqat indamasang bo'lgani.

– Xo'p indamadim, bilganlarimning bir chimdiminigina aytishga izn berdingiz. Qolganlarga bardoshingiz yetmadi. Og'riqdan hoshingiz yorilayozdi...

Ha, yaxshiyamki bu xayoliy suhbat edi. Biroq xayoliy suhbat yurakka tikandek botdi. Yoningandagi o'rindiqqa yana bir qo'l ushlashganlar juftligi kelib o'tirdi. Ko'rinishidan o'zimizga o'xshasalar-da, ular boshqa tilda gaplashishardi. Ora-sira o'zbek tilida ham gapirib qo'yishadi. Nima ular ona tilini ham unutdimi? Nahot bu tomondan ham qaldirg'ochlarday bo'lolmasak? Yo'q, bo'lmaydi. Bu yerda traversam hali ko'p narsaga guvoh bo'lganman shekilli? Qaldirg'ochlar yana subbatga chorlamasdan ularni bu yerdan quvish kerak! Agar ona zamin bag'ini ulardan tozalab, qaldirg'ochlar yuziga vaqtida yorug' yuz bilan qaraydigan bo'lmasak, ertaga kech bo'ladi, kech...

fikrlarini birma-bir yoddan o'tkaza boshladi. Avvalgi ma'ruzasi uning esidan chiqqanicha yo'q hali. U so'zlar esdan chiqmaydi ham. Negaki, u hamma narsani hayotdan olib, tinglovchilarga tushinarti qilib gapirgan. To'g'ri, o'shanda boshqalar ham idizi teran fikrlar bildirishgandi. Masalan: «...Ko'pchilik aytishadi: «Hozir kasalning turi ko'payib ketdi», deb. Men bunday demagan bo'lardim. Bor gap, bugun yangi-yangi kasalliklar nomi paydo bo'ldi. Biroq anchagina kasalliklar bizga o'sha davrlardan xavf solib kelardi aslida. Bugun ilm-fan rivojlandi, u paytlarda bu kasalliklarni aniqlaydigan olimlar bo'lsa-da, hozirgi yangidan yangi jihozlar bo'lmagan, axir. Shu sabab bu kasalliklarning nomi atalmagan. Hatto, oddiy ko'richak xastaligi sabab ikki-uch kun buchayib yotib, g'affarda ketganlar qancha bo'lgan o'tmishda. Ha, mayli muhimi kasallikning qachon paydo bo'lgani emas, uning davosi topilganida! Kiyyan kiyimimiz shohona bo'lsa-yu, tanamiz og'riqdan qaqshab tursa, usti yupun, biroq to'rt muchasi sog' odamday bo'lmaymiz hech qachon», deya maktab hamshirasi Zahro ko'pchilikni o'ziga toldirgan bo'lsa, tarixchi Dilorom opa ham: «...Tarixni chuqur o'rganishimiz kerak. Ayniqsa, bugungi dori-amon kunlarga – mustaqillikka o'z-o'zidan erishib qolmaganimizni, ota-bobolarimiz

qunchalik qiyin damlarni boshdan o'tkazganini hamma bilishi lozim. Shunda mustaqillikning qidiriga yetamiz. Ajdodlarimizga munosib harzand bo'lishday mas'uliyatni his qilamiz. O'tirgan yoshi ulug'larga va sizlarning ota-onalaringizga yaxshi ayon, bizning tariximizni yo'q qilish uchun qancha harakatlar qilingani. Agar idizi moziyga borib taqaladigan tariximiz bo'lmaganida, ajdodlarimiz dunyo xalqlariga tib ilmining, koinot va hisob-kitob sirlarining, davlat boshqaruvining kalitlarini ochib bermaganida, biz hech kim bilmaydigan nom-nishonsiz bir to'dadek qora bulutlar soyasida qolaverar edik. Xudoga shukur, asrlar davomida otabobolarimizga armon bo'lib kelgan Hurriyatga erishdik. U bizga dinimizni, tilimizni, tariximizni, urf-odatlarimizni qaytarib berdi...» deya chakki gap aytmagandi, o'shanda.

Ertangi tadbirida undan oldin tajribali adabiyotchi so'zga chiqadi. Opaning har narsani juda chuqur tushuntirishi unga ayon. Ma'ruzani shunga yarasha yozish kerak. Ahad shularni o'ylab, asta o'rindan turdi va xayoliga kelgan mushohadali fikrlarni birma-bir qog'ozga tushira boshladi. U ma'ruza matnini atloqli idib Chingiz og'aning «Sevgining afsonasi, bu – bir-biriga tinimsiz talpinish emasmi?» degan zalvorli so'zlari bilan osongina boshlab,

yengil davom ettirdi: «Hayotning baland-past yo'llari insoniyatni ulug'lab, o'zligini taniadigan quvonch-u tashvishlarga boy tuyg'ularga to'raligi barchaga ayon. Bilsangiz, Yaratganning o'zi, odamzodni muhabbat bilan birga titirib, qalbga bu tuyg'uni keragicha joylagan. Ammo bir kishi yuragini shirin entiktirib, qalbgga huzur baxsh etajak bu bebaho ne'matdan hamma vaqt ham o'rinni foydalana olmayapmiz. Ko'pincha, bu ko'zga ko'rinnas nafs xilqat qadrini qaritib qo'ymogdamiz. Ming yurakligimiz bois, uni mehrga tashna qilayotirmiz.

Muhabbat atrofi mustahkam devorlar bilan o'ralgan mo'jazgina bir makon emas. U besh kunlik bu yorug' olandagi had-hisobsiz, benazir ne'mat. Hammaning ham vujudiga sig'avermaydigan eng muqaddas tuyg'u. Uning tortlari shunchalar nozikki, nogoh tegib ketsangiz, qalbda sirli sas taratib, yurakni titratgancha ko'ngilni ozdiradi. Pokiza dillarni qurbon qiladi. Uning qahriga uchramaslik, uvoliga qolmaslik uchun uni hamisha avaylash, asrash, qadrlash kerak. To'g'ri, bir kungina yashaydigan kapalakni-da, butun umri davomida unutmay, mangu e'zozlaydigan odamlar ham bor, oramizda. Ammo tili boshqa-yu, dili boshqalar ko'p, baribir. Yuragida zori, qalbida ori yo'q bunday

kimsalar chin muhabbat qadrini qaydan bilsin, akir?! Qani endi muhabbat buyruqqa bo'ysunib, neyish-sevilish insoniyat iznida bo'lsa-yu, ming yuraklar muqaddas tuyg'ular qadrin toptab: «Bunisi endi bo'ldi, ertaga boshqasini tutmoq kerak», degancha hammasini tuproqqa chizilgan suratday bir zumda o'chirib tashlayversa. Yo'q, bunday bo'lmaydi, bo'lmasin ham!

To'g'ri, bizgacha ne-ne buyuk muhabbat dostonlari bitilmagan, dillarni sirli sehiri bilan matnun etmagan deysiz! Qani o'sha sadoqat haykaliga aylangan Layli va Majnunlar, Farhod-u Shirinlar, Alpomish bilan Barchinlar?! Nahotki asrlar osha yashab kelayotgan o'sha muhabbat ma'budalari o'rtasidagi yurakni otashdek o'rtaguvchi pok muhabbatni biz bugun xuddi onasidan ayrilib, u shoxdan bu shoxga uchib-qo'ngancha kundun kunga ozib-to'zib borayotgan abgor palaponday xor-u zor qilib qo'ysak?! Axir bu ahvolda muhabbat bizni yetkazgan ozorlar bois zavol topadi yoki bizni oxirzamon domiga olib, o'zi yetim qoladi. Bizning bugungi g'o'rliklarimiz: qizlarimiz boy betrayotgan nomus, yigitlarimizdan yiroqlayotgan or, hamma-hammamizdan chekinayotgan oqibat, bu — jahannam sari yo'l, aslida. Ertaga shikasta qanoiti, xastadil bu palaponning yana o'zini tiklab, ajdodlariday ko'klarda baland parvoz

etgancha, ko'ngillarni xush qilishga kim kafillik bera oladi?! Amimmizki, hech kim.

«Sevgi bu – sevgining shartiga ko'nishdir» degan purhikmat so'z o'z-o'zidan chiqqan emas. Qo'l ushlashgan ikki yoshni ko'rganda «Sevishganlar baxtli bo'lishsini!» deyishga biron cho'chib qoldik bugun. To'g'ri, ularga botinam baxt tilash kimni g'arib qiladi deysiz. Yoki bisotimizdagi yaxshi tilaklar tugab qoladimi? Yo'q, aslo tugamaydi. Faqat kechagina o'sha qo'l ushlashganlardan birini shu atrofta boshqasi bilan xuddi shunday «baxtiyor» ketayotganini ko'rgani bois, tili kalimaga kelmay, ezgu tilaklarga xasislik qiladi odam. Saxovatpehaliging tutib qayta qaraganningda esa, ular xilvatroq joyga kirib, ko'zdan g'oyib bo'lishga ulgurishadi. Axir bundaylarni qanday qilib sevishganlar deyishi mumkin?! To'g'ri, insonga yoshlik, ayniqsa, navqiron o'smirtlik bir bor beriladi. Biroq, bu – xohlagancha tuturqsiz sevisht, sevilish samarasi o'laroq yoshlar faxshiyat ummoniga g'arq bo'lgancha, ona suti og'zidan ketmay turib, bola quchoqlashi – badnom bo'lishi kerak, degani emas-da, axir! Unutmang, bu bilan biz muhabbat bugun boricha sarobga aylandi, degan nojoiz fikrdan yiroqmiz. Chunki chin muhabbat sohiblari ham yo'q emas oramizda. Ular bor,

Illoym ularning izlari boqiy bo'lib, muhabbat munngu yashasini!

Ammo o'zingiz o'ylab qarang, bir yilda mo'jazzina bir shaharda balog'atga yetmay bola quchib, baxtini boy bergan navnihollar nomi yetti nafardan oshibdi. Bu ma'lum bo'lgani, albatta. Benazir bu borliqni bolasiga buxshida etmay bebaxt bo'layotganlar qancha, hali? Tug'ilib-tug'ilmay qurbon bo'layotgan begunoh norasidalariga kafanlikni ham ravo ko'rmay jaholatga yuz tutayotganlar-chi?! Toshbag'irlarcha ko'cha-ko'ylga ko'ksidan yoritib chiqqan dilporalarini tashlab ketayotganlar-chi!

Axir bu, qanday bebaxtlik! Ko'zini ochib-ochmay ajal bilan olishgan murg'ak vujudning o'jiz, ammo olamni larzaga keltirgudek ayanchli nolasiga qanday bardosh beradi ular? Siynalaridan sizib chiqayotgan hayot shariatini nega qizg'anishadi ulardan? Busiz u sho'rliklarning holi ne kechadi? «Onam qani?», «Otam kim?» degan savollarga javob topolmay, tushida ham kimni ko'rishni bilmay, mehribonlik uyidan qo'nim topadi, ular. Shunday deymizku-ya, mehribonlik uyi ham faqat shunday nopoklar mahsulini voyaga yetkazadigan befoyaz joy emas, axir!

E-eh, bunchalar beshavqat bo'lmasa bu dunyo? Qarang, kimgadir farzand xor, kimlar esa

tiymoqqa zor...» Ahad ma'ruza matnini qalbidan qaynab chiqayotgan otashli so'zlar bilan hali uzoq davom ettirishga qodir edi. Ammo shu tobda negadir birdan to'xtadi. Aniqrog'i yozganlarini ayoli o'qib qolishidan, uning yuragi yana qon bo'lishidan cho'chib, ma'ruza qoralamasini yirtib-yirtib ulotqirdi, u...

Kuzning rutubati seryomg'ir tuni yana tong bilan o'rin almashdi. Ertalabki nonushtadan so'ng Ahad mashinasiga o'tirib, ishga otlandi. Qo'shni qishloqdan o'tayotib, darsga kech qolmaslik uchun yo'lda chopib borayotgan qizchani ro'parasida to'xtab, uni mashinaga chiqarib oldi. Qizaloqning egni yengil bo'lgani bois:

– Ustingga qalinqoq kiyim kiygazib yuborishmabdi-dal – dedi qizaloqqa.

– Esindan chiqibdi, – deya so'lg'in javob berdi qizcha.

– Uyda ota-onang yo'qmidi?

– Bor.

– Nega unda ko'chaga bunday chiqishingga yo'l qo'yishdi ular?

– E-e, ular yana tongdan janjallashib qolishdi, – dedi qizaloq ensasi qotgandek ohangda.

– Nega janjallashadi ular, qizim? – deya so'radi Ahad mehribonlik bilan yana.

– Otam doim «O'g'lim yo'q» deb janjal chiqargani chiqargan.

– Otang seni yaxshi ko'rmaydimi?

– Yo'q, yaxshi ko'radi. Ko'pincha meni bag'riga bosib: «Qizim, seni yaxshi ko'raman, biroq sen baribir o'g'il farzandday yonimda qololmay-san-dal. Ertaga kunim qanday bo'ladi? Bu uying chirog'ini kim yoqadi?» deydi. Men otamniyam, onamniyam tushunaman. Ikkisigayam qiyin. Ularda ayb yo'q, aybning hammasi menda. O'g'il bo'lib tug'ilganimda-ku, hech gap yo'q edi. Onam otamning jahli chiqmasligi uchun hamisha purvona bo'lib, hamma ishga ulgurishga urinadi, tinmaydi. Afsus, onamga boshqa farzand ko'rish mumkin emas ekan...

Qizaloqning so'zlarini ortiq tinglashga bardoshi yetmagan Ahad asta avtoradio murvatini burab, undan taralayotgan qo'shiq ovozi ko'tardi. Oradan ko'p o'tmay maktab darvozasi oldida to'xtagan mashinadan shahdam tushgan qizaloq: «Rahmat, ustoz!» degancha o'zini ichkariga urdi. Ahad esa ish boshlashga qo'li bormay, maktab hovlisida u yoqdan bu yoqqa ancha yurdi. Hatto dasturiy hisobotni bahona qilib markazga ham borib keldi. So'nggi muhobotdan keyin hamma maktab zaliga to'plana boshladi. Nihoyat tadbir ham boshlanib, adabiyot o'qituvchisi minbarga ko'tarildi.

– Bugun yoshlar o'rtasida erta turmush qurish ko'p kuzatilmogda, – deya u salmoq bilan

so'z boshladi. — O'zinning yoshligini misol qilay. Men yigirma to'rt yoshida turmushga chiqqanman. U paytlarda erta turmushga chiqish uyat sanalardi. Biroq bugun agar qizi 20–21 yoshida turmushga chiqmay qolsa, otana sarosimaga tushib qolmoqda: «Qizim qari qiz bo'lib qoldi» deb. Yo'q, aslida unday emas, bu ayni muddao. Bekorga rivojlangan davlatlarda yigirma besh yoshdan keyin turmush qurishmaydi...

Demak, bugun bekordan bekorga yoshlarning erta turmush qurishlari oldini olishga davlat siyosati darajasida qaramayapti. Buni doim yodda tutib, ko'rsatlayotgan g'amxo'rliklarning qadriga yetishimiz lozim...», degan adabiyotchi opaning kishini o'yg'a toldiradigan tiniq fikrlaridan ruhiy quvvat olgan Ahad oqshomda yozib, yirtib tashlagan ma'ruzasini xuddi ipga marjon tizganday yoddan o'qiy turib: «Ogoh bo'ling odamlar, muhabbat yetim qolmasin!» deya hayqirib yuborayozdi...

BOLA BO'LIB QOLSAYDIM

Inson hamma narsaning aksini qiladi. Katta bo'lishga shoshiladi, keyin esa o'tib ketgan bolaligini sog'inadi. Pul topish uchun salomatliligini yo'qotadi, so'ngra salomatliligini qaytarish uchun pulni sarflaydi. Bugunini o'ylamasdan, kelajagini o'ylaydi, oqibatta na buguni, na kelajagi bo'ladi. Xuddi aslo o'lmaydigandek yashaydi va xuddi aslo yashamagandek o'ladi.

Paulo Koelo

Boshimning to'ng'ich ikki farzandi qiz, kenjatoyi esa o'g'il edi. Biroq u farzandlarining kelajagi haqida hali aslo o'ylamagandi. Buni uning o'zi qadrdonining to'yida o'tirib, uning holatini zimdan kuzatganidan so'nggina sezdi. Shu safar u hayotida birinchi marta oldinda farzandlarini, ayniqsa, qizlarini nimalar kutayotgani haqida o'yg'a botdi. Chunki to'yda hamma o'ynab-kulayotgan bo'lsa-da, qiz uzatayotgan ota-onaning quyosh taftidan qoraygan yuzlari mahzun. Xiyol cho'kkan qarog'larida ham qandaydir dard zohir. Xo'sh, nega? Axir bugun ularning eng quvonchli kunlaridan biri — qizlarning baxt to'yi-ku! Shu

bois qo'shiqchi yigit ham barchani davraga chorlab, ohangni avj pardasiga chiqarmoqda:

«Mening qizim onasining muhabbatin qozongan,
Buvasi-yu, buvisining tarbiyasini xo'-o'p olgan.
Mana bugun ushalmogda ko'ngillardagi armon,
Ota-onang duosini ol, yo'ling bo'lsin nurafshon.

Asal qizim, bilsang menga oqmas sendan oppoq qor,
Oppoq niyat og'ushida bo'sag'angni hatlab bor.
Sen o'sgan joy barakali, fayzi ziyod, baxtga boy,
Izlaringdan gul undirib, borgan yerga baxt

bo'p bor...»

Balki ular yuraklarni sel qilayotgan shu
qo'shiq ta'sirida xayol ummoniga g'arq
bo'lishayotgandir. Ehtimol hayot qizlarini misli
palaxmon toshi yanglig' begona joyga, o'zga
uyga ulotirayotganidan ko'ngillari besaranjom
bo'layotgandir. Har ne bo'lganda ham ular
chuqur o'yg'a botgan, degan fikrni xayolidan
o'tkazgan Hoshimni yeldek yugurik xayol uzoq-
uzoqlarga yetaklay boshladi.

Qizlari hali bo'y yetmagan bo'lsa-da, vaqt
o'tib ularni uzatishi, kimgadir quda bo'lib, to'y
qilishi va o'zining qanday holatga tushishi ko'z
o'ngidan bir-bir o'ta boshladi. Shu kungacha uni
bunday o'ylar sira qiyinagan emasdi. Shundan
bo'lsa kerak, uning ko'ngli birdan allanechuk

bo'lib, tezroq uyiga borgisi, bolalarini ko'rgisi
kelib ketdi.

– Do'stlar, endi menga javob, uyga
qaytmasam bo'lmaydi, – dedi Hoshim birdan
shoshib.

– Tinchlikmi? Nima bo'ldi, og'ayni? –
kavotirlanib so'radi birga o'tirgan hamkasblaridan
biri.

– Negadir ko'nglim g'ash bo'layapti.

– Kelayotganda dimog'ing chog' edi-ku,
o'rtoq, – deya gapga qo'shildi Azim. – Birga
keldik, birga ketaylik, urishib qolgan odamdek
jamoadan ajralma, endi.

Azimning tabiati shunaga. Undan ranjimaslik
kerak. O'tirish, ulfatchilik deganda o'zini
tomdan tashlaydi u. Maosh olganida ham gap
kelishadigan qadrdonlari bilan biror joyda
o'tirish uning esdan chiqmas odati. Bir safar
Azim shunday o'tirish tashkil etayotganda yoshi
ulug', o'g'il-qizlaridan tinchigan Olim aka uni
yaxshigina koyigandi: «Bir oy ishlab topgan
pulingdan ne naf, o'zing uchungina sarffasang.
Axir uyda zavjang bosh bo'lib, farzandlar
yo'lingga intizor kutsa, sen yetinchi falakda
uchib, quruq qo'l bilan kirib borsang...»

Hoshim qancha uringani bilan ulfatlaridan
ajralib ketishning ilojini topmadi. To'ydan
hamma birga qaytdi. Uyining darvozasidan kirar

ekan, boshiga oq harir ro'mol tashlagan, ko'zlari o'z onasi nevaralarini qo'llari bilan paypaslab: «Bo'ying ancha cho'zilib qolibdi», deganda Hoshimning yodiga oqining:

«Ko'ngil agar ko'r bo'lsa,

Ochiq ko'zdan ne foyda?» degan puthikmat satrlari tushdi. Shu tobda u o'zining kamchiliklarini esladimi yoki boshqa narsagami, har holda ko'zlarida yosh halqalanib, kutilmaganda kiprikleri namlandi. Bol to'tgan bolalik kezarida onasining qo'lidan sar'yog' surtilgan nonlarni olib yegan damlarini eslab, o'zini xuddi boladay his etganicha, shirin entikdi. Birdan yodiga tonggi uyquday totli uch farzandning otasi ekanligi tushib, o'zini roslamoqchi bo'ldi. Yo'q, kuchi yetmadi. U onasini bag'riga bosib, yuz-ko'zlaridan o'pa boshladi. «Qani yana bola bo'lib qolsaydim», deya pichirlaganicha onayizori ko'ksiga boshini qo'yib, behisht iforini sipqarganday chuqur so'lish oldi...

XOM SUT EMGAN BANDAMIZ

Oqshom pardasi tobora quyuvqlashib, atrofga qorong'ilik cho'kmoqda. Chor tараfdan taralayotgan chigirtkalarning chirillashi avjida. Sal narroqdagi atrofi qamishzor

bilan o'ralgan ko'l tomonda esa qurbagalar himn o'zlaricha yon-atrofdagilarga jo'r bo'layotganday. Qishloq ko'chalari bo'm-bo'sh. Bu yerdagilar yozda dalaning boshiga ko'chib borib, subhidamdan mehnat qilishga odatlangan.

Haqiqatan, tongdagi mehnatga ne yetsin. Qancha ishlasang ham charchamaysan. Ayniqsa, atrofda xayolingni bo'ladigan ortiqcha biror-bir narsa ko'zga tashlanmasa, ishga baraka kiradi. Shubhasizki, shu zayida dehqonning tinmagani kuzgi xirmonda albatta taqdirlanadi. Qolaversa, dalada bir burda nonni sovuq suvga botirib yeyishning gashti uncha-muncha dimog'ni qitiqlaydigan shohona taomdan afzal. Chaylalar yonidagi o'choqlarda atrofga «chirs-chirs» tovush taratganicha uchqun sachraib yonayotgan olov taftida choylar qaynab, ovqatlar suzishga tayyor. Faqat Zamirbekning chayasida jim-jitlik. Shomda qishloqdan borgan xabarni eshitgan zahoi u yo'lga tushgandi.

Atrofi vigo'rti tog'lar bilan qurshalgan qishloq hu'vosi ancha dim. Shundan ovul o'rtasidan oqadigan daryo sohili yoz tunining eng sarin joyiga aylanadi qoladi. Faqat shu yerdagina dilga orom baxsh etuvchi salqin shabada bor. Daryo bir qurtagan odamga sokin oqayotganday ko'rinsadilar, aslida shitob bilan olg'a intiladi. Zamirbek g'urchi yo'lda tomoqlari qaqrab uyiga yetgan

bo'lsa-da, hali bir gultum suv ham totgani yo'q Tomog'idan hech narsa o'lmaydi, hozir uning, O'g'li og'ir betob, yo'talaverib tomog'i bo'g'ilib qolgan. Entikib nafas olayotgan bolaning ichidan sirtga tepayotgan issiqdan qizarib ketgan yuzlari olovday yonmoqda. Qandaydir chora ko'rish kerak, biroq qanday? Axir, bu yaqin atrofdagi doktor bo'lmasa? Bunday paytda tuman markazidagi kasalxonaga yetkazib borish amri mahol. Ayniqsa, Takali qoya bag'ridagi serso'qmoq yo'l juda xavfli bo'lganidan uncha-muncha haydovchi bemahalda yurishga ko'naymaydi. Xullas, bu yerdan kechasi markazga boradigan avtomashina axtarish cho'ldan suv izlaganday gap. Birdan Zamirbekning xayoliga hamqishloqlari uchun avliyoday bo'lib qolgan Tursunboy tabib keldi.

U tongga borib nima bo'lishini oldindan seza olganida, balki hozir bir amallab o'g'lini doktorga olib ketgan bo'larmidi? Oldinda uni nimalar kutayotganini u hozir o'ylamaydi, dardi-xayoli tabibning huzuriga tezroq yetish. Uni uyga olib kelsa-yu, dorivor giyohlardan damlama tayyorlatib ichirib yuborsa, xuddi o'g'li tuzalib qoladiganday shoshib boradi sho'rlik. Atrof tim qorong'i tun. Kim ham bu mahalda: «Hoy, aka!» degan zahoti ko'chaga yugurib chiqadi deysiz. Shundan ham Zamirbek ovozining boricha baqirib ichkaridan tambalangan eshikning yonida

turibdi-da. Hayriyat tabib uyg'ondi, biroq: «Xafa bo'lmasan uka, hozir tun. Shaytonlar yerga tushgan payt, tong otsin boraman», degan javobni aytdi. Zamirbek uni unsiz indamay tinglardi-yu, biroq botinida: «Sen qanday odamsan, o'zi? Yana tabiblik qilasan-a?!» degan nafratga boy javoblarni bo'g'zida arang tutib turardi.

– Ilmos, yuring, aka. Tonggacha kech bo'lishi mumkin, – dedi qo'lini ko'ksiga qo'ygan Zamirbek iltijo bilan yana.

– Agar ko'rar kuni bo'lsa, yashaydi. Men luqat darddan qutqaraman, ajaldan emas. Hordiyu, rizqi tugab, kuni bitgan bo'lsa, chorasizman, – degancha tabib og'zini katta ochib, homuza tortdi.

Demak, u uchun hozir bemor norasidaga ko'mak ko'rsatishdan ko'ra, Zamirbek tezroq qorasini o'chirsa, o'zini iliq ko'rpa tagiga urish muhim. Agar Zamirbekka qo'yib bersa bormi, shu damda uning oyog-qo'lini mahkam bog'lab, beliga og'irroq bir temir-tersakni ilganicha mana shu sokin daryoning teranroq joyiga cho'kiritib yuborishdan toymasdi, uni. Shunda undan hech kim yordam so'rab, ostonasida ming tavallo qilib turmasdi. Attang, zamon ko'tarmaydi, qonun yo'l bermaydi. Bo'lmasa uni shu yerning o'zida bo'g'ib qo'yagolardi Zamirbek.

– Shu paytgacha borib qaytardik, aka. Yuring, qo'lingizni quruq qo'yamayman.

– Nimalar deyapsan, uka? Men olsam, qilgan xizmatimga olaman. Tayinli bir narsa bermay turib og'iz ko'pirirma, uqdingmi? To'g'risi men charchaganman, dam olishim kerak. Vaqtimni bekorga olma...

Eshik xayr-xo'shsiz taraqlab yopildi. Bor umidi sarob bo'lgan Zamirbekning a'zoyibadani g'azabnok titray boshladi. Mahkam tugilgan mushtlari uyiga yetib, tana harorati otashday qiziyotgan o'g'lini ayolining qo'lidan olayotganida arang ochilgan yigit zavjasi so'rashidan avvalroq: «Tabib uyida yo'q ekan», deb qo'yagoldi. To'g'risini aytisa ham bo'lardi, biroq u bunday tarbiya olmagan. Bolaligidan g'iybatni xush ko'rmaydi. Ehtimol buning nimasi g'iybat, bor gap-ku, dersiz. Yo'q, har qanday odamning orgasidan aytilgan salbiy gap g'iybat, bilsangiz.

Darvoqe, Abu Hurayra (raziallohu anhu) ning rivoyat qilishlaricha: «Rasululloh (sallollohu alayhivasallam): «G'iybat nima ekanligini bilasizlarmi?» dedilar. Sahobalar: «Alloh va Rasuli biladi», deb javob berdilar. Rasululloh (s.a.v.): «G'iybat bir birodaringni orgasidan o'zi eshitisa yomon ko'radigan sifat bilan gapirishingdir», dedilar. Shundi

ulardan biri: «Agar birodaringda men aytgan o'sha sifat bor bo'lsa ham g'iybat bo'ladimi?» deb so'radi. Rasululloh (s.a.v.): «Unda bor aybni aytilgan bo'lsang, g'iybat qilgan bo'lasan. Agar men aytgan sifat unda bo'lmasa, bo'hton qilgan bo'lasan», deb javob berdilar».

...Tun yarמידan og'ib, tong shu'la tashlay boshlagan chog'da tobora madori qochib, holsiz nafas olayotgan farishtaday begunoh bolaning kirtaygan nursiz ko'zlari bir-biriga ayqashib qolgan ninjon mijgonlari osha bir nuqtaga qidalib qoldi. Hovli o'rtasidagi supaga suyanib o'sgan tut barglari birdan shitirlab, bemavrid uzilgan bir donagina yam-yashil yaproq ota qochog'idagi norasida ko'ksiga tushdi. Negadir ko'ngli allanechuk bo'lib ketgan Zamirbek yalt etib yuqoriga – tut novdalari orasiga qaradi. Jim-jitlik. Ammo ro'paradagi peshayvon ustunlari orasiga tortilgan simli dordan qo'noq topgan quldug'ochlar nimadandir bezovtalangandek, g'ayritabiiy chug'urlashgancha o'rinlarini almashishdi. Haligina ko'kka ko'tarila boshlagan pug'a-pag'a bulutlar ortida bir ko'rinish, bir ko'rinmay turgan to'lin oy yuzini endi qibladan kongan kuchli shamol keltirgan sur bulut butunlay boqilib, borliqqa zulmat cho'kkanday bo'ldi.

– Voydod! Bola-a-m, bolajonim!!! Endi nima qilman?! Sensiz qanday yashayman?...

Oqshomning avvalida Zamirbek baqirib chaqirib, tovushi bo'g'ilib tabibni arang uyg'otgan bo'lsa, endi jigargo'shasidan ayrilib yurak-bag'ri ezilgan ona farjodi butun qishloqni larzaga soldi. Bu mahzun nola bir zunda qo'ng'oshnilarini chorlab, hovlini odamga to'ldirdi. Hademay uzoq-yaqindagi xesh-aqrabolar ham yetib kelishdi. Ammo tabib ko'rimadi. Mayli uning kelmagani ham ma'qul. Shu tobda ko'rib qolsa, Zamirbek uni ayab o'tirmaydi. Chunki u tabibdan shunday xafaki, bor dunyosi qorong'i!

Zuvaladaygina jonsiz jussani bilaklarida tutgancha, qabristongacha mahkam quchilib borgan ota dilporasini tuproqqa topshirib qaytayotganda go'rkovga xabar keldi: «Joy hozirlar ekansiz, tabib olamdan o'tibdi...» Hayrardan lol qolgan Zamirbek ortiq hech narsani uqmad. «Haqiqiy qasos Haqdandir», degan hayotiy hikmatning bejiz aytilmaganiга amin bo'lib, tabibdan ranjib la'natlaganiga ich-ichidan achingancha xayol ummoniga g'arq bo'ldi. Hech qayerda yozilmagan, biroq davomiyligini hech kim inkor etolmaydigan tabiiy qonunga bo'yusinishga majburligini his etgan odamlar esa quyosh qiyomga chiqmay tobudagi mayitni bir-biriga yelkalari uzra oshirishgancha ko'tarib yo'lga tushishdi. Ta'bir joiz bo'lsa, qabriston tomon shoshayotganlar

oqayotgan daryoga o'xshasa, yog'och otga mingan tabibning jasadi misli bir qamishdek qulqib borardi. Uning oqshomdagi sir-sinoatlarga boy bu muham dunyoga ustun bo'ladigandek vafotidan asar ham yo'q edi. O'ylab o'yining adlog'iga yetolmay karaxt bo'lgan Zamirbek: «Ala mayli, hammamiz ham xom sut emgan bandamiz-da!» deya chuqur so'lish oldi...

IZG'IRINLI KUN

Bahorning ilk pallasi. Harorat hali isib ulgurmagan, odamlar issiq kiyimlarini ham yechmagan. Qishloq xonadonlari mo'rilaridan burqsib chiqayotgan tutun yig'lsa, ulkan bir zavodnikidan kam bo'lmaydi. Karimning uyidagi chiroq tonggacha o'chmadi. Uning o'g'li Suhrob uchun go'yo tong otmasa, u onasidan ayrilmasa. Oyguning bu ishi tabiatga ham yopmayotganday tun bo'yi shivalagan yomg'ir tongga yaqin qorga aylanib, kuchsiz yog'a boshladi.

Qani endi chindan ham bu tong otmasa-yu, ular bir-biridan ayrilishmasa. Biroq tong yorisha boshladi, Suhrobning yuragidagi xavotir kuchaydi. Sho'rlik bolaning yig'i aralash yalinishi onaga kor qilmadi. Gulya boshchiligidagi bir guruh ayollar ishlash uchun xorijga yo'l olishdi.

Karim ham, o'g'li ham norozi. Faqat Oyguning ko'nglida shirin entikish. Go'yo u yoqlarda pul chiqaradigan dasgoh tayyor turganday.

Oyguni hech kim kuzatmadi. U uydan yolg'iz o'zi chiqib ketdi. Ostona hatlayotib negadir ortiga o'g'iridi. Deraza yonida dag'-dag' titragancha yig'layotgan Suhrobning yuzlarini shashqator yosh yuvardi. «Buni ko'rsa, Oygul insofga kelar, o'g'lini ko'zi qiyamay shahitidan qaytar», degan o'y yashindek chagnadi Karimning boshida. Yo'q, Oygul qaroridan qaytmadi. «Men endi kuzgi izg'irinli kunlarda qaytaman», deya eshikni yopdi.

Bir guruh ko'ngillilar Gulyaga ergashgancha o'zga yurtlarga jo'nash uchun shay. Faqat ularni olib ketadigan mashina haydovchisi biroz kechikdi. Oygul mashinaga o'tirar ekan, o'z uyi tomon yana bir bor qaradi. Hech kim ko'rimadi. Avtomashina yengil silkinib, o'rindan qo'zg'aldi. Oldinda ularni nimalar kutmoqda, buni Gulyadan bo'lak biror kimsa bilmasdi. U orqa o'rindiqdagilarga qarab: «Bo'shashmanglar, hali katta daromad bilan qaytasizlar», dedi-da, haydovchiga ko'z qirini tashlagancha, miyig'ida kulib qo'ydi...

Suhrob shu kundan e'tiboran izg'irinli kun boshlanishini intizor kuta boshladi. Bechora bolaning kundan kunga rang-ro'yi sarg'ayib,

qarog'лари cho'kib borardi. Karim esa erta uzilgan chechakday so'lib borayotgan bolasiga termulgancha ayolini tinmay koyirdi. Har kimga ham alam qiladi-da, barq urib o'sib kelayotgan niholday bolasining ona mehriga tashna holda so'nib borishi. Balki sho'rlik bola onasi boshiga tushadigan musibatlarni tushlarida ko'rib qiyinalayotgandir. Biroq, u onasining odam tanimas darajada o'zgarib ketganini tushummasdi. Faqat onasini ko'rishni istardi, xolos. Qani endi onasi kelsa-yu, uni bag'riga bossa. Mayli uning sovg'a-salomlari ham kerak emas, u uchun faqat onasi kelsa bas!..

Oradan qancha vaqt o'tdi. Suhrobgga endi hech narsaning qizig'i yo'qday. Uning nazdida go'yo kuz qaytib kelmaydiganday. Shunday kunlarning birida osmonni birdan quyuc qora bulut qopladi. Tashqarida nimadir yog'a boshladi. Bola umid bilan deraza oldiga intildi. Biroq tashqarida shartos yomg'ir yog'ayotgan edi.

– Dada, meni bag'ringizga bosing, qo'yib yubormang, izg'irinli kungacha quchog'ingizda saqlang, – dedi Suhrob.

– Sabr qil, o'g'lim. Kunlar soviib qoldi, tonggacha izg'irin ham boshlanib qolar, – deya o'g'liga umid bag'ishladi ota.

– Onam keladimi?

– Keladi bolam, keladi...

Chindan ham tongga yaqin izg'irin boshlandi. Jonsarak holda yotgan Suhrob avval derazaga bir qaradi-da, so'ng eshikka termuldi. Tiq etgan tovushga ham quloqlarini ding qilib uzog yotdi. Yo'q, hech kim kelgani yo'q. Sabri emas, umri tugab borayotgan bolaning ko'zlarida halqalangan yosh so'lg'in chehrasini asta yuvgancha pastga dumaladi. Ota o'g'lini ovutish uchun anchedan buyon qo'lliga olmagan, tog' echkisining achchiq ichagidan yasalgan uch qili qo'bizini mungli ohangga solib cherta boshladi. Qo'biz atrofga goh mahzun sas taratsa, goh yer titragan ot tuyoqlari dupiriday ko'ngilga quvvat berardi.

Borgan sari avjiga minayotgan izg'irin asta deraza oynalarini cherta boshladi. Ko'pdan beri uyqudan bosh ko'tarmay yotishni odat qilgan Olapar kutilmaganda, uy qarshisidagi yonbag'irga chiqib, uvillay boshladi. «Hey, ovozingni o'chir, boshingga ko'ringur!» deya qo'bizini xona burchagiga uloqlirgan Karim o'g'li tomon intildi. Uni mahkam quchib, yuzlaridan o'pdi. Nursiz ko'zlari bir nuqtaga qadalgan siniq chehra tobora sovib bormoqda edi. Olaparning uvillashi esa tinay demasdi. Karim ich-eitini yegancha, Suhrobni mahkam bag'irga bosib, o'ksib-o'ksib yig'lay boshladi...

ASL ODAM ADASHMAYDI

Al ayot juda qiziq. Kechagina qiyinchiliklardan boshini qayerga urishni bilmay yurgan Bibiniso bugun farzandlari ardog'ida. Hatto qatordagi qaynona bo'lishga ham ulgardi. U bu sharafiga yetguncha ne-ne zahmatlarni boshidan o'tkazmadi. Bugun esa undan baxtli odam yo'q. Ilk nevarasining yoqimtoy qiliqlari, kelining mehribonchiligi, farzandlarining mo'min-qobil bo'lib voyaga yetganini ko'rib, u o'tgan kunlariga achinmaydi. Hozirgi turmushiga shukronalar keltirib, halollikda hikmat ko'pligidan quvonib yashaydi. Turmush o'trog'idan erta ajragan bu ayol velkasini taqdir zarbalariga yolg'iz tutgan bo'lsa-da, hayotning baland-pastliklaridan birdek mag'rur o'ta oldi. Farzandlarini ota mehriga tushna qilmadi. Ularga doim halol mehnati mevasini yedirdi, haromdan hazar qilib yashashni o'rgatdi. Eldan erta turib, kech yotdi.

Yerga mehrini berib, tinimsiz mehnat qildi. Bu ishlarni Bibiniso yolg'iz bajarishga majbur edi. Chunki erini tuproqqa topshirgan damlarda uning farzandlari hali ketmon ushlashni emas, supurgi tutishni ham eplolmaydigan bolalar edi. Ehtimol ana shu jaji o'g'li-qizlarini oyoqqa turg'izish, qatorga qo'shish ilinji uning barcha

ishlarga ulgurishiga, ba'zi erkaklardan-da, matonati bo'lishiga quvvat bo'lgandir.

Darhaqiqat, bu ehtimol emas, bor gap. Bir safar ukasi Qosimning shohidligida onasining: «Qizim agar yaxshi bir inson bo'lsa, turmush qursang bo'lardi» degan taklifga: «Yo'q, onajon! Men nabiralaringiz ko'zlarini javdiratib aslo turmush qurmayman. Endigi hayotimni ularning baxti uchun bag'ishlayman. Sira xavotir bo'lmang, men oilamiz sha'niga ham, o'zimning nomimga ham isnod keltirmayman. Yodingizda bo'lsa, rahmatlik buyam: «Asl odam adashmaydi, bolalarim», degan gapni bot-bot aytardi. Men ham o'zinni buyam nazarda tutgan aslning bir zarrasi deb bilaman» deya yig'lab yuborgandi. Qosim esa bu gapni botinam ma'qullab tursa-da, opasining ko'ngli uchun onasini koyigandek bo'lgandi. Garchi bu taklif ko'pdan o'zini ham o'ylantirib yurgan bo'lsa-da, dildagini tiliga chiqarib qo'ymaganidan quvongan holda, opasiga oldingidan-da, ko'proq yordam bera boshlagandi.

Ha, umr deganlari bannisoli ogar daryo ekan, Shiddat bilan olg'a intilib qancha kunlarni, necha yillarni ortda qoldirdi. Qosim opasidan bir xabar olish maqsadida yo'lga tushdi. Bahor fasli emasmi, maydalab yog'ayotgan yomg'ir tanga huzur bag'ishlaydi. Opasining uyiga kirib borar ekan,

jiyan kelini uni iliq qarshi olib, ichkariga taklif qildi. Qosim darvozaxona to'ridagi baland so'rda o'tirgan opasini ko'rib quvondi, havas qildi. Uning o'tirishi o'ziga chunonam yarashganki, xuddi taxida o'tirgan malikalardek. Bibiniso ham o'midan asta turib, ukasini ochiq chehra bilan so'riga taklif etdi. Opasi bilan so'rashar ekan, uning ko'zida quvonch chaqnardi.

Haligina shivalayotgan yomg'ir tinib, Boboquyosh borliqqa yana yog'du socha boshladi. Qosim atrofga o'ychan nigoh tashladi. So'ri yonidagi o'rik barglarining uchiga ora-sira sirqan tomchilar pag'a-pag'a bo'lib bo'laklarga bo'linayotgan bulutlar orasidan mo'ralayotgan kun nurida billurdek tovlamoqda. Fasllar kelinchagi ko'klamning o'kinchi yomg'iriga yuzini chaygan yam-yashil yaproqlarning sarin shabadada yengil titrashi ham ajib manzara kashf etgan. Shu tobda bunday betakror go'zalliklarni opasi matonatiga mengzagan Qosimning qalbi iftixorga to'lib-toshdi. Zero u, har qancha quvonib, dengizdek jo'shsa arziydi. Chunki opasi Bibiniso buyasi ta'kidlaganidek, asl odam adashmasligini amalda isbotlab ulgurgan edi-da!

MUNG BOSMASIN MAJNUNTOLLARNI

Borliqni o'rab turgan ona tabiat naqadar go'zal. Ko'zni quvontiradigan gullar, dasturxonlarimizni bezayotgan mevalar va issiqlikdan saqlayotgan daraxtlar. Bu go'zalliklarni ko'rib, his qilib, diling yayraydi. Asrlarni qaritgan archa va vigorli chinorlarni ko'rib, tabiat bizni umrbod asrashini his etib quvonamiz. Yo'llar va yo'laklar chetiga ekilgan nihollar ham ertaga bo'y cho'zib, ko'chalarimiz ko'rkiga ko'rk bag'ishlaydi. Kerak bo'lsa, ular – siz-u biz yulayotgan havoni ham tozalaydi. Qarang, tabiatning insoniyatga berayotgan hadsiz mehri. Xuddi mehribon onaga o'xshaydi. Ehtimol shuning uchun uni ona tabiat desak, kerak! Lekin shunday kimsalar borki, shu ona tabiatni yig'lashga majbur qilmogda.

Sodiq o'z shahrining ko'rkiga ko'rk berayotgan bog'lardan birini oralab borar ekan, u yerdagi ayrim holatlarni ko'rib lol bo'ldi. Bir zum karaxt holda turdi-da, asta suv yogasidagi soyasi quyuv majnuntol tomon yurdi. Uning suvga tekkan shoxlarini ko'rib, biroz zavq oldi. Ammo bu ham uzoq cho'zilmadi. Majnuntol tanasidan sizayotgan suv xuddi unsiz yig'layotgan boladek uni sergak tortirdi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, tol tanasiga kimdir «A» harfi bilan telefon

raqamini yozib qoldiribdi. Sizayotgan suvni majnuntolning o'yib yozilgan joyidan oqayotgan yoshdek his etgan yigit ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Hozirgina suvga yuzini chayayotgandek unga zavq bergan majnuntol shoxlari endi u uchun naqadar mungli, naqadar dardli, naqadar g'amgin bo'zlayotgandek edi:

«Ey odamlar, nega shundaysizlar? Biringiz qo'llab ko'kartirsangiz, biringiz xo'rlab tanani tinaysiz. Mening aybim nima? Soyamni ko'lanka qilganimmi yoki egilgan shoxlarimmi? Agar bilsangiz, shu shoxlarning egilishida ham sizlarning hissangiz bor. Chunki har kuni turfa odamlar shu yerga kelib dardlashadilar. Kimlardir kimga mening soyamda sevgi izhor qiladi. Ba'zilar esa bir-birini shu yerda aldash, badnom qilib, bu yolg'onlarga meni ham guvoh etib ketishadi. Bu ham yetmagandek mana bunday tanamni o'yib, yaralayotganlari qancha? Necha-necha yaralarni vaqt davolab bitirdi. Ammo, yana qanchasi ko'ksimni kemiradi, bilmayman.

Men suvning sovuqligidan emas, balki shunday iblis kimsalar orangizda borligidan titrayman. Ularni ko'rganda daraxt bo'lib yaralganimdan ham quvonaman. Mayli sizlardek o'ynab-kulmasam ham, goh qoqilib, goh to'g'ri yurmasam ham, tanamdagi yozuvlarni o'qiy olmasam ham, hartugul birovga ziyonim

tegmaydi-ku! Ey inson deya atalguvchi ulug' zot! Men hamma shunday demogchi emasman. Yaxshilar ham ko'p hali dunyoda. Shuning uchun dunyo ko'rkam, olan go'zal... Aks holda allaqachon borliq ostin-ustun bo'lib ketardi-yov'! Yana qaydam...»

Ha, chuqur o'yga tolgan Sodiqqa majnuntol shunday nido bilan shivirlagandek edi. U diqqatini jamlab, yana o'yga toldi. Dunyoning burchak-burchaklarida turli ofatlar bo'layotganini yodga oldi. Kunchiqar tarafda borliqni yer yutayotgan bo'lsa, G'arbdagilarning toshqinlarga g'arq bo'lishi ayanchli. Ummun ortidagilarning to'fonlar girdobida qolishi ham achinarli. Nahotki bizning nojoiz ishlarimizdan tabiat tebranib toshayotgan bo'lsa? Noshudigimizdan bardoshi tugab, qahr o'tiga minsa?.. Bunday hadsiz savollarga javob topolmay qiyналgan Sodiq ovoziining boricha: «Hoy, Siz, azizlar! Keling, bemehrlikka barham beraylik. Siz-u bizning kasrimizga mung bosmasin majnuntollarni» deya hayqirib yuborayozdi...

OXIRZAMON NISHONASIMI?

*A*bror oilaning kenja farzandi. Uning bu yil oila qursam, degan niyati bor. Dalada dehqonchilik qilib oilani ta'minlaydigan u

va kichik akasi Sobir. Kuzda xirmonlari barakali bo'lganidan quvongan akasi oilaning qishki zaxirasidan ortgan daromadiga uch-to'rt bosh mol olib, qolganini keyingi yil dala ishlariga sarflash uchun saqlab qo'ygandi. Aborning niyatini anglagach, biroz o'ylanib qoldi. So'ng bu gapni tirmush o'tog'iga aytdi. Nigora buni yaxshi qabul qilib: «Keling, bu yilgi foydamizga shu ukangizni boshini ikkita qilamiz bo'lmasam», deyishidan Sobirning ko'ngli tog'dek bo'ldi. Ammo ayolining: «Akangiz ham yordam berar» deganidan yana o'yga botib: «Bilmadim, uning uy-joyi bo'lak. O'ziga yarasha tashvishi bor» deb qo'yagoldi.

Chunki u akasining fe'lini yaxshi bilardi. Bundan ikki yil avval Akmal ukalarini bog'idan chetlatib, o'zi bilan o'zi bo'lib ketgandi. O'sha yili oilasi ancha tang ahvolda qolib, qishdan narang chiqqanini eslagan Sobir ichdan zil keldi: «Nahotki akam bermagan mehri shu ayol bersa...». Ertasi kuni nonushta vaqtida o'g'ildan bu gapni eshitgan ona quvonchini ko'rsangiz edi.

Akmalning: «Mendan muruvvat kutmanglar» deyishiga qaramay, uyidagilari Aborni qo'shni mahalladagi o'zi ko'ngil qo'ygan qizga unashtirishdi. Ko'p o'tmay to'y ham boshlandi. Uyg'a kelin kelishidan atigi bir kun oldin kelgan katta aka: «Hamma narsa taxtmi?» dedi bir tuki

qilt etmay. Lekin hamma: «Bu ishini yaxshi qilibsan, otangga balli, Akmal!» deya unga tashakkurlar aytardi. U esa: «Rahmat, rahmat!» degancha pinagini buzmay turardi. Uning bunchalik suritigini ko'rib, uyimizdagi kuchuk bilan mushuk o'rtasida yuz bergan bir hayotiy voqeani esladim.

...O'shanda men endi maktabga borgandim. Uydagi kichkinagina mushugimiz bo'lardi. Kunlarning birida dadam yoshgina kuchukbola olib keldi. Buni qarangki, tez orada haligil kuchukbola mushuk bilan birga o'ynaydigan bo'lib qoldi. Bunga hamma hayron qolardi, jumladan, o'zimiz ham. Ammo bir kuni tongda turib qarasa, kuchukcha qimirlamay yotardi. Mushuk esa uning bo'yiga boshini qo'yib olgan. Avvaliga ularga ahamiyat bermadik, keyin dadam: «Yo'lbars, Yo'lbars!» deya kuchukni chaqirdi. Kelmagach, ularning oldiga o'zi bordi. Ne ko'z bilan ko'raylikki, kuchukcha o'lik holda yotardi. Mushuk esa uning bo'yidan bosh ko'tarmasdi. Bu holatdan dastavval lol bo'lgan dadam kuchukning o'ligini qayogqadir oborib ko'mib keldi. Mushuk esa shu yerda uch kungacha ketmay aylanib yurdi-da, to'rtinchi kuni qayogqadir g'oyib bo'ldi. Shu-shu u qaytib kelmadi...

Qarang, birining soyasini ikkinchisi xushlamaydigan bu ikki uy jonivorlari bir-

biriga qanchalik mehr qo'yishgan. Hatto do'stlashib ham ulgurishgan. Nahotki hozirda bu'zi insonlar orasida ular o'rtasidagidek ham mehr qolmayotgan bo'lsa? Yoki bu chindan ham oxirzamon nishonasimikan-a? Yo'q, yo'q... Bundan Yaratganning o'zi asrasini!

TASHNALIK

Tandirdek qizib yotgan qumli sahroda adashgan yo'lovchi bir qultum suvga butun umrini almashgudek changab borardi. U quncha yo'l yurganini va qayogga ketayotganini o'zi bilmasdi. Hozir u uchun bir qultum suvdan azizroq narsa yo'qqa o'xshardi. Shunda xuddi o'ziga o'xshagan, biroq cho'l sharoitini yaxshi bilganidan yelkasiga matodan tikilgan xalta ilib olgan bir odam uning qarshisidan chiqdi. Adashgan yo'lovchining holsizgina rang harakatlardan, qurib qolgan lablaridan changaganini anglash qiyin emasdi. Boyagi sahro sharoitini bilgan kishi unga xaltasidan suv solingan idishni uzatdi. Adashgan yo'lovchi tezda uni olib ichdi-da, changog'i qongach, o'zining ndashib qolganini unga aytdi. Ular unchalik ko'p ham yurmasdan, bir cho'pon chodirining oldidan chiqishdi.

Cho'pon juda ochiqko'ngil, mehmondo'st odam edi. Kelganlarni tezda ichkariga olib kirib, ularning ko'nglini topishga harakat qildi. Mehmonlar negadir uning tanimagan odamga bunchalik mehribonchilik qilayotganini tushunmayotgan bo'lsalar-da, biroq hech narsa bilmaganday o'tirishardi. Kun botib, borliqqa sukunat cho'mdi, osmonda oy va yulduzlar charaqlab ko'rinar edi. Bu o'zgacha bir zavqli edi. Shunda bir-biri bilan endigina tanishgan uchovlon o'rtasida qiziq bir gurgung boshlandi.

Adashgan yo'lovchi o'ziga suv bergan boyagi xaltali insonga yana bir bor rahmatlar aytdi. Uning so'zlariga cho'pon ham qo'shildi. So'ng tanimagan odamlarga bunchalik iltifot ko'rsatgan cho'ponning harakatlardan hayratlangan ikki yo'lovchi undan so'radi:

– Ey mehribon odam, bizni xuddi avvaldan biladigan qadrdonlarday iltifot ko'rsatdingiz yoki bizni chindan ham tanisizmi?

– Sizlarni endigina ko'rib turibman, – dedi cho'pon.

– Unda bizga shuncha hurmat ko'rsatishning boisi ne, – deb so'rashdi yo'lovchilar.

– Sizlar bu yo'llardan ko'p yurganmisizlar? – deya so'radi cho'pon ularga qarab.

Cho'pon ular dan: «Yo'q» degan bir xil javob eshitgach, o'zining bu sahralarda uzoq yillardan

huyon cho'ponlik qilishini aytdi va ularga qarab:

«Men bergan suv changog'ingizni bosdimi, oldingizga qo'ygan taomlarim qorningizni to'yirdimi?» deya so'radi. Yo'lovchilar

uning qo'li ochiqligidan ko'ngillari to'lganini aytishdi. Cho'pon ham ularga rahmat aytib:

«Ko'rdilaringizmi, odam bolasi shunday.

Barcha narsaga to'yishi mumkin, biroq mehriyeva atalmish benazir ne'matga hech qachon tushnaligi qonmaydi», dedi-da, o'zi eshitgan bir afsonani hikoya qila boshladi.

...Bu sahrada bir adashgan darvesh kezib

yurar ekan. U odamlarning oldidan chiqib qolsa, bir gultum suvga butun mehningizni qo'shib bering deb qo'yarkan. Menga mehr bersalaringizga men yashashda davom etaman, bo'lmasa nobud bo'lishim mumkin der ekan. Shu yaqin yillarda uni ko'rdim degan odamni eshitmadim. Balki u mehrga tashnalikdan qayerdadir holsiz yotgandur. Shunday holga biz ham tushmasligimiz uchun bir-birimizga mehri bo'lishimizdan hayratlanmang, azizlar!

OLTIN ZANGLAMAYDI, KO'NGIL-CHI?

Rechasi bilan bo'ralagan qor tongga yaqin yerga asta o'ynoqlab qo'na boshladi. Atrof oppoq. Intizor kutgan damlari

kelganidan quvongan bolalar qorda goh dumalab, goh o' mbaloq oshib o' ynashmoqda. Bu quvonch ular zerikmaguncha davom etaveradi. Chunki ular yashaydigan qishloq tog' ga yaqin bo' lganidan qor ustma-ust yog' adi, bahorning oxiriga borib arang eriydi. Ko' chada kichikintoylarning o' yin- kulgusi avjiga minayotganiga hamohangdek, Sanobar opalarnikidagi janjal tobora ildiz olib bormoqda.

— Sen ko' rmasang qayoqqa yo' qoladi? — dedi qaynona keliniga. — Keecha o' z qo' lim bilan berdim, to' g'rimi? Bugun bir tukung qilt etmay: «Men bilmayman», deysan. Axir u onamdan qolgan yagona yodgorlik...

— Ayb menda oyjon... Biroq men shu yerga qo' ygandim-da! Meni kechiring... — deydi zorlanadi Shahodat o' zini qo' yarga joy topolmay. Ammo allaqachon g' azab otiga mingan qaynona qani endi bu gaplarga ishonsa, to' g' rirrog' i bu gaplarni eshitsa. Chindan ham Shahodat shu kungacha bu uydan ninani ham so' roqsiz olmagan. Biroq qurmagur zirak qayerga yo' qoldi? Nega hech kim ko' rdim demaydi? Go' yo yer yutganday, Shahodat birma-bir hamma narsani eslay boshladi. Qaynonasining yig' indan qaytib kelganidan boshlab, to' oqshomda uyquga yotguncha bo' lgan vaqtda uyga birorta begona kirmadi... Ha, hech kim kelmadi...

Aniq yodida, qaynonasi Sanobar opa nevarasini ergashtirib keldi. Shahodat ularni ochiq chehra bilan qarshilab, qo' lidagi tog' orani oldi. U uch-to' rt qadam yurmay qaynonasining qulog' idagi ziragini yechib, unga uzatgani ham rost. Boshqa hech narsa bo' lmadi... Hech kim kelmadi ham... Lekin shu kundan boshlab uydan janjal arimay qoldi. Ertaga nima bo' lishini odamzod oldindan bilganida edi, oltinni qadr tutganlar o' z qadrlarini qaritmagan bo' larmidi?!

Mana yana qorlar erib, ona tabiat asta uyg' ona boshladi. Baraka urug' lari zaminiga nish urib, maysalar ko' kka bo' y cho' zgancha, borliq yashillikka burkannmoqda. Kulgan kurtaklar go' zalligiga ko' z to' ymaydi. Ammo Shahodatning ichiga chiroq yoqsa yorishmaydi, ko' ngli g' ash uning. Oyloqlari tagrida ezig' ilanayotgan maysalarga zarracha e' tibor bermay borayotgan ayol nigohlari yashillik orasida yarim loyga botib yotgan yaltiroq jismga tushganda vujudi allanechuk bo' lib ketdi. Yuragi qafasda potirloyotgan kaklikday entikib ketdi uning. Nahotki yo' qolgan zirak shu bo' lsa?!

Ming bir hadik iskanjasidagi Shahodat bahor quyoshida tovlanayotgan jismga asta qo' l uzatdi. Ha, bu o' sha yo' qolgan zirakning o' zginasi. Qarang, tilla zirak shuncha vaqt qor tagida qolib ketisa ham zanglamadi. Biroq u topilguncha

malomatga belangan ko'ngilini shunday qurum bosdiki, pokiza qalbdagi mehr-u oqibat go'yo temirni zang yemirgandek yemirilib ulgurdi...

TUNGI KAPALAK

Tabiilik vaqtdan o'zganday. Fasllar almashinuvi ham tezlashib, hatto har bir kun bizdan uzoqlashishga urinayotgandek go'yo. Mana yana bir kun poyomiga yetib, Boboquyosh ufqqa bosh qo'yish arafasida. Bir juft kapalak jon holatda uchib, qayoqgadir shoshib ketmoqda. Qani imkon bo'lsa-yu, ularga shoshilmanglar deya tushuntirang yoki o'zlari oldinda ularni nimalar kutayotganini, «tungi kapalaklar»ning qo'lga tushib, nobud bo'lishlarini bilishsa.

Biroq juft bo'lganlar faqat u ikkisi emas-da! Qo'l ushlashgan yoshlar u yoqdan-bu yoqqa mayda qadamlar tashlab, shoshilmay odimlab borishardi. Tobora kun yog'dusi xiralashib, tun pardasi borliqni qoplardi. Sohildagi novdalari egik daraxt tagidagi o'rindiqda beo'xshov o'tirganlarning xayollari tamoman boshqa tarafdarda. Taqdirning o'yinini qarang, haligi kapalaklar ham daraxtga borib qo'ndi. Ular uchun eng tinch joy shu yerday, go'yo. Aslida ham

shunday, atrofdagilardan uyalgan «uyatli»larga bu o'rindiq vaqtinchalik oshyon, xolos...

– Voy qarang, anavi kapalaklarning go'zalligini, – dedi qiz yigitga erkalanib.

– Omondagi oyga bo'lmasa-da, shu ikki kapalakka qo'lim yetadi, – degancha yigit o'midan qo'zg'aldi.

Ko'p o'tmay har ikki kapalak tutqunga aylandi. Ular bechora kapalaklarning go'zalligini biroz tomosha qilgan bo'lishdi. Yigiting bolalikdagi bezoriliklari yodiga tushib ketdimi, kapalaklar qanoqlarining yarmidan asta sindirib: «Hozir kapalaklar raqsini ko'rasan» dedi-da, ularni yerga qo'ydi. Kapalaklar endi chinakamiga jon holatda uchishga, bu yerdan olis-olislariga ketishga urina boshlashdi. Sho'rliklarning bu sarosimali harakataridan o'zlaricha huzur olganlar esa, tezda o'zlari bilan o'zlari bo'lib ketishdi. Yigit qizga: «Sen ham mening kapalagimsan, faqat tungi kapalagimsan» deb erkatishtigiga tushdi...

Shu alfozda uchinchi «tungi kapalak»ning ham qanoti qayildi. Faqat ularning ikkisi shikasta qanotlari bilan bo'lsa-da, tutqunlikdan qutulishga talpingan bo'lsa, o'z inon-ixtiyori bilan borini boy bergan «tungi kapalak» esa, eng o'jiz yo'lni tanlab, o'zini shiddatli daryo domiga otdi.

Ammo jonni tanadan haydash u o'ylaganday oson emasdi. Shu bois ham u yana yashash uchun kurashga kirishdi. Qanday qilib bo'lmasin qirg'oqqa chiqib olishga intildi. Uning bu harakatlari bor-yo'g'i bir kungina umr ko'radigan kechagi kapalaklar raqsidan fargisiz edi, go'yo...

QARIMAYDIGAN ODAM

Qamoqdagilar orasidan kimdir kutilmaganda o'rtaga: «Qanday odam qarimaydi?» deya savol tashlab qoldi. Avvaliga o'tirganlar biroz jimib turishdi-da, keyin ko'pchilik «Baxti odam qarimaydi» dedilar. Yaqindagina ish boshlagan Islomni aytmaganda, o'tirganlarning hammasi katta yoshdagi odamlar edi.

– Barcha o'zini baxti deb, shu bilan birga baxtsiz ham deb biladi-ku, – dedi Sohib aka. Hamma u kishiga qaradi. – Yoki gapim xatomi? Inson qalbi shunday, kichik bir quvonchdan o'zini baxtiyor his etsa, yana bir shunchaki ko'ngilsizlikdan taqdimni ayblab, baxti qaroligidan noliydi. Oramizdagi eng baxti odamga kelsak, u Islom. Sababi u hali juda yosh, hayotdan ko'radigani oldinda. Qolaversa, u mana shunday dorilamon davrda tug'ildi.

Sohib aka o'ylanib gapirar ekan, qo'lidagi ko'zoynagini taqdi-da, u yoqdan-bu yoqqa ketayotgan odamlarga biroz o'ychan tikilib, yana so'zida davom etdi:

– Yoshlikning o'zi ulkan baxt, ana o'sha yoshlikdagi biz eslay olmaydigan shirin xotiralarni ota-onalarimiz bizga aytib beradi. Ota-ona shunday bir daryoki, farzandining yoshi nechada bo'lsa ham, ular uchun u bir umr bola bo'lib qolaveradi. Demak, ota-onasi hayot odam baxtli, u aslo qarimaydi.

AYRIMLAR QIZIQ

Sharipboyning keyingi haftada katta yig'in, u o'g'lini uylantirmoqchi. Hammaning og'zida shu gap. Ba'zilar: «Boy butun hovlisiga g'ilam to'shar ekan» desa, yana kimdir... Xullas, hamma o'z tasavvuri darajasidagi gap-so'zlarni aytib yuritibdi. Biroq inuq bir xulosa yo'q. Hammasi «Dedi-dedi», «Eshitishimcha...» va yana shunga o'xshagan gaplar. Kelayotgan ikki qo'shni ham shu to'y to'g'risida so'z yuritishmoqda.

– Sharipboy aka sizni to'yga chaqirdimi? – bo'radi Kozim.

– Ha, kecha taklifnoma berdi, – dedi Akbar. – Alohida chaqiribdi-da, endi siz oliy ma'lumotli odamsiz. Bizni og'zaki aytisa ham yetardi.

– Nima sizni chaqirmadimi?

– Ha, chaqirmadi.

– Unutgandir, chaqiradi. U hech kimni o'zidan qoldirmaydi. Aytgancha, yaqinda

ukangizni uylantirdingiz shekilli, to'yga chaqirganimdizingiz? Men ham to'yingizni eshidim, biroq o'zingiz indamagandan keyin uning qayerda va qanday bo'lgani bilan qiziqqanim yo'q.

Bu gaplardan Kozimning ko'zlari pirlirib ketdi. Xuddi aybdor odamdek yuzlariga qizillik yugurdi.

– To'yxonada ixchamgina qilib o'tkazib qo'yagoldik, shundan... – dedi u yengil shabadada asta tebrananayotgan terakka termulib.

Kutilmaganda oraga sukunat cho'mib, ularning subhati ortiq qovushmadi. Qo'shnilar Akbarning eshigiga yetgach, bo'shgina xayrlashishdi. «Ayrimlar qiziq, o'zlari esdan chiqqanini e'tiborga ham olmaydi. Biroq birovning esidan chiqqanini darrov sanogdan o'tkazishadi», deya g'udranib qo'ydi Akbar darvozadan ichkariga hatlar ekan...

O'ZI INSO'F BERSIN

U akshanbadagi dam olishdan foydalanib shaharga tushgan Hakim do'sti Salim bilan bozorlarni obdan aylandi. Ushlagan narsasini endi olaman deganda undan ham chiroylirog'i ko'zga tashlanib qolaverdi. Xullas, rastalardagi buyumlar biri-biridan go'zal.

– Bozorlarimiz zo'ra-a, o'rtoq. Qara, nima izlasang bor, – dedi bundan quvongan Salim.

– Ha, nimasini aylasan, – deya Hakim uning gapini ma'qulladi. – Ammo meni bir savol qiynamoqda. Ularning narxi hamma joyda har xil, nega shunday ekan-a?

– Sifatida farqi bordir balki. Biroq hammauning ta'rifi bir xil-ku!

– Bozor mahsulotlarining sifatiga ham, tadbirkorlar ta'rifiga ham gap yo'q. Lekin ayrimlarning vijdoni jig'ildonga aylanib, birni ikkiga ham emas, uch-to'rtga baholayotgani qiynaydi odamni.

– Qo'y og'ayni, bilmagan, tushumagan narsamizga aralashmaylik. Hammaga O'zi inso'f bersin.

Shu tariqa ular bozordan bozorga o'tib, kunning qiyom bo'lganini ham payqamay qolishdi. Tayini bir narsa xarid qilmagan bo'lsalar-da, tushlik uchun tamaddi qilish ilinjida turfa oshxonalardan biriga kirishdi. Ichkarida hamma narsa o'z o'rni. Tamaddixonaning yuqori did bilan bezalgani ko'rinishi turardi. Tasodifan Hakimning ko'zi yuzlaridan nur yog'ilgan yoshi ulug' ayolga tushdi-yu, xuddi uni ilgari qayerdadir ko'rganday bo'laverdi. Lekin esolmay qiyaldi. Va nihoyat:

– O'rtoq, qarshimizda o'tirgan onaxonni sen tanimaysanmi? – deb so'radi.

– Qaysi?

– Ana ro‘paramizdagi o‘rindiqqa qara.

– Chindan ham tanishga o‘xshaydi...

Ammo ular qancha urunishmasin ayolni tanii olishmadi. Aslida ham ular bu ayolni birinchi marta ko‘rib turishgan edi. Oddiygina, yuzlari kulib turibdi. Boshidagi ro‘moli ham o‘ziga yarashgan. To‘kilib turgan ko‘ylaklarini aytmasizmi? Ular qancha harakat qilishmasin, baribir uning kimligini, qayerda ko‘rganliklarini eslay olishmadi. Aslida javob oddiy, ayolning boricha milliy an‘analarga xos kiyinganida edi. Shu bois u kimgadir emas, o‘z onalariga o‘xshardi, xolos.

CHIROG‘I O‘CHIQ UY

Qim-ziyo kecha, osmonda birorta ham yulduz ko‘rinmaydi. Shundammi yoki boshqa sababi bormi, To‘lqinning ko‘ngli g‘ash, qalbi bezovta. Go‘yo nimadir bo‘ladiganday notinch, u yoqdan-bu yoqqa tinmay yuradi. U xuddi muhim narsani kutayotgan odamga o‘xshardi. Yoki barchasiga o‘g‘lining chizgan rasmi sababchimi?

Ko‘chadagi kuchli shamol borgan sari kuchayib, vahimali tovush chiqaradi. Deraza yonidagi uzun terak shamolning kuchidan simyog‘och ushga qar sillab yiqildi. Ko‘pgina

xonadon chiroqlari o‘chdi. Chaqmoq chaqqanda atrof bir yorishdi, osmonda kuchli sado yangradi, deraza oynalari tovush to‘lqinidan zirillab ketdi. Xona chetida yotgan o‘g‘lining bezovta bo‘lganini ko‘rib, To‘lqin shahd bilan uning yoniga o‘tdi. Qorong‘ida oyog‘i qandaydir qog‘ozlarni bosganini his qildi. Bola bamaylixotir uxlab yotardi. O‘g‘li biron kinoni ko‘rsa yoki biror narsani eshitsa, yo o‘qisa, tezda qo‘liga qalam olib shu narsani rasmlarda aks ettirishga urinadi. Unda ko‘pchilikda uchramaydigan bunday o‘ziga xos odat borligi To‘lqinni doim quvontirardi.

Hozirgi tunni ko‘rganida bormi, balki u yaratadigan san‘at asarining ibtidosi bo‘larminmi deya o‘yladi, o‘g‘lining ustini yopar ekan. Deraza yoniga qaytayotib boyagi oyog‘i ostidagi qog‘ozlarni paypaslab topdi-da, qo‘lda ko‘tarib yuradigan fonarini axtara boshladi. Hozir uydagi ayoli bo‘lganida, u tezda fonarning qayerda ekanini aytardi yo topib berardi. Aksiga olib bugun u tungi smenada. Bir xayoli telefon qilib fonar qayerdaligini so‘rasammi, deb ham o‘yladi. Biroq, bu ayolini bezovta qilishga urinmaydigan narsa ekanini angladi. Sabri chidamay gugurt yorig‘ida rasmini ko‘rishga harakat qildi. Biroq u hech narsani tushunmadi. Qog‘oz faqat qoraga bo‘yalgandi, xolos. Bularni ko‘rib, uning xafsalasi pir bo‘ldi. Bu nimaning

rasmi, deganday uxlab yotgan o'g'liga bir qarab qo'ydi-da, o'zi ham yotdi.

To'liqin tong endi yorisha boshlagan mahal o'midan turdi. Qarasa, o'g'li allaqachon uyg'oni, yana nimalarnidir qog'ozga tushirayotgan ekan. Bir qarashda bolasining bu ishi ahmoqona ko'rinsa-da, ota o'g'lini koyimadi. Asta uning yoniga bordi. Ko'chada kechasi yiqilgan ulkan terakni ko'rdi. O'g'li esa otasi tushumagan rasmini yoniga qo'yib, boshqa varaqqa shu terak rasmini chizmoqda edi.

— Ota kechasi ham kapalaklar uchadimi? — so'radi u kutilmaganda.

To'g'risi, o'g'lining bu savoli uni biroz o'ylantirib qo'ydi.

— Bilmadim, ucha kerak, nega so'rayapsan?

— Tasvirlarim uchun kerak, aniqroq ayting.

Masala jiddiyligini anglagan To'liqinning esiga bir mahallar otasi aytib bergan gap tushdi. O'shanda u ham ayni shu yoshdagi bola edi, chamasi. «O'g'lim, vaqt o'tib, sen ham katta o'g'lon bo'lasan. O'shanda mana shu uyning chirog'ini doim yoqib qo'y, mening ruhim kapalak bo'lib namozshomda o'sha yorug'lik atrofiga keladi», degandi otasi.

— Uchadi, kechasi emas namozshomda uchadi, deb aytgandi rahmatlik otam menga.

— Rahmat. — Bolakay yangi qog'ozga batamom boshqa rasm chiza boshladi. Biroq u

kapalaklarni qayerga, qanday tasvirlash kerakligi haqida o'ylardi. Shu tobda birdan To'liqin o'zining yoshligi o'tgan qishloqqa otlanib qoldi.

O'g'lini ham yoniga sherik qildi. Mashinada chamasi to'rt soatlik yo'l. Ota-bola yo'lda odamlar gavjum bir joyda to'xtab, tamaddi qilib olishgach, yo'lda davom etishdi. Nihoyat ular tug'ilib o'sgan qishlog'iga yaqin joydagi bozorchedan ul-bul xarid qilish uchun to'xtashdi.

Bozor chumonam o'zgarib ketgan, zamonaviy darajaga keltirilgandi. Mahsulotlar ko'pligidanmi yoki hamma o'zini savdoga urganidanni har holda odamlar ko'chagacha chiqib olishibdi. Ular yo'l yuziga qo'lbola stollar qo'yishib, ularning ustida ham qizg'in savdo qilishardi. Ayniqsa, savdogar ayollar tortishuvi avjiga mingan. Biri:

— Nega endi sen odamlarni aldab: «Dalada yetishtirilgan qulupnaylardan opqoling», deyapsan? Axir ikkimiz ham bir joydan oldik-ku, aldamasdan sotsang-chi, — der.

— Bu savdo, eplab sotaver. Bo'lmasa sen ham shunday de. Kim ko'ribdi ikkimizning bir joydan olganimizni. Ko'rayapsan-ku, odamlar dalaniki shirin deb menikini olishayapti, — deya o'z so'zini ma'qullardi ikkinchi ayol.

To'liqin o'g'li bilan ularning yonida biroz to'xtab turdi-da, odamlarning mol-dunyo uchun hech narsadan tap tortmay qolganiga hayratlandi va: «Nahotki shunchalar tubanlashib ketdik»,

degancha yurib ketishdi. Axir kimni aldayapmiz, nega aldayapmiz? Shunga o'xshash fikrlar To'lgining xayolidan tinmay o'tardi. Ular ham aldamini-yo'qmi o'zlari ham bilmay, ota uyga quruq qo'l bilan bormaslik uchun ul-bul xarid qilishdi.

Qishloqqa kirib borar ekan, To'lgin o'zi changitgan ko'chalardan bolaligini qidirganday u yoqdan bu yoqqa qarardi. Endi u kunlar o'tdi, hammasi xayolda. Shu tariqa ular otasining uyiga ham yetib borishdi. Ukasi Obid ko'cha tараfdan katta uy solgan bo'lib, hozir xuddi o'sha yangi uyda yashardi. Otasidan qolgan pastqangina sinchli uy uning oldida kichkina bo'lib ko'rindi. Aka-uka bir-birlarini bag'irlariga bosishgach, o'sha pastqangina uy yoniga borishdi. Eshik anchadan buyon ochilmagan. Tashqariga ilingan chiroq oldiga o'rgimchaklar uya solgan bo'lib, unda bir qancha kapalakning o'raltib turganini To'lgin ko'rganda ko'zlariga yosh halqalanganicha otasining gaplarini qaytadan esladi. O'g'liga asta ishora qilib, o'rgimchak inida tutqungu tushgancha qurbon bo'lgan kapalaklarni ko'rsatdi. U esa bir chetga o'tirdi-da, qo'lidagi qog'ozga tongda chizishni boshlagan rasmini davom ettirishga kirishdi. Oradan ko'p o'tmay uni yakunladi ham. Ota-bola rasmini: «Chirog'i o'chiq uy» deya nomlashdi.

Юнус Бек

БИР СИҚИМ ТИПРОК



УМИД УЙГОТАЁТГАН ИЖОД

Уатта миллатларнинг буюклиги унинг адабиётида ҳам акс этади. Адабиётининг буюклиги эса, миллатнинг хилма-хил ижодкорлари ва уларнинг ранг-баранг ижодлари билан белгиланади. Шу мавнода ўзбек адабиёти жуда улкан адабиёт ҳисобланади. Унинг ёши минг йилликлар билан ўлчанадиган шеърини, гарчанд Қодирий романларидан бошланган десак-да, аслида, баъдий тафаккурдаги янгилинишлар бобид янада қадимроқдан, Мирзо Бобурнинг машҳур «Бобурунома»сидан ибтидо олган дунёни эпик кўламда кўриш ва тасвирлай олиш йўли – наصري билан ҳақини равишда фахрланамиз.

Демак, хилма-хил тур ва жанрларда турфалиқ услубу мавзуларда ижод қилаётган ёшув кекса ижодкорларимизнинг ҳаммаси жам бўлиб, адабиётимизнинг чинакам бойлигини ташкил этади. Албатта, уларнинг истевдод кучи ва қолдирган мероси бир-биридан кескин фарқ қилмади. Майин-да. Ахир, адабиёт фақат ярқ этган

истевдоду даҳолардан иборат эмас-ку! У ёғини «ўрасангиз, истевдоду даҳоларнинг кўзга яққол ташланишида ҳам бошқаларнинг хизмати, ўрни ва аҳамияти бекиёс. Чунончи, Навоий ходисаси ў-ўзидан пайдо бўлмади. Навоий даҳосининг қид ростлашида Низомий, Ақтор, Румий, Жомий, Ҳофиз, Саъдий каби даҳо санъаткорлар муҳим роль ўйнаган бўлса, унинг туркий адабиётда энг порлок юлдуз бўлиб кўринишида Ўлутфий, Саққокий, Ақойи қабил истевдодларнинг хизмати бор. Катта истевдодлар ана шу турфалиқ ичида туғилади, туртинади, суртинлади, ахйири йўлини топиб, манаман дея ўзлигини намоён қилади. Шунинг учун ва, умуман, адабиётнинг бор бўлиши учун ҳам хилма-хиллик керак.

Кўпингиздаги «Бир сиким тупроқ» деб номланган мўъжаз китоб муаллифи Юнус Бек (Юнусбек Абдиев) насримизнинг энг кенжа авлод вақилларидан ҳисобланади. Мана, у умид билан илк тўпламини Сиз – азизларга илгиниб турибди. Юнус Бек ва у мансуб авлод ана шу хилма-хилликнинг бир узви. Юнус Бекнинг ишта-кичиқ хикоятлари ва баъдий лавҳа ҳамда микролагарини ўқир эканман, унинг сиймосида сифатлар, хусусан, Чингиз Айтматов ижодий йўлидан таъсирланиб, айни пайтда, ўз йўлини ўр бериб топишга уринаётган ёш ёзувчини

кўраман. Ҳали Юнус Бекнинг дунёкарашида, оламни бадиний-эстетик тасвиридаш йўлларида, образ яратишда, мавзунинг инсон ва табиат, инсон ва ҳайвон муносабатларига алоқадорлигини олиб бадиний тадқиқ этишида улуғлар ижодининг эргатиш сезилади. Майли, бу ҳам шаклланишнинг битта даври. Зеро, одатда, буюк истеъдодларнинг таъсир майдони ниҳоятда катта бўлади ва у яқин-йироқдаги кўплаб ижодкорларни ўз меҳвари атрофида айланишга мажбур қилади. Лекин ҳаётини тажрибалар ва ижодий изланишлар натижасида Юнус Бек ўз йўлини топади, деган ишончим бор.

Ушбу китобга Юнус Бекнинг бир қанча ҳикоя ва замонамиз ҳақидаги мулоҳазаларини ўқигача олган эсселари киритилган. Унинг «Бир сиқим тупроқ» ҳикояси анъаналарнинг давомий сифатида менда яхши бир таассурот қолдирди. Ҳикояда Сур эчки ҳақида бир афсона келтирилди. Афсонада бу ёруғ оламда ёлғиз қолган бир жуфт эчкининг қисмати акс этган. Унинг мазмун-моҳияти, юқорида таъкидланганидек, қайси бир жихатларига кўра, Чингиз оғанининг «Қиёмат»идати Тошчайнар ва Акбара деб номланган бўрилар қисматиға ўхшайди. Лекин ўзига хос, сирли, жозибали афсона. Ҳикояда инсон ва табиат ўртасидаги муносабат, бу муносабатда инсоннинг тегмонлик қилишга, ў

қайдидан ошишга уриниши аянчли оқибатларга олиб келиши таъсирли ифодаланган. Унда ўзига хос фалсафа, тафтиш, танқид бор. Лекин мана шуларнинг ҳаммасини санъатга айлантиришда Юнус Бек бироз зўриқади. Бу ҳол Юнус Бекнинг бошқа битикларига ҳам хос.

Эсселарда Ватанимизнинг бутунги қунидан фахр туйиш, ватанпарварлик туйғуси етакчилик қилади. Бу – яхши. Аммо кўнглиг изҳорларида андак бағандарвозлик ҳам йўқ эмас. Чунотчи, муаллиф «Нурафшон тонглари»да «Биз ўзимизни ўзимиз кашф этдик, дунёга «Ўзбек модели» деган ном билан танилган, қучли бир давлатга айландик» деб ёзади. Хай, майли, деймиз, айтилган гапда муболага бўлса-да, қучли давлатга айланиш ҳаммамизнинг истак ва максалдимиздир. Табиий, бунинг учун қили жууда кўп ва хўп меҳнат қилишимиз лозим бўлади. Мухими, ёш ёзувчи Ватанимиз келажagini ана шундай бағанд макомларда кўрмак истайди. Айни шу жихат йўналтирувчи қуч (мотиватсия) сифатида ижодкор учун энг қучли рағбат ҳисобланади.

Юнус Бек Тошкент вилоятининг тўзал гўшасида, оламлар орасида, табиат кўйида туғилди ва яшамокда. Бу эса ижод қилиш учун олам олам имконият, қат-қат материал дегани. Одатда, ижодкорлар бош шахарларга келиб яшашни

орзу килишди ва кўпинча шундай килишди хам. Мен Юнус Бекнинг ўша жойда яшаб, ўшан-
жой одамларининг ўзига хос оламларидан ба-
дий хабар бериб туришини кўллаб-куватлаш-
ман. Демак, биз Юнус Бекдан ҳали жуда яхши
асарлар кутиб қолишга асосимиз бор.

Ижод йўлинингиз унумли бўлсин, Юнус Бек!

*Улғубек ҲАМДАМ,
филология фанлари доктори,
адабиётшунос олим, ёзувчи,
2018 йил, кўкларим*

НУРАФШОН ТОНГЛАР

Мана, ота-боболаримиз асрлар оша
интик кутган Ватан мустақили-
гининг нурафшон тонги ана биттага ортди.
Шу қисқа давр ичида юртимизда оламшумул
ўғаришлар рўй берди. Биз ўзимизни ўзимиз
қашф этдик, дунёга «ўзбек модели» деган ном
билан танилган мукаммал бир давлатга айлан-
дик. Бир вақтлар саломимизга алик олмаган-
лар бутун ахволимизни сўрайдиган бўлиб қол-
ди. Буларнинг барчасини бизга факат ва факат
мустақиллик, озодлик, хурлик инъом этди, дея
ҳеч иккиланишларсиз айта оламиз.

Ҳа, бутун дунёга танилдик, жаҳонда ўз
ўрнимизни топдик. Бунда, албатта, юртимиз-
да олиб борилаётган одилona сиёсат, мамла-
катимизда аҳил-иноқ яшаётган 140 миллат ва
этнонинг улкан хиссаси бор. Мустақиллик, энг
аввало, бизга тинчликни, қарамликдан айириб
оюлдиқни, миллий қадриятимизни, маданияти-
мизни, тарихимизу урф-одатларимизни берди.
Билсангиз, йиллар сонига қараб эмас, салмоғи-
га қараб ўлчанади. Бундан 30—40 йил аввал ҳам
биз шу ерларда ишлардик, яшардик. Бироқ,
бизни ҳеч қим танимасди, тан олмасди. Қанча-
дан-қанча бу очик ҳақиқатни айтган юртпарвар
ишмағлар «халқ душмани», деган тамга билан
қораланди. Мана энди, ўз мулкимизга ўзимиз

эталиқ килиб, ўзимиз учун ўзимиз яратиш ҳаяракатиға тушдиқ. Йилдан-йилға турмушимиз яхшиланиб бормоқда. Буларнинг барчаси одамларнинг эртанги кундан умидлари улканлигидан, ишончу-у тинчликдан, албатта.

Бизни ташқаридан кузатган нияти холис дарғағлар, фикри тиниқ одамлар «Ўзбекистонликлар буюк мўъжиза яратди, эртақлардан мамлакатни барпо этди» деса, ажабланишнинг кераги йўқ. Чунки биз кечағина бутун бордингидан, эркидан айрилиш арафасида турган бир мустамлақа халқ, билим олиш тўғрисида ўйлашға имкон топмай, «биз фақат пахта етиштиришимиз керак», деган оми деҳқон эдик. Бутун эса, ҳамма ҳавас қиладиган кучли ва фаровон давлатға айландиқ. Бу мўъжиза эмасми?

Кечағина юртдошларимизнинг дўконлар олдиди навабатға туришиб, бир буханка нон учун бир-бирини аямай, керак бўлса, бир-бириға озор етказишдан ҳам тап тортмай, оқибатсизликка юз буртанликларини кексалардан кўп эшитганмиз. Бунинг бирдан-бир сабаби ажлоларимизнинг миллий менталитетидан, маданиятидан, тарихидан айрилғаётгани, кимлигини унуттишға атиги бир баҳя қолган мутенинг мутесиға айланиб бораётгани эди.

Кўз тегмасин, бутун ўзлигини англаган озод халққа айландиқ. Истиклол шарофати билан кўнгиляти кўркув, ҳадик йўқон-

ли, ҳаётимиз фаровон. Айниқса, бугунги бунёд этиляётган намунали уй-жойлар, кент на равон йўллар кўрган кўзни қувонтиради. Шу қиска давр ичида бизнинг Юқори Чирчик деҳа аталмиш қичкинағина туманнинг ўзида фахрланса арзийдиган катта ишлар бўлди. Улардан кўнги қувват олади, диллар яйрайди. Айниқса, сўнгги дамларда туманимиз маркази Янгибозор кўрғонига келган кишининг ўзини улкан бир курилиш ваҳтасиға тушиб қолгандай хис этишини зимдан кузатган кишининг туруриға турур кўлиши тайин. Келинг, бир куш дуоға кўл очиб, ният қилайлик, хуррият шарофати билан барчамизни шодлиқларға бурқагувчи нурафшон тоғлар боқий шуьла соҳаверсин!

ТОҒЛАР БАЛАНДЛИГИ...

О дамнинг шаклу шамойили, бўй-басти, кўз қарашлари, хуллас, ички ва ташқи дунёси унинг таваллуд тоғдан, униб-ўсган ва қамолотта етган жойиға монанд бўлади. Тапнинг қисқаси, одам ўз Ватанининг бир заррасидир. Шунинг учун ҳам Ватан муқаддас, Ватан буюк, Ватан сулуқдир. Аммо тоғлар баландлиги бағридағиларға сезилмагандек, Ватан қади ҳам юртда юрганларға кўп билинавермас экан.

Ватанга муҳаббат хиссини одам ўзга юр-ларда юртанда яққол сезар экан. Ахир, мусофир бўлмагунча мусулмон бўлмас, деб бекора айтишмаган. Бунга мен ўзим туювх бўлганимдан айтишман. Ватандан атиги уч ой олисларда юртан бўлсам-да, жаннатмакон бу тўпани бир неча куннинг ўзида соғина бошладим. Унинг илик ҳавоси-ю, олтинга алмашмайдиган туپроғи, замзамдек зилол сувларини одам жулда тез кўмасар экан. Биринчи ота-онами, кейин яқинларимни, ўзим югурган ўша тор кўчаларни, ўқиган мактабимни, хуллас, киндик коним томган тупроқнинг ҳамма нарсасини орзиниб кўсадим. Ўша онларда тушундимки, Ватан бежиз онага қиёс этилмас экан.

Ҳа, одам бир дам бўлса-да, унинг тафтини хис қилмай яшай олмайди. У ерда қариндошларим бўлса-да, ҳеч қамчиликсиз юрсам-да, ёш боладек уйимни, ота-онами, гўзал Тошкентимни соғиндим. Ўзимни негадир ёлғиз қолгандай, ҳимоясиздек сеза бошладим.

Ўша уч ой мен учун уч йилга татиди. Лекин почтамга, опамга: «Бўпти уч ой тураман», деб ваъда бериб кўйганим сабабли лафзсизлик қилолмадим. Гарчи уларнинг эъзозидан юрсам ҳам, ҳеч нарсадан қам бўлмасам ҳам, қайтадиган кун яқинлашган сари негадир ичимдан қувониб, энтикардим. Ниҳоят ўзим интиқ қутган кун ҳам келди. Ватан сарҳадига яқинлашганим

сарй туғилиб ўсган юртнинг илик тафти ўзига янада қучлироқ тортаётгандек эди. Ўзбекистон чегарасига қирар эканман, у ерда Ватанни кўриқлаётганларни кўриб, халигина юратгани кемириб келаётган кўрқув, ҳимоясизлик хиси ўз-ўзидан йўқолгандек бўлди. Тўғриси, Ватанимиз сарҳадларида кеча-ю кундуз сертак туриб, юрт тинчлигини, халқ хотиржамлигини таъминлаётган ҳимоячиларимизга ҳавасим келиб, қалбим фаҳрга тўлди.

Дарвоқе, ўзбек ўғлонларининг ватанга содиқлигига ўз вақтида дунёни эгаллашга ҳаракат қилган Чингизхон ҳам тан бериб, доғ қолган. Бунга мисол қилиб Жалолиддин Мангубердининг жасоратини фахр билан кўрсатиш мумкин. Чунки бутун аскаридан ажраб қолган ҳолда ҳам у Ватан учун курашиб, шахид бўлган. Унинг жасоратига қойил қолган Чингизхон ўзининг саноксиз кўшени орасида битта бўлса ҳам шундай аскар, шундай ўғлон бўлишини армон қилиб: «Агар менинг аскарларимда ҳам шундай, шу ўзбек ўғлонидай жасорат бўлганда эди, мен дунёнинг ярмини эмас, ҳаммасини олардим», деган экан. Бутунги ўзбек ўғлонлари ҳам худди шундай Ватанни ҳимоя қилмоқда. Бизда ҳозир қучли армия, замон талабларига тўла жавоб берадиган мулоффа қудрати бор. Унинг сафида хизмат қилаётган бутунги Жалолиддинлар ҳам Ватан учун жонларини фидо қилишга

тайёр бўлган хакикий Ватан кўрикчиларидир. Улар бор экан, биз шодон кулиб, очик осмон остида эркин нафас олаверамиз.

БИР СИКИМ ТУПРОҚ

От-дободаримизни эсласак, бизни ажиб ҳис-туйғулар чулгаб олади. Улар узоққа кетмаганлар. Ило, ўзимиз ҳам уларнинг қаватиغا қиражасамиз...

Муром уларни ёдлаб тургани бизнинг бурчимиз, уларнинг хотираси ўзимиз учун зарур. Уларнинг қадрига ташнаганимиз – бир сиким тупроқ бизни боғлаб турган ривизта ҳисобланади.

Чингиз АЙТМАТОВ

Айни куз фасли. Дов-дарахтлар япроқлари олтин ранг олиб улгурган. Этни жунжиктирувчи салкин шабадада куритан япроқлар майин шитирлаган товуш чикаради. Айримлари бандидан чирт-чирт узилиб, шамол изнига бўйсунганча ҳар тарафта учадиди-да, кўп олисламай, ер бағридан кўналга топади. Кечагина соясида роҳат килиб ўтирганлар унинг бундай ожиз холга тушганини эътиборга ҳам олмай, уларни оёқлари билан босиб-янчиб, тупроққа белайди. Аммо зарҳал тус олган тоғ кўнидаги бу кишлоқ Бобокуёш уфқка бош

кўйётган дамларда жуذا ажойиб кўринса-да, кош қорайди дегунча ҳамма сурув атрофидан кетмай, кўй-эчкиларни кўраларга камаш билан андармон бўлиб қолади. Чунки олisdан келадиган оч бўрилар қоронғи тушиши билан овни бошлаб юборади. Биргина Кўкёл ва унинг жуфти бу сурувларга тегинмайди.

Соддадил тоғликларнинг айтишича, асл бўрилар шундай бўлишар экан. Агар сен уларга зиён етказмасанг, улар ўз ҳудудидаги подага тиш солмайди. Борди-ю, унга тегинсанг, ҳуеусан, боласидан айирсанг борми, кўй-кўзи, эчки-улоқлар учун киёмат бошланди дeявeр. Аламзада йирткичлар кеча-ю кундуз тинчлик бермай кўяди. Дала-дашда учратган жониворларни аёвсиз бўғизлаши, қоринларини ёриб, атиги икки-учтасининггина ёнбошини ўйиб еган бўлади. Шу боис бу овул одамлари Кўкёлга тегинмасди. Улар, айниқса, овчиликни отамерос билган ўринбой: «Кенг кўкракли, оёқлари бакуват, кўриниши сирли бу жонивор беқорга бу ердан кўним топмаган, биз ҳам «кўк ёллармиз», дея фахрланарди.

Ўринбой нетадир аёли оламдан ўтгандан сўнг одамларга унчалик кўшилмай кўйди. Чакирилган йиғинларга ҳам камдан-кам борадиган бўлиб қолди. Эҳтимол, кимдир унинг кўнглига оғир ботадиган сўз айтгандир, эҳтимол... Нима бўлганда ҳам бунинг асл саба-

бини унинг ўзидан бўлак ҳеч ким билмасди. Бирдан ўринбой ёлғиз ўтди Дўсмаат билан ярим кечада кишлокни ташлаб, дарвешлар янглиг тарки дунё килишга тадорик кўра бошлади. Бундан ҳеч кимнинг, хатто Мама-расул бобонинг ҳам хабари бўлмади. Ота-бо-ла кўлга илинадиган бор бўлини олди-да, аравага юклаганча олис сафарга отланишди. Бошқаларга ўхшаб уларнинг мол-дунёси ҳам кўп эмасди. Ўринбой номи чиккан мерган эди, оиласини шу тарика боқарди. Миниб юрган отини ҳам кўшни кишлок бойининг тўйи-дати мерганлар беллашувида совринга олган. Жониворни оддий от дейиш биров ўринсиз. У хакикий тулпор, ҳа-ҳа дулдудлиниг ўзи эди. Тоғда ҳам, даштда ҳам унинг олдида биронта от тушолмасди.

Улар кишлоқдан чиқиб бораётиб, Мама-расул бобонинг уйи олдида етганда, ўринбой отни тўхтаммоқчи бўлди-ю, яна тизгинни сил-таб, жониворни юришга ундади. Мамарасул бобонинг уйи ҳамма катори пасткамгина бўл-са-да, деярли тун бўйи чироқлари ёниб турар-ди. Кишлоқда фақат шу одамгина биров савол-ли бўлиб, ўқиш-ёзишни биларди. Шунинг учун доим вертолётда келган рус овчилар унинг уйи-га кўнишарди. Ёши улуғ нуроний бўлса-да, у овчилар билан рус тилида кийналмайд гаплаша олар, қаерларда ов қилиш кераклигини яхши

тушунтирарди. Доим у ҳаммага Кўкёлни-нинг яқин бормаслики ва унга зиён-заҳмат етказмасликини қайта-қайта тайинлаб уқтирар-ди.

Бошқа жойлардан келган мерганлар бу ер-ликлардан фарқирок йўналишда ов қилар, баъзида кўлларидagi китобларни ўқиб, овчи-ликнинг янги усулларини кўллаб кўришарди. Бир сафар улар кўч-кўронини йитиштириб кет-гач, унутиб қолдирган бир китобни Мамарасул бобо топиб олганди. Унда айни овнинг янги-ча усуллари қайд этилган бўлиб, келган овчилар шулардан фойдаланарди. Нақадар жирканчли: жониворни ўз четарасидан ҳайдаб чиқариш, ай-ниқса, бўри пешоб қилган жойдан олинган тул-роқни бошқа йўналиш бўйича сепиш орқали уни йўлидан адаштириб, ажалга – пистирмага рўбарў қилиш.

Кишлоқда бирор киши оламдан ўтса, албат-та, биринчи бўлиб Мамарасул бобо чакирири-ларди. Хат-саводи бўлгани учун миллий урф-одатлардан ҳам, боқий қадриятлардан ҳам у киши овдлагиларга нисбатан кўпроқ биларди. Иккинчи сабаби эса, фақат ундагина керагича керосин заҳираси бўларди. Унга бу ёқилгини рус овчилари миннатдорчилик сифатида қол-диришарди. Кўли очиклики отаси Абдинаби мергандан мерос олган Мамарасул бобо овчи-ларнинг яхши-ёмон қўнларида асло ҳеч

нимани аёб ўтирмасди. Азали уйнинг чирочи қачонгача ёнса-да, бепул ёнилни етказиб беради. Аравата юкланган юк устида бепоеъ кенгликларни кузатганча ҳаёл дарёсига фарқ бўлган ўринбой буларнинг барчасини бирма-бир ҳаёлидан ўтказар экан, тутилиб-ўйстан жойи, киндик кони томган она тупроғи билан ич-ичидан видолашиб борарди...

— Ота, осмонга қаранг, — деди Дўсмат қутлимаганда ўртадаги сукунатни бузиб.

— Қарадим, ҳўш нима бўлибди? — деди ўринбой бепарвогина.

— Анави юлдузларни кўрайпсизми? Улар доим бизнинг уйимиз устида туришарди. Энди эса, биз билан бирга эргашиб келапти.

Бу гап ўринбойни бироз сертак торттирди чоғи, у осмонга узок тикилиб қолди. Сўнг ўт-литга:

— Дўсмат, билсанг, бу сенинг юлдузларинг. Улар доим сен билан бирга юради. Уларнинг орасида отангнинг, энангнинг ва онангнинг ҳам юлдузлари бор. Улар сени доим кузатиб туришди. Биз кишлоғимиздан кетаётганимиз билан, бу осмон остидан чикиб кета олмаймиз.

— Сиз буларни қаердан биласиз?

Дўсматнинг саволи жавобсиз қолди. Ўринбой йўлга термугланча яна ҳаёл уммонида суза бошлади. Балки у боласининг сўзларини эшитмагандир, балки жавоб беришни истамагандир. Нима бўлганда ҳам у чурқ этмади. Кўп ўтмай

бола пинакка кетди. Бу дамда улар сўкмоқ йўл-га тушиб олишди. Ўринбойнинг юрагини тирнатган нарса бағтар авж олди. У оиласининг бир азосидан айрилгани учун кишлоғини, она-иминини ташлаб кетаётганини, энди ўзига бироз қийин бўлишини кўнглидан ўтказиб, гоҳороз нималардир ўзича қулдураб кўярди. Қаниди, у ҳали бу ерларнинг бир сиким тупроғига юр бўлишини билганида!

Олisdан-олис йўл юртгач, ўзига таниш ерлар тутар маҳалда ўринбой ўзини бағмом унутди чоғи барча нарсани, ҳатто ёнида ухлаб ётган ўйиннинг уйғониб кетишини ҳам ўйламай: «Хайр ота юрт, хайр она тулпрок!» дея хайкирганча ичинни нимадир ўртаётгандек чуқур оҳ тортганда ўғли чўчиб кетди ва:

— Ота, кимга гапираяпсиз? — деди ажабланиб.

— Ҳеч кимга, шунчаки бу ерлар билан хайр-лашапман-да. Хайр ота юрт, хайр она тулпрок. Ҳўш қол, бошида боқий оқ булут тунаган буюк тоғлар. Омон бўл Кўк ёл, илоийм ҳеч кимга иёнинг тегмасин. Хайр Сур эчки, энди сени ҳеч ким безовта қилмайди! Бироқ сен ҳам ҳеч кимни қоллар сари бошлама, илтимос!

— Ота, тушунмадим, нималар деяпсиз?

— Шу ер менинг ва сенинг киндик қонимиз тўкилган тулпрок, ота-онамиз дафн этилган жой. Кўкёлни эса ўзинг биласан, тўғрими?

— Ха. Бирок Сур эчкини эшитмаган эканман.
— Бу тоғларнинг ўз Сур эчкиси бор. Бир матороба мен ҳам кўрганман уни. Ҳатто оттанман ҳам. Аммо у жойидан ҳам кимирмади. На йикилди, на мenden кочди. Мен унга якинрок борганимда эса, у янаям баландлаб кета бошлади. Шунда отам айтиб берган Сур эчки шу эканлигини англадим. У ҳаммага ҳам кўрнна-вермайди, ўтпим!

Отанинг айтишича: «Қадим ўтган замонда, улут тоғлар томонда Хўжаёш деган номдор бир овчи бўлган экан. Уни кўзлаган нишонидан ҳеч адашмаган дейишди. Йўлида учраган ҳар кандай жонзотни — хох у йиртқи, хох беозор бир ёввойи жонивор бўлсин, уни қувиб етар, баланд чўккиларни ҳам забот етар экан. Қўлга киритган ўлжаси нафакат ўзига, балки яқинларидан ҳам ортган дейишди. Шунинг учун Хўжаёш ўзига бино кўйиб, ўзини шу ернинг дарғасидек тутар экан. Кунларнинг бирида у бир сулув кизга уйланиш учун кариндошларини совға-салом билан кизникига кулчиликка юборибди.

Совчиларнинг макул-макўлга келиб қайтганидан турурланган мерган аввалтидан ҳам тез-тез овга чиқадиган, олдидан нима учраса, унинг конини тўқадиган бўлибди. Кунларнинг бирида унинг қаршисидан кулранг тоғ такаси чиқиб қолибди. У овчи таъкибидан қочиб, ундан қутулишга канча уринмасин, мерган уни

бир ўк билан кулатибди. Шунда улардан сал нарида пайдо бўлган Сур эчки тилга кириб: «Нима қилганингни биласанми, эй мерган? Бизни охирги жуфтлик эдик. Энди бўлди, барчаси нисом. Бизнинг оптимизда авлод қолмайдиган бўлди. Сен эса бутундан бошлаб бирор ови бариодан қелмайдиган омадсиз, ғариб қимсага айланасан» дебди.

Эчкининг сўзларидан қаҳ-қаҳ урган мерган эчкини мўлжалга олиб ўк узибди. Аммо унинг бирор ўки Сур эчкига яқинлашмабди. Овчининг тўхтовсиз ўк узишига бардоши етмаган милтиқ ҳам ёрилиб кетиб, кўз ўнгини қора туман қоплабди. Бир зумлик қарахтликдан сўнг қушини йиғиб қараса, сур эчки қатта харсант ўстида ҳамон кўкрак қериб турганмиш. Бундан ғзабланган овчи кўзлари қонга тўлиб, уни бўғизлаб ўлдириш учун унинг ортидан қувлай бошлабди. Хўжаёш эчкини қувлаб борар экан оёқ қиймлари тошларда йиртилиб кетибди.

Эчки баланд қоғта етганда агрофни қора бут қоплабди. Шунда мерган ажалга ошиқиб қолганига иқдор бўлибди. Сур эчки эса яна тилга кириб, овчини қарғай бошлаган экан: «Мерган бўлмай туриб қол, чўккига илиниб қуриб қол. Сарғайиб чўшлар қуз бўлсин, товоининг тили туз бўлсин. Сени ахтариб қелганинг, олдидан тўсик зов бўлсин. Суяқларинг йиғолмай, эчкининг оёдан хор бўлсин. Танлаган ёринг Зул

лайхо, етогламай сенинг васлинигта, тул колиб бир умр, кўзлари тўла кон бўлсин. Хайр энди мер таним, жазосин худо берганим!» деганча кўздан ғойиб бўлган экан. Шундан бери Хўжаёшнинг ҳеч ким бу тоғларда учратмаган дейишди. Бироқ Сур эчки халигача бағанд тоғлардан анни бир кўним топмай, ўзи учун бежавотир жол ахтарар экан. Одам боласини кўриши билан нафратланиб, барчани худди Хўжаёш сингари қоялар қаврига чорлармиш», дея ўринбой Сур эчки афсонасини надомат билан хикоя қилди. Дўсмат худди бир нимани тушунгандай чуқур ўйга ботди.

Улар тонг ёришган чоғда туғилиб ўсган жойини тарқ этиб улгурди. Бу ёғи энди бағалар мом бошка ерлар. Энди қаердан кўним топини кераклиги тўғрисида ўйлаш керак. Албатта, овчи учун тоғли жой қулай. Аксита олиб бу атрофдагиларнинг барчаси ўринбойни яхши танийди. Ота-бола бир эмас, бир неча кун йўл юриб, қорли чўккилар бағридаги бир кинч докка кириб боришди. У ердагилар билан танишгач, овул қарияларининг изинга кўри янгича хаёт бошлашди. Бу ердагилар бирор кўпол бўлсалар-да, ўринбойга кўмак қўлини чўзинди. Орадан унчалик кўп вақт ўтмасданок, ўринбой овулдагилар эътиборини қозони бошлади. Ахир у мохир овчи, кўли тул уста полвон ҳам эди. Шу боис энди бу қишлоқда

ни номдор овчи-ю, полвонларнинг пешоналари тириша бошлади. Улар ернинг асл эгалари қимлар эканлигини билдириб қўйиш учун инмай овга чиқар, ҳар тал катта-катта ўлжа билан қайтишарди. Бир сафарги овнинг тузук-кина жанжалга айланишига сал қолди.

Овчилар қишлоқдан анча олислаб, бағанд чўккилар сари ўрлаб борарди. Уларнинг кўнгида биргина нарса, олдимиздан қандай ўлжа чиқади, деган ўй кечарди. Қалин бутазор тулгач, у ёғи тошлок, баъзи-баъзи ерлардагина арча борлигини айтмаганда чексиз дара. Ҳозир яхши бир този бўлганда борми, атрофни бир умда айланиб чиқарди. Хув ана олис-олисдаги қарсанг устига қоматдор бир тоғ эчкиси сакраб чиқди. Ана сизга ўлжа! Овчи учун бундан оринги керак эмас.

Мерганларнинг қони гулуриб кетди шекилли қирақатлар тезлашди. Жисму танларида қандайдир бир ғайритабиий қуч пайдо бўлиб, ўзларини янаҳа билан панага олишди. Улар ўлжага яқин қолганда бирдан тоғлар узра гўмбурлаб, кетма-кет ўк овози янгради. Кўз очиб юмгулча матрур тургани тоғ эчкиси тошдан-тошта урилиб, пастга қулай бошлади. Хайрон бўлган овчилар бир-бирита қираб қолди. Ким у, қандай қилиб ва қаердан келди, дегандай бир-бирларига тикилишди.

— Ана, ўринбой экан, — деди Арсен шошиб ўлжа томон бораётган мерганни кўрсатиб.

— Э, ха-а! Хали у бизнинг ўлжани уриб туширадиган бўлиб қолдими? — дея шериклари юрагига ўт ташлади Рустам. — Энди у билан очикчасита гаплашиб олиш керак. Токи бизнинг йўлимиздан бошқа чиқмасин. Бу орада ўринбой ўлжанинг бўғзига пичок тортиб ургурди.

— Хой, сен келгинди ўзингни ким деб ўйлаясан? — деди ғзабини яширолмай Рустам. Нета бизнинг ортимиздан эргашиб юрибсан. Бир ўзинг юришдан чўчисанг, овулда кўшини масмидинг бизга.

— Нималар даясан, Рустам? — важоҳат билан жавоб қайтарди ўринбой. — Юрагим кўрсатганималгини билмайди. Мен оёк-кўли иккитадан ортик бўлмаса бас, одам зотидан чўчимайман. Қолаверса, сенинг ортингдан эргашганим йўқ. Билсанг, Кўкёшлар ёлғиз юради. Мен ҳам...

— Сен ўз ерингда шундай бўлгандирсан, сўзга кўшилди Собит. — Бу ерлар эса бизга тетишли. Билсанг, бу жойларнинг ҳар қачини биз учун қадри, биз учун таниш, шунинг биллиб кўй. Сента: «Майли, орамизда яшасанг, яшайвер» дейишимиз, билганингни қил деганимиз эмас. Ов қилсанг биздан ортанини овлайсан, бўлмаса чапагингни чалиб, уйингда болангга қара.

Ўринбой хозир тортишиш бефойдагинини тушунди. Бироқ у: «Мана, сентарга шу қо

рик бўлса, олинглар», дейдиган аҳмоқларданмас. Ерлик мергандлар ҳам анойилардан эмас. Бировнинг ўлжасини ўлса ҳам тортиб олишмайди. Бу овчи учун иснод. Улар ўз ўлжасини овлашга чиқкан, бировнинг насибасини елкакадай олишга эмас. Ерлик овчилар ўринбойга бир-бир ёвқараш қилганларидан сўнг юриб кетишди.

Қош қораймасдан ўринбой ҳам қишлоққа кириб келди-ю, тўшгандан керагича қозонга солиди. Овул қарияларига кўшиб ўзи дарада довлашган овчиларни ҳам зиёфатга чақирди. Бу муросатга келишнинг энг тўғри йўли эди. Чақирганларнинг даярли барчаси келишди. Фақат овчилардан дарак йўқ. Ўринбой уларни бирма-бир қайтадан чақиришга отланди. Уларнинг ҳаммаси Рустамнинг уйида тўпланишган экан, у ҳам айнан шу ерга борди.

— Қани юринглар, бир-биримиздан аразлашмайлик, — деди ўринбой.

— Биз овчилармиз, аразчилар эмас, — жавоб қилди Арсен. — Сал шоммасанг ўзимиз ҳам бордик. Ха майли, кетдик.

Барчалари биргалашиб йўлга тушишди. Йўл-йўлакай улар тоғда бўлиб ўтган воқеани қариялар билмай кўя қолишини ўринбойга тушунтиришди. Овчилар йитгандан сўнг, қурул ушлаганлар бир-бирига қасдлашса, ёмон бўлишини ҳам мардона ёдга олишди.

Ахир инсон боласи қачонгача ер талаш-
ди, бойлик учун бир-бирини қурбон қилади!
Лекин вақт тўхтамайди, бир маромда ойна
интилаверди? Ҳаёт эса ундай эмас. Базан
оламни ҳадсиз қувонч қопласа, баъзан ай-
сиз қон тўкилади. Худди ўзи инсоният учун
ғам-тўсса билан шоду хуррамлик орасини
бир қадам қилиб қўйгандай. Нахот бу да-
вом этаверди? Бутун сен қучлисан, эртанги
эса сендан қучлироғи пайдо бўлади ва сени
бош эгишга мажбур қилади. Ўз ерингдан ҳай-
даб чиқаради ёки ўзинг ташлаб кетасан. Бу
кетма-кетликнинг ниҳояси борми? Ўринбой
бахорга бориб бундай ўзақли саволларга жа-
воб тополмай қараёт бўлишини билмасди.
Айни Наврўздек, улуснинг улут қунида уни
ёқтирмайдиган одамлар унинг тиламга чиқиб,
шу ерлик полвонлар билан қуч синашишини,
қурашда ютса, овулда яшаб қолиши, ютказса
— бу ерлардан кетиши кераклигини шарт қи-
либ қўйиши кимнинг ҳаёлига келибди.

Ўша кунни овул одамлари бор топлани-
ни ўртага қўйишди. Миллий ўйинлар авжиди.
Бир тарафда ёш боғалар ошиқ отишса, бир
тарafdа полвонлар қураш тушарди. Сал нари-
да эса одамлар отларини пойгата хозирларди.
Ўтирганлар даврата чиқкан ҳар бир полвонга
қуч-қувват бағишлаш учун кий-чув қўтариб,
полвонларни қўллашарди.

«Қани энди ўринбой, сен ҳам ўзингнинг кўр-
сит. Сenga шунча маҳал биров бир нараса дeга-
ни йўқ. Энди сен ҳам ўзингнинг шу ерда яшапга
лойиклигининг исботлашинг керак», дея бир
гuruh ўтирганлар ундан қурашга тушишни
сўради. Шарт шундай: «Ютсанг шу ерда яшай-
сан, бўлмаса...» Сўз ўқдан ҳам ёмон, дeтaнла-
ри рост экан. Ўринбойнинг ичидан нимадир
чирт этиб узилгандай бўлиб, бутун вужудини
олам ўртади. Қутилмаган тап юрагини кўрдeк
қуйдирди чoғи, у шахд билан даврата чиқди.
Қаршисида коматдор алп полвон. Уни йики-
ниш қийинлигини ўтирганлар яхши биларди.
Қураш бошланди, бири биридан мохир полвон-
лар узoқ олишишди. Шу орада нима бўлди-ю,
ўринбойнинг тиззалари қалтираб, мaдoри қoчa
бошлади. Бирок, у буни рақибга сездирмаслик-
ка уринди. Қутилмаганда «Ота», дeгaн бўғик
овoз эшитилди. Бу ўринбойнинг ўғли Дўсмaт
эди. Бутун вужудли мадорсизланиб бoрaётгaн
полвон бу синик хайкириқдан тeнтсиз қуч oлди.
Нима бўлди, қандай қилиб шундай алп полвон
инкилиди, ўтирганлар буни аңгoлмaй қoлди.
Ўринбой шу oвулда яшаш имкoниятини ютиб
oлди. Аммо боғи давратагилар: «Майли, сeн
бизнинг oвулга aъзo бўлишга лoйик экaнли-
гининг исботладинг, ўғлинг-чи? У ҳам ўзини
«қурсaтсин», дейишди. Агрофдa: «Ахир у хaли
бўғини қoтмaгaн бoлa бўлсa, қўлидан нима ҳам

келади», деган норози хайкириklar янтради. Кариялар ҳам шундай дегандек, бош чайкашди. Бирок Дўсманнинг от миннишини яхши билган бовги даврадагилар уни: «Пойгада ғолиб бўлса, отаси билан шу ерда қолади, бўлмаса...» дея туриб олишди.

Бошқа чора йўқлигини англаган Ўринбой отига сакраб минди-да, жониворнинг сонига аччиқ-аччиқ камчи тортиб, бошини сой томонга бурди. Ўтирганлар хайрон, у нега лом-мим демай уёққа кетаяпти? Сабаби ҳеч кимга аён эмасди. Кўзлари алам ёшга тўлган полвон отни шундай савалаб борардики, от керагидан ортқ тезликда сой томон шўнғирди. Кўздан панарок жойга ўтгач, у отдан сакраб тушди. Жониворнинг бошини кучоқлаганча манггайдан суйиб, ёлларини силди. Айримлардан олислаётган окибатни одамдан эмас, онгсиз, забонсиз отдан ахтариб, пичирлай бошлади: «Ёнди бор умидим сендан, жониворим. Бўтини бўш каргадай болани сенга, сени эса ўзига топишмоқчиман, тулпорим. Мени масҳара қилма, канотим...» дея пичирлаб ёлвора кетди. Каттик пичириб олган от эса, Ўринбойнинг енгил силкинаётган елкасини аста-аста кимтилаб, бардам бўл дегандек юзидан искашга тушди. Бундан Ўринбойнинг кўнгли тўлди чоғи, яна эгарга ўтириб, отни ўтовлар тарафга бурди-да, саврасига аста камчи урди. Ана энди отнинг югуришини кўринг.

Ҳамма сабрсизлик билан пойга бошланишини кутишмоқда.

Нихот отларни бир қатор қилиб сафта тизишди. Дўсман ҳам от тизгинини дадил тутиб турарди. Ўтирганлар кий-чув солишар, бу нафақат чавандозларга, балки отларга ҳам ўзгача куч бағишларди. Бош ҳакам кўлидаги баликнинг кўзидек ялтираган пистон билан ўқлаган тўшпончадан «тарс» деган товуш чиқариши билан, отлар чанг-тўзон кўтариб олгач интилишди. Чавандозлар отга устма-уст камчи тортиб, узанги билан жониворлар бикинини аёвсиз ура бошладилар. Олдинда қайси бири кетди, буни ҳеч ким пайкамай қолди. Оломоннинг товуши борган сари авж олди. Ёш боғалар тепалик томон югуришди. У ердан отлар аниқроқ кўринарди. Ўринбойнинг юраги бугун илк бор кўрқувни ҳис қилди. Унинг аззойи баданини тер босиб, шўрлик бир пойгачи отлар тўдасига, бир осмонга қарарди. Бундан унинг Ҳраттандан ўғиниб илтижо қилаётганини, ожиз ва ҳокисор боласи жонини ўзигина сақлашга қодирлигини ва албатта тулпорни ҳам тўғқан тойдирмаслигини сўраб ёлвораётганини англаш қийин эмасди. Пойгачи отлар марра сари тобора яқинлашиб келишарди. Фақат биргина от тўдадан анча ўзай кетганди. «Ана, келишаяпти», деган хайкириklar эшитила бошлади. Бирдан кимдир: «Олдиндаги отнинг устида одами йўқ. Эгасиз

от келашпти», – деганда ўринбойнинг сочлари тикка туриб кетди. У бир қарашда ўз отини таниди-ю, бенихтиёр: «Дўсмаат қаерда йикилди», «Қайси отнинг оёқлари остида қолди», деган ҳаёллар исканжасида қолди...

Водариф, нега биз шундаймиз? Нима учун фақат қўлчиларгина яшаши керак? Қачонгача ер талашамиз? Эй, одам боласи ота-онанг, қариндошларинг қаян кетганини нега фикр қилмайсан? Бир кун ўша чўбин от сента ҳам етади ва сен ҳам туПРОК билан қоришиб йўқ бўласан. Вақт эса елдек ўтаверади. Шунга ўхшаш оғриқли саволлар-у, аччиқ жавоблар ўринбойнинг қалбини ўртаб турган дамда одамлар: «Отангта бағли, Дўсмаат биринчи келди, у ғолиб бўлди» дея бақиритганда ўринбой ўзини батамом йўқотди ва югуриб келаятган отлар томон отилди. Чиндан ҳам Дўсмаат минган туПРОК олдида от туширмай маррани биринчи кесиб ўтди. Ва у ҳам ғолиб бўлиб, ота-бола шу ерда умр кечира бошлади. Орадан қанча вақт ўтди, буни улар пайкамай ҳам қолди.

Йиллар ўз ҳукмини ўтказиб, ўринбой қариб чоғ бўлди. Энди унинг юрагида тутилган туПРОКка бўлган ташналик ора бошлади. Аниқроғи у умри тугаб бораётганини англади. Ўзи ер тишлатган жониворлар энди унинг тушларига кириб, доим уни қувлайдиган бўлиб қолди.

– Менинг сафарим қариди, – деди ўринбой қўнларнинг бирида улғайиб қолган ўғлига. – Вафотимдан кейин ўзим туғилган кишлоққа бор, у ерликларга оташин саломимни етказ. Менинг вафотимни айт ва қайтар чотингда ўша ернинг бир сиким туПРОКидан олиб келиб, қабрим устига соч. Мен ҳам она туПРОК тафтини ҳис қилиб ётай, ришталарни узма. Бу ўринбойнинг сўнгги васияти бўлди.

Одамзод ўзи азаддан шундай. «Майли» дейди, аммо кўп нарсани бажаравермайди. Ўзи ўша ахволга тушгандагина ўзига айтилган нарсанинг нақадар муҳимлигини англайди. Агар шунга ақли етса. Дўсмаат ҳам отасининг сўнгги васиятини ўзи қариган чоғда тушуниб етди ва уни адо этиш илинжидида ўғлини ёнига олиб, туғилган юртига йўл олди. Одам одамни кечирishi мумкин, бироқ вақт кўлдан кетган нарсани қайтармайди. Бу ҳаёт қонуни.

Дўсмаат туғилган жойига етиб, киндик қони томган туПРОК тафтини туйғанда бирдан қалби алланечўқ бўлиб кетди. Юрати ҳам турсиллаб, ғайритабiiий ура бошлади. Айниқса, у қўчли ер қўчасидан чўчиб, юртдошларининг аввалтидан анча пастда – янги манзилда яшаётганидан хабар топганида кўз олди тиниб, бемажол йикилди. Унинг бандаликни бевақт бако келтиргани боис отаси ўринбойнинг қабри хануз бир сиким туПРОКка ташна холда, Ватан тафтига мушТОК мунғайганча абТОР қолди....

САДОКАТ ХАЙКАЛИ

Забитга минган кишининг изғиринли куллари тоғли кишлок аҳлига ўз хукмини ўтказа бошлаган. Ҳамма уй-уйида. Борлик калин қор остида. Фақат пасткам-пасткам иморатлар ўргасидати ёлғизоёқ йўллариғина очик. Қор уюмлари билан безанган уйлارнинг эшиклари оддий, кўлбола қилиб ясалган. Ошиқ-мошиқлари ундан-да, ғаройиб. Турдибекнинг ховлиси киш давомида қуралмайди. Шундан у қор қураётган кўшинларига: «Қордан тоғ ясапсанларми?» дея қулиб кўяди. Эгаси эрта туриб эшик-элитини супуриб-сидирган, қорини қураб, йўлини отган хонадонга фаришта кўшини, файз-барақа инишини ҳасёлга ҳам келтирмайди, у. Аксинча, чоштоҳда арағт уйқудан туради. Уйдан унча олис бўлматан чатир тошди тоғнинг у ён, бу ёнида ов қилган бўлади. Оттан қалқиклари бир-икки жуфт бўлиб қолса, «қизил тумшук»нинг семизларидан бор, део уларни сотгунча ошиқади. Аммо бундай табиаат безакларига доим тажовуз қилишнинг эрта-ми-кечми сўрови борлигини ўйлаб ҳам ўтирмайди.

Нозик кўллари билан куракни маҳкам тутган Фариданинг мана шундай — уйи зиндон, кўчаси хандон эркакаларни кўргани кўзи йўқ.

Айниқса, уларнинг уззукун ўзларини кунга тоб-
лаб, карта ўйнашдан бош кўтармай ўтиришлари
кўнгиллини ўқчигади, унинг. Бундай ўтганнинг
ўроғини, кетганнинг кетмонини «чошиб» ўти-
раётганларни кўрганда фитони фалакка чиқиб,
қайнонаси бот-бот хангома қилиб берадиган
воқеани беихтиёр ёдга олаверади. Ҳақиқатан,
воқеа қаҳрамони Сиддик бобо эслагашга лойик
одам бўлиб, жуда ориятли инсон бўлган экан.
Шундан қайнонаси унинг номини ҳар сафар
фаҳр билан тилга оларди, гарчи у ўз аёлининг
қотили бўлса-да...

— Йигирманчи асрининг 37-йилларида қора нонга қорни тўқ оилаларга соя ташлаган сўқир сиёсат бизнинг хонадонни ҳам исканжасидан холи қолдирмади, — дея чуқур сўлиш олиб, Хилми қиларди Фариданинг қайнонаси, раҳматли Сора она. — Отам олтин-қумуш ишлатадиган номи чиққан зарғар бўлганидан, ўшанда Сибирга сургун бўлиш хавфи туғилди. Дарҳол кўч-кўронимизни от-эшакка юқтаб, тоғ томонга ўрладик. Бир кеча Кумбеда тунаб, эртасига Нурек ота сойида яшайдиган қирғизлар орасидан паноҳ топдик. Чор атрофи тоғлардан таркиб топган кушнинг усаидай жой экан. Суви эзилди, аммо сершовкин дарёнинг икки тарафидати чорроқ-чорроқ текисликларда жойлашган хонадонлар соҳибаларининг бағрикенглигидан тил топишимиз уналик қийин бўлмади.

Тез орада ўзимиз тенги ўғил-кизлар билан ўртоқ-ўртоқ бўлиб кетдик.

Биз жойлашган уй кунгай тарафда эди. Қарши томондаги сўжмоқ йўлдан хўжалик ғалласини ўришга борадиган аёллар эшакларга миниб, турнадек тизилиб ўтишарди. Ҳар куни ҳар хил кўйлак кийдиган бир келин тинмай қаҳ-қаҳ отиб кулар, ҳали у, ҳали бу эшакдаги ўрта ёшлилар ортига сакраб миниб, сакраб тушиб юрарди. Кунларнинг бирида ҳалиги келинни «эри ни чоклаб кўйибди», деган шум хабар тарқалди.

Такдир тақозоси билан ўзим турмуш куртач билсам, ўша кўлини конга белатган зот кайнотамнинг тоғаси Сиддик бобо экан. Айтишларича, у киши меҳнаткаш инсон бўлиб, бот-бот овга ҳам бориб турган. Ўлжа ҳам кўрадаги кўй эмаски, арконидан тутиб келаверадиган. Агар ов бароридан келмаса, ҳафта-ўн кунлаб қолиб кетишган овчилар. Жумладан, Сиддик бободан ҳам бундай чотлар кўп бўлган. Бундан фойдаланган келин хиёнатга ноз тутиб, оғизга тушган Эри огоҳликка чақирса-да, қайтмаган бу йўлдан. Оқибатда Сиддик бобо қайнағасига юратгани «ёради».

— Эл оғизга элак тутиб бўлмайдми ука, — дейди қайнағаси унга. — Хиёнат устида тутиб олмадингми, демак, сенинг гапинг тухмат.

— Сизга дағил керак бўлса, тутиш кийини эмас.

— Айбини бўйнига кўй, жазосини мен бераман.

Бундай муносабат Сиддик бобонинг оригига тегиб, ғазабини кўзатади. Унинг нияти бузилиб, ўша кунлик аёлга овга бормоқчилигини айтади. Қутилимаган имкониятдан қунонган аёл эрита бир ҳафтага етудек егулик хозирлаб, кузатиб қолади. Лекин эри куёш ётоғига бош кўйиб, борликка тун пардаси тортилгач, овулга қайтади. Томорқасининг этагидagi улкан ёнғоқ дарахтига чиқиб, овчиларга нос синчовлиқ билан атрофни кузата бошлайди. Ер ўчоқдаги паст оловда бикир-бикир қайнаётган қозондан таралаётган ёқимли ифори киши димоғини қитқилайди. Лекин уни сузиб, тановул қилишга шошилаётган кимса кўринмайди. Томи тулрок билан ёпилиб, устидан серомон лойсувок қилинган хуржун усулидаги қулбанинг қибла тарафидagi чотрок хужра-сида керосинли чирокни ёндирган аёл негадир уни кўтариб, хужрани аста айланиб чиқади-да, сўнг қулба дарчаси олдига келтириб қўяди. Чирок шуъласида аниқ таниди, у ўз бевафоси. Қайнсингилларини чақирмаган, уйда ёнгиз ўли. Демак, кутаётган арзандаси ҳадемай келиб қолади.

Сиддик бобонинг башорати тўғри чиқади. Ул ётиб, оёқ ости боқилар чотда итлар сой тариғига қараб хура бошлади. Кўп ўтмай чириги

етиб колган ёғоч кўра сиртида кандайдир одам шарпаси кўзга чалинади. Худди ўтти мушукдай ерга бикиниб бораётган бемаҳадати «меҳмон» кулба мулолишидаги ғов олдида бир зум тўхтаб, атрофга аланглаб қолади. Кулбанинг икки хужрасини туташтирувчи даҳлиз эшити ким очилиб, кандайдир ишора бўлган чоғи, ҳалити шарпа мисли кирғидан қочган кўндай ўзини ичкарига уради.

Назир кўса билан ўз аёлининг бу қилмишидан зардаси кайнаган мерганни бирдан титроқ босади. Нўҳатдайгина кўрошпин билан уларнинг ҳар иккисини ҳам ер тишлатиш ниятида кўйнидаги милтикни кўлига олиб, кўндоғини елкасига маҳкам тираганча юзига тутади. Қондаги таомни сузиб, дастурхонга кўяётган жувонни жазмани билан туташ ҳолда қоровулга кўндиреди, аммо тепкини тортмайди. Шайтонга эрк бермай, яна ўзини босади. Агар уларни шу ерда, бир ўк билан отиб ташласа, ҳақиқий қотилга айланишини англайди.

Ахир синглисини тартибга чакирадимиз деган илинж билан кайнағасига юратгани «ёртанда» тайёр тухмагичига айланганини у унутганича йўқ ҳали. Ўшанда кайнағаси иёбот тилаб қилганди, мана унга иёбот. Журъати етса, келиб кўрсин, ўзи. Қани, энди нима дер экан? Минсида гужгон урган ўй-фикрлар адоғига етолмай ҳалак бўлган йигит кайнағасининг олдида кан-

дай борди, уни кандай бошлаб келди билмайдилар. Улар келганда чироғи ўчик хужрадан гунгур-гунгур овоз эшитилган, ҳолос.

— Сотиндим, жоним!

— Мен ҳам...

Хужрадаги «сирли» суҳбат, кикир-кикир қули ва ҳолсиз энтикиш каби ғайритабиий ҳолатларни тинглашга ортик бардоши етмаган кайнага камарига осиб олган пичоғини қинидан сугуриб дейди: «Мана пичок, тинчит бу мегажинни. Жавобини мен бераман!»

Кўксига болта урилган ярадор шердай ва-жохатдаги йигит бу гапни эшитиб-эшитмай, ўзини ичкарига отади. Унинг авзойидан кўрккан жувон овозининг борича чинкиради: «Назир и-к-а! Энди нима қиламан? Анави чўчка келиб қолди!»

«Анави чўчка келиб қолди». Бу гапдан хушини йўқотаётган эр хиёнаткор аёлининг тўзғиган узун сочларидан тутганча бир силтаб ерга ётқизади-да, бўғзига... Сўнг қон ялаган шердай тиграб-қакшаган ҳолдаги ўтқир нигоҳлари билан атрофдан Назир кўсани ахтаради. Унинг олди-ортига қарамай ёғоч кўрадан сакраб ўтиб, сой томонга қочаётганини кўргач, изидан дошдай эргашади. Уни ҳам дарёдан ўтган жойда тўтиб йикиттач... Негадир пичок кесмайди. Ғаибдан хансиратган ҳолда, қаҳри кайнаб яна торинди пичокни, кесмайди. Қараса пичок кўлига

тескари тушиб колган бўлади. «А-а-х!» дени уни ўнгтаб, арслондай хайкириб қайта тортаман деганда тасодифан келиб колган Ғанишерота: «Кўзингта бир нима кўриндими, Сиддик? Бу нимаси?!» деб унинг билатидан ушлаб, бор кучи билан орта силтайди. Фурсатдан фойдаланган кўса аввал ўрмагаб, кейин ўрнидан туриб қочади.

Эл отзига элак тутиб бўлмас деганларидек, ўша захотийёк бу машъум хабар айрондек уйиб ётган тоғли овул ахлининг каттасидан-кичигигача етиб боради. Улуснинг улуглари дарҳол конга беланган кулбоба тўпланишади. Ҳамма беҳосиятлар дастидан қотилга айланган Сиддик бобота ачиниш билан қарайди ва ниҳоят:

— Бўлар иш бўлди, энди Сиддикни нима қиламиз? — дейди Бўта половон.

— Нима ҳам қилардик, «жавобини мен берман» деб буюрибди қайнағаси, — дейди яна кимдир.

— Йўқ, — дейди шунда мулла Алмат салмоқдор оҳангда. — Унинг ака-укалари хун сўрмагани билан ҳукумат даъво кўзғайди. Демак, вақтинча бўлса ҳам Сиддик ўзини панага олиши шарт. У кетсин энди, бу ерлардан.

Бу тап кўнчиликка маъқул тушади. Тонг отмасдан Сиддик бобо киндик қони томиган она тупроғини, тоғ новдасини той қилиб чопган кўчаларини, қадрдон юртини ташлаб

йўлга тушади. Эсини танитанидан елкасидан милтик тушмаган мерганнинг илк юз бурган парафи яна сервикор чўккилар бўлади. Бот-бот бошида булутлар тунаган, ёз чилласида ҳам тоқ-тоқ оппоқ қордан салла ўраган Чотқол тоғ измалари манглайдан суйиб бош кўтарадиган Бобоқуёш борлиқни нурга беланган тобда, кенг ва ям-яшил Музбел давонининг чорштроф қафтдек кўринадиган жойига етган Сиддик бобо «У-ф-ф» деганча, ер бағирлаб ётади. Ёнаётган қалби тафтига «қовурилган» юратини шибнам кўнган майса устида ховридан туширади. Сўнг чалқанчига ағдарилиб, сарҳадсиз молий осмонга термулади. Бироз ётгач, қаддини кўтариб, кўлларини тиззаларига кўйганча атрофга қарайди. Ўзи юрган, ов қилган жойларни жўшқин меҳр билан бирма-бир кузатга бошлайди. Ҳар бир ўнқир-чўнқир, дов-дарахти танишини қадрли бўлиб кетган жойларни кўриб, ўтган кунларини эслайди. Нигоҳлари Қизилжар ортисиги кенг дарага тушганда, бундан атиги икки йил аввалги бўрилиқ тўдасига сардорлик қилиб бораётган Кўкёлнинг муросасиз олишувини ёлта олиб, вужудли алланечук бўлиб кетади.

Бу тоғ-у тошлар ҳам, ер бағирлаб ўстан буталар ҳам қишқи уйқуда эди ўшанда. Қумшудек товланиб ётган қалин қорни кечиб кетаётган тўда боши ортидаги бўрилиқ бир миромда йўртиб боради. Улар изидан соя-

дай эргашиб келәттани эса, ўзини тўда
та сездирмаслик учун гоҳ писиб ётса, гоҳ
уларга якинлашиб илннжида кулочкашляб
чопарди.

Жилғадаги дўшпидеккина бутазорга якин-
лашганда бўрилар сардори бирдан ўзини па-
ната олиб, бўйини қорачакак орасига яширди.
Унинг ортидан тизилган бўри ва бўривачалар
хам бир зумда атрофга тарқалишиб, қор кўй-
нига сингиб кетгандек бўлишди. Аста-секин ер
батырляб, улар бутазорни қиблага қарши тари-
фидан қуршовга ола бошлади. Қалин дўлана ва
қайнлар орасидан хурқиб чиққан тоғ эчкилари
жон холатда ўзларини сойга отишди. Бутазор
этагига етиб қолган Кўкёл улардан бир эмас,
иккитасини қандай қилиб бўғизляб улоқтири-
нини мерганнынг кўзи илғамасди ҳам.

Тўдадаги энг ёш урғочи бўри эса, ҳамма
овга чоғланган дамдан фойдаланиб, орда қо-
ди. Изидан келган саёк билан аввал нари-бери
югуриб, сўнг қорда атанаб ўйнай бошлади. Ўл-
жасидан бир-икки лужмани чайнаб ҳам ўтирмай
суяги билан қўшиб ютган тўда бошлиғи бирдан
келган изига қайтди. Жилға ортидаги ёзикко
чикди-ю, вазоҳат билан саёк бўрига ташланди.
Унинг авзойидан чўчиган урғочи бўри жон-жаҳ-
ди билан тўда томонга чопди. Кўкёл биринчи
уринишдаёқ дайдининг бўғизидан олди. Ҳали у
хали бу тарафига бўлғалаб, узок ушлади. Авва-

лига оёқлари билан Кўкёлнинг юз-кўзларини
тимдлаб, қутулишга уринган саёк хаш-паш де-
май жимиб қолди.

Агар билсангиз, асл бўрилар ўзидан тутил-
ган урғочиларга якинлашмайди. Айни чоғда
дуч келган қаланги-қасангиларнинг тўдага
суқулишига ҳам йўл бермайди. Шу босидан са-
ёкни тинчитиб, тўдага қайтган Кўкёл қуйиққан
ёш бўрига бир-икки ёвқараш қилди, аммо тег-
масди.

Эх-х, мен нотовон, ўша Кўкёлчалик ҳам
бўлмадим-а! Қўлимни баднафс кўсанинг қони-
га ювиш ўрнига, ожиза аёлга уриб бўлғадим.
Гирчи у хиёнатга юз тутган бўлса-да, барибир
иёл эди. Йўк, мен уни йўқотганимга ачинмай-
ман. Аммо анави илпиккан кўппакнинг омон
қолгани аззойи баданимни ларзата солади.
Ох-х, пишмаган хомқалла. Аввал нега уни гум
қилмадим-а?!

... Ана, кўрдингизми мард одам қандай бўла-
ди. Булар-чи?! Буларни номус ҳам ўлдирмайди,
номусни улар ўлдириб бўлишган. Акс холда
шундай ўтиришармиди бу ношулар?! Ахир
ҳимманинг ўз имкони даражасидаги юмуш
билан шуғулланишга эшиқлар ланг очилган
бўлса, хозир. Ҳеч қуриса, тоғнинг мол эмас,
одам егудек ёзги ўт-ўланларини қишга ғамляб,
бўрдоки боқишса-ку, яхудийлар ҳам: «Биз этик
мойляб танга топамиз, уни тўшлаб тилло қила-

миз. Муслмонлар тангани менсимайди, тил-
лога етолмайди» деб устимиздан кулишмасди.
Агар унинг Асилбеги хасталикка учраганида
ишлашни ҳам, яшашни ҳам ўрнатиб қўяди,
бу «кўча султонлари»га. Майли, шунисига ҳам
шукур. Ўзи аёл бўлса-да, у уч-тўрт эркати бор
хонадон соҳиб-соҳибагарига ўхшаб корни ке-
чиб қирмайди уйига. Факат шўрлик такдир зар-
баларига эрта тутилди. Эри Асилбек отир ин-
султан сўнг уйида бир кўл, бир оёғи ишламай,
ажалини кутган кишидай чорасиз ётибди.

Икки ой аввал бор топанини жамлаб, ет-
маганига қарз олиб, шаҳар тапхис марказига
олиб борганди. Барча умидлари пучга чикди.
Шифокорларнинг: «Тузалишга умид йўқ»,
детаддек сўлгин муомалалари эрининг ахво-
лини аввалгидан-да, оғирлаштириб қўйгандек
бўлди. Фарида яна шифокорга обормокчи эди,
Асилбек унамади. Боришдан фойда йўқлиги-
ни шўрлик аёл ҳам тушунади. Аммо эрининг
оёкка туришидан асло умид уэтиси келмайди.
Асилбек эса, болаларнинг ризикини ярим қилиб,
нафи йўқ нарсаса уринмасликни унга уқтириш
билан овора. Аслида унинг ҳам атрофдагилар
каби юртиси, рўзгор юмушларини қилтиси, он-
ланинг аравасини ўзи торттиси келади. Афсус,
олдинга йўл йўқ. Шундан: «Хозирок Азроил
келса-ю, жонимни олса», дейди боғинан. Чунки
хаётдан умидлари сўнгган, унинг. Худди илди-

зидан қуриётган дарахтдек кундан-кунга ночор
бўлиб борапти. Аслида осонгина казо топишга
ҳам ҳақки йўқ. Бир эмас, икки кизи бор. Улар-
нинг эртанги кунини, аёлининг кандай қўйга
тушишини ўйласа, ҳадсиз оламга ситмай кета-
ди. Катта кизи Юлдуз тўрт ёшга, кичити Биби-
гул эса, энди бир ёшга тўлган.

Юлдуз тонгдан туриб, онаси қалин кийим-
ларини кийгизиши билан унинг ортидан қў-
чага чопади. Кичкинагина супуртисини олиб,
дуч келган ерни супура бошлайди. Онанинг:
«Менинг қизим катта бўлиб қолди, мента ёр-
дам берапти», деган мактовини кутади. Баъзан
Фарида хаёл уммонига шўнгиб кетса, совук-
дан музлаган кизи ундан: «Опа мен татта киз-
ман-а?», дея мактовни сўраб ҳам олади. Сўнг
совукдан кизарган юзларини қўлқоп ичидаги
илик қўллари билан ишқаб, тезда ичкарига,
отаси ва синглиси қошига опикади. Асилбек
эшикдан кирган қизининг табассум билан ўзи-
га яқинлашаётганини кўрганда ич-ичидан эзи-
лади. Қанча яхши кўргани билан у қизининг
ўзига яқинлашишини истамайди. Чунки унинг
наздида ўзини исканжага олаётган ажал ада-
шиб, худди қизини юлиб кетадигандек туюла-
веради. Одатлагидек қишлоқ ҳамшираси Ойша
шу чоғда беморга муолажа ўтказиш учун кел-
ди. Фарида ҳамширани очик чехра билан қутиб
олди.

— Келдингизми, сизни ҳам кийнаб кўйдик-да, — деди у ҳамширанинг совуқдан кизарган юзларига тикилиб, хижолат чеккандек ийманиш билан.

— Йў-е, ундай деманг, ўзингиз кийналма-яписизми ишқилиб? — деганча Ойша ичкарига йўл олди.

Ҳамшира муолажаларни тутатгач, Асилбекка бироз таскин берган бўлди-да, сўнг ташкарига юзланди. Ошхонадан кўлидаги чоғроқкина халтачага алланималар солиб чиқкан Фаридани ҳамширага узатди.

— Нима бу? — сўради Ойша кошларини хисл чимириб.

— Сизни ҳам овора қилаяпмиз, вақт топиб келганингизга раҳмат, синглим!

— Янга бу менинг ишим, бурчимни бажарайман, ахир! Жиянларимга беринг буларни, бошқа бундай қилманг, — деганча ҳамшира уйдан олислади.

Асилбек тўрт девор ичида яна шифтга термулганча олма бешикни тебратиб, кизларига тикилар, уларни тинмай эркалатарди. Тўтриси, у ўз ҳаёт шамининг тугаб бораётганини ич-ичидан хис қилар, фарзандларига кўлидан келганча қалб кўрени тўккиси келарди. Ўзича уларни ота меҳрига тўйдириб кўйдигандек гўё. Учқур ҳаёл уни яна ўз гирдобига олди. Қизларига термулиб ётиб, кўз олдига ўзининг боғалик дам-

лари, онасидан олган тарсақилари гавдаланди. Ёшлигида жуда шўх бўлганини эслаб қувонган Асилбек бирдан ўлимидан кейин чироғини ёкиб қоладиган ўғли йўқлигидан афсусланиб кетди. Фаридани олдидан кийин дамлар кулаётганини, кизларини қандай узатишини, яхши-ёмон кундида ёнида суянадиган одами йўқлигини ўйлаб қароғларига ёш тўлгач, кўзларини катта-катта очиб, яна шифтга термулди. Агар шу дамда у кўзларини юмгудек бўлса борми, тўлиб турган ёш юзини ювади. Ўзини аранг ростлаган Асилбек яна кизларига маҳзун тикилди. «Водарис, уларнинг холи не кечади? Ахир, улар жуда ёш. Эртага мен кўз юмсам, улар йинглашни ҳам билмайди-ку ҳали...», деган савол ва хулосалар гирдобидан қутулолмай ҳалак, у.

Хайрият, киш қунари қиска, хаш-паш дегунча Бобокуюш уфка бош кўйиб, агрофта коронгиллик тушади. Кечки муолажа вақти ҳам бўлди. Ойша қор кечиб, беморга муолажа ўтказиш учун келганда Юлдуз ишлатилган нинасиз шприц билан ўзича: «Келинг, диз қиламан», дея отаси атрофида парвона эди.

Тун пардаси борлиқни қоплаб, қоронғулик бошланди. Итларнинг хуриши тинмаёпти. Кўшниси Холбиби эса, эридан нолитанча мол-хонасини бошига кўтаргудек бақириб-чақириб, миннат билан томдан энди хашак тушириб, молларига солаётир.

Бир зум атроф тинчлангандек бўлди. Демак, Холёбий молларига қарашга уलगудди. Кўп ўтмай узок-ўзоклардан таралган бўйларнинг увиллаган товуши итлар ҳуришини яна авж олдириб юборди. Ҳуллас, кишлоқдаги шовқин кечаю кундуз тинмайди.

Асиббекнинг ҳаётида ўша тунда ғалати воқеа юз берди. Бирдангина унинг юраги тез-тез ура бошлади. У ҳайратланиб ўнг кўли билан кўкрагини ушлади. Худди юрати жойидан кўзгалиб, бўъзига тикилгудай, назарида. Қизик, нега бундай бўляпти? Кейин англади, унинг ўнг кўли ишламасди. Бирок хозиргина шу кўли билан юрагини ушлади-ку. Қувониб кетди, ҳаммаси оғда қолди, деб. Тўсатдан гурсийлаётган юраги уришдан тўхтади. Асиббек хайрон, нега танаси ҳаракатдан тўхтамаяпти? Кўрқиб кетди ва чўйиб ўйғонди. Чиндан ҳам унинг юраги шундай тез урар эдики, худди ҳализамондагидай. Тушундики, бу туш. Қувониши бекор, оёкка туришдан умид йўқ.

Тонгача унинг кўзига уйку келмади. Чиндан ҳам юраги бошқача. Фаарида ўрнидан туриб, кўчага отланди. Бирок хади жулда эрта, атроф ёришмаган. Кўшиси Туреунпулат бобонинг азон айтгани эшитилди. Тушини ўйлаб тинчи бузилган Асилбек кизларига термулиб ётиб мизғиб кетди. Шу тобора бирданига унинг чап оёғи каттик қимирлади. Кутилмаган турди-

кидан Юлдуз чўчиб уйғонди. Бу отасининг сўнгги харакати эди. Ҳеч нарсадан беҳабар киз «ота» дея Асилбек томон талпинди. Садолуқ. Отасининг бошига бориб яна «ота» деди. Афсус у кизига энди ҳеч қачон жавоб бера олмади. Юлдуз отасининг жонсиз қўлларини ушлаб йиғлай бошлади. Худди унинг бокийта сафар этганини англагандай. Жажжитгина кизлок юзини ювиб тушайтган ёш, унинг титраб-қакшаб бир нималар демокчи бўлайтган лабларига шўртанг таъм берганча пастга қуйиларди.

Фарида йиғлаганча Турсунпўлат бобонинг уйига чопди. Аёлнинг ҳолатидан нима бўлганини бобо дарҳол англаб етди. Бир зумда кўни-кўшинилар йиғилиб кетди. Кўп ўтмай кишлоқдаги қариларнинг деярли ҳаммаси келди. Улар ёшларга майитнинг танаси совимасдан серга кўйиш савоблигини айтиб, тезроқ қабр қазини тайинлашди. Тонгга яқин учқунлашни бошлаган қор энди авж ола бошлади. Ёшларнинг ақсари яти қабристонга кетган. Кўп ўтмай «Жой тайёр бўлибди», деган хабар келди. Ёғоч отта миниб сафарга отланиш барианинг боши-так торғди. Турсунпўлат бобо йитидан ўзини тўхатаолмай фарёд чекаётган аёлга тапиришга кийналди. Бирок наҳора, Ҳаттадан унга сабр тилаб ёнганча Турсунпўлат бобонинг

Бир зум атроф тинчлангандек бўлди. Де-мак, Холбиби молларига қарашга улгурди. Кўп ўтмай узок-узоклардан таралган бўғиларнинг увиқлаган товуши итлар ҳуришини яна авж олдириб юборди. Хуллас, кишлоқдаги шовкин кеча-ю кундуз тинмайди.

Асиббекнинг ҳаётида ўша тунда ғалати воқеа юз берди. Бирданига унинг юраги тез-тез ура бошлади. У хайрагганиб ўнг кўли билан кўкрагини ушлади. Худди юраги жойидан кўзғалиб, бўғизга тикилгудай, назарида. Кизик, нега бундай бўляпти? Кейин англади, унинг ўнг кўли ишламасди. Бирок хозиргина шу кўли билан юрагини ушлади-ку. Кувониб кетди, ҳаммаси ортда қолди, деб. Тўсатдан турсиллаётган юраги уришдан тўхтади. Асиббек хайрон, нега танаси ҳаракатдан тўхтамапти? Кўрқиб кетди ва чўчиб уйғонди. Чиндан ҳам унинг юраги шундай тез урад элики, худди ҳализамондагидай. Тушундики, бу туш. Кувониши беқор, оёкка туришдан умид йўқ.

Тонггача унинг кўзига уйқу келмади. Чиндан ҳам юраги бошқача. Фарида ўрнидан туриб, кўчага отланди. Бирок ҳали жуда эрта, атроф ёришмаган. Кўшниси Турсунўлат бобонинг азон айтгани эшитилди. Тушини ўйлаб тинчи бўзилган Асиббек кизларига термулиб ётиб мизғиб кетди. Шу тобора бирданига унинг чап оёғи қаттиқ кимирлади. Кутилмаган турт-

кидан Юлдуз чўчиб уйғонди. Бу отасининг сўнгги ҳаракати эди. Ҳеч нарсадан беҳабар киз «ота» дея Асиббек томон ташинди. Садо йўқ. Отасининг бошига бориб яна «ота» деди. Афсус у кизига энди ҳеч қачон жавоб бера олмасди. Юлдуз отасининг жонсиз кўлларини ушлаб йиғлай бошлади. Худди унинг бокийга сафар этганини аниқлагандай. Жажжигина кизалок юзини новиб тушаётган ёш, унинг титираб-қакшаб бир нималар демокчи бўлаётган лабларига шўртанг таъм берганча пастга қуйиларди.

Фарида йиғлаганча Турсунўлат бобонинг уйига чоқди. Аёлнинг ҳолатидан нима бўлганини бобо дарҳол аниқлаб етди. Бир зумда кўни-кўшнилар йиғилиб кетди. Кўп ўтмай кишлоқдаги қарияларнинг деярли ҳаммаси келди. Улар ёшларга маййитнинг танаси совимасдан срга кўйиш савоблигини айтиб, тезроқ қабр қазини тайинлашди. Тонгга яқин учкунлашни бошлаган қор энди авж ола бошлади. Ёшларнинг аксарияти қабристонга кетган. Кўп ўтмай «Жой тайёр бўлибди», деган хабар келди. Ётоқ отга миниб сафарга отланиш барчанинг бошида борлигини ўйлаб, ўтирганлар бирдан сертак тортди. Турсунўлат бобо йиғидан ўзини тўхтатолмай фарёд чекаётган аёлга гапиришга қийналди. Бирок начора, Яратгандан унга сабр тилаб ёнита борди.

— Бандаликда, кизим. Аллоҳ сабр берсин! Пешин намозидан аввал Асилбекни чиқарсан, нима дейсиз?

«Илложим канча, нима ҳам дердим», дегандек Фарида бобонинг кўксига бошини кўйиб, хўнг-хўнг йиғлади. Уни тинглаб-кузатганларнинг юрак-бағри эзилиб кетгудек бўлди.

— Кизим, майитга кафанлик олинганмиди?

— Йўқ, олмагандим, бундай бўлиши кимнинг хаёлига келибди, ота, — деди Фарида ўксиб-ўксиб.

— Ҳа майли, сикилманг, — деди-да, бобо ўз уйи томон жўнади...

Кўп ўтмай ўзига атаб кўйган кафанлигини олиб келди. Яқинларининг барчаси видолашиб бўлгач, жаноза ўқилиб, одамлар тобутни мазор томонга елкама-елка кўтариб жўнашди. Турсунпўлат бобо кўча бошидаги муюлишга етганда ортига назар ташлади. Фарида эшикка суянганча мазорга кетаётганлар ортидан қарахт ҳолда тикилиб турар, тобут кўтарганлардан нитохини узмасди. Ёўё кўзини очиб-юмгудек бўлса, улар ғойиб бўлади-ю, у турмуш ўрғинини сўнги йўлга кузатишдан мосуво бўладигандай. Унга ўчакишандек, қор шундай шитоб билан ёғардики, 70–80 кадам наридагини илгаш амри маҳол.

Мазорга борганларнинг бениҳоя кўпلىгидан Асилбекнинг жасадини она ер бағрига

кўйиб, устидан тупроқ тортиш узокка чўзилмади. Домлар бирин-кетин қурьон тилоит қилишиб, ижобатини Аллоҳдан сўрашди. Одамлар суқунатга чўмган қабристондан чиқар экан, айримлар Асилбекнинг қабри томон қараб-қараб кўйишарди. Она табиат ҳам худди уни азоблардан қутқариш илинжида кутиб тургандек, оз фурсат ичида бошқа қабрлар қаби изғиринли бўрон унинг қабрини ҳам оппоқ кўрпа билан ўраб улғурибди.

Қишнинг қиска куни тугаб, узун тун яна борлиқка қора тўрини тортди. Кўни-кўшнilar биридан кейин бири аздор уйга овқат олиб келишарди. Тоғли овул одамларининг удумларида фотиҳхали уй қозонидан уч қунгача ис чикмаслиги керак. Дарвоқе, улар марҳумнинг ўрни хушлалаб қолмасин, деб дафн маросимидан кейин ўша хонадонга икки-уч кун бош кўйишни ҳам анъанага айлантиришган. Ана шу тамойилларга кўра, фақат аёллар эмас, бир турух эркаклар ҳам Асилбекларникида қолишди. Қариylар ёшларга сабоқ бўладиган турли ҳаётий хантомаларни бири тўхтатса, иккинчиси улаб ўтиришди. Сўз ўзани кўшни қишлоқдаги Талғатга такалганда турунг авж олиб кетди. Ўтирганлардан бири уни мактаса, иккинчиси камчиликларини сандарди. Уларнинг энг кексаси Умар бобо ҳам бу бахсдан четда қолмади, томоғини енгил қириб олгач, суҳбатга қўшилди.

— Сизларни билмадим, бироқ мен унинг отасини жуда яхши биламан, — дея сўз бошлади у киши. — Раҳматли жуда мард инсон бўлган. Кўринишидан ҳам баҳодирлардек, алпкомат эди. Тағатни ҳам биламан, унинг қайсидир хислатларини отасига ўхшатаман. У бизникига кўп келади. Ўғлим Камол билан жуда кўнгли соз. Доим отаси ҳақида фахрданиб тапирди. Суяғи меҳнатда қотган, ишнинг кўзини биладиган йигит. Бир юмушни бошласа, охирига етказмай қўймайди. Қора кучга кўпроқ суянади. Бир ишга қадалдими, «кон» қилмай қўймайди. Шундан бўлса керак, баъзан энтикиб кетиб, атрофдагиларнинг дилини ортигиб қўйганини ўзи ҳам пайкамай қолади. Бундан анча йил аввал Камолнинг дили негадир хира бўлиб кетди. Ўлкаси қора қозондай шишиб қолган экан, фарзанд-да, мента юрагини «ёрдли». Қарасам қадрдонидан анча хафа, бола тушмагур. «Ҳа, у ўзи шунақа, сўзинг олди-ортига қарамай тапираверади», деб ўғлимнинг гинасини қувватлаб қўйдиган бўлсам, у билан юз кўрмас бўлиб кетадигандай ҳолда. Шундан: «Оркам кучли деса, нима бўлти?» дея юрагини юмшатмоқчи бўлдим, унинг.

— Сўзингиз тўғри, ота, — деди Камол чуқур сўлиш олиб. — Бу гапни у илгари ҳам бир айтган эди. Аммо бу сафар улфатлар ўртасида қорчагонлик қилиб: «Ол буни, оқ қилиб ташла.

Биласан-а, менинг оркам кучли. Қўлимни қайтарма...», деб қадалиб олди, ўзимни аранг босдим.

— Жуда тўғри қилибсан ўғлим, — дедим унинг попуғини яна пасайтирмоқчи бўлиб. — Менинг ўғлим бўлсанг, доим ўзингни худди шундай босиқ тут. Одамнинг улуглиги шунда, болам. Мен нима қиламан, сенинг билганингни? Билмаганини кечира олмасанг. Қадимдан маълум, отамиз — Одам алайҳиссалом ярагдан замондан бошлаб шайтон бизни йўлдан уриш учун тавқиб қилади. Илоҳим унинг тапига қириб, қулига айланишдан ҳар бандани ўзи асрасин. Агар сен ақлингни пешлаб, ўзингни идора қилмаганингга малъун малайига айландирдинг. Бунга йўл қўймабсанми, демак, сен кучли одамсан. Инсоннинг жисмонан кучли бўлиб, оқибатсиз оғанилири кўп бўлганидан, ақлан етук ҳолдаги яқка йигитлиги юз чандон ортик, ўғлим! Энди бўлар-бўлмас гина-қудуратга чек қўй. Мард одам улфатчиликда айтилган гапга хафа бўлмайди. Ўрни бўлса, гуноҳқорни Яратганнинг ўзи жазолайди.

Ҳақиқатан шундай, болаларим. Ҳеч кимнинг бировга беўрин етказган дипломатия жавобсиз қолмайди. У эртаки-кечми, Холики изилдан хатти-ҳаракатига ярашсини олади. Тағатда ҳам ўзидан кетиб қолган чоғларидаги дипломатиклари учун тоовон тўлаган дамлари

бўлади, билсаларинг. Якинда у кенжа ўғли билан набираларига атаб, элга тўй берди. Халкимиз удумига кўра тухфага бир неча қилқуйруқ келди. Улар каторида бизнинг Камол ҳам тўйга от етаклаб борди. Тўйхона остонасида тўй болаларни отга мингизишиб, устидан сочун сочганда Талғатнинг кўзларидан тўкилган ёш юзларини ювди. Бунга атрофдагиларга сездирмаслик учун у том айланиб кетди. Тўйда хизмат қилаётганлар отни етаклаб даврадан олиб чиқиб кетаётганда кўпчиликка қайтиб қўшилган Талғат Камолни маҳкам қучоқлади. Худди: «Хамма кўриб қўйсин, менинг шундай иним бор», дегандай унинг оёғини ердан даст узиб, гир айланди. Биласизларми унинг негиз шундай қилганини? Тўйда у билан бир кориндан тушган ака-укаларидан бирортаси қорасини кўрсатмади. Бундай ҳолатлар барти қовжираб, ёзда яланғоч қолган дарахт янгинг одамнинг ич-этини тўқиб юборади. Айниқса, ўтган-кетганини жиндек бўлса-да, мушоҳада қилиб, ақл тарозисида ўлчай оладиган киши бундай дамларда каттик буюлади. Зеро, ота-боболаримиз: «Қамиш ҳам эзилиб, бўйра бўлади», деган гапни бекорга айтишмаган.

Умар бобонинг ҳикояси кўпчиликни ўйлатириб қўйди. Айрим гапга кўноқ бермай, сўзни-сўзга улайдиганлар ҳам жимиб қолшди. Ҳатто узок чўзилдиган киш тунининг тонг

билан ўрин алмашилиши тезлашгандек бўлиб кетди, гўё.

Шу тарика тунлар кунга уланаверди. Асли-бекнинг маъракалари ҳам даяри ўтиб бўлди. Ўнг муҳими, тоғли овул ахллари Фарида билан икки қизалоқ ҳолидан хабар олишни қанда қилишмади. Эҳтимол, бу қишлоқ қишлоқлари ўртасида хали-ҳануз оқибатнинг қучилигини билдир. Эҳтимол, лафзи ҳалоқ оила сарбонининг ажал билан олишиб ётган чоғларида ҳам оқизаси ва қизалоқлари тақдири ҳақида қайқуриб, яқин хеш-ақраболаридан қилган илтимос, илтижолари самарасидир. Ҳар не бўлганда ҳам оила устунидан эрта айрилган қизлар кўп қийналмай воёга етишди. Тўғрироғи, ёши ўттизга етмасдан эрини қора ерга топшириб, тул қолса-да, Фарида сабрдан ўзига қўйлақ бичиб, аёл дея аталувчи нозик хилкат шавънига торд қўндирмай яшади. Аёлни кўрганда отдан олдарилиб тушадиганларнинг таъзирини бериб, тавба-тазарру қилдиришни ҳам урдалади. Аммо бунинг ўзи бўлмади, залворли захматлар чеккан ҳолда, қуйган ва қулган дамлари кўп бўлди, унинг. Шуларни эслаганда хали-қоли Фариданинг бор вужуди зиркирайди. Айниқса, эри билан бирга ўсиб, мактабда бира ўқиган синфдоши Раҳим шилқимнинг хурмача топшари ёдига тушиб қолса, асаблари қакшаб кетади.

...Айни баҳор фасли эди ўшанда. Борлик яшилликка бурканган. Барк уриб тулган дов-дарахтлар шоҳларида боларилар базми ажида. Дафъатан қараган кишига туянинг ўрқачини эслатувчи кир-адирлар бағрида заминга ниш уриб, юкорига бўй чўзган майсаларни кирт-кирт узиб еётган кўй-кўзиларнинг матрариши атрофга кўнгирокдек таралади. Ҳали мактабга ҳам бормаган қизини эргаштириб олган жувон подадан қайтадиган говмишининг кечкисига солиш учун бир оз ўт олиб келиш илтижида далага отланди. Раҳматли эри ясаган кўл аравачаннинг аввал қажавасини тўлдириб, сўни кўкат зичланган қопни унинг устига танғиб олган аёл чағир йўлдан чиққунча анча овора бўлди. Равон асфалт кўчага етганда, бир зум тўхтаб, нафасини ростлагиси келди. Аммо атрофда кузатганлар бўлса, қулмасин, деган ғурур билан пешонасидаги терни дастурўмоқчасига тезини артиб олди-да, қизалоғини эргаштирганча яна йўлга тушди.

— Обдан қорайиб, куйиб кетибсиз-ку, Фарида? Қопни менга олиб беринг, юкингииз сани енгиллашди, — деди отининг жиловини тортиб тўхтатмоқчи бўлган Раҳим шилқим мийингиди қулиб.

— Раҳмат, бўёғи оз қолди. Қизим билан бир амаллаб етиб оламиз, бораверинг.

— Тортинмай ортаверинг, сизга тер босиб яравача судраш эмас, сўлим боғлар-у, викорли тоғларда сайр қилиш ярашади, аслида.

— Фарзандлар улғайса, у қуналарга ҳам етар-миз. Ахир халқимиз ойнинг ўн беши қоронғи бўлса, ўн беши ёруғ дейди-ку!

— Э-эй, қизик экансиз. Қоронғини ёритиш сиз айтган хикматларда эмас, қўлингизда билсангиз. Агар хўп десангиз, эртагаёқ кўрсатаман сизга, ўша боғларни ҳам, тоғларни ҳам.

— Сиз-а?!

— Ҳа, мен.

— Унда мана бу ривоятни ҳам бир эшининг, зора ақлингиз кирса, — дея Фарида отир кўрсиниб сўзида давом этди. — Пайғамбаримиз мукаддас динимиз исломни энди тарғиб қилга бошлаган дамларида сиз қаби бир ношула келиб: «Эй, Мухаммад, агар сен чиндан пайғамбар бўлсанг, аввал менга дўстингдан ийно учун рухсат олиб бер» дейди. Шунда Пайғамбаримиз: «Сен шу нарсани онангга қохлармидинг? Опа-сингилларингга-чи?!» деб сўрайди. Аммо ношуддан садо чиқмагач, оломон орасидан отилиб чиққан бир йигит бузғунчига қараб: «Ҳой, ақли ожиз. Сен эрмак қилмоқчи бўлган аёл ўзи ким?» деб сўрайди ирда билан. Лекин у лом-мим дейлмагач, яна ўн деган экан:

зум уларни томоша қилишди. Сўнг овчилар қиймаклар ўтлаётган дара шабадасига қарама-қарши тарафдаги жилга бўйлаб ҳаракатга тушибди. Мўлжалга яқинлашган тобда нимадандир хуржкан қиймаклар шитоб билан қирдан ошишга уштурди.

Уларнинг изидан бораётган бўрини кўрган Нажмиддин ғазабноқ ҳолда милтиқни елкасига олиб, тепкини босди. У нишонта олган ўлжасини омон қўймаган. Бу сафар ҳам шундай бўлди. Катта тезлик билан ўлжаси ортидан чопаётган бўри ғайритабиий тарзда қуйига думалади. Аммо овчилар бундан заррача қувонишмади. Чунки конга беланган бўрининг кўжрагидан тинмай сут томарди. Демак, унинг ҳали эмиликки боласи бор.

Тасодифан миясига келган бу фикрдан вужудларзата тушган Қосим атрофга зийрак нигоҳ билан разм сола бошлади. Сойдаги қор устида эндигина ғоз-ғоз туриб юра бошлаган чакалоқдек тоҳ думалаб, тоҳ туриб қочиб бораётган бўри боласини кўрганда унинг қалби алданечук бўлиб кетди ва унинг ортидан югурди. Она сутидан ҳали ажраб улгурмаган жонивор беркинништа пана жой ҳам топмади. Қосим унни осонгина тутиб олди. Овчилар кўнглига хиралик чўкиб, орқага қайтишди.

Ҳовлисининг пасткамгина эшитгани аста очган Қосим ичкарига қираб экан, аёли Гул-

норанинг самимий саломидан сўнг ўғли Муроднинг: «Дада, менга нима олиб келдингиз?» деган саволи юрак-бағрини тилкалагандек бўлди. Ахир унинг хуржунидати бўри боласи ҳам онаси йўлини худди шундай умид билан кутмаганмиди?! Совуқдан эти жунжикиб, ранг-рўйи бўздай оқарган эрининг аҳволини кўрган аёл тоқати ток бўлиб сўради:

– Нима бўлди, дадаси? Тинчликми?

– Тинчлик онаси, тинчлик, – деган Қосим кўлидаги хуржунни Гулнорага узата туриб: – Ичида бўри боласи бор, сут бер, бечора очиккандир, – дея тайинлади.

– Қандай бўри боласи?

– Э-эй, Нажмиддин билмасдан она бўрини отиб қўйди. Боласи жуда ёш экан, ушлаб уйга олиб келавердим. Ўзини эплагувча парвариш қилиш керак. Яхшилаб қара, онаси.

Гулнора Қосимнинг айтганини сира икки қилмаган. Шу боис у ҳеч бир эътирозсиз бўри боласи учун товоқка сут қуйди. Аввалига жиндек хуржиброк турган бўри боласи, очлик олдидида ожиз бўлганидан, сутни паккос тушириб олди-да, илик хонада мириқиб пинакка кетди.

Шу тарика тонглаб отиб, кунлар ботаверди. Орадан уч ойдан ортиқроқ вақт ўтди. Гулнора ҳам бўри боласи «тилини» анча ўрганиб қолди. Ҳатто уни силлаб-сўйлаб эркалатиб ҳам қўядиган бўлди. Бўри боласи келган давридагидан

ўсиб, ўзини тутиб олди. Кунларнинг бирида Қосим аёлига:

— Энди уни эркинликка қўйиб юборадиган вақт келди-ёв, — деди.

— Худди кучук болалардай қўлга ўрганиб қолди жонивор, қўяверинг юраверсин, — деди Гулнора бўри боласини кўзи қиймай.

— Бўри барибир бўрилигини қилади. Уни ўзингга яқинлаштираверма, беҳосдан тиш солиши мумкин, — дея рафикасини хушёрликка чақирди Қосим.

Ўша куни бўри боласи ётоғининг эшигини мерганнинг ўзи беркитди. Субҳидамда уйғонган сахарҳез аёл ховлига чиқиши билан бўри боласи ётоғининг эшиги очик турганини кўриб, уйга қайтиб кирди-да: «Туринг дадаси, Сиртлоннинг эшиги очик, ўзи йўқ» деди. Аммо, Қосим сир бой бергиси келмай: «Қўявер онаси, унинг ҳам озодликда юртиси келган-да» деб қўя қолди. Лекин Сиртлон бошқа корасини кўрсатмади. Анча вақтгача бутун овул уни эслаб юрди. Кимлардир уни кўрганини айтишса, кимлардир: «У бу ерлардан кетди, энди қайтиб келмайди» дейишарди.

Бир сафар «Овулдан олисламайман, кечгача келиб қоламан» деган ўй билан Қосим овга ётпиз ўзи отланди. Бирок унга ҳеч қандай ўлжа дуч келавермади. Шу боисдан у

овулдан анча олислаб кетди. Куннинг иккинчи ярмида Қосим каттагина тоғ такасига дуч келди. Уни кўлдан чиқармаслик учун кулай жойга бир амаллаб етгач, оёғини қичик бир тошга омонатгина тираб ўлжага ўқ узди. У мўлжалдан адашмади, така жойида қолди. Аммо мерганнинг оёғи беҳосдан тойиб, қутлимаганда пастга думалаб кетди.

Кейин нима бўлди? Орадан қанча вақт ўтди, Қосим эслолмайди. Факат танасига сизган совок уни биров ўзига келтирди. Унинг юз-қўшлари қон. Боши зирқираб отриб, кўнгли айнимоқда. У ўрнидан турмоқчи бўлди, удалай олмади. Оёқлари шундай қакшар эдики, худди суякка болта ургандай.

Борликка оқшом чўкиб, атрофга тун пардаси ёйилгач, у ер бу ердан бўриларнинг увилаши эшитишга бошлади. Кўркув билмас овчининг биринчи марта кўнглини ғулеғула босди. У ожизлик қандай бўлишини илк бора хис қилди. Қимирлай деса мадори йўқ. Кимсасиз тоғ кўйида бакириб-чакириш ҳам фойдасиз. Сал пастроқда ётган милитини аранг қўлига тутган Қосим тақдирга тан бериб, ғойибдан нажот қута бошлади. Орадан кўп ўтмай жилга бўйлаб ўзи томон яқинлашаётган қандайдир шарпаларни илғади. Яшин тезлигида унинг хаёлига: «Яқинлашаётган бўри эмасмикин?» деган ўй келди.

Ха, у адашмаганди. Якинлашиб ҳамла-
га чоғланаётган чиндан ҳам бўри эди. Ўзини
химоя қилиш учун у милтикдан ўк узоқмоқчи
бўлди. Йўк, аксига олиб анча вақт кор устида
қолганидан ўки намиккан эканми, милтик отил-
мади. Қосим билдики, бу сафар ўзи ўлжата ай-
ланган. Йирткичлар эса, унга борган сари якин-
лашарди. Ҳеч қуриса бўриларга ем бўлганини
кўрмайин ҳам, қуймайин ҳам деган максатда
у кўзларини юмди. Унинг кўз ўнгида дарҳол
ўғли, аёли, гарчи салом-алиқлари совуқ бўл-
са-да, ака-ука, опа-сингиллари намоён бўлиб,
бирма-бир ўта бошлади.

Шу тобда бирдан яқинлашаётган бўрилар
нетадир бир-бири билан олишиб кетди. Вироз-
дан сўнг улардан бири аччиқ-аччиқ гингитган-
ча олислаб бошлади. Иккинчиси эса Қосимга
яқинроқ келди-да, узага тушиб ётди. Мерган-
нинг ёдига ялт этиб бундан икки ярим, уч йил
аввал ўзи кўйиб юборган бўри боласи келди.
Нахотки бу ўша бўлса? Миясида гўжгон урган
саволларга жавоб тополмай қарахт бўлган Қо-
сим ҳам совуқдан, ҳам кўркувдан титраб-как-
шаб тунини бедор ўтказди.

Кечаси билан мижжа кокмаган Тулнора эса
тонгги гира-ширадаёқ кўшниларига овга кетган
эрининг ҳалигача қайтмаганини айтиб, ёрдам
сўраб ёлвора бошлади. Дарҳол уч-тўртта овчи
кўпилиб йўлга оғланди. Қордаги из билан Қо-
сим така отган жойгача улар адашмай боришди.

Отилган така танасини ҳам қийналмай топиш-
ди. Аммо мергандан ном-нишон йўк. Демак, ов-
чилар билишдики, Қосим думалаб кетган. Улар
шоша-пиша пастга қараб бирин-кетин туша
бошлашди. Қай кўз билан кўришсинки, Қосим-
нинг ҳолсиз танаси қонга беланиб ётарди. Ҳам-
ма у томонга ошиқди. Овчилар шарпасини сез-
ган бўри эса аллақачон ўзини панатага олган эди.
Шикастланган маҳалладоши билан андармон
бўлган овчилар жабрдийдани кўриқлаган бўри-
нинг ўзига ҳам, изига ҳам аҳамият берипмади.

Қосимни қишлоқ четидати биринчи хона-
дон этаси Аббоснинг уйига олиб кириб, исиб
ўзига келиши учун печка ёнига ётқизишди.
Орадан кўп ўтмай, хабар тошган Тулнора кўзда
шашкатор ёши билан етиб келди. Аёлининг аф-
тодаҳол киёфасини кўрган Қосим унинг кўлла-
рини маҳкам қисиб кўришди. Бундан «бардам
бўл» деган маънони англаган аёл дарҳол ўзини
ўнглашга уриниб деди:

— Худоба шукур-эй, жонингиз омон экан.
Бахтимизга доим бошингиз тошдан бўлсин!

— Бунинг учун аввало сента раҳмат, — деди
Қосим лаблари титраганча пичирлаб. — Ме-
нинг тирик қолишимга сенинг меҳнатинг сабаб
бўлди. Эсинглами, онасини Нажмиддин бил-
масдан отиб қўйган бўри боласини бокканинг.
Унга Сиртлон деб ном ҳам қўйгандинг. Ана
шу бўри бутун мени тун бўйи кўриқлаб чикди.
Қара, йирткичда ҳам шунчалик меҳр бор. Биз

одамларда-чи?! Беназир бу хислат инсондан йироқлашиб бораётгандай назаримда. Агар тапим ёлгон бўлса, бир кориндан тушиб, бир кўкракни эмиб унгайгандлар бўридан ҳам бемехр бўлишармиди?! Ака-укалар, опа ва сингиллар йиллар давомида юз кўришмай юришармиди?! Қайин оға, қайининиларингнинг келмаганига ўн йилдан ошди. Қайинсингилларингни кўрмаганимизга ҳам кўп бўлди.

Ҳа, онаси кабоҳат бу, кабоҳат!

Водарит, биз қайёққа кетаяпмиз ўзи? Нахотки бир-бирига йирткич бўри боласичалик муруват кўрсатишдан ҳам мосуво бўлса, одам боласи? Охирзамон яқинлашганда одамлар ўртасидан оқибат кўтарилади, катта туриб кичик сўзлайди, ҳамма факат ўз фойдасин кўзлайди, дер эди бувам боғалик дамларимда.

Ё алҳазар, ё алҳазар! Нахотки шу рост бўлса?! Йўқ, йўқ! Бунга ҳали эрта. Чунки орамизда яхшиликни ўзига яраштириб яшаётган саховатли кишилар, бағрикенг одамлар, оқибати кучли инсонлар кўп ҳали...

ЎҒИРЛАНМАГАН СОВҒА

ЧЛУҒ айём арафаси эди. Кўчалар байрамона безатилган, савдо расталари турфа буюмларга лиммо-лим. Жасур эрта тонгдан туриб, отасидан ўзига қандай совға олиб келишини сўради:

— Бугун менга қандай совға олиб келасиз, деди?

— Ўзинг айт-чи, сенга нима совға қилай? — деди у худди бу ҳақда олдиндан ўйлаб қўйгандай ўзини дадил тутиб.

Аслини олганда у совға олишни хаёлига келтирмаганди.

— Энг зўрини олиб келинг.

«Майли», деди-ю, нима олиш кераклигини тўғрисида ўйлаб қўймаганидан бироз уялдди. Аёлига қараб бир кулиб қўйганча, уйдан чиққан ота нима олиш кераклигига бош қотирди. Энг зўр совға нима эканлигини ўйлади. Катта ёшдагилар ўзи шундай, бир нарасага чалғиб қетади-да, кўп нарсани унутади. Турғунда ҳам шундай бўлди. У ишдан қуруқ қўл билан қайтди. Ўғли эса, дадаси олиб келадиган тухфа тўғрисида ўйларди. Қизик, отаси унга нима совға қиларкин-а? Балки каттакон машина олиб келар! Агар шундай бўлганда зўр бўларди. Қўчига олиб чиқарди-да, ўртоқларига «буни менга қандам олиб берди, байрамга», деб мактанарди.

Бу дамда Турғун кишлоғига қатнайдиغان автобуста ўтириб улгурганди. Автобус салонидан спиртли ичимликнинг бадбўй хиди анкиб турарди. Аёллар орқа ўриндиқда ўтирган ўрта ёшли кишига қараб-қараб кўяр, бироқ ҳеч қимлом-ним демасди. Аксинча, кўпчилик унинг пинини маъқуллашарди. Ахир маст одамга:

«Сеники нотўри, бу юришинг нимаси?» деб кўринг, албатта жанжал бошлайди у. Кўп ўй май автобусда бўш ўриндик қолмади. Хайдовчи орқага бир қараб: «Байрам зўр бўлганга ўхшайди-ку», деди-да, автобусни жойидан қўзғатди.

— Одамлар мен фарзандимга совға олдим, дея гап бошлади халити маст одам. — Биласизларми, нима олганимни? Уяли телефон, охириги модель дейишди. Қалай қилибман?

У гапирган сари салондаги хид қучайиб боради. Олд ўриндикдаги нуруний отахон аста сўради.

— Телефон олдим дегн? Фарзандингни ишлайдим?

— Ўқийди, мактабда, — жавоб берди у мағуруна оҳангла.

— Унда телефонни нима қилади?

— Бугун ҳар бир одамда телефон бўлиши керак, ахир. Нима, бошқа нарсга олишим керакмиди?

— Билмадим, аммо мактаб ўқувчисига телефон шарт эмасдай назаримда. Менимча унга китоб олиш керак эди.

«Китоб олиш керак!» Бу гап Турғунни сертак торттирди. Ўзи совға олмаганидан, ўғлининг айтганини яна унутганидан хижолат тортди.

— Э, қария, замон билан ҳамнафас бўлиш керак. Техника асрида яшашмиз, унутманг! — деди қайфи бор одам бўш келмай.

— Тўғри, шундай, бироқ китоб энг зўр совға. Биласизми нега?

— Ҳўш, нега?

— Бир нарсани унутманг, ука. Техника асрида, бошқа асрдаги билим олиш тўхтамайди. Билимни одам ҳар қачон қадрли. Олтидан қурилган дунё йўқолиши мумкин, аммо аклдан қурилган дунё йўқолмайди, — деди-да, нуруний манзилга етганини айтиб, хайдовчидан автобусни тўхтатишни илтимос қилди.

Шундан сўнг нима гаплар бўлди, Турғун уларни эшитмади. У қаерда китоб дўкони борлиги хақида ўйлай бошлади. Чиндан ҳам қатор-қатор замонавий савдо иншоотлари солинмоқда, бироқ бирорта китоб дўкони йўқ! Ҳақиқатан йўқмикин ёки бундан Турғун беҳабарми? Саволлар адоғига етиб уштурмасдан, у ўз манзилига ҳам келиб қолди. Аммо ўғлига нима баҳона қилиш кераклигини яхшилаб ўйлаб олди. «Сенга энг зўр совғани тайинлаб юбордим, эртага олиб келади», деса бола яна бир кун кутади. Эртага ўғлига албатта китоб олиб бериши керак. Якин атрофда бўлмаса шаҳар яқин, нари борса ярим соатлик йўл машинада. Борали-да, олиб қайтади.

Эшик олдида Турғунни биринчи бўлиб ўғли кутиб олди. Боласига нима дейишни олдиндан режалаштириб олган ота уни тинчлантиришда қийналмади.

— Сента зўр совға тайинлаб юбордим, эртага олиб келишди. Ахир байрам эртага-ку, тўғрими?

— Тўғри, дадажон, тўғри. Факат эртага ёлдингиздан чикмаса бўлди, — деган ўғил отаси сўзига осонгина кўниб кўя қолди.

Эртаси куни Турғун энг зўр совғани ахтариб барвақт йўлга тушди. Унинг максаси китоб олиш, бутун унутиб бўлмаслигини у яхши билади. Марказга бориб, китоблар каерда сотилишини таниш-билишларидан сўрай бошлади. Ҳаммада бир хил гап: «Билмадим, менимча, бу афрофда китоб дўкони йўқ бўлса керак?», деган жавоб. Чиндан ҳам у китоб дўконини топа олмади. Энди шахарга бориб келмоқчи бўлиб турганида бир таниши: «Марказдаги идора моллари дўконига борсанг, бир четида — кичкинагина жойда китоблар кўрган эдим», деб қолди.

Айтилган дўкон олдиди одамлар гавжум. «Нахот барча боласига китоб олаётган бўлса? Кўпчилик бу ерда китоб дўкони борлигидан хабардор экан-да!» деган ўйлар отушида Турғун шошиб ичкарига кирди. Не кўз билан кўрсинки, дўконга кечаси ўғри тушиб, кўлга илинадиган нарсаларни олиб кетибди. Барча ўзинча худраниб нималарнидир бир-бирига тушунтирмакда. У ҳам одамлар орасига кирди. Ичкарида милиция ходимлари афрофга синовчан назар билан нигоҳ ташлаётти. Турғун дўкон эгасини

таниганидан тўғри унинг ёнига ўтди. Аввал ундан кўнглиг сўраб, сўнг совға учун китоб олишга келганини айтди.

— Китоб! — Ҳайратланди дўкон эгаси.

— Ҳа, китоб.

Дўкон эгаси бурчақдаги столдан бир даста китобларни олиб чиқди-да: «Мана, ўтирланмай қолган буюмлар шу, холос. Биронта китобга тегилмаган у ярамаслар. Бироқ буларни қачон олиб келганимни ўзим эслолмайман. Истагингни танлаб ол, пулинг керак эмас. Барибир уларни ҳеч ким сўрамайди, олавер», деди.

Турғун китоблардан бирини олиб, ортга қайтар экан, кечаги қариянинг таплари ёнига тушди. Чиндан ҳам ақлни ўтирлаб бўлмас экан. Агар ўша ўғри китоб ўқиганида борми, аввало шуларни ўғирлаган бўларди... Йўқ, у китоб ўқиганида бу разил ишни қилмас эди...

ҚАРҒИШ

Б олалигимни эсласам, энг аввал кеч кузда бошланган ўша азобли дамлар кўнгли дафтаримнинг илк саҳифаларидан ўрин олади. Ҳар гал нимадандир сиқилиб, кўларимда ёш қалқса ёки зоҳиран кулганим билан бутинан изтироб чексам, сўзсиз ўша аянчли ўтмишимга қайтаман. Бахтли онларни кузак шимоли учириб кетгандай туюлади. Ғам-тус-

са гирдобига фарк бўлган онамининг сарғайган хазин чехраси кўз олдимида гавдаланаверади. У шўрлик аччиқ алам устида титраб-кақшаб айтаган қарғишидан ўзи азоб чекишини ҳеч қиммат дoston қилмаса-да, буни унинг мунг чўққини кўзларидан англаб олиш қийин эмасди. Бирок ўтган вақтни ҳам, айтилган сўзни ҳам ортга қайтаришининг иложи йўқ. Агар бўлганда ҳам онам ўша ўтрини яна шундай қарғатган бўларди менимча. Яна қайдам... Йўқ, ҳеч бир она боласининг хўрланишига чидаб тура олмайди. Бу туйғуга улар азалдан асир.

Онам бўйчан, юзлари қорамтир, қалбини тик тутиб юрадиган аёл эди. Кафтларини қадок босиб, суяги меҳнатда қотган бўлса-да, юзидан нур балкиб турарди. Йиллар ўз таъсирини қолдирган ажинлари ҳам мушфиккинамга ўзгача чирой бағишлагандай бўларди. Балки менга шундай туйилар. Кейинчалик бирдан худди ёндек бўкилиб қолгани ўзига салгина ярашмасди. Ўша ҳолда бўлса-да, бутун ёнимда бўлганидан, мендан бахтли одам бўлмасди.

Ўтмишининг кўнглидаги дардли саҳифаларини вараклар эканман, томирларимдаги қон худди шoшқин оккан дарёдай гулпириб, сиртим олов, ичим чўғ бўлиб кетади. Бавзи-бавзида тоғам ҳам тушларимга қиради. Ранглар юзларидан қон қолмагандай оқариб кетган, у кишининг. Чехраси сўлгин, гўё ўтиниёб узр

сўрагандек маҳзун тикилади одамга. Аввалги камийдай қомаги-ю, қиличдай кўрқидан ном-нишон қолмаган. Бир кўлида қичик ўғлини кўтариб, иккинчиси билан қатта ўғлининг кўлидан тутганча, майлос қадам босади. Одим ташлашидан ҳаддан зиёд қарчагани яққол сезилади.

Эх! Менинг ўша мусибатли кунларим тоғамнинг ҳаёт чотқаридаги барглар сарғайиб тўқилган, сайроки кушларнинг аксарияти олис-олисларга учиб кетган дамлардан бироз олдинроқ бошланганди. У пайтларда бугдой дони дала четларидagi чотроқ-чотроқ ўраларда сақланарди. Ҳозиргидек омборхоналар қаяқда дейсиз.

Отам бечора Сталин сиёсати тили билан айтганда «халқ душмани» деб топилган. Ас-лида соддадил бир овчи, иштини яхши билдиган, сўзамол чорвадор эди. Шу сабабли отамни овулдагилар яхшигина хурмат қилишарди. Бор айби — бир даврада: «Нега энди ҳамма ишни биз бажариб, кеча-ю кундуз тиним билмай чорвани асрасак, ўроқда йўқ, машоқда йўқ, қирмонда хозирлар хузурини кўради? Қачонгача ўз эркимиз ўзимизда бўлмаслиги керак?» дегани учун орадан бир кун ҳам ўтмай отамни олиб кетишганди. Шу бўйи уйга қайтгани йўқ, падари бўзуққворим.

Оиламизнинг бошига тушган бу ноҳақликка чидамлаган онам шўрлик бетоб бўлиб қолди.

Бор будимизни тортиб олишди. Кўрада тумшуги билан ер тираб ётган ёлғиз эчкидан бўлиб ҳеч вақомиз қолмади. Кичкинагина юрагимдан улкан алам пайдо бўлиб, ўзимча барчасидан ўч оламан, деб ўйладим. Бирок такдирнинг мени ҳам атаган аччиқ зарбалари бор экан. Шу орада бугдой ўриб-янчилдиган бўлиб қолди. Барча катори мен ҳам ишта чикдим. Аслида биз олимиз билан бу ерларни ташлаб кетмоқчи эдик. Бирок, бизнинг ҳеч қайска кетмаслигимиз топилиларга тайинлаб қўйилган экан. Бунини онам, на мен югурудак жоусулар оғзидан эшитганимиз йўқ, аммо кетолмадик. Кейин билсам, уларнинг режалари тамоман бошқа экан.

Бирдан Теракки сой ўзанига кираверишдаги Катта куртош камарларидан бирдаги ўрани кимдир ўмариб кетгани кулоқка чалиниб қолди. Барча ўтрини кидиришга тушиб кетди. Жўмладан, мен ҳам. Ўша куннинг ўзидек юкоридатиларнинг овулдаги айтоқчилиари ҳе йўқ, бе йўқ: «Уруғликни сен олгансан», деб мента тухмат қила бошлашди. Ёлғиз онамдан бўлак ҳеч ким мени ҳимоялаб: «У олмаган» демасди, деймасди ҳам. Онам тоғамга ёлвориб: «Жийининг тухматдан саклаб қол», дея йитларди. Тоғам сукут саклар, ломим демасди. Тошдек қотган ҳиссиз юзлари опасининг ёлворилларига парво ҳам қилмагандай, кибр билан юрарди.

НКВД чопарлари сўроқ бошлаган биринчи кунёқ айбони бўйнимга олишимни талаб қилишди, кўнмадим. Қандай кўнаман ахир, мен ўтирмаган бўлсам. Улар кўйган талабга кўнмаганимдан кейин қийноққа солишга ўтдилар. Деврли ҳар қуни оч-наҳор, қўлларимни орқага ботлаб, Каттортодиги бойдан тортиб олинган уйда ўтирадиган НКВД вакилининг ҳузурига олиб боришарди. У ерга етгунча от туёқларининг зарбига дош беролмай, неча йикилиб, ер ном этди. Мени сўроқ қилаётганлар донни олматанимга тўлик амин бўлсалар-да, қийнашда давом этишарди. Улар ҳар қуни мени зериккунларига қадар қийнашарди. Кечга яқин: «Майли, бутун уйингга бор. Агар эртага айбингга иқрор бўлмасанг, камаласан», деган дўк-пўписа билан қўйиб юборишарди. Уйга келгач, онам: «Хов бола, агар уруғликни сен олган бўлсанг, берган сўтимга рози эмасман», дея зарда қиларди. Бирок оналик қалби билан уни олматанимга ишонарди. Шу боисдан бўлса керак, тинмай: «Уруғликни ким олган бўлса, боласининг бақрини есин!» дея қарғарди.

Нихоят баҳорга чиқиб, яна ишлар бошланиб кетгандан кейин, мени қийнашни тўхтатишди. Ёз бошланиши биланок ҳамқишлоқларимизнинг деврли барчаси яйловга кўчиб кетишди. Бизнинг улар билан бирга кетишимизга ҳожат

йўк эди. Чунки ҳеч нимамиз қолмаганди. Менинг дардў ўйим ўтрини топиш бўлди. Хаёлан уни қандай жазолаш режасини ҳам тузиб қўйгандим. Бироқ онамининг: «Йўк, ундай қилмайсан», деб йўлимдан чиқишини қардан билибман. Ўтриси, худди жиннингга ўхшаб қолгандим. Аммо ўзим билган холи жойлардан бўғдойни ахтаришдан тўхтамадим. Албатта уни топаман ва номини оқлайман, дея интилардим. Бошқача бўлиши мумкин ҳам эмас эди-да!

Мен билган овлоқ жойларнинг ҳеч қайсиси назаримдан четда қолмади. Бироқ ҳеч нарса топа олганим йўк. Балки ўтри донларни қишдаёқ гум қилгандир. Нета бу фикр ёдимга аввалроқ келмади, деган ўй билан уруғликни топишмига бироз иккиланиб қолдим. Лекин этри қўлни топиб, номини албатта оқлайман, деган аҳд — улкан умид мени бир сонияга ҳам тарқ этмасди. Бор имкониятимни ишга солдим. Бўлмади, бутунлай ҳафсалам пир бўлди. Топмаслигимга даярли ишондим. Аникроғи тақдирга тан бергандим ўшанда. Ахир чор атрофдаги камарларнинг ҳар бир каватига кириб чиқдим, қўнғлимга ҳадик солган ҳамма жойини титиб кўрдим.

Шу оддийгина хашаки ўтрини аниқлай олмаганим учун ўзимдан ўзим ҳафа бўлдим. Вақт пешиндан ўтиб қолганди, уйга қайтар эканман, бизга энг яқин инсон бўлган тоғамнинг эшити очилиб қолганини кўриб, ёпиб қўйиш учун ҳов-

лисига кирдим. Назаримда яқин орада у ерга қимдир киргандай туйилди. Яна бир мағоматини илаштириб олмаслик учун очик эшикка ҳам яқинлашмай изимдан эмас, кўрадан ошиб, сой томондаги йўл билан кетишга чоғландим. Энди чинакамга ўтриларга ўхшаб атрофга алаңлаганча тез-тез қадам ташлаб борардим. Ўтри бўлиш учун ҳам юксак маҳорат кераклигини қандайдир чуқурга оёғим тушиб йиқилганимда теранроқ аңладим. Тизамдаги битмаган яра қўчи шекилли, қучли оғрикдан суякларим зиркираб кетди. Одамқушларнинг отга оёқосити қилганларини, бошимни ғурура, оёқларимни мраморка босиб кетганини эслаб хўрлитим келди. Оёғим қандайдир донга ўхшаш майда нарсига ботганида эса, норағим ўзгача ҳаприқди. Оёғимни чуқурдан шахд билан тортиб олдим. Йиртик қавушимга илашиб чиққан ғаллани кўриб доғ қотдим. Шу онда ҳамма нарсани — нуждимдаги оғрикни ҳам, бировнинг мени кўриб, ўтриликда айбашини ҳам унутдим.

Ҳаётда биринчи марта қалбимда ўз яқинларимга нафрат ҳисси пайдо бўлди. Жисму танимни бир зумда камраган гумонга аниқлик киритиш учун тулпорқни қўлларим билан титиб, чуқурни оча бошладим. Не кўз билан кўрайки, қовурғаси қўноқ поҳоли билан зичланган ўра қара донга лиммо-лим эди. Бу ўша Катта қуртош камаридеги ўрага ўзимиз қўмган уруғлик-

нинг ўзгинаси... Ҳа, ҳа, худди ўзи! Оёкни кўлла олиб, онамининг олдига югурдим. Кўрганнинг улари оқизмай-томизмай айта бошладим. Кўтилмаганда юзимга тушган тарсакидан кўларимдан ўт чакнаб кетди. Онаи зорим мени укасининг бундай қилганига ишонамай уртани ни дарҳол тушундим ва шоша-пиша мана исботим, дегандек кафтимдани бир сиким бўғдойини кўрсатдим. Онам уввос солиб йинглаб юборди: «Ўйинни устунидан, болаларимни отасидан айирганинг етар, худойим! Энди ёлғиз укамдан айрма мени. Нима деган бўлсам ҳам қайтариб олдим, унинг жонини омон қил, Эгам!» деди мени бағрига босди...

Орадан кўп ўтмай тоғамнинг икки ўғли дарёда оқиб вафот этди. Онамининг зўғуми билан мен ҳам тоғамнинг уйига бориб, эшик олдида бел боғлаб турдим. Бир кунда, бир оиладан икки ўсмирга кабр казиб, дафн этиш учун овуллаги деярли барча эркаклар келишди. Тоғам мени кўрди-ю, маҳкам кучоқлаб, бор овози билан бакириб йитлади. Тўғриси мен тортган азоблар фарзанд доғида куйган отаникидан анча енгиллигини ўшанда сездим ва тоғамга ачиниб кетдим. Энг аянчлиси орадан кўп ўтмай у кишининг ўзи ҳам оламдан ўтди. Ўрадаги донни эса назаримда кўрт-кумурска ташиб тугатди. Ўзим мушфикимнинг ҳақли қарғишига қолганларнинг аччиқ қисматида каттик кўрққанам бонди, кейин у ерга қайтиб бормадим...

НОРАСИДА НИДОСИ

Бахорнинг илк кунлари. Ҳаво илик ту-юлса-да, эсаётган салкин шабеда этни жунжиқтиради. Заминга ниш, кўкка барқ ураётган баравж майсаларга инган тонгги шабонам уфқни сервикор чўккилари билан тўстан оксоч тоғлар оша мўралаган Бобокуёшнинг заррин нулларида биллурдек товланади. «Борлиқнинг бееназир бу мўжизаларидан баҳра олишга, мен бебахт лойиқ эмасман», дегандек Насиба олис-олисларга ўйчан термуглади.

Нима қилсин у шўрлик? Балки барчасини ўз холича қолдирсинми? Ахир, унда қандай қилиб у эл ичида бош кўтариб юради? Адоксиз саволларга жавоб тополмай қарахт бўлган оқиза не-не сир-синоватларга туювоҳ бўлган са-лобатли тоғлар кучоғидан Дилмурод айтиб берган ўша афсонавий муҳаббат қаҳрамонларини ахтара бошлади. Кўпдан бери топилмаган санолаари жавобини улардан сўрагиси келарди тўё. Қизик, у нималар ҳақида ўйлашпти, ўзи? Нега улар унинг саволларига жавоб бермоғи керак? Бошида булутларни тунатиб, оппоқ қорлардан қалпоқ кийган бағанд чўккилар орасида ғойиб бўлган ошиқлар нима учун азият чекишганди ўзи? Инсонийликка номуносиб қаракатлари учунми? Йўқ, йўқ! Асло ундай эмас. Муҳаббат мангулиги, миллат ғурури,

эл-улус ор-номуси учун севги оташида эмас, балки бутун бошли сурувни булгаган бузок янглин калбини курум босган айрим таламислар вужудини куйдирган хасад ўтида ёнишганди улар. Акс холда уларнинг мухаббати икки эл ўртасидаги дўстлик ришталарини боғлаш учун улкан кўприк бўла оларди. Бирок...

Водеариг! Насиба нега бирдан Дилмуродни эслапти? Ахир кеча якиндагина уни назарга илмай, шўрликнинг тоғ кўнидан куйилган зиндог булок сувларидек тиник мухаббатини ўзинча эрмак килиб юрмаганмиди? Нега энди бутун ғариб кўнгили ўз-ўзидан уни тусаб колди? Қандай килсин ахир, ожиз вужудига бўйсунмаган юрак унга ташналик сезиб, ғайритабиий депинаётган бўлса? Аввалроқ сезса-ку шунга, бари бошқача бўлармиди? Хаёл отига минган Насиба ихтиёрсиз яна Дилмурод иккиси бирга ўтказган дамларни эслай бошлади. Ҳаммаси бир тушдай, аламли тушдай бирма-бир ўтарди унинг ёлдан. Бир сафар улар хув анави чўнг дарахт соясида тоғларга тикилиб ўтириб суҳбатлашшиганди. Йигит жуда босик, киз эса анчайин шадод эди. Йигит кизнинг назарида бошқаларга ўхшамасди. Қандайдир бўшанг, ландовурдек туюларди. Аслида Дилмурод мулоҳазали, кўп кийинчилик кўрган эди. Ўша куни Насиба тоғларга караб ўтиргача, Дилмуроднинг мунгли мухаббат достонини тинглаганди.

— Бу воқеа қайси даврда бўлган, буниси менга қоронғи. Бирок бўлган воқеа бўлмаса, шунча давр яшармиди? — дея сўз бошлаганди Дилмурод ўшанда. — Қадимда икки қабила ўртасида қандайдир тушунмовчилик ўтиб, бир-бирларига қасдлашиб қолганди. Бирок ўша даврда ҳам мухаббат бор экан. Худди бизникидай эшитаясанми, Насиба?

— Ҳа, эшитаяман, айтавер.

— Бир йигит билан киз бир-бирларини каттиқ севишиб, бирга ҳаёт кечириб, ахду паймон қилишибди. Қулларнинг бирида ўзларининг урф-одати бўйича йигит кизни ўғирлаб кетибди. Айтгандай, биз ҳам қочиб кетмаймизми, бир ёқларга?

— Қайёққа?

— Билмайман, ҳар ҳолда бахтимизни топардик, интилардик яшашга.

— Мени қимдан олиб қочасан?

— Ёмонлардан.

— Мен сениқиман, ёмонларники эмас. Тўхта, ўша ёмонлар қимлар ўзи?

— Майли қўявер, айтдим-қўйдим-да! Ундан кўра сўрасанг-чи, ҳалиги ошпақларнинг холи не кечди деб?

— Ҳўш, нима бўлибди?

— Ошпақлар бирга бўлишибди, тўғрироғи йигит кизни олиб қочиб кетибди. Ўша кун улар учун ҳаётнинг бошланишидай эди. Бирок

улар олдинда ўзларини нималар кутаётганини билишмасди. Аммо беҳад бахтиёр эдилар. Бир-бирларининг дийдорларига тўймас, ўзларича эртанги кунни орозу қилишарди. Афруски, уларнинг қувончлари кўпга чўзилмабди. Ўша куннинг ўзида ҳар икки тараф ёшларни ахтариша бошлабди. Ниҳоят уларни топиб, оломон олдига олиб келишибди. Шунда кўпчилик: «Энди ўртадаги тина-қудурат унутилиб, қуда бўладиган бўлди», деб турган дамда киз тарафдаги бир гурӯҳ ғаламислар йигитни айбонлаб, уни ўтда қўйдириш талабини қўйишибди. Яхшилар эътирозига қулоқ солмаган ҳалиги ёвузлар ўртага қуриган ётоқларни тўплаб, унга йигитни боғлаб, ўт ёқишга ҳозирлик қўришаётганда йигит тарафдан бир қария чиқиб, ёшлар учун афв сўрабди. Шунда йигит: «Йўқ, ота, ундай қилманг. Бир мени саклаб қоламан деб бутун бошли қабила шайтонига путур етказасиз. Чунки булар кейин бизларни тутуруқсиз, дафъсиз деб аташади. Сиз яхшиси бир сўзли халқ шайтонини саклаб қолдинг. Ана шунда миллат боқий яшайди», дебди. Йигитнинг бу сўзларини эшитган киз ҳам у билан бирга қўйиб қул бўлиш учун унинг ёнига отилибди. Четда турган душманлар икки қабила ўртасидаги низони янада қучайтириш илжинжида фурсатдан фойдаланиб, гулханни аланга олдириб юборишибди...

— Бўлди бас, шу ерда тўхтат эртанингни. Ортиқ тинглашни истамайман.

— Ахир қачонги икки ёшнинг афсонавий қийин қисматини тинглашга қучинг етмаса, тақдир зарбаларига қандай чидамоқчисан?

— Унда сен ёнимда бўласан.

— Ҳозир мен узокдаманми?

— Йўқ, сен тушунмадинг, майли айтавер.

— Ҳуллас, аланга қучайиб борар, бироқ йигит ва кизнинг изтиробли ҳайкириқлари эшитилмабди. Бирдангина аланга худди вулкондек отилиб, томоша қилаётганларга ҳам, алангани ўчиришга интиланларга ҳам олов сачрай бошлабди. Одамлар: «Бу ноқонз ишга Яратганинг қаҳри келди», дея кўрқиб, уйлари томон қочибди.

— Йигит билан киз-чи?

— У ёғини айтмайман.

— Нега энди ёки билмайсанми?

— Ўзинг ҳозиргина: «Айтма, эшитишни истамайман», дединг-ку!

— Унда кўржинчи жойи эди, ҳозир эса уларнинг холи не кечганига қизиқаялман.

— Майли, ундай бўлса эшит. Аянчли кўрувдан барча уй-уйига қочган маҳалда оловда ёнаётган ёшлар холи не кечганини, уларнинг қайларга қойиб бўлганини ҳеч ким кўра олмабди. Қимлардир улар шу тоғларда хали-хануз бир-та умр суради деса, яна бошқалар севишган-

лар самота сингиб кетган, дер экан. Айримлар эса, ошпиклари она ер қаридиғи кўра оловдан асраб қолган дейишди. Хуллас, уларнинг кейинги қисматлари ҳақида аниқ билган одам йўқ, — деганча Дилмурод отир хўрсинди...

Мана энди, Насиба ўша тоғларни ёттиз кузатмоқда. Бошқа чораси ҳам йўқ. У туғилиб ўстан кишлоғига қайтиб бора олмайдди. Чунки у айбдор, кўксида бир эмас, икки юрак уриб турибди. Насиба уларга кулоқ тутганча яна ўтган кунларини эслай бошлади. Даставвал, кўз ўнгидан онасининг ўзига атаб сеп йикканлари ўтди. Ўша дамда: «Она менга булар керак эмас, мен сиз ўйлагандай иродали инсон эмасман» деса-ку, у шўрлик ҳам бутунтидек икки ўт орасида қолмасди. Ўзи эса покиза қалбли бир йитгининг соф муҳаббати уволига учраб, бармоқ тишламасди. Эх-х, буларни у энди тушуниди. Афсус, афсус кеч...

Қани энди, бу дунёни тезроқ тарк этса, барисидан қутулса. Йўқ, бунинг ҳам ўзи бўлмайди. Жондан кечиб осон иш эмас. Аммо бирдан Насибанинг бўтзига нимадир тикилгандек бўлди ва нафас олиши кийинлаша бошлади. Кўз ўнги қоронғилашиб, ерга хушсиз йикилди-ю, еттинчи фалакда учишга тушди. Чор атрофни зулмат босган. Олис-олисларда биргина ёрувлик ғира-шира кўзга илашди. Насиба жон ҳолдада ўша томонга талпинди. Йўқ, унга яқин-

лашиб кийин. Ёрувлик борган сари узоклашиб, қичрайиб бормоқда. Қандайдир ғайритабиий товушлар кулоққа чагинмоқда. Улар орасидан таниш бир сас унга яқинлашётгандек эди, гўё. Ана энди у аниқ эшитила бошлади. У юрати остидаги туғилмай ҳазон бўлган норасида ни-доси эди:

«Қани сизлар кўрган сўнгсиз осмон? Қани бепоён замин? Қани қудрати буюк Турон? Қани... қани... қани?! Кўрдингизми, жимсиз. Агар мен ёрув оламини тирик кўрганымда эди, балки барчасини тамоман ўзгартирардим. Бирок бизга у ерларда қулиб ўйнаб юриш эмас, йитгаб туғилиш ҳам насиб этмади. Биз на киндик қонимиз тўкилган тулрокни биламиз, на Ватанни таниймиз. Буларнинг барчасидан бизни сизлар айирмоқдасизлар. Ахир бизнинг ҳам ёрув дунёда яшатишимиз, эл-улуста фойдаси те-гидиган одам бўлганимиз, сизлар тотган ноз-неб-матларни тановул қилганимиз келади...

Яна бир аччиқ ҳақиқат бор. Уни сизлар ан-голмаясизлар. Бугун нега асрлар бўйи яшаб келаётган ота-боболар қашиётларини янги-лайинган авлодлар туғулмапти? Аслида ҳар дунининг ўзига хос одамлари бўлиши керак эмасми? Мингларнинг, балки миллионларнинг ичидан чиқадиган саноқли улув одамларни сизлар туғилмасдан туриб ажал сиртмоғига отмоқдасизлар. Майли, сиз менга ҳаётни раво

кўрмасангиз ҳам, аммо мен сизни жаҳаннам оташига раво кўрмайман, онажон! Ҳозир сизнинг совиб бораётган вужудингизда бир эмас, икки юрак ҳаёт учун курашляпти. Ана кўра-яписизми, Дилмуроднинг сизга айтиб берган мангу муҳаббат дostonи қаҳрамонларининг? Қандай бахтли улар. Онажон, туринг, кучингиз етса, мента ҳаёт ато этинг. Йўк, танангиз тобора совиб бораляпти. Юрагингиз ҳам уришдан тўхтаган. Энди буни сиз ушламай олмайсиз. Яхшиси мени маҳкамроқ кучинг. Зора, менинг ҳали гуноҳларга ботмаган зингирдек кина жуссам сизни жаҳаннам ўтидан асраб қолса!..

ХИКМАТ ИЗЛАГАНГА ХИКМАТДИР ДУНИ

Зиякин кўринади. Аслида ўзи анчагина олис. Айниқса, баҳорда бу манзара расомнинг кучли асарларига ўхшайди. Бирок кўз ўнгимдати бу гўзалликни ҳеч қайси расомнинг энг сара асарига ҳам алмаштим келмайдим. Тогларда ўзгача сеҳр бор. Сабаби у ерларда менинг боёбм яшаган. Шундан, тез-тез у томонларга бориб, боёбодан қолган ўрик тагидида дам оламиз, атрофни кузатамиз. Қандай гўзали манзара. Шовуллаб оқаётган дарё, салобатли харсанг тошлар... Баланд-баландларда учадиган

бурулгулар... Хуллас, барча такрорланмас гўзаллик мужассам, у ерда.

Ҳар қуни уйдан чикиб, далага етувча шу тоғларни томоша қилиб бораман. Тўғри, ҳозир у гўзаллик баҳордигидек эмас. Ёзи чилла жаҳаннамасидан кейин ўт-ўланлар сарғайиб, даладашгилар заъфарон туста кирган. Аммо ҳар доимгидек менинг кўзларим тоғнинг баланд чўккиларида. Кўлимдати чилвирни онда-сонда енгил силтаб кўяман, шунда отнинг юриши жонланади, бирок ҳаёлим тамоман бошқа жойларда. Қарияларнинг кечати ифторликдати тин-сўзлари ҳаёлимдан кетмаган ҳали. Улардан бири: «Ҳар бир мусулмоннинг рўза тутуши ширт» деса, иккинчиси: «Тутмаганлар Яратганинг олдида жавоб беради, ҳали» дейди. Қолгилари ҳам сўз «тушпорини» келган жойидан «савалашмоқда». Салимбой чаккон жуда тез-да, тин келганда ёш-қари, деб ўтирмайди. Шундан унинг исмига ҳамма «чаккон» сифатини кўшиб аташади.

— Нима биз шунда..? — деди, у бироз тутоқиб.

— Сизга биров шундайсиз делими? — ажабланиддек бўлиб, сертак тортди домла.

— Сизларнинг вазифангиз нима ўзи?

— Болам сен қизишма, гапни тўғри тушун, — дея суҳбатга овулнинг энг ёши улут, обрўли қариси Ёқуб боёб аралашди. — Тўғри, домламиз

ёшлик килиб, гапни кўнгилга тегадиган оҳангга айтиб юборди. Бунга хафа бўлмайсанлар. Бейб Парвардигор, ахир. Бор гап, рўза тутишнинг савоби катта, буни барчангиз яхши биласиз. Аммо эрталабдан кечгача далада, куёшнинг оташдек нуллари тагида ишлаб, жисмоний харакат қиладиганларни ҳам тушуниб керак. Кимдир экилган экинларни қараши, парварши қилиши лозим, ахир. Агар бу ишлар ўз ҳолига ташлаб қўйилса, натижаси нима бўлади? Ҳосил бой берилади, даромад йўқолади. Қарабсизки, етишмовчилик, юпунлик келиб чиқади. Гапни очингани айтсак, йил давомида қалласига келган ишни қилиб юриб, бир ой рўза тутган билан одам покланиб қолмайди. Аввало, одамнинг кўнгли тоза бўлмоғи зарур. Шунда унинг ишида ҳам, касби-кори-ю, деҳқончилиги ё чорвачилигида ҳам барака бўлади. Агар тилинг қалимадан тушмай, бошингги минг саждага урсанг-у, қалбингга бировга нисбатан ғараз тўжтон уриб ётса, сўзсиз жаҳаннам домида қоласан. Ривоят қилишларича, қадим замонда бир тижоратчи йигит қилаётган ҳаракатининг мазмун-моҳиятини тушуниб-тушунмай ибодатга юз бურიб, муллавачаларга эргашибди. Аммо турса ҳам, ўтирса ҳам мўмай даромад илинжида бирини иккита пуллашни қанда қилмабди. Ризк-насибасини ердан ундиришга бел боғлаган унинг яна бир тенгдоши эса, гоҳ намозни вақтида ўқишга

ушқурибди, гоҳ казосини йиғибди. Лекин топганидан закот бериб, хосилдан ушр чиқаришни унутмабди.

Кунларнинг бирида Хизр бобо такводор йигитга рўбаро келиб сўрабди: «Қўлимдаги мана бу узукдан етаклаб келаётган туям синадимми?» Шунда у: «Эй аҳмоқ чол, шундай катта туя қандай қилиб ўзининг кўзидан ҳам қичик узукка ситиши мумкин?» дея жавоб берибди. Хизир бобо ердан бош кўтармай кетмон чопётган боғи деҳқон йигитга ҳам шу саволни берибди. У эса: «Эй бобо, бир томчи сувдан бизни яратган Аллоҳ шу тешиқдан туяни синадира олмайди дейсизми? Агар худо шуни хоҳласа синади», деган экан қатъий ишонч билан. Вақт етиб, такводор тижоратчи омонатини топширибди. Кўп ўтмай деҳқон ҳам оламдан ўтибди. Такводор қараса, деҳқон жаннатда юрибди. «Нега бундай бўлди? Ахир мен Аллоҳ номини тилдан қўймай тоат-ибодат қилдим. У ахён-ахёнда бир-бир масжидга борарди. Хўш, нега бундай бўлди?» деган саволларга жавоб тополмай лол бўлибди. Шунда боғти узукнинг кўзидан туя синади-ми, деб сўраган чол пайдо бўлиб: «Сен фақат тилингда Яратувчи номини улуғлардинг. Бопинингга эса тамоман бошқа дунёда эдинг. У қалби тўла ишонч билан Яратганга синарди», дея сабабини тушунтирган экан. Демак, кишининг доим дили пок бўлиши керак. Бировга

ёмонлик истаматган одамни Этам албатта, охи-
ратда ёрлакайдн.

Ўтирганларнинг нитохи Салимбойга калал-
ди. Ҳалигина ранж ин курган киёфада ғолиблик
ифодаси зохир. Бунн зимдан кузатиб ўтирган
Обид бобо ҳам аста томок кириб олди-да, сўз
бошлади.

— Э-э жигарларим, калимти ривоятларда
маъно кўп, фалсафа чуқур, — деди бобо кўк-
сини безаб турган узун соқолини селкилатиб
гапирар экан. — Эшитган ёки ўқиган бўлсала-
ринг, мен айтиб бермоқчи бўлган бу ҳикояни
Абу Ҳурайра (радияллоху анху) Пайғамбари-
миз (а.с.) номидан бундай ҳикоя қилган экан;
«Расули Акрам (саллаллоху алайҳивсаллам)
саҳобаларига дебдилар: «Сиздан аввалги ум-
матлардан уч кимсанинг, яъни абрас, кал ва кўр
бўлганлари ахволидан хабар берай. Аллох тао-
ло имтиҳон қилиш учун уларнинг олдига бир
малакни юборибди. Малак олдин баданига ок
тушган — абрас касаллигига мубтало бўлган-
нинг олдига борибди ва:

— Дунёда энг яхши кўрганнинг нима? — деб
сўрабди.

— Танам гўзал, чиройли ва силлик бўлиб,
одамлар мени кўрганда хурсанд бўладиган хусн
соҳибн бўлишни яхши кўраман. Энг хоҳлаган
нарсам шу, — деди у одам.

Малак, абрас касаллигига мубтало бўлган
одам баданини силаб, уни гўзал бир вужуд
соҳибн қилиб кўйди ва яна сўради:

— Энди сента давлат бераман. Қандай молни
яхши кўрардинг?

— Мен туяни жуда яхши кўраман, — деди
абрас.

Абрасга ўн ойлик урғочи бир туя берилди,
Малак: «Бу туяни Аллох сен учун баракали
қилсин», дея дуо қилди-да, кал бўлиб қолган
одам олдига бориб:

— Дунёда энг яхши кўрганнинг нима? — деди.

— Энг яхши кўрганим чиройли сочли бў-
лиш. Қаллиқдан кутулиш учун ҳеч нарсамни
аймасдим, — деди кал.

Малак уни ҳам тузатди, у қаллиқдан ку-
тулди. Бошидан чиройли соч ўсий чиқди. Сўнг
Малак ундан ҳам:

— Ҳозир сента давлат, бойлик бераман, ни-
мани хоҳлайсан?

— Сигирни жуда яхши кўраман, бир сити-
рим бўлишини хоҳлайман, — деди кал.

Унга бир ситир берилди. Малак:

— Бу сигирни Аллох сен учун баракали қил-
син, — деб, кал билан ҳам хайрлашиб, кўрнинг
олдига борди.

— Дунёда энг яхши кўрганнинг нима? — деб
сўради Малак ундан ҳам.

— Энг катта орузим кўзаримнинг кўриши-
дир, — деди у.

Малак уни ҳам даволади, кўзлари очилди.

Кейин ундан:

— Сента бойлик бераман, нимани яхши
кўрасан? — деб сўрабди.

— Энг яхши кўганим кўйдир. Кўй сурувла-
рим бўлишини истардим, — деди кўр.

Кўрга бир бош совлик берилди. Туя бўта-
лок, ситир бузок туғиб берди, кўй эса кўзила-
ди. Орадан вақт ўтиши билан улар шунчалик
бойиб кетдиларки, учаласи ҳам биттадан во-
дийта эгалик қилиб, хаммаси ўз чорваси билан
андармон бўлди. Кейин малак яна ерга тушиб,
илгари баданига оқ тушган одам олдинга абрас
киёфасида келди ва:

— Эй, бадавлат инсон! Мен бир ғариб мусо-
фирман. Кўп йўл юриб чарчадим. Мента Аллоҳ
ризолити учун бир туя бер, манзилимга етиб
олай, — деди.

— Берадиган нарсам йўк, хамма нарсани бе-
риб бўлганман, — деди у.

— Мен сени танийдиганга ўхшайман. Сен
хамма хазар қилдиган, одамлар иртанадиган
абрас эмасмисан? Сен жулда камбағал эдинг.
Аллоҳ сента урғочи туя бериб, бадавлат қилма-
дими? — деди.

— Йўк, мен у одам эмасман. Бу мол мента
отамдан, бообомдан қолган, — деди илгарити
абрас.

— Агар ёлгон сўзласанг, Аллоҳ сени аввал-
ги холинга қайтарсин, — деб ундан нари кетди
малак.

Кейин қал одам суратида қалнинг олди-
га борди. Абрасга айтган сўзларни унга ҳам айт-
ди, ёрдам сўради. Қал ҳам ўшандай жавоб бер-
ди. Малак қалга: «Агар ёлгон гапирсанг, Аллоҳ
сени аввалги холинга қайтарсин», деб кўрнинг
олдида борди ва:

— Мен фақир, йўксил бир кўр одамман,
йўлда қолдим. Юртимга қайтишга имконим
қолмади. Мента Аллоҳ ризои учун ёрдам
бер, — деди.

— Эй ғариб йўлчи! Мен ҳам аввал сен
қоби кўр эдим. Аллоҳ кўзаримни равшан
қилди, бу ёруғ оламни кўрдим. Мен жулда
фақир эдим, мента бир кўй берди, ундан дав-
лат орттирдим, барака толдим. Ҳозир кўриб
турганинг — сурувларнинг хаммасини мента
у берди. Унинг учун истаганингча кўй оли-
шинг мумкин. Аллоҳ учун ҳеч нарсамни
имайман, — дея илтифот кўрсатди аввалги кўр.

Шунда малак: «Молнинг ўзинга буюрсин.
Аллоҳ баракасини орттирсин!» деди-да, кўздан
тойиб бўлди. Не бахтки абрас билан қал аввал-
ги ҳолларига қайтиб, хор бўлишди. Аллоҳ та-
рафидан қилинган имтиҳондан кенг феълиги
билан ўтган саховатли собиқ кўрнинг эса ишла-
ри бароридан келиб, бойлигига бойлик қўши-
лаверди».

Қаранг-а, хикмат излаганга хикматдир дунё, иллат излаганга иллатдир дунё деган ўй билан кечати эшитанларимнинг маъзини чакаман, деб чўбиримнинг секинлашиб кетганини пайкамай ҳам қолибман. Ҳадемай борлик тандирдай кизиб, заминдан яна киши нафасини бўғадиган иссиқ ховур кўтарила бошлайди. Унгача тезроқ бориб ишлаш, жўякларга сув тараб, экинга меҳр бериш, замин кадрини жойига қўйиш керак. Чу-жонивор, чу!..

СОҒИНДИМ СЕНИ, ЎҒЛИМ

Ашлитина узок-узокларда кўринаётган чўккилар булутлар ортита беркиниб, кўздан ғойиб бўлди. Дарахтларнинг олтиндек сарғайган япроқлари аста шивалай бошлаган ёмғир томчилари зарбидан титраб тўкилаётгандек, Нурилло бобонинг юратини яна эса бошлади. Табиатнинг бу фаслини аспиди у киши болалигиданок унчалик хушламасди. Отасидан ўзи эрта ажралтаниданими, кузда дарахтлардан тўкилаётган барглар ҳам кийналаётгандек туюлаверарди унга. «Ахир япроқ ҳам дарахтнинг бир бўлаги-ку, кузги хазон даврида худди битта тирноқ ажралтанда азоб чекканимиздек, улар ҳам кийналса керак», деб ўйларди ва дов-дарахтлар ичида арчага хавас билан боқарди.

Бобонинг қарилар уйига келганига ҳам бир ойга яқинлашиб қолди. Мавжуд шароитга кўниқолмаётгани, ўғлини, неварасини соғиниб кўчада узок ўтиришлари отанинг соғлиғига зарар етказмаса эди. Бу ерда факат қарилар. Кимнингдир ўғли йўқ, кимларнингдир фарзанди бошқа юртларга кетиб қайтмаган. Базиларининг эса ўғил-кизи ҳам, уй-жойи ҳам бор. Лекин житар бағрининг бир парчаси, орзуларининг тунчаси, яратгандан тилаб-сўраб олган зурриётлари учун ота-она керак эмас. Хуллас, ҳаммасининг дари хар турли, бироқ азоби бир хил. Шундан ҳам уларнинг барчаси эртата нима қилишини эмас, шу кунгача нима қилганларини сархисоб қилиб ўтиришади.

Нурилло бобо негадир кейинги кунларда ўрнидан кўзгалгиси келмайди. Шу ерда топган тенгдоши Содик ота билан яхшигина суҳбатлашиб ўтирарди. Энди эса уни ҳам хушламайди. Бундан у киши ҳам хайрон: «Нега Нурилло бирдан бу ахволга тушиб қолди? Ахир тоза хавода сайр қилишдан, қираверишдаги чинорлар татида соатлаб суҳбатлашиб ўтиришдан зерикмасди-ку, у» деган ўйларни хаёдан ўтказарди-ю, аммо бобонинг ўғли, набираларининг йўлига зор-интизор кўз тикишини хаёлига ҳам келтирмасди.

– Нурилло ака юринг ташкарига чиқамиз – деди, ўйлаб ўйларининг адоғига етолмаган Содик ота ўртадаги сукунатни бузиб.

– Зерикдингизми?

– Йўқ, тоза ҳаводан нафас олайлик-да, бу ерда бикиниб ётгандан кўра.

– Сиз чиқаверинг, мен бироздан кейин чиқаман.

Содик ота аста ўрнидан туриб, ташкарига йўл олди. Олтин куз борлиқка зарҳал чодирини ёпган. Ёмгирдан олдинги сарин сабо аёвсиз тўккан асфалт йўлакдаги жикка хўл ҳазонни майда қадам билан бошиб борарди. У ўз хонаси рўпарасида бир зум тўхтаб, дераза томон қаради. Нурилло бобо столдан бош кўтармай, қоғозга нималарнидир ёзарди. Содик ота ичкарига кириб, ўз тумбаси тортмасидаги кўзойнатини унга олиб бертиси келди-ю, аммо унинг фикрини бўлишни ўзига эп билмади. Йўлида давом этди. Хайхотдай бинони бир айланиб келиб, яна деразата назар ташлади. Нурилло бобо ухлаб қолган чоғи, столга пешонасини тираганча ўтирарди. «Ёнди ичкарига кирай, уни уйғотиб, жойига ётқизай. Бўйни оғриб қолмасин шўрликнинг», деган ўй билан у ортга қайтди. Нетадир хона эшигини очаётганда юрдаги хапкириб, кўнгли алланечук бўлиб кетди. «Яхшиликка бўлсин», деган ниёт билан ота хонага қадам ташлади. Қай куз билан кўрсин-

ки, Нурилло бобо Аллоҳга омонатини топишиб улгўрибди. Лаби пир-пир учган нуроний соқолини селкилатганча, кўзлари тўла ёш билан дарҳол қариялар уйи шифокори томон шопилди. Ҳамма бир зумда йнгилиб, майитни ғилдирақли қаравотта ётқизишди. Шифокор қариянинг жон таслим қилган дамда кора терга ботган пешонасига ёпишган варақни кўлига олар экан, сатрларга кўз югуртирди.

«Ўғлим...» дея бошланган битикнинг оилавий хатлигини англаши билан у: «Ўйдан келганларга берарсиз», деб уни Содик отага узатди. Қария хатни буқлаб-буқлаб ёстигининг тагига кўйди. Шундан сўнг ходимлар жасадини хонадан олиб кетишди. Кутилмаганда ҳамхонасидан айрилиб қолган чол алламаҳалгача ухоломай, тўлғониб ётди. Тонг ёриша бошлаган тобда унинг хорғин қароғларини уйку эпитди. Кечаси ҳамхонаси жасадини оиласидагилар олиб кетди-ю-йўқми, унинг хабари бўлмади. Бир нарса аниқки, марҳумнинг хонадаги буюмлари қандай бўлса, шундайлигича роса уч қун турди. Ниҳоят фаррош аёл: «Сўраб келишса ийтарсиз. Ҳозирча оморчиға топириб қўяман», деб йнгиштириб кетди уларни.

Демак, майитни сўраб ҳеч ким келмаган. Нахотки ота хурмати фарзандлар олдида шунчалар арзонлашиб кетаётган бўлса? Ёки Нурилло бообонинг ўзи шунга муносибмикин-а?!

Кизик, мактубида нималарни ёзган экан? Нега шу кунгача уни ўкиб кўрмадим? Балки этагига етказишни кечиктириб бўлмас гаплар ёзилгандир? Сўнгсиз саволлар уммонига фарқ бўлган қария ёстиги таъдидаги хатни олиб, ўқишга тутинди.

«Ўғлим яхши юрибсанми? Сен ёмон ҳаёл-дарга борма. Нима бўлганда ҳам сен ўғлим бўлиб қолаверасан. Ҳеч қайси ота ёки она бола-сига ёмонлик тиламайди. Эҳтимол, бу менинг сента ёзаётган сўнги мактубимдир. Чунки мадорим кетиб боришти. Кундан-кунга хол-сизман. Омонатимни топширадиган вақт етти-ёв, назаримда. Сендан сўнги ўтинчим, мени ўзимизнинг қабристонга дафн эттир. Шунда онанг билан бир қатордан жой оламан. Бу ерда келишимдан олдин онангнинг қабрини зиёрат қилишга борганимда қабрлар қайрагочга етай, деб қолганди. Имонини топсанг мени шу қай-рагоч атрофига қўйдириб, қабримдан бир сиким-тупрокни аяма. Атоқли адиб Чингиз ота таъби-ри билан айтганда, бу бизларни боғлаб тура-диган узилмас ришта бўлади. Онангни сўнги манзилга кузатиш сента насиб этмади. Бирок онанг шўрлик сўнги нафасида ҳам «Шерали, Шерали...» дея инграшиб, сени йўлингга ин-тизор бўлганди. Мен ҳам ундан кам кутмадим сени. Сен туғилганда биз анча ночор турардик. Лекин сен биз учун қатта давлат эдинг. Онанг-

нинг ўшандаги ҳолатини эсласам, ҳалигача у шўрликка ачинаман. Сени эмизарди, болам оч қолмасин, деб нималарнидир чайнаб берарди. Билсанг, ўшанда онанг ўзи яхши овқатланмас-ди. Сента чайнаб берган егуликлардан тиш-нинг қавагига тикилганлари у учун кифов эди. Ҳушлас, бир парча этлигингдан алпдай одам қилганларга бутун сента суяниб яшаш насиб этмади. Сени бошимга кўнган бахтми, десам кипригимни ювиб тушаётган ёшдай дард экан-сан. Майли, нима бўлганда ҳам сени соғиндим, ўғлим. Аммо, соғинганингнинг сояси кўрин-майди, деганлари рост экан. Бирор марта ту-шимга ҳам кирмадинг. Бўлмаса, сенинг ҳақкин-га дуо қилиб кун ботирмаган, бахтингни тилаб тонг оттирмаган куним бўлмади. Бирок сенинг кўринишинг кўз олдимни тумандай қоплаган. Шунисига ҳам шуқур, шунинг ўзи бир бахт. Фарзанди йўқларнинг кўз ўнгига бундай вақт-да ажали гавдаланса керак. Сен мени ана шу дахшадан сақладинг. Мен сендан розиман, сен арчадек яша, болам. Чунки арча, биринчи-дан, узок умр кўради, иккинчидан, бошқа да-рахтлардек кузу кишда ҳам япроғидан ажрал-майди. Биз мисли ўрикдек яшадик. Билсанг, бахордаги ёмғир ўрикнинг медаларига те-са, ўша мевани доғ босади. Биз ҳам шундай бўлдик. Кўзимиздан сени, деб оккан ёшларимиз бизнинг қалбимизда мангуликка доғ

колдирди. Илойим бундай дард сенинг вуждингни кемирмасин. Бахтли бўл, болам!»

Мақтубдаги бундай ўтли сатрлардан ҳавжонланган Содик отанинг лаблари титраганча пичираб, козок кардошларининг қадим кўшиқларидан бирини ҳирғойи қила бошлади:

«Қариган ҳасратга бой қари чоғман,

Кун сари қувват қочган қалди долман.

Майли ўғлим мен қаби азоб чекиб,

У дунё, бу дунёда ғариб бўлманг.

Уйинг ҳам тор эмасди, юрсам елиб,

Шу ерга кетдинг ташлаб, олиб келиб.

Симобдай сиртин берса, фарзандлари,

Отанинг ўлгани-ку мағлуб бўлиб...»

ОЛИСЛАМА ОҚИБАТ

Замон асло ўзгартгани йўқ, аксинча одамлар ўзгарди, – деган гапни кўп такрорлайди, Раҳим бобо. – Ҳали-ҳануз бошимиз узра куёш нурини сочиб, ёмғир ва қор ётишдан тўхтаганича йўқ, тўхтамасин ҳам. Сени қара болам, беминнат берилган ёрдамни пул билан ўлчаётсан-а! Нахотки дунёда сотилмайдиган нарса қолмаган бўлса? Ўғлим ўзингни қарздор деб билсанг, бошита мушкулот тушган бир

чорасизнинг хожатини чиқар. Сўзсиз қарзингдан қутуласан ва ўз навбатида уни ҳам қарздор қиласан.

Яширининг хожати йўқ, бобонинг таппаларидан уялиб, бошим эгилди. Тўғриси, яқин кунларда у кишининг менга берган ёрдамига ўхшаш ишни бирорта одамга қилганимни эслай олмаيمان. Балки бу йил ҳали қилмагандирман, яна билмадим. Ҳар не бўлганда ҳам бу жуда яхши иш бўлди. Ишим битгани учун эмас, кўзгуда ўзимни кўра олганимдан яхши деялман. Кўнглимга биринчи келган нарса, падари бузрукворимнинг дуосини олишга шошилдим.

Бозорга кирдим-да, сара мевалардан харид қилиб, укамникига, катта ховлига оғландим. Ўзим юрган ўша кўча, болаликни эслатувчи улкан ёнғок дарахти. Кичкина вақтимизда болалар билан доим шу дарахтнинг устига чиқиб ўтираддик, шохларига арқондан арғимчоқ боғлаб учардик. Бугун эса, болақайлар бизга ўхшаб унинг устида тахтада ўтиргандай ўтира олмайди. Сабаби, бу улкан дарахт ҳам цемент кўра тутқунига айланди. Кўча аввал келганимдан ҳам ўзгарибди, иморат солиш учун анчагина хонадонда пойдеворлар кўтарилган. Бу яхши, аммо одамлар ана шу пойдеворларни биридан-бири қоламани дегандек тобора кўчага чиқариб юборяпти-да! Кўчанинг торайиб бораётгани эса уларни қизиқтирмайди ҳам.

Биз кичкина вақтда уйлар атрофи сим кўралар билан ўралган эди, отамнинг айтишича, олдинлари уларнинг ўрнида шох-шаба бўлган. Бугун эса, яъни кейинги авлодларнинг даврига келиб замонавий, мустаҳкам цемент гиштли деворлар билан ўралмоқда уйлар атрофи.

Биз ҳали етиб бормасимиздан укамнинг аёли, келинимиз бизни кўтиб олишга шай. Менимча, кўчада ўйнаётган кизими ёки ўғли уларга бизнинг келаётганимизни етказган бўлса керак. Эшикдан киришимиз билан райхоннинг ёқимли иси димоқка урилди, худди «хуш келибсиз», дегандай. Уйдаги барча нарса менга қадрли. Айниқса, ховлидаги кўҳна тут дарахти мени борича ўша болалигимга қайтаргандай бўлади. Дом унинг узун новдаларини кесиб олиб, от қилиб минардик. Ховли ўртасидаги сўрида ота-онам неваралари қуршовида бахтиёр. Мен ҳам ўзимни уларнинг бағрига отдим. Дунёда ота-она меҳридан ортиқ меҳр йўқ. Бугун отам ҳам, онам ҳам ёнимда. Келин тезди укамга кўнгирак қилди чоғи, кичкина кизи Карима: «Мен гаплашаман», деган ҳарҳаша билан, тўшакни кўлига олиб: «Дада!» деди. У бу сўзни шу қадар равон ва қувнаб айтдики, уни маҳкам бағримга босгим келиб кетди. «Ўйга бообом келди, тез кенг, омад!» дея тўшакни кўйди. Амминанки, укамнинг бор чарчоғи кизчасининг мана шу сўзларидан кейин ўз-ўзидан тарқашаи тайин.

Кўп ўтмай укам ҳам келди. Турли-туман янгиликларни бир-биримизга айтиб, ота-онамизнинг олдиди уларнинг бағрини тўлдириб ўтирибмиз. Катталарнинг сўзи билан ака-ука айловдаги моларни кўриб келишга отландик. Иккимиз ҳам велосипедда йўлга тушдик. Укам йўлнинг икки четига экилган экинларни ким, қачон экканини бирма-бир айтиб бора-ишти. Ниҳоят асфалт йўл тугаб, серсўкмоқ тош йўл ҳам бошланди. Бу ёғи энди турли-туман боғлар. Иккимиз ҳам чарчадик чоғи, сояси кенг ўрик тағида бир дам нафас ростлашга тўхтадик. Ўрик шундай пишганки, асти кўяверасиз. Тағида меваси ерга тўшалиб ётибди. Бўйимиз етадиган жойдаги хосиллардан териб еб, бироз чарчок чикартгач, яна йўлга тушдик. Анчагина жойини босиб ўтгандан сўнг, аста-аста кўтарилганча тоғларга туталиш кетган қишлоққа етиб бордик. Икки сойнинг ўртасида жойлашган ферма атрофида биронта ҳам дарахт йўқ. Бу-юклар офтобда тобланиб, тулпроқ устида ётибди. Қир бағрида моллар кўриниб қолди, биз уна тарафга йўл олдик. Моллар юраверганидан қир бағрида ажойиб чийир йўллар хосил бўлган. Юқорита чиққанимиз сари пастдан бизга қуринмаган нарсалар ойдинлаша бошлади. Ул-кин бир сойнинг ичи бурқсиб ёнапти. Чика-етган туғундан хайратланади киши. Туғун те-

қисликдаги маҳалла томон само бўйлаб сузиб бормоқда.

Бизга рўбарў келган подачи ўғли билан ёнмизга келиб, салом-алиқдан сўнг молларимизни кўрсата бошлади. Бошидаги опшок калпоғидан чикиб турган сочлари тер бостан юзларига ёпишиб қолган Ербол исмли подачининг ўғли тинмай тапириб, эътиборимизни ўзига тортишга интиларди.

— Сизга тулкининг уясини кўрсатайми? — деди у.

— Яқинми? — деб сўрадим қизикиб.

— Юринг, анави ерда.

— Тулкиси ҳам борми?

— Бор.

— Бўлса нега уни даданг ушламайди

— Ушлаб нима қилади?

— Сенга чиройли қалпоқ тикиб берали, қишда қийиб юрасан, — гапим тутамасдан бола қай хандон отиб кулиб юборди.

— Нега куласан?

— Ахир унинг устида жуни йўк-ку, барни тўкилиб кетган.

— Нега тўкилган?

— Дадамнинг айтишича, анави тутатётган тепалик бор-ку, у ерга кўп чиқинди тўкилгани сабабли тулки захарланиб, шу ҳолга келгани экан.

— Бу сой ҳар куни шундай тутаб ётадими?

— Билмасам, мени бу ерга унча кўп опкемайди...

Э-воҳ, гап бу ёқда экан-да! Агар шу мурғак вужуд айтмаганда мен ҳам кўп катори: «Ёнаётган нима ўзи?» демасдан безътибор кетаверар эдим. Эҳ одамлар, одамлар! Чиқиндиларни аввалига оёқ остидан озодалик учун йитиб олишса-ю, ортидан мана шундай захарнинг ҳавота тарқалишига бамайиҳотир йўл қўйиб беришса? Бунинг оқибати нима бўлади? Инсониятни, нафакат инсониятни, балки жамики жонзотни тубсиз фожияга гирифтор қилмайдими бу? Укам иккимиз уйга етгунча шуларни муҳокама қилиб, тайинли жавоб топа олмай қийналдик. Укамнинг айтишича, баҳорда дарахт новдаларида очилган гулларнинг мева бўлиб етилмасдан тўкилишига ҳам, тоқ шўрағларининг гулжум бўлмай оқиб кетишига ҳам шуларнинг қасри теғар экан.

Ёнида Тарзан лақабли катта кучуги билан йўлнинг бошида бизни ўғилларимиз кутиб туришган экан, узоқданок бизни таниб, чопиб йўлга тушишди. Укамнинг ўғлининг юзлари дўмбोक, кўзлари доим кулиб туради. Пучуккина бурни ўзига жуда ярашади. Болақайларни велосипедга ўтказдик-да, хайдашни билмаганлиқлари учун етаклаб олдик. Қичкинтойлар: «Мен сендан ўзиб кетаялман», дея ўзларини ўзлари қувонтириш билан овора. Мен бўлсам уларга

диккат билан назар ташлайман. Хайрият, сол-па-соғ улар. Бу фикр мени ҳализамонтина ўйлантира бошлаган эди. Чунки олдинлари мента ҳеч ким подачининг ўғлидай кўз ўнгимизда уя кураётган муаммоларни содда тил билан очик ва аччик айтмаган эди-да!

Борликка окшом ҳам чўкди. Йўл юриб анча толиқдим чоғи, кўзим илиниб кетаяпти. Бирок эрталаб ишта боришим керак, шаҳарга қайтмасам бўлмайди. Укамнинг аёли — келиним тайёрлаган шоҳона кечки таомдан сўнг, уйдагилар билан савимий хайрлашиб, яна кўча бошига — катта йўлга чиқдим. Том ва устунлари кўкка бўялган кадрдон бекат томон ҳали йўлни кесиб ўтганим ҳам йўк эди. Олдимга зув этиб, бир енгил машина келиб тўхтади. Ҳа, дадам айтгандек: «Қадамнингда машина, пулинг бўлса, йўлда қолмайсан ҳозир. У дунёда жаннат қандай билмадим-у, биз бу дунёнинг жаннатида яшашмиз шу тобда. Илгарилари бизнинг қишлоғимизда битта, кўшни қишлоқда иккита машина бўлар эди. Юк машиналарга осилиб манзилга етиб олсак, қувонганимиздан, ҳар кўртанда олиб кетган хайдовчига эгилиб раҳмат айтиб юрардик. Қишлоғимизга биттагина эски автобус катнардди, у ҳам бекатда турмасанг тўхтамасди. Бугун эса, қадамнингда енгил мошин...»

Отамнинг гапларини таҳлил қилиб борар эканман, марказга етганимни ҳам сезмай қолиб-

ман. Шаҳар маршрутидаги «Мерс» такт турган экан, дарҳол унга ўтирдим. Барча ўриндиклари тўлгандан сўнг автобус ўрнидан енгил силкиниб, аста кўзгалди. Автобус текис ва равон йўлда худди мавж ўрган сокин дентизда сузаётган кемадай енгил чайқалиб борарди. Уйку элтиб, киприқларим туташиб кетди...

Агрофда тумонат одам, ҳар хил миллат вакиллари. Ок, кора, сарик рангли. Хуллас, дунёнинг барча жойидаги одамлар боғина кўраним — тутуни тинмайдиган сойга йиғилгандай. Ўша қишлоқда яшовчи одамлар бошқалардан ажралиб турарди. Бирининг сочи, бирининг қоши тўкилиб кетган бўлса, бошқасининг кўл-оёқлари яккам-дуккам. Бармоқлариям камми-ей. Хуллас, нуксонсизининг ўзи йўк. Осмон бир ёришса, бир тундлашиб, ёмғир ётаяпти. Бошимиз узра тох куёш, тох ой, хатто юлдузлар ҳам кўриниб қолаяпти. Ҳамма хайрон. Бирдан борлик каттик силкиниб, ер тарс-тарс ёриланча чўка бошладик. Каёқадир аллаким баланд овозда бақираяпти. Қизиги уни ҳамма эшитапти... тушунапти... Бу жуда ғалати, шу билан бирга хайрапти. Бирок хайратланишга вақт йўк. Ҳалиги кимсанинг овози тобора баландламоқда: «Йиқилаётганларга ёрдам беринг, бир-бирингизни асло кўйиб юборманг. Ҳеч қаёқка қочиб кетиб бўлмайди. Бизни фақат ҳамжихатлиқкина бу фалокатдан қутқариши

мумкин. Бирдамликни бой берманг, акс хол-да...» Кутилмаганда хайдовчи тўхтатиш тепки-сини босди шекилли машина каттик чайкалиб, йўловчилар хай-хайлаб юборишди. Хайрият уйғониб кетдим, бўлмаса...

Бир амаллаб уйга етиб бордим, кани энди уйку келса. Кўрган тушимни эслаб ўз-ўзидан кўркий кетаман. Узок ўйланишдан сўнг ач-чик-аччик кўк чойдан хўллаб ўтириб, камита яна хаёл уммонига фарк бўла бошладим. Не-гадир кўнглим беҳузур бўлиб, кўз олдим ко-ронгиллашиб кетди. Кулоқларимга яна ўша – ту-шимдаги кимсанинг жон ҳолатдаги хайкириги эшитили бошлади: «Ёрнинг табиат изни билан аста чўкиб, одамларнинг осмондан олисла-ётгани ҳеч гап эмас. Одамлардан одамийлик, инсоф, диёнат, окибат сингари олий хислатлар-нинг олислаётгани чаток. Билсангиз, бу – ки-ёмат сари ташланган кадам... улкан фожиа... Отоҳ бўл, эй акли расо одам!..»

КАЛДИРҒОЧНИНГ КАНОТИ ЕТМАГАН ЖОЙЛАР

Одатлагилек бутун ҳам ўғилчамни етак-лаганча боғча томон бораялман. Бот оралаб борар эканмиз, ўғлим кўлимини енгил торткилаб сўраб колди:

– Анави ўтирганларнинг уйи йўқми?

Атрофга аланглайман, ҳеч ким кўринмай-ди. Кийган либоси ўзига ярашмаган икки ёшни кўранимда эса, ўғлимга: «Ундайларга қарама, уят бўлади» дедим.

– Нега? Улар уят иш қилаётими? – дея сўради у яна болаларга хос кизикиш билан.

Уларнинг ўтириши шундай кўримсиз эдики, кўлинида хипчин бўлса-ю, бориб аёвсиз сава-лайверсанг. Қалта юбкали киз ўриндикка суя-ниб ўтиради. Бола эса унинг тиззасига бошини кўйганча, оёқларини айкаштириб, «суюқлиси» нинг юзига термулиб ётарди. Ўзимча ўйлайман, чиндан ҳам улар тунни шу ерда ўтказганми? Ва беихтиёр яна ўғлимга қарайман: «бундайлар-ни ҳар кун кўриб ўтаётти у. Эртага уларнинг ёшига етганда қандай одам бўлар экан-а?!

– Дада қаранг кечати қалдирғоч, – дея мени яна бошқа нарсалар тўғрисида ўйлашга чорла-ди ўғлим.

– Қардан билдинг?

– Ахир ўзингиз айтгансиз-ку, қалдирғочлар-нинг ҳаммаси бир деб.

Ўғлимнинг турли-туман саволлари гирдо-бига кўмилганча боғчага қандай етиб борга-нимни ҳам сезмай колдим. Уни боғча опасига тошширғач, яна изимга қайтдим. Бирок ўтирган икки ёшнинг эндиги кўриниши тамоман «ажо-либ» эди. Хайрият эртарок ўтиб кетган экан-миз. Бўлмаса...

Суви сокин ојаётган сой сохилида бироз тўхтаб, мияни чалгитмоқчи бўлдим. Табиат чиндан ҳам гўзал. Қирёқ бўйлаб кетган кенг ва равон йўлда машиналар у ёқдан-бу ёққа тинмай ўтапти. Ёнимдан зув-зув ўтаётган қалдирғочларнинг қанотлари ерта тегиб кетадигандек тўё. Улар ҳар ўтганда мента нимадир демоқчи бўлаётгандай жон-жаҳдлари билан чуғурлашарди. Уларни диққат билан кузата бошладим. Аҳамият берсам, улар палапонларини учиништа ўргатишаётган экан. Сой бўйидаги ўриндикка палапонларининг бири кўниб қолибди. Она қалдирғоч уни тинмай учиништа чорларди. Хулди: «Бу ерта ўтирма» дегандай. Хаёлан улар билан суҳбатга киришдим.

— Нега дам олишига кўймайсиз? — сўрайман она қалдирғочдан.

— Йўқ, у ерта ўтириш мумкин эмас, — дегандек чуғурлади у. — Биласизми, у ер нималарга тўвоҳ бўлмаган, ахир? Номи киз-у, аслинда ашпақачон номусини йўқотганлар ёнларида шериклари билан келиб, у ерда нималар қилишмаган? Биз оламдаги нопокликлар ердан кўтарилиб кетсин, деб атайин пастлаб учагини. Бироқ уларнинг олдида ета олмаймиз. Базиллари шу ерда ўтириш билан чеклansa, айримлари ўриндикни уятдан эгилган новдалари билан беркитган мажнунтоллар тагидан кўним топади. Бизнинг қанотимиз эса у ерларга етмайди.

Майли, биз-ку, кўлимиздан келганча, одам бўлмасак ҳам, сизлар билмасангиз ҳам, нопокликларни йўқотишга интиламиз. Бироқ сизларнинг бир-бирингизга жонингиз анимайдингизми?

Кўп кўрганмиз сой бўйида кулганларни, сал ўтмай сочлари тўзғиб, кўзларидан оккан шашкатор ёшларини. Базиларининг кенг оламга синмай, шу сойга ўзларини ташлаганларига ҳам тўвоҳ бўлганмиз. Билсангиз, сой уларни бу дунёдан у дунёга элтадиган кўприк эмас. Сувда бир марта оккан билан улар покланиб ҳам қолмайди. Аслида сой ҳам уларни тезда қирёққа улоқтириб ташлашга шошилади. Ахир сувда ҳам дард бор. Анали ёшларга бир қаранг, билалари шу даражада чирмашиб кетганки, орасидан бизнинг қанотлар эмас, сув ҳам сизиб ўтолмайди. Улар тақдирининг эртаси нима бўлади? Сўзсиз, уларнинг эртагаёқ бир-бирини кўришга кўзи бўлмай қолади. Оламда бўлаётган бундай номувақилликлардан кўнгиллар эмас, табиат ҳам ўқчиб юборапти, билсангиз. Базиларни бир зумда сел олиб кетиши нимадан дейсиз? Бутун бошли шахар ва кишлоқларнинг тўфонлар қариди қолпиш-чи?! Барча-барчасига сабабчи одамларнинг ўзлари. Бутун дунёни йўқ қилишга қодир қора қучларни ҳам яратди аждоқларингиз. Яна боғаларингизга: «Нима қилсам, сен учун қилайман», деганларингиз ортқича. Заҳарланган ҳаво, таркиби бузилган

тушрок, дори бермаса, етилмайдиган хосил!
Шуларнинг барчасини болаларингизга раво
кўрасизларми?

– Бўлди етар, бас. Сента бошқа саволим
йўқ, факат индамасанг бўлгани.

– Хўп индамадим, билганларимнинг бир
чимдиминигина айтишга изн бердингиз. Қол-
ганларига бардошингиз етмади. Оғрикдан бо-
шингиз ёрилаёзди...

Ҳа, яхшиямки бу хаёлий суҳбат эди. Бироқ
хаёлий суҳбат тикандек юракка ботди. Ёнги-
намдаги ўриндикка яна бир кўл ушлаганлар
жуфтligи келиб ўтирди. Кўринишидан ўзи-
мизга ўхшасалар-да, улар бошқа тилда гапла-
шишарди. Ора-сира ўзбек тилида ҳам гапириб
кўйишарди. Нима улар она тилини ҳам унутди-
ми? Наҳот бу томондан ҳам қалдирғочлардай
бўлолмасак? Йўқ, бўлмайди. Бу ерда туравер-
сам ҳали кўп нарсатга туювх бўламан шекилли!
Қалдирғочлар яна суҳбатга чорламасдан уларни
бу ердан қувиш керак! Агар она замин бағрини
улардан тозалаб, қалдирғочлар юзига вақтида
ёруғ юз билан қарайдиган бўлмасак, эртага кеч
бўлади, кеч...

МУҲАББАТ ЕТИМ ҚОЛМАСИН

Ўқни қора булут қоплаган. Ғарбдан
эсаётган шамол қучайгандан-қуча-
йиб, довул борган сари авжига минмоқда. Шид-
дат билан ётаётган ёмғир дов-даракхлар баргла-
рини чор тарафга тўзғитяди. Хазонлар тақдирга
тан берганча елвизак каерга етакласа, ўша то-
монга учиб, олдида нима чикса, уриниб-сури-
ниб, баъзилари эса лойга беланиб ётибди. Ёз
бўйи тўлиб оккан анҳорнинг шашти ҳам суст
булут, суви ҳам саёз. Унга ўрнатилган чархпа-
лак эса, эрингандек аранг айланмоқда.

Техника асри, дея жар солинаётган шиддат-
ли бу давр кўп янгиликларни яратди. Ҳатто,
нималарингидир батамом йўқолишига ҳам са-
бабчи бўлмоқчига ўхшайди у. Аммо сўқирга
кўз, соқовга сўз берган бу шиддатли дамлар
нетадир Аҳадни сийлашни унуттандай. Бир
қарашда камтап ва камсукумлиги кўриниб ту-
радиган бу йитит факат инсонларга хос бўлган
умид билан тирик. У ўз хаётида тасодифий
мўъжиза рўй беришини ҳар куни, ҳар сония қу-
тиб яшайди.

Унинг саранжом ва сокин ховлиси олди-
дан ўтаётганда кўпгина йўловчиларнинг юраги
увишиб кетади ва: «Худо факат бир тарафдан
кистан-да, бу шўрликларни» деб кўйишади.
Ҳақиқатан, уй шохона. Чиннидек топ-тоза хов-
ли барчанинг хавасини келтиради. Ҳаммаси

ўз ўрнида, факат бир нарсатина етишмайди бу оилата. Қани эди шу саранжомликка хос мўъжиза юз берса-ю, уларнинг тилаклари ижобат бўлса?! Юракни маҳзун эзган ғам-ғусса ҳам, хонадонга чўккан зулмат ҳам сўзсиз чекинади.

Оз эмас, кўп эмас ўн беш йил бўлди уларнинг турмушларига. Йилдан-йилга чехралари сўлиб борапти. Шаҳар касалхоналарига катнай-катнай товарларигина эмас, чўнтаклари ҳам тешилиб кетди шўрликларнинг. Бирок бирор марта: «Сен ..., мента мевасиз боғ не керак», демади у жуфтиҳалогига. Гоҳо Олиманинг ўзи: «Айб менда, сиз фарзанд кўришга ҳақлисиз, тақдирга тан бериб ажрашайлик», дея эсгатади, холос. Тўғри, балки шундай қилса, ҳаммаси ўзгариб кетар... Йўк, йўк! Ҳеч нарса ўзгармайди. Пешонасига ёзилгани шу бўлса, тулдай оиласини бузгани қолади, бошқа ҳеч нарсата эришмайди у.

Аҳад кўчада тура-тура зерикди чоти, яна ичкарига бурилди. Эртанги тадбирда нутқ сўзлаши учун тайёрларлик кўриш макседида ижодхонаси томон юрди. Юмшоқ диванга узада тушиб чўзилганча, олдинги тадбирларда билдирган фикрларини бирма-бир ёлдан ўтказа бошлади. Аввалги маърузаси унинг эсидан чиқкангча йўқ халш. У сўзлар эсдан чиқмайди ҳам. Негаки, у ҳамма нарсани ҳаётдан олиб, тингловчиларга тушинарли қилиб гапирган. Тўғри,

ўшанда бошқалар ҳам илғизи теран фикрлар билдиришганди. Масалан: «...Кўпчилик айтишади: «Ҳозир касалнинг тури кўпайиб кетди», деб. Мен бундай демаган бўлардим. Бор гап, бутун янги-янги касалликлар номи пайдо бўлди. Бирок анчагина касалликлар бизга ўша даврлардан хавф солиб келарди аслида. Бутун илмфан ривожланди, у пайтларда бу касалликларни аниқлайдиган олимлар бўлса-да, хозирги янги-дан-янги жихозлар бўлмаган, ахир. Шу сабаб бу касалликларнинг номи аталмаган. Ҳатто, оддий кўричак хасталиги сабаб икки-уч кун букча-йиб ётиб, ғафлатда кетганлар қанча бўлган ўтмишда. Ҳа, майли муҳими касалликнинг қачон пайдо бўлгани эмас, унинг давоси топилиганида! Қийган қийимимиз шохона бўлса-ю, танамиз отрикдан қашшаб турса, усти юпун, бирок тўрт мучаси соғ одамдай бўлмаймиз ҳеч қачон», дея мактаб ҳамшираси Заҳро кўпчиликини ўйга толдирган бўлса, тарихчи Дилором опа ҳам: «...Тарихни чуқур ўрганишимиз керак. Айниқса, бутунги дориламон кунларга – мустакилликка ўз-ўзидан эришиб қолмаганимизни, ота-боболаримиз қанчалик қийин дамлارни бошдан ўтказганини ҳамма билиши лозим. Шунда мустакилликнинг қадрига етамиз. Аждодларимизга муносиб фарзанд бўлишдай маъсулиятни хис қиламиз. Ўтирган ёши улугларга ва сизларнинг ота-оналарингизга яхши аён, бизнинг тарихи-

мизни йўқ қилиш учун канча ҳаракатлар қилин-
гани. Агар илдири мазийга бориб тақалдиган
тарихимиз бўлмаганида, аждодларимиз дунё
ҳалқларига тиб илмининг, қонот ва ҳисоб-ки-
тоб сирларининг, давлат бошқарувиининг қалит-
ларини очиб бермаганида, биз ҳеч қим билмай-
диган ном-нишонсиз бир тўдадек қора булутлар
соясига қолаверар эдик. Худога шукр, асрлар
давомида ота-боболаримизга армон бўлиб кел-
ган Ҳуриятга эришдик. У бизга динимизни,
тилимизни, тарихимизни, урф-одатларимизни
қайтариб берди...» дея чакки гап айтмаганди,
ўшанда.

Эртанги тадбирда ундан олдин тажрибали
адабиётчи сўзга чиқади. Опанинг ҳар нарсани
жуذا чуқур тушунтириши унга аён. Маъруза-
ни шунга яраша ёзиш керак. Аҳад шуларни
ўйлаб, аста ўрнидан турди ва ҳаёлига келган
мушоҳадали фикрларни бирма-бир қоғозга
тушира бошлади. У маъруза матнини аток-
ли адиб Чингиз отанинг «Севгининг афсо-
наси бу – бир-бирига тинимсиз талпиниш
гина бошлаб, енгил давом эттирди: «Ҳаётнинг
баланд-паст йўллари инсониятга улуғлаб,
ўзлигини танитадиган қувончу таъвишлар»
га бой туйғуларга тўлалиги барчага аён. Бил-
сангиз, Яратганнинг ўзи, одамзодни мухаббат
билан бирга тирилтириб, қалбига бу туйғунинг

керагича жойлаган. Аммо бир киши юратини
ширин энтиктириб, қалбга ҳузур бахш этajak
бу бебаҳо неъматдан ҳамма вақт ҳам ўрин-
ли фойдалана олмаётимиз. Кўпинча, бу кўз-
га кўринмас нафис хилкат қадрини қаритиб
қўймоқдамиз. Минг юраклигимиз бос, уни
меҳрга ташна қилаётимиз.

Мухаббат атрофи мустаҳкам деворлар би-
дан ўралган мўъжазгина бир макон эмас. У беш
қунлик бу ёруғ оламдаги ҳадсиз, ҳисобсиз, бе-
назир неъмат. Ҳамманинг ҳам вужудига синга-
вермайдиган энг муқаддас туйғу. Унинг торла-
ри шунчалар нозикки, ногоҳ тегиб кетсангиз,
қалбда сирли сас таратиб, юракни титратганча
кўнглини оздиради. Покиза дилларни қурбон
қилади. Унинг қаҳрига учрамаслик, уволига
қолмаслик учун уни ҳамини авайлаш, асраш,
қадрлаш керак. Тўғри, бир кунгина яшайдиган
қапалакни-да, бутун умри давомида унутмай,
мангу эъзозлайдиган одамлар ҳам бор, орамиз-
да. Аммо тили бошқа-ю, дили бошқалар кўп,
барибир. Юратида зори, қалбида ори йўқ бун-
дай қимсалар чин мухаббат қадрини қайдан
билсин, ахир?! Қани энди мухаббат бўйруқка
бўйсуниб, севиш-севилш инсоният изида
бўлса-ю, минг юраклар муқаддас туйғулар қа-
дрин тоғтаб: «Буниси энди бўлди, эртага бо-
шқасини тутмоқ керак», деганча ҳаммасини
тупроқка чизилган суратдай бир зумда ўчириб

ташлайверса. Йўк, бундай бўлмайди, бўлмасин ҳам!

Тўғри, бизгача не-не буюк мухаббат дostonлари битилмаган, дилларни сирли сеҳри билан мафтун этмаган дейсиз! Қани ўша сadoкат хайкалига айланган Лайли ва Мажнунлар, Фарҳоду Ширинлар, Алпомиш билан Барчинлар?! Нахотки асрлар оша яшаб келаётган ўша мухаббат маъбудалари ўртасидаги юракни оташдек ўртагувчи пок мухаббатни биз бутун худди онасидан айрилиб, у шохдан бу шохга учиб-кўнганча кундан-кунга озиб-тўзиб бораётган абтор палапондай хору зор килиб қўйсак?! Ахир бу ахволда мухаббат биз етказган озорлар боис завог топади ёки бизни охиразмон домига отиб, ўзи етим қолади. Бизнинг бутунги тўрликларимиз: кизларимиз бой бераётган номус, йигитларимиздан йироқлаётган ор, ҳамма-хаммамиздан чекинаётган оқибат, бу — жаҳаннам сари йўл, аслида. Эртата шикаста канотли, хастадил бу палапоннинг яна ўзини тиклаб, ажодларидай кўжларда баланд парвоз этганча кўнгилларни хуш килишга ким кафиллик бера олади?! Аминмизки, ҳеч ким.

«Севги бу — сеvgининг шартига кўнишдир» деган пурҳикмат сўз ўз-ўзидан чиққан эмас. Кўл ушлашган икки ёшни кўрганда «Севинганлар бахтли бўлишсин!» дейишга бироз чўчиб қолдик бутун. Тўғри, уларга ботинан бахт

тилаш кимни ғариб қилади дейсиз. Ёки бисo-тимиздаги яхши тилақлар тутаб қоладими? Йўк, асло тутмайди. Фақат кечатгина ўша кўл ушлашганлардан бирини шу атрофда бошқаси билан худди шундай «бахтиёр» кетаётганини кўргани боис, тили қалимага келмай, эзгу тилақларга ҳасислик қилади oдам. Саховатпешалигинг тутиб қайта қараганингда эса, улар хилватроқ жойга кириб, кўздан ғойиб бўлишга улгуришади. Ахир бундайларни қандай қилиб севишганлар дейиш мумкин?! Тўғри, инсонга ёшлик, айниқса, навқирон ўсмирлик бир бор берилади. Бирок, бу — хоҳлаганча тутуриксиз севиш, севилиш самараси ўларoқ ёшлар фахшият уммонига ғарқ бўлганча, она сути oғзидан кетмай туриб, бола кучоқлаши — бадном бўлиши керак, дегани эмас-да, ахир! Унутманг, бу билан биз мухаббат бутун борича сарoбга айланди, деган ноқоиз фикрдан йироқмиз. Чунки чин мухаббат соҳиблари ҳам йўк эмас орамизда. Улар бор, илоийм уларнинг излари боқий бўлиб, мухаббат манту яшасин!

Аммо ўзингиз ўйлаб қаранг, бир йилда мўъжазгина бир шаҳарда бағоятга етмай бола кучиб, бахтини бой берган навнихоллар сони етти нафардан ошибди. Бу маълум бўлгани, албатта. Беназир бу борлиқни боласига бахшида этмай бебахт бўлаётганлар қанча, ҳали? Ўтгилиб-тутилмай қурбон бўлаётган бетуноҳ

норасидаларга кафанлики хам раво кўрми
жаҳолатга юз тутётганлар-чи?! Тошбағирлар
кўча-кўйга кўксидан ёриб чиқкан дигморларни
ни ташлаб кетётганлар-чи!

Ахир бу, кандай бебахтлик! Кўзини очиб-
май ажал билан олишган мурғак вужудини
ожиб, аммо оламни ларзага келтирүүдек анча
ноласига кандай бардош беради улар? Сиди
ларидан сизиб чиқаётган хаёт шарбатини нега
кизганишади улардан? Бусиз у шўринлар
нинг ҳоли не кечали? «Онам кани?», «Она
ким?» деган саволларга жавоб тополмай, туни
да ҳам кимни кўришни билмай, меҳрибонли
уйдан кўним тонади, улар. Шундай дефис
ку-я, меҳрибонлик уйи ҳам факат шунақа ме
поқлар маҳсулини воғта етказилган беради
жой эмас, ахир!

Э-эх, бунчалар бешафкат бўлмаса бу дун
Каранг, кимгадир фарзанд хор, кимлар эса тор
ночка зор...» Аҳад маъруза матнини қолбона
кайнаб чиқаётган оташли сўзлар билан ҳа
узоқ давом эттиришга кодир эди. Аммо не
тобда негадир бирдан тўхтади. Аниқроғи нега
ларини аёли ўкиб қолишидан, унинг торти
кон бўлишидан чўчиб, маъруза қоралима
йиртиб-йиртиб улоқтирди, у...

Кузнинг рутубатли серёмгир туни шунча
билан ўрин алмашди. Эрталабки нонушани
сўнг Аҳад машинасига ўтириб, ишти олов

Кўзини кишлоқдан ўтаётиб, дарста кеч кол
маслик учун йўлда чопиб бораётган кизчанинг
рунларига тўхтаб, уни машинага чиқариб
олин. Кизалокнинг этни енгил бўлгани боис:

— Устингга қалинрок кийим кийгазиб юбо
ринимдан-да! — деди кизалокка.

— Ёсимдан чикибди, — дея сўлгин жавоб
берди кизча.

— Уйда ота-онанг йўқмиди?

— Йор.

Нега унда кўчага бундай чиқишингга йўл
қилишди улар?

Э-о, улар яна тонгдан жанжаллашиб
қолган, — деди кизалок энсаси котгандек
қаланди.

Нега жанжаллашади улар, кизим? — дея
сўради Аҳад меҳрибонлик билан яна.

Отам доим «Ўғлим йўқ» деб жанжал
ювиргани чиқарган.

— Отанг сени яхши кўрмайдими?

Йўқ, яхши кўради. Кўпинча мени бағрита
бериб «Кизим, сени яхши кўраман, бироқ сен
бардир ўтиг фарзанддай ёнимда қололмай
сан-да! Эртанга куним кандай бўлади? Бу уйнинг
иштигини ким ёқади?» дейди. Мен отамни
қаланим тушунаман. Иккисигам кийин. Улар
яна йўқ, айбонинг ҳаммаси менда. Ўғли бўлиб
қолганимда-ку, ҳеч гап йўқ эди. Онам отам
ни жоҳли чиқмаслиги учун ҳамийша парвона

бўлиб, ҳамма ишга улгуришга уринади, тиним
ди. Афсус, онамга бошқа фарзанд кўриш мум
кин эмас экан...

Қизалоқнинг сўзларини ортик тингловини
бардоши етмаган Аҳад аста авторалино мурра
тини бураб, ундан таралаётган кўшик овозини
кўтарди. Орадан кўп ўтмай мактаб дарвозаси
олдида тўхтаган машинадан шахдам тундай
кизалок: «Раҳмат, устоз!» деганча ўзини ине
рига урди. Аҳад эса иш бошлашга кўли борай
мактаб ховлисида у ёқдан-бу ёққа анча юрган
Ҳатто дастурий хисоботни баҳона қилиб мар
казга ҳам бориб келди. Сўнги сабоқдан кейин
Ҳамма мактаб залига тўплана бошлади. Ноз
ят тадбир ҳам бошланиб, адабиёт ўқитувчиси
минбарга кўтарилди.

— Бутун ёшлар ўртасида эрта турмуш кўриш
кўп кузатишмоқда, — дея у салмоқ билан сўз
бошлади. — Ўзимнинг ёшлигимни мисол қилиб
Мен йигирма тўрт ёшимда турмушга чиққан
ман. У пайтларда эрта турмушга чиққан эр
саналарди. Бирок бутун атар кизи 20-21 ёши
турмушга чиқмай қолса, ота-она саросимини
ишиб қолмоқда: «Қизим қари киз бўлиб қол
деб. Йўқ, аслида ундай эмас, бу айни мунд
Бекорта ривожланган давлатларда йигирма беш
ёшдан кейин турмуш қуришмайди...

Демак, бутун бекордан-бекорта ёшлар
эрта турмуш қуришлари олдини олишни дора

ининин даражасида қаралмапти. Буни доим
ёдан тутиб, кўрсатилаётган ғамхўрликларнинг
кайрат етишимиз лозим...», деган адабиёт
инининг кишини ўйга толдирадиган тиник
филариядан рухий қувват олган Аҳад оқшомда
ёниб, ирттиб ташлаган маърузасини худди ишга
нормон тизгандай ёлдан ўқий туриб: «Ороҳ бў
инин одамлар, муҳаббат етим қолмасин!» дея
кайириб юбораёзди...

БОЛА БЎЛИБ ҚОЛСАЙДИМ

Инсон ҳақма нарсанинг ақлини
қилади. Катта бўлишга шайлади,
кейин эса ўлиб кетган болалигини
созинади. Пул тоғи учун
сепматлигини йўқотади, сўнгра
сепматлигини қайтариш учун пулни
сарфлайди. Бузини уйламадан,
келажакни уйлайди, оқибатда на
бузини, на келажакни бўлади. Худди
асло ўймайдигандек яшайди ва худди
асло яшамайдек ўлади.

Парло Қозило

Ошмининг тўнғич икки фарзанди
қиз, кенжатоғи эса ўғил эди. Би
ининин фарзандларининг келажакни ҳақида ҳали
ёниб ўлмамаганди. Буни унинг ўзи қадрдо

нининг тўйида ўтириб, унинг ҳолатини эминдан кузатганидан сўнгги на сездди. Шу сафир у ҳаётида биринчи марта олинда фарзандларини, айниқса, кизларини нималар кутиб ётгани ҳақида ўйга ботди. Чунки тўйда ҳам ма ўйнаб-кулаётган бўлса-да, киз узатаётган ота-онанинг куёш тафтидан қорайган юзларини маҳзун. Хиёл чўккан қароғларида ҳам қандайдир дард зоҳир. Ҳўш, нега? Ахир бутун уларнинг энг қувончли кунларидан бири кизларининг бахт тўйи-ку! Шу боис кўшнени йигит ҳам барчани даврага қорлаб, оҳанини авж пардасига чиқармоқда:

«Менинг кизим онасининг муҳаббатини
қозонди.

Буваси-ю, бувисининг тарбиясини хў-ўп олди,
Мана бутун ушалоқда кўнглилардаги армон,
Ота-онанг дуосин ол, йўлинг бўлсин нуридан

Асал кизим, билсанг мента оқмас сендан
оппоқ қор.

Оппоқ ният оғушида бўёсанггни хатлаб бор
Сен ўсган жой баракали, файзи зиёд,
бахтга бор.

Изларингдан тул ундириб, борган ерға
бахт бўлиб бор.

Билки улар юракларни сел қилаётган шу кўшнлик тавсарида ҳаёл уммонига фарқ бўлиниётгандир. Эҳтимол ҳаёт кизларини мислдан пайлашмон тоши янглиғ бегона жойга, ўзга ўрта улоқтираётганидан кўнглилари бесаранжом бўлиётгандир. Ҳар не бўлганда ҳам улар чуқур ўрта ботган, деган фикрни ҳаёлидан ўтказган Ҳошминини елдек югурик ҳаёл узок-узокларга етказиб бошлади.

Кизлари ҳали бўй етмаган бўлса-да, вақт ўтиб уларни узатиши, кимгадир қуда бўлиб, тўй қилиши ва ўзининг қандай ҳолатга тушиб кўз унгандан бир-бир ўрта бошлади. Шу кунгача уни буғидан ўйлар сира қийнаган эмасди. Шундан бўлса керак, унинг кўнгли бирдан алланечук бўлиб, тезроқ уйига боргиси, болаларини кўришни келиб кетди.

Дўстлар, энди мента жавоб, ўйга қайтма-ман бўлмайди, — деди Ҳошим бирдан шовиб. Тинчликми? Нима бўлди, оғайни? — ҳаво-перининг сўради бирга ўтирган ҳамкасблари-дан бири.

Негадир кўнглим ғаш бўляпти.

Келаётганда димоғинг чоғ эди-ку, ўртоқ, — деди сўзга қўшилди Азим. — Бирга келидик, бир-та келидик, уришиб қолган одамдек жамоадан қарашди, энди.

Азимнинг табиати шунақа. Ундан ранжирган керак. Ўтириш, улфатчилик деганда

Ўзини томдан ташлайди у. Маош олганида ҳам гапи келишадиган кадрдонлари билан бирор жойда ўтириш унинг эсдан чиқмас одати. Ўнр сафар Азим шундай ўтириш ташкил этаётган да ёши улў, ўғил-кизларидан тинчиган Одина ака уни яхшигина қойитганли: «Бир ой ишлб топган пулингдан не наф, ўзинг учунгина сарфласанг. Ахир уйда завжанг бош бўлиб, фаринлар йўлингга интизор кутса, сен етинчи фалакда учиб, курук кўл билан кириб борсанг...»

Хошим канча урингани билан улфатларидан ажралиб кетишнинг иложини топмади. Туьдан ҳамма бирга қайтди. Уйининг дарвозасидан, кирар экан, бошига ок харир рўмоғ ташлини, кўзлари ожиз онаси невараларини кўзлари билан пайпаслаб: «Бўйинг анча чўзилиб қолди», деганда Хошимнинг ёдига оқинининг

«Кўнгил агар кўр бўлса,

Очик кўздан не фойда?» деган пурхонлар сагрлари тушди. Шу тобда у ўзининг қанчалликларини эсладими ёки бошқа нарсатми, қор холда кўзларида ёш халқаланиб, кутимантлар кирикларини намланди. Бол тогган болани келларида онасининг кўлидан сариёғ суртгани билан олиб еган дамларини эслиб, унинг худди боладай хис этганча, ширин энтисини Бирдан ёдига тонгги уйкудай тоғли уя фаринининг отаси эканлиги тушиб, ўзини ростланганчи бўлди. Йўк, кучи етмади. У онасини биринчи

босиб, юз-кўзларидан ўпа бошлади. «Қани яна бола бўлиб қолсайдим», дея пичирлаганча онаи юри кўксига бошини кўйиб, беҳишт ифорини сипкарандай чуқур сўлиш олди...

ХОМ СУТ ЭМГАН БАНДАМИЗ

Оқшом пардаси тобора куюклашиб, атрофга қоронғилик чўқмоқда. Чор тарафдан таралаётган чигирткаларнинг чириллаши аажибда. Сал нарироқдаги атрофи қамишзор билан ўралган кўл томонда эса курубакалар ҳам ўзарича ён-атрофдагиларга жўр бўлаётгандай. Қишлоқ кўчалари бўм-бўш. Бу ердагилар ёзда даланинг бошига кўчиб бориб, суохидамдан меҳнат қилишга одатланган.

Ҳақиқатан, тонглаги меҳнатга не етсин. Қанча ишласанг ҳам чарчамайсан. Айниқса, атрофда ҳаёлингга бўладиган ортиқча бир-бир нарса кўзга ташланмаса, ишга барака қилиш. Шуёбхасизки, шу зайдда деҳқоннинг тоғимгани кузги хирмонда албатта тақдирланган. Қолаверса, далада бир бурда нонни соғун сулга ботириб ейишнинг гапти унча-мунча димоғни қитқилайдиган шохона таомдан айрил. Чайдалар ёнидаги ўчоқларда атрофга «сир-чирс» товуш таратганча учқун сачратиб ёнидан олов тафтида чойлар қайнаб, овқатлар қилишга тайёр. Фақат Замиробекнинг чайласида

жим-житлик. Шомда кишлоқдан борган хабарни эшитган захоти у йўлга тушганди.

Атрофи виқорли тоғлар билан қуршалган кишлоқ хавоси анча дим. Шундан овул ўртасидан оқадиган дарё соҳили ёз тунининг энг сарин жойига айланади қолади. Факат шу ердангина дилга ором бахш этувчи салқин шабада бор. Дарё бир қараган одамга соқин оқаётганидан кўринса-да, аслида шитоб билан олға интиладиган Замирбек гарчи йўлда томоқлари қақраб уйнаётган бўлса-да, ҳали бир қултум сув ҳам тоғани йўқ. Томоғидан ҳеч нарса ўтмайди, ҳозир унинг. Ўғли отир бетоб, йўталавериш томоғидан бўғилиб қолган. Энтикиб нафас олаётган боланинг ичидан сиртга тепаётган иссиқдан қизиб кетган юзлари оловдай ёнмоқда. Қандиқарий кетган юзлари оловдай ёнмоқда. Қандиқарий чора кўриш керак, бироқ қандай? Ахир, бу яқин атрофда доктор бўлмаса? Бундай пайтда туннинг марказидати касалхонага етказиб бориш мумкин. Айниқса, Тақали қоя бағридаги серуе моқ йўл жуда хавфли бўлганидан унча-мунча хайдовчи бемаҳалда қоришга қўнавермайдиган бўлса, бу ердан кечаси марказга борадиган томошина ахтариш чўлдан сув излаганди? Бирдан Замирбекнинг хаёлига ҳамкишиловчи учун авлиёдай бўлиб қолган Турсуноб келди.

У тонгта бориб нима бўлишини олдиндан сеза олганида, балки ҳозир бир амаллиб ўтган

докторга олиб кетган бўлармиди? Олдинда уни нималар қутаётганини у ҳозир ўйламайди, дардан-хаёли табибнинг хузурига тезроқ етиш. Уни унга олиб келса-ю, доривор гиёҳлардан дамлама тайёрлашиб ичириб юборса, худди ўғли тушиб қоладигандай шовиб боради шўрлик. Атроф тим қоронғи тун. Қим ҳам бу маҳалда: «Ҳой, ака!» деган захоти кўчага югуриб чиқади дебсиз. Шундан ҳам Замирбек овозининг бориши бикириб ичкаридан тамбалаган эшикнинг ёнида турибди-да. Хайрият табиб уйғонди, бироқ: «Хафа бўлмайсан ука, ҳозир тун. Шайтонлар сўга тушган пайт, тонг отсин бораман», деган жавобни айтди. Замирбек уни унсиз индамай тингларди-ю, бироқ ботинида: «Сен қандай одамсан, ўзи? Яна табиблик қиласан-а?!» деган нафратга бой саволларни бўғзида аранг тутиб турарди.

Иттимос, юринг, ака. Тонггача кеч бўлиши мумкин, — деди кўлини кўксига қўйган Замирбек илтижо билан яна.

Агар кўрар қуни бўлса, яшайди. Мен факат дардан қутқараман, ажалдан эмас. Борган-ю, ризки тутаб, қуни битган бўлса, чорасизини, — деганга табиб оғзини катта очиб, ҳомуза ториди.

Лекин, у учун ҳозир бемор норасидага қўйиб қўриқтишдан кўра, Замирбек тезроқ қоранини ўнирса, ўзини иллик кўрпа тагига уриш

муҳим. Агар Замирбека кўйиб берса борин, шу дамда унинг оёк-кўлини маҳкам боғлаб, белига отирок бир темир-терсаки илганча мана шу сокин дарёнинг теранрок жойига чўктириб юборишдан тоймасди, уни. Шунда ундан ҳеч ким ёрдам сўраб, остонасида минг тавалло қилиб турмасди. Айтган, замон кўтармайдди, қонуни бўлиб берибди. Бўлмаса уни шу ернинг ўзидан бўғиб кўяколарди Замирбек.

— Шу пайтгача бориб қайтардик, ака. Юртин, кўлингизни курук кўймайман.

— Нималар деапсан, ука? Мен олсам, қилгани хизматига оламан. Тайинли бир нарса берман туриб оғиз кўпиртирма, уқдингми? Тўғри мен чарчаганман, дам олишим керак. Вақтининг беқорга олма...

Эшик хайр-хўшсиз тарақлаб ёпилди. Ёр умиди сароб бўлган Замирбекнинг аъзойи бадани ғазабнок титрай бошлади. Маҳкам турган мушглари уйига етиб, тана хароратини ошади кизибган ўғлини аёлининг кўлидан олаётганида аранг очилган йигит завожи сўрашдан аввалроқ: «Табиб уйида йўқ экан», деб кўяколли. Тўғриси уни айтса ҳам бўларди, бироқ у бундай тарбия олмаган. Боланинг интиқибатини хуш кўрмайдди. Эҳтимол буниинг интиқибатини хуш кўрмайдди. Йўқ, хар кундай одамнинг орқасидан айтилган салбий гаплар ғийбат, билсангиз.

Дароже, Абу Хурайра (разиллоху анху)нинг ривоят қилишларича: «Расулulloх (саллоллоху алайҳивасаллам): «Ғийбат нима эканлигини биласизларми?» дедилар. Саҳобалар: «Аллох ва Расули биладилар, деб жавоб бердилар. Расулulloх (с.а.в.): «Ғийбат бир биродарнинг орқасидан ўзи эшитса ёмон кўрадиган сифат билан гапиришингдир», дедилар. Шунда улардан бири: «Агар биродаримда мен айтган ушбу сифат бор бўлса ҳам ғийбат бўладими?» деб сўради. Расулulloх (с.а.в.): «Унда бор айбон айтган бўлсанг, ғийбат қилган бўласан. Агар сен айтган сифат унда бўлмаса, бўхтон қилган бўлсан», деб жавоб бердилар».

...Ушбу ярмидан оғиб, тонг шуъла ташлаётган бўлган чоғда тобора мадори қочиб, ҳол-ҳаёти нафас олаётган фариштадай бегуноҳ боланинг қиртайган нурсиз кўзлари бир-бирига айланиб қолган нимжон мижгонлари оша бир нуқтага қадалиб қолди. Ҳовли ўртасидаги суғири суғириб ўсган тут барглари бирдан шитир-шитир, ёмғириди узилган бир донагина ям-яшил янрок ота қучоғидаги норасида кўксига тушиб кетди. Невалир кўнгли алпанечук бўлиб кетган Замирбек ялт этиб юқорига — тут новдалари остига қаради. Жим-житлик. Аммо рўпара-рўпара нешайвон устунлари орасига тортилган қонинг дордан кўноқ топган қалдирғочлар қалдирғочларидир безовталангандек, ғайритабиий

чүтүрлаштанча ўринларини алмашишди. Халигина кўкка кўтарила бошлаган пага-панга булутлар ортида бир кўриниб, бир кўринмай турган тўлин ой юзини энди қиёлаган эстан кучли шамол келтирган сур булут бутунлай беркитиб, борликка зулмат чўккайдилар бўлди.

— Войлод! Бола-а-м, болажоним!! Энданима қиламан?! Сенсиз қандай яшайман?...

Окшомнинг аввалида Замирбек бонориб-чакириб, товуши бўғилиб табибни арини уйготган бўлса, энди жигарўшасидан айрилиб юрак-бағри эзилган она фарёди бутун кишиларни ларзага солди. Бу махзун нола бир дунёни кўни-кўшилиларни чорлаб, ховлини одамга ўлдирди. Ҳадемай узок-яқиндаги хеш-ақрабонлар ҳам етиб келишди. Аммо табиб кўринмади. Майли унинг келмагани ҳам маъкул. Шу тобора кўриб қолса, Замирбек уни аёб ўтirmayди. Чунки у табибдан шундай хафаки, бор дунёни қоронғи!

Зувағалайтгина жонсиз жуссани билансиз да тутганча, қабристонганча маҳкам кучиб борган ота дилпорасини тушроққа топшириб келган таётганда тўрқовга хабар келди: «Жой хотирасиз, табиб оламдан ўтибди...» Хайрият, дил қолган Замирбек ортик ҳеч нарсани унутди. «Ҳақиқий қасос Ҳақдандир», деган ҳақданди хикматнинг бежиз айтилмаганига амин бўлиб

табибдан ранжиб лаънатлаганига ич-ичидан аянгитганча ҳаёл уммонига фарқ бўлди. Ҳеч қанча ўтилмаган, бироқ давомийлигини ҳеч қиминкор етолмайдиган табибий қонунга бўйсуниб, табибнинг чикмай тобутдаги майитни бир-бирига елқилари ўзра олиришганча кўтариб йўлга туширилди. Табиб жониз бўлса, қабристон томон йўналиётганлар оқабган дарёга ўхшаса, ётоқ ота минган табибнинг жасади мисли бир қанчалар қалқиб борарди. Унинг окшомдаги сир-синоатларга бой бу мувоҳам дунёга устун бўлишгандек вазоҳатидан асар ҳам йўқ эди. Унинг ўзининг адоғига етолмай қарахт бўлган Замирбек: «Ҳа майли, ҳаммамиз ҳам хом сут эгани бандамиз-да!» дея чуқур сўлиш олди...

ИЗГИРИНЛИ КҮН

Бахорнинг илк палласи. Ҳарорат хали исиб улғурмаган, одамлар иссиқ қишларини ҳам ечмаган. Қишлоқ хонадонлари муриларидан буруқсиб чиқаётган тутун йиғилган, улкан бир заводникидан кам бўлмайди. Қаринининг уйидаги чирок тонгтача ўчмади. Унинг отин Суҳроб учун тўё тонг отмаса, у онасидан айрилмаса. Ойулнинг бу иши табиатга ҳам ёқмаётгандай тун бўйи шивалаган ёмғир тонгта вақт қорға айланиб, кучсиз ёға бошлади.

Кани энди чиндан ҳам бу тонг отмасан, улар бир-биридан айрилишмаса. Бирок тонг ёриша бошлади, Сухробнинг юрагидаги ханго тир кучайди. Шўрлик боланинг йиғи аравини ялиниши онага қор қилмади. Гуля бошчилигидаги бир гуруҳ аёллар ишлаш учун хоришта йўл олишди. Карим ҳам, ўғли ҳам норонг Факат Ойгулнинг кўнглида ширин энтисини. Гўё у ёқларда пул чиқарадиган дастоҳ тифер тургандай.

Ойгулни ҳеч қим кузатмади. У уйдан ённи ўзи чиқиб кетди. Остона хатлаётиб негадир ортига ўтирилди. Дераза ёнида дағ-дағ титиратганча йиғлаётган Сухробнинг юзларини шашқотир ёш юварди. «Буни кўрса, Ойгул инсофта келар, ўғлини кўзи қиймай шактидан қайтар», деган ўй яшидек чакнади Каримнинг бошида. Ўйгул қароридан қайтмади. «Мен энди кул изғиринли кунларда қайтаман», дея эшнени ёпди.

Бир гуруҳ кўнглилилар Гуляга эртанинг ўзга юртларга жўнаш учун шай. Факат уларни олиб кетадиган машина хайдовчиси билан кечикди. Ойгул машинага ўтирар экан, ўз уйи томон яна бир бор қаради. Ҳеч қим кўнглили мади. Автомашина енгил силкиниб, ўрмондан кўзгалди. Олдинда уларни нималар кутмоқда буни Гулядан бўлак бирор қимса билмасди. У орқа ўриндиклагиларга қараб: «Бўшашиш

лар, ҳали катта даромад билан қайтасизлар», деганда, хайдовчига кўз қирини ташлаганча, мингидида кулиб кўйд...

Сухроб шу кундан эйтиборан изғиринли кун бошланганини интизор кути бошлади. Бечора боланинг кундан-кунга ранг-рўйи сарғайиб, қаро-қизилни чўкиб борарди. Карим эса эрта узишган чечакдай сўлиб бораётган боласига термулганча леғини тинмай қойирди. Ҳар қимга ҳам алам қилганда, барқ уриб ўсиб келаётган ниҳондай боланинг она меҳрига ташна холда сўниб бориши билки шўрлик бола онаси бошига тушадиган нурини бошларни тушларида кўриб қийналаётганлар. Бирок, у онасининг одам танимас даражада кўнгли кетганини тушунмасди. Факат онасини кўнглини истарди, холос. Кани энди онаси келганда, уни бағрига босса. Майли унинг совға-саломлари ҳам керак эмас, у учун факат онаси келган бўл...

Ордадан қанча вақт ўтди. Сухробга энди ҳеч нрсанинг кизиги йўқдай. Унинг наздида гўё куз қайтиб келмайдигандай. Шундай кунларнинг бирида осмонни бирдан қуюқ қора булут қоплади. Ташқарида нимадир ёға бошлади. Ўша умид билан дераза олига интилиди. Бирок шашқарида шаррос ёмғир ёғётган эди.

«Дада, мени бағрингизга босинг, кўйиб беринг, изғиринли кунгача қучоғингизда қолсинг», деди Сухроб.

— Сабр кил, ўғлим. Кунлар совиб қолди, тонгтача изғирин ҳам бошланиб қолар, — деди ўғлига умид бағишлади ота.

— Онам келадими?

— Келади болам, келади...

Чиндан ҳам тонгта яқин изғирин бошланди. Жонсарақ холда ётган Сухроб аввал деразадан бир қаради-да, сўнг эшикка термўлди. Тик эгизини товушга ҳам қулоқларини динг қилиб узок ётди. Йўқ, ҳеч ким келгани йўқ. Сабри эмас, умри тугаб бораётган боланинг кўзларида ҳалқаланиб ёш сўлғин чехрасини аста ювганча пастга дурмагади. Ота ўғлини овуттиш учун анчадан бундан кўлига олмаган, тоғ эҳкисининг аччиқ ичанганидан ясалган уч қилги кўбизини мунгли оҳангга солиб черта бошлади. Кўбиз атрофга тоҳ маҳорат сас таратса, тоҳ ер титратган от тўёқлари дунридай кўнглига қувват беради.

Борган сари авжига минаятган изғирин аста дераза ойналарини черта бошлади. Кундан бери уйқудан бош кўтармай ётганини билган Олапар қутилимаганда уй қаршидаги ён-бағирга чиқиб увилай бошлади. «Хай, овозингни ўчир, бошингга кўрингур!» деди кўбизини хона бурчагига улоқтирган Қарим ўғли томон интилди. Уни маҳкам қучиб, юзларини ўтди. Нурсиз кўзлари бир нуқтага қадаланганлик чехра тобора совиб бормоқда эди. Олапарнинг увиллаши эса тинай демасди. Қарим

нинг етанча, Сухробни маҳкам бағрига босиб, ўқиб-ўқиб йиғлай бошлади...

АСЛ ОДАМ АДАШМАЙДИ

Аёт жуда қизиқ. Кечатино қийинчиликлардан бошини қаерга уришни билмай юрган Бибинисо бўғун фарзандлари ардоғида. Ҳатто қатордаги қайнона бўлишга ҳам умурини. У бу шарафга етгунча не-не заҳматларини бошидан ўтказмади. Бугун эса ундан бахтли одам йўқ. Илк неварасининг ёқимтой қилиқлари, келинининг меҳрибончилиги, фарзандларининг мўмин-қобил бўлиб воғта етганини кўриб, у ўтган кунларига ачинмайди. Ҳозирги турмушда шижроналар келтириб, ҳалолликда ҳикмат қўлингидан қувониб яшайди.

Турмуш ўртоғидан эрта ажратган бу аёл еленини тақдир зарбаларига ёлғиз тутган бўлганда, ҳаётнинг бағанд-пастликларидан бирдек афсус ўта олди. Фарзандларини ота меҳрига ташна қилмади. Уларга донм ҳалол меҳнати меҳрини елдириди, ҳаромдан ҳазар қилиб яшашни ўргатди. Элдан эрта туриб, кеч ётди.

Ота меҳрини бериб, тинимсиз меҳнат қилган бу ишларни Бибинисо ёлғиз бажаришга умурини қўйди. Чунки эрини тушроққа топширган кунларда унинг фарзандлари ҳали кетмон уш-

лашни эмас, сулурти тутушни ҳам эплогламлар диган болалар эди. Эхтимол ана шу жажжени ўтил-кизларини оёкка турғизиб, каторга қўшиб илинжи унинг барча ишларга улгурини та, баъзи эркаклардан-да, матонатли бўлишини қувват бўлгандир.

Дарҳақиқат, бу эхтимол эмас, бор гап. Бир сафар укаси Қосимнинг шохидлигида онасининг: «Қизим атар яхши бир инсон бўлса, турмуш қурсанг бўларди» деган тақлифига:

«Йўк, онажон! Мен набираларингиз кўларини жавдиратиб асло турмуш қурмайман. Эндиги ҳаётимни уларнинг бахти учун бағитлайман. Сира хавотир бўлман, мен оилани шайинга ҳам, ўзимнинг номинга ҳам иснод қил тирмайман. Ёдингизда бўлса, раҳматлик бўлсин «Асл одам адашмайди, болаларим», деган гапни бот-бот айтарди. Мен ҳам ўзимни буларнинг зарда тутган аслнинг бир зарраси деб билишни дея йитлаб юборганди. Қосим эса бу гапни боштан маъкуллаб турса-да, онасининг кўнгли учун онасини қойитандек бўлганди. Гарчи бу тақлиф кўпдан ўзини ҳам ўйлантириб юргон бўлса-да, дилидагини тилига чиқариб қўйганидан қувонган холда, онасига олингилдан да кўпроқ ёрдам бера бошлаганди.

Ха, умр деганлари бамисоли оқар дарё экан Шиддат билан олға интилиб канча кунларини неча йилларни ортда қолдирди. Қосим онасини

дан бир хабар олиш мақсадида йўлга тушди. Ўяхор фасли эмасми, майдалаб ёғаятган ёмғир тинга хушур бағишлайди. Онасининг уйига қилиб борар экан, жиян келини уни илик қарши олиб, ичкарига тақлиф қилди. Қосим дарвоза-қона тўридаги баланд сўрида ўтирган онасини кўриб қувонди, хавас қилди. Унинг ўтириши уйига чунонам ярашганки, худди тахтда ўтирган милликалардек. Бибинисо ҳам ўрнидан аста туриб, укасини очик чехра билан сўрига тақлиф этди. Опаси билан сўрашар экан, унинг кўзидан кўнжон чакнардди.

Ҳалигина шивалаётган ёмғир тиниб, Бобо-қуёш борликка яна ёғду соча бошлади. Қосим ичрофта ўйчан нитох ташлади. Сўри ёнидаги ўрик баргларининг уйига ора-сира сирқакан томчилар паға-паға бўлиб бўйлақларга бўлинаётган булутлар орасидан мўралаётган кун нури-да билдурдек товланмоқда. Фасллар келинчаги кўнжоннинг ўткинчи ёмғирга юзини чайган ва яшил япроқларнинг сарин шабадада енгил итришини ҳам ажиб манзара қашф этган. Шу юбора бундай бетакрор гўзалликларни опаси интонатига ментзаган Қосимнинг қалби ифти-корга тўлиб-тошди. Зеро у, ҳар канча қувониб, дегингиздек жўшса арзийди. Чунки опаси Бибинисо буваси таъкидлаганидек, асл одам адаш-ингилгини амалда исботлаб улгурган эди-да!

МУНГ БОСМАСИН МАЖНУНТОЛЛАРНИ

Борлиқни ўраб турган она табиат
накадар гўзал. Кўзни қувонтирадиган
тан гуллар, дастурхонларимизни безаётган ме-
валар ва иссиқликдан сақлаётган дарахтлар,
Бу гўзалликларни кўриб, хис қилиб, дилинг
айрайди. Асрларни қаритган арча ва виқорин
чинорларни кўриб, табиат бизни умрбод аср-
шини хис этиб қувонамиз. Йўллар ва йўлаклар
четига экилган ниҳошлар ҳам эртата бўйи чўшиб,
кўчаларимиз кўрқига кўрк батишлайди. Керем
бўлса, улар – сиз-у биз ютаётган хавонни ҳам
тозалайди. Қаранг, табиатнинг инсониятга бе-
раётган ҳадсиз меҳрини. Худди меҳрибон онага
ўхшайди. Эҳтимол шунинг учун уни она табиат
десак, керак! Лекин шундай кимсалар борини,
шу она табиатни йиғлашга мажбур қилмоқди.

Содик ўз шаҳрининг кўрқига кўрк бераётган
боғлардан бирини оралаб борар экан, у ердан
айрим ҳолатларни кўриб лол бўлди. Бир зум на-
рахт ҳолда турди-да, аста сув ёқасидан сомон
қуюқ мажнунтол томон юрди. Унинг суви та-
кан шохларини кўриб, бироз завқ олди. Аммо
бу ҳам узок чўзилмади. Мажнунтол танасидан
сизаётган сув худди унсиз йиғлаётган болани
уни сергақ тортирди. Не кўз билан кўрсанг
тол танасига кимдир «А» харфи билан телефон

рақамини ёзиб қолдирибди. Сизаётган сувни
мажнунтолнинг ўйиб ёзилган жойидан оқаёт-
ган ёшдек хис этган йитит қўнгли алданечук
бўлиб кетди. Ҳозиргина сува юзини чаётган-
дек унга завқ берган мажнунтол шохлари энди
у учун накадар мунгли, накадар дардли, нака-
дар гамгли бўлаётгандек эди:

«Эй одамлар, нега шундайсизлар? Бирингиз
кўлиб кўқартирсангиз, бирингиз хўрлаб та-
нани тирнайсиз. Менинг айбим нима? Соямни
қўлинка қилганимми ёки этилган шохларимми?
Агар билсангиз, шу шохларнинг этилишида
кам сизларнинг хиссангиз бор. Чунки ҳар қуни
тўғри одамлар шу ерга келиб дардлашадилар.
Кимдир кимга менинг соямда севиғи изҳор
қилиди. Баъзилари эса бир-бирини шу ерда
ақлиб, бадном қилиб, бу ёлғонларга мени ҳам
қуюқ этиб кетишади. Бу ҳам етмагандек мана
бундай танамни ўйиб, яраётганлари канча?
Неча-неча ярадарни вақт даволаб битирди.
Аммо, яна канчааси кўксимни кемиради, бил-
майди.

Мен сувнинг совуқлигидан эмас, балки
шундай иблис кимсалар орангизда борлиги-
дан титрайман. Уларни кўрганда дарахт бўлиб
орангизимдан ҳам қувонаман. Майли сизлардек
ўйнаб-қўлмасам ҳам, гоҳ қоқилиб, гоҳ тўғри
ормасам ҳам, танамдаги ёзувларни ўқий олма-
сам ҳам, ҳартугули бировга зийним тегмайди-ку!

Эй инсон дея аталгучи улуг зот! Мен ҳамма шундай демоқчи эмасман. Яхшилар ҳам кўп хали дунёда. Шунинг учун дунё кўркем, олам гўзал... Акс холда аллақачон борлик остин-устун бўлиб кетарди-ёв? Яна кайдам...

Ха, чуқур ўйга толган Содикка мажнун тоғ шундай ниго билан шивирлагандек эди. У диққатини жамлаб, яна ўйга толди. Дунёнинг бурчак-бурчакларида турли офатлар бўлаётганини ёлти олди. Кунчиқар тарафда борлиқни ер ютаётган бўлса, Ғарбагиларнинг тошқинлари ғарк бўлиши янчили. Уммон ортидагиларнинг тўфонлар гирдобиди қолиши ҳам ачинарди. Нахотки бизнинг ноқоиз ишларимиздан тибн ат тебраниб тошаётган бўлса? Ношудлигимиздан бардоши тутаб, қаҳр отиға минса?.. Бундан хадсиз саволларга жавоб тополмай қийнаётган Содик овозининг борича: «Хой, Сиз, азиядари! Келинг, бемехрликка барҳам берайлик. Сизу бизнинг қасримизга мунг босмасин мажнунларни» дея хайкириб юбораёзди...

ОХИРЗАМОН НИШОНАСИМИ?

Аббор оиланинг кенжа фарзанди Унинг бу йил оила курусам, деган ниёти бор. Далада деҳқончилик қилиб оилани таъминлайдиган у ва кичик акаси Собир. Қуяда мис

монлари баракали бўлганидан қувонган акаси оиланинг кишки захирасидан ортган даромадга у-ч-тўрт бош мол олиб, қолганини кейинги йил дала ишларига сарфлаш учун сақлаб қўйганли. Абборнинг ниятини англагач, бироз ўзининг қолди. Сўнг бу гапни турмуш ўртоғига айтди. Нигоранинг буни яхши қабул қилиб: «Келинг, бу йилги фойдамизга шу укантизни бошини иккита қиламиз бўлмасам», дейишидан Собирнинг кўнгли тоғдек бўлди. Аммо нигорнинг: «Акангиз ҳам ёрдам берав» деганидан яна ўйга ботиб: «Билмадим, унинг ун-жойи бўлак. Ўзига яраша таъвиши бор» деб қўяқолди.

Чулки у акасининг фельини яхши биларди. Бундан икки йил аввал Акмал укаларини бошидан четлатиб, ўзи билан ўзи бўлиб кетганди. Ўша йили оиласи анча танг аҳволда қолиб, келидан аранг чиққанини эслаган Собир ичдан ин кетди: «Нахотки акам бермаган меҳрни шу ерга бера...». Эртаси куни нонушта вақтида ўғлидан бу гапни эшитган она қувончини кўрсатган эди.

Акаманинг: «Мендан мурувват кутман-лар» дейишга қарамай, уйидагилари Абборни «ўзини маҳалладаги ўзи кўнгли қўйган қизга ўнатиришди. Кўп ўтмай тўй ҳам бошланди. Ўша келин келишидан атиги бир кун олдин келин катта ака: «Ҳамма нараса тахтми?» деди

бир туки килт этмай. Лекин ҳамма: «Бу ишни яхши қилибсан, отангга бағли, Акмал!» дея унга ташаккурлар айтарди. У эса: «Раҳмат, раҳмат!» деганча пинагини бўзмай турарди. Унинг бунчалик сурлигини кўриб, уйимиздаги кучук билан мушук ўртасида юз берган бир ҳаётини воксани эсладим.

...Ўшанда мен энди мактабга боргандим, Уйда кичкинагина мушутимиз бўларди. Куларнинг бирида дадам ёшгина кучукбола олинб келди. Буни қарангки, тез орада ҳалити кучукбола мушук билан бирга ўйнайдиган бўлиб қолди. Бунга ҳамма хайрон қоларди, жумладан, ўзимиз ҳам. Аммо бир куни тонгта туриб кая расак, кучукча қимирламай ётарди. Мушук эса унинг бўйнига бошини қўйиб олган. Аввалгиларга аҳамият бермадик, кейин дадам: «Йўлбарс, йўлбарс!» дея кучукни чақирди. Келмигач, уларнинг олдида ўзи борди. Не кўз билан кўрайликки, кучукча ўлик ҳолда ётарди. Мушук эса унинг бўйнидан бош кўтармасди. Бу ҳолатдан даставвал лол бўлган дадам кучукнинг ўлигини қайсқадир обориб кўмиб кетди. Мушук эса шу ерда уч кунгача кетмай айланган юрди-да, тўртинчи куни қайсқадир ғойиб бўлди. Шу-шу у қайтиб келмади...

Қаранг, бирининг соясини иккинчиси ҳушламайдиган бу икки уй жониворлари бир-бирини та канчалик меҳр қўйишган. Ҳатто дўстлигининг

қам улгуришган. Нахотки ҳозирда баъзи инсонлар орасида улар ўртасидигидек ҳам меҳр қолмаётган бўлса? Ёки бу чиндан ҳам охирамон нишонасимикан-а? Йўк, йўк... Бундан Ўратининг ўзи асрасин!

ТАШНАЛИК

Мандирдек қизиб ётган қумли тум суяга бутун умрини алмашгудек чанкаб борарди. У қанча йўл юрганини ва қайсқа кетилганини ўзи билмасди. Ҳозир у учун бир қултум сувдан азизроқ нарса йўққа ўхшарди. Шунида худди ўзига ўхшаган, бироқ чўл шароитини яхши билганидан елкасига мағодан тикилган ҳалтага илбик олган бир одам унинг қарши-сидан чиқди. Адашган йўловчининг ҳолсизгина ярашг ҳаракатларидан, қуриб қолган лабларидан чанкаганини аниқлаш қийин эмасди. Бояги сакро шароитини билган киши унга ҳалтасидан сув солинган идишни узатди. Адашган йўловчи тезда уни олиб ичди-да, чанкоғи қонгач, ўзининг ялашиб қолганини унга айтди. Улар унчалик қўл ҳам юрмасдан, бир чўпон чодирининг олдидан чиқибди.

Чўпон жуذا очикқўнгил, меҳмондўст одам эди. Қелганларни тезда ичкарига олиб кириб,

уларнинг кўнглини топишга ҳаракат қилин.
Меҳмонлар негадир унинг танимаган одамга
бунчалик меҳрибончилик қилаётганини тушуни
олмаётган бўлсалар-да, бироқ ҳеч нарса билма-
гандай ўтиришарди. Кун ботиб, борлиққа суку-
нат чўмди, осмонда ой ва юлдузлар чарқаб
кўринарди. Бу ўзгача бир завқли эди. Шунди
бир-бири билан эндигина танишган уювлон
ўртасида кизик бир гурунг бошланди.

Адашган йўловчи ўзига сув берган боғи
халтали инсонга яна бир бор раҳматлар айтди.
Унинг сўзларига чўпон ҳам қўшилди. Сўнг то-
ниматан одамларга бунчалик илтифот кўрсат-
ган чўпоннинг ҳаракатларидан хайратланган
икки йўловчи ундан сўради:

— Эй меҳрибон одам, бизни худди аввалдан
билидиган қадрдонлардай илтифот кўрсатганин-
гиз ёки бизни чиндан ҳам танийсизми?

— Сизларни эндигина кўриб турибман,
деди чўпон.

— Унда бизга шунча ҳурмат кўрсатишининг
боиси не, — деб сўрашди йўловчилар.

— Сизлар бу йўллардан кўп юрганмикин?

Чўпон улардан: «Йўк» деган бир хил жавоб
эшиттач, ўзининг бу саҳроларда узок йиллар
дан буён чўпонлик қилишини айтди ва уларни
қараб: «Мен берган сув чанкоғингизни босиб
ми, олдингизга қўйган таомларим қорнигизни

қўйибдими?» дея сўради. Йўловчилар унинг
кўли очкигидан кўнглилари тўлганини ай-
тти. Чўпон ҳам уларга раҳмат айтиб: «Кўр-
дингизми, одам боласи шундай. Барча на-
рсага тўйиши мумкин, бироқ меҳр дея аталмиш
белгидир неъматга ҳеч қачон ташналиги конмай-
ди», деди-да, ўзи эшитган бир афсонани хикоя
қили бошлади.

...Бу саҳрода бир адашган дарвеш кезиб
юрар экан. У одамларнинг олдидан чиқиб қол-
са, бир қултум сувга бутун меҳрингизни қўшиб
бериш деб кўяркан. Ментга меҳр берсаларинг-
ини мен яшабда давом этаман, бўлмаса нобуд
бўлишим мумкин дер экан. Шу яқин йилларда
ун кўрдим деган одамни эшитмадим. Балки у
меҳрга ташналикдан қардадир ҳолсиз ётган-
дур. Шундай ҳолга биз ҳам тушмаслигимиз
учун бир-биримизга меҳрли бўлишимиздан
қайратланманг, азизлар!

ОЛТИН ЗАНГЛАМАЙДИ, КЎНГИЛ-ЧИ?

Ж ечаси билан бўралаган қор тонгта
яқин ерта аста ўйноқлаб кўна бош-
лади. Атроф оппоқ. Интизор кутган дамлари
мелгиндан қувонган боғалар қорда тоҳ дума-
лаб, тоҳ ўмбалок ошиб ўйнашмоқда. Бу қувонч
улар зерикмагунча давом этаверди. Чунки

улар яшайдиган кишлок токка якин бўлганидан кор устма-уст ёғди, бахорнинг охиридан бориб аранг эрийди. Кўчада кичиктойларнинг ўйин-кулуси авжига минаяганига ҳамохандек, Санобар опаларникидаги жанжал тобора илдиз отиб бормоқда.

— Сен кўрмасанг қаякка йўқолади? — деди кайнона келинига. — Кеча ўз кўлим билан бердим, тўрими? Бугун бир тукинг қилг этмай «Мен билмайман», дейсан. Ахир у онамдан қолган ягона ёлгорлик...

— Айб менда ойижон... Бирок мен шу ерда кўйгандим-да! Мени кечиринг... — дея зорланди Шаҳодат ўзини кўярта жой тополмай. Аммо аллақачон ғзаб отига минган кайнона қани энди бу гапларга ишонса, тўғрироғи бу гапларни эшитса. Чиндан ҳам Шаҳодат шу кунгача бу уйдан нинани ҳам сўроқсиз олмаган. Бирок кўрдим демайди? Гўё ер ютгандай. Шаҳодат бирма-бир ҳамма нарсани эслай бошлади. Кайнонасининг йиғиндан қайтиб келганидан бондилаб, то окшомда уйкута ётгунча бўлган вақтда уйга бирорта бетона кирмади... Ҳа, ҳеч қим келмади...

Аник ёдида, кайнонаси Санобар она неварасини эртлаштириб келди. Шаҳодат уларни очик чехра билан қаршилаб, кўлидаги тоғорани олди. У уч-тўрт кадам юрмай кайнонасини

нинг қулоғидаги зирагини ечиб, унга узатгани ҳам рост. Бошқа ҳеч нарса бўлмади... Ҳеч қим келмади ҳам... Лекин шу кундан бошлаб уйдан жанжал аримай қолди. Эртага нима бўлишини одам-одам олдиндан билганида эди, олтинни қадр тутгандар ўз қадрларини қаритмаган бўлармиди?

Мана яна қорлар эриб, она табиат аста уйғона бошлади. Барақа уруғлари заминга ниш уриб, майсалар кўкка бўй чўзганча, борлик ишилликка бурканмоқда. Қулган куртақлар тўлиқлигига кўз тўймайди. Аммо Шаҳодатнинг ичига чирок ёкса ёришмайди, кўнгли ғаш унинг. Оёқлари тагида эзгиланаётган майсаларта заррача эътибор бермай бораётган аёл интоҳлари яшиллик орасида ярим лойга ботиб ётган ялтироқ жисмга тушганда вужуди алла-нечук бўлиб кетди. Юраги кафасда потирлаётгани қалқикдай энтикиб кетди унинг. Нахотки йўқолган зирак шу бўлса? Минг бир ҳадик некинжасидаги Шаҳодат баҳор куёшида товланаётган жисмга аста кўл узатди. Ҳа, бу ўша йўқолган зиракнинг ўзгинаси. Қаранг, тилла зирак шунча вақт қор тагида қолиб кетса ҳам интилмабди. Бирок у топилгунча маломатта белланган кўнглини шундай қурум босдики, ноқиза қалбдаги меҳру оқибат гўё темирнинг эмиргандек емирилиб улғурди...

ТУНГИ КАПАЛАК

Маъийлик вақтдан ўзгандай. Фасллар алмашинуви ҳам тезлашиб, хатто ҳар бир кун биздан узоклашишга уринаётгандек гўё. Мана яна бир кун поёнига етиб, Бобокуёш уфқка бош кўйиш арафасида. Бир жуфт капалак жон ҳолатда учиб, қаёққадир шошиб кетмоқда. Қани имкон бўлса-ю, уларга шошилманглар дея тушунтирсанг ёки ўзлари олдинда уларни нималар кутаётганини, «тунги капалаклар»нинг кўлига тушиб, нобуд бўлишларини билишса.

Бирок жуфт бўлгандар фақат у иккиси эмас-да! Кўл ушлаган ёшлар у ёқдан-бу ёққа майда қадамлар ташлаб, шошмай одимлаб боришарди. Тобора кун ёғдуси хиралашиб, тун пардаси борлиқни қопларди. Соҳиллати новдалари этик дарахт тагидаги ўриндикда беўхшов ўтиргандарнинг хаёллари тамоман бошқа тарафларда. Такдирнинг ўйинини қаранг, ҳалиги капалаклар ҳам дарахтга бориб кўнди. Улар учун энг тинч жой шу ердай, гўё, Аспида ҳам шундай, атрофдагилардан уялган «уятли»ларга бу ўриндик вақтинчалик ошён, холо...

— Вой қаранг, анави капалакларнинг гўзаллигини, — деди қиз йипитта эркаланиб.

— Осмондаги ойга бўлмаса-да, шу икки капалакка кўлим етади, — деганча йипит ўрнидан кўчарди.

Кўп ўтмай ҳар икки капалак тутқунга айланди. Улар бечора капалакларнинг гўзаллигини бироз томоша қилган бўлишди. Йипитнинг боғлиқлиги безорилиқлари ёдига тушиб кетдики, капалаклар қанотларининг ярмидан аста силдириб: «Ҳозир капалаклар рақсини кўрасанг» деди-да, уларни ерга кўйди. Капалаклар энди чинакамга жон ҳолатда учишга, бу ердан олис-олисларга кетишга урина бошлашди. Шўринкларнинг бу саросимали ҳаракатларидан ўзларича ҳузур олгандар эса, тезда ўзлари билан ўзлари бўлиб кетишди. Йипит қизга: «Сен ҳам менинг капалагимсан, фақат тунги капалагимсан» деб эркалатишга тушди...

Шу алфозда учинчи «тунги капалак»нинг ҳам қаноти қайрилди. Фақат уларнинг иккиси инкаста қанотлари билан бўлса-да, тутқунликдан қутулишга талпинган бўлса, ўз инон-ихтиёри билан борини бой берган «тунги капалак» эса, энг ожиз йўлни ташлаб, ўзини шиддатли дорё домига отди.

Аммо жонни танадан ҳайдаш у ўйлагандай осон эмасди. Шу бонс ҳам у яна яшаб учун қурашга киришди. Қандай қилиб бўлмасин епроққа чиқиб олишга интилди. Унинг бу

харакатлари бор-йўғи бир кунгина умр кўрадиган кечаги капалаклар рақсидан фарқсиз эди, тўё...

КАРИМАЙДИГАН ОДАМ

Жамоадатилар орасидан кимдир кўторматанда ўртага: «Қандай одам қаримайди?» дея савол ташлаб қолди. Аввалига ўтиртанлар биров жимиб туришди-да, кейин кўпчилиги «Бахтли одам қаримайди» дедилар. Яқиндагилар иш бошлаган Исломини айтмаганда, ўтиртанларнинг ҳаммаси катта ёшдаги одамлар эди.

— Барча ўзини бахтли деб, шу билан бирини бахтсиз ҳам деб билади-ку, — деди Соҳиб ака. Ҳамма у кишига қаради. — Ёки гапим ҳақомин? Инсон қалби шундай, кичик бир қувончдан ўзини бахтиёр ҳис этса, яна бир шунчаки кўнглини сизикдан тақирни айблаб, бахти қаролигидан нолийди. Орамиздаги энг бахтли одамга қолмас, у Ислом. Сабаби у ҳали жуда ёш, ҳаётдан қўрадигани олдинда. Қолаверса, у мана шундай дориламон даврда туғилди.

Соҳиб ака ўйланиб тапирар экан, кўнглининг кўзойнагини тақди-да, у ёқдан бу-ёққа кетиб қолган одамларга биров ўйчан тикилиб, яна сўзлаб қолган эди:

— Ёшлиқнинг ўзи улкан бахт, ана ўша ёшнинг дағи биз эслай олмайдиган ширин хотириларини

ота-оналаримиз бизга айтиб беради. Ота-она шундай бир дарёки, фарзандининг ёши нечада бўлса ҳам, улар учун у бир умр бола бўлиб қолган эди. Демак, ота-онаси ҳаёт одам бахтли, у ҳақ қаримайди.

АЙРИМЛАР ҚИЗИК

Арипбойниқиди кейинги ҳафтада катта йигин, у ўғлини уйлантирмоқчи. Ҳамманинг оғзиди шу гап. Базилаар: «Бой бўлун ховлисига гилам тўшар экан» деса, яна кимдир... Хуллас, ҳамма ўз тасаввури даражесиди гап-сўзларни айтиб юрибди. Бирок яна бир хулоса йўқ. Ҳаммаси «Деди-деди», «Эшиттишимча...» ва яна шунга ўхшаган гаплар. Қолаётган икки кўшни ҳам шу тўй тўғрисида сўз юртишмоқда.

— Шарипбой ака сизни тўйга чақирдимми? — сўради Қозим.

— Ҳа, кеча тақрифнома берди, — деди Акбар.

— Алоҳида чақирбди-да, энди сиз олий маълумотли одамсиз. Бизни оғзаки айтса ҳам етаради.

— Нима сизни чақирмадимми?

— Ҳа, чақирмади.

— Унуттандир, чақиради. У ҳеч кимни назардан қолдирмайди. Айтганча, яқинда укангизини

уйлангирдингиз шекили, тўйга чакиртганингиз? Мен ҳам тўйингизни эшитдим, бироқ ўзингиз индамагандан кейин унинг каерда экандай бўлгани билан кизикканим йўқ.

Бу ташлардан Қозимнинг кўзлари пирпириб кетди. Худди айбдор одамдек юзларига кизилик югурди.

— Тўйхонада ихчамгина килиб ўтканиб кўяқолдик, шундан... — деди у енгил шабадада аста тебранаётган теракка термулиб.

Кутилмаганда орага сукунат чўшиб, уларнинг суҳбати ортик қовушмади. Кўшнилар Аббарнинг эшитига етгач, бўшгина хайрлашшди, «Айримлар кизик, ўзлари эсдан чиқарганини эътиборга ҳам олмайди. Бироқ бировнинг эсидан чиқганини дарров саноқдан ўтказишадилар, дея тудраниб кўйди Аббар дарвозадан ичкарига хатлар экан...

ЎЗИ ИНСОФ БЕРСИН

Қўшанбадаги дам олишдан фойдаланиб шаҳарга тушган Ҳаким дўстни Салим билан бозорларни обдан айланди. Ушшанган нарсасини энди оламан деганда ундан ҳам чиройлироғи кўзга ташланиб қолаверди. Хуллас, расталардаги буюмлар бири-биридан тўнчаласанг бор, — деди бундан қувонган Салим.

— Ҳа, нимасини айтасан, — дея Ҳаким унинг тилини маъқуллади. — Аммо мени бир савол қийнамоқда. Уларнинг нархи ҳамма жойда хар хил, нега шундай экан-а?

— Сифатида фарқи бордир балки. Бироқ ҳаммасининг таърифи бир хил-ку!

— Бозор маҳсулотларининг сифатига ҳам, таъбиркорлар таърифига ҳам гап йўқ. Лекин айримларнинг виждони жигилдонга айланиб, бирини иккига ҳам эмас, уч-тўртга баҳолаётгани қийнайдиган одамни.

— Кўй отайини, билмаган, тушунмаган нарсамизга аралашмайлик. Ҳаммага ўзи инсоф берсин.

Шу тарика улар бозордан бозорга ўтиб, кўшнинг кийм бўлганини ҳам пайкамай қолтиришди. Тайинли бир нарса харид қилмаган бўлсалар-да, тушлик учун тамадди қилиш илминжида турфа ошхоналардан бирита киришди. Ичкарида ҳамма нарса ўз ўрнида. Тамаддиҳонанинг юкори дид билан безалгани кўриниб турарди. Тасодифан Ҳакимнинг кўзи юзларидан нур ётиган ёши улут аёлга тушди-ю, худди уни илгари каердандир кўргандай бўлаверди. Лекин эслолмай қийналди. Ва ниҳоят:

— Ўртоқ, қаршимизда ўтирган онахонни сен танимайсанми? — деб сўради.

— Қайси?

— Ана рўпарамиздаги ўриндикка қара.

— Чиндан ҳам танишга ўхшайди...

Аммо улар канча урунишмасин аёлни таний олишмади. Аслида ҳам улар бу аёлни биринчи марта кўриб туришган эди. Оддийгина, юзлари кулиб турибди. Бошидаги рўмоли ҳам ўзига ярашган. Тўкилиб турган кўйлаklarини айтмайсизми? Улар канча ҳаракат қилишмасин, барибир унинг қимлигини, қаерда кўранликларини эслай олишмади. Аслида жавоб оддий, аёлнинг борица миллий анъаналарга хос кийин-танида эди. Шу боис у қимгадир эмас, ўз оналарига ўхшарди, холос.

ЧИРОҒИ ЎЧИҚ УЙ

Зим-зиё кеча, осмонда бирорта ҳам юлдуз кўринмайдди. Шунданми ёки бошқа сабаби борми, Тўлқиннинг кўнгли ғаш, қалби безовта. Гўё нимадир бўладигандай нотинч, у ёқдан-бу ёққа тинмай юрарди. У худди муҳим нарсани қутаётган одамга ўхшарди. Ёки барчасига ўғлининг чизган расми сабабчимикин?

Кўчадаги кучли шамол борган сари кучайиб, ваҳимали товуш чиқарарди. Дераза ёнидаги узун терак шамолнинг кучидан симёғоч устига қарсиллаб йикилди. Кўпгина хонадон чироклари ўчди. Чакмоқ чакканда атроф бир ёришди, осмонда кучли садо янгради, дераза

ойналари товуш тўлқинидан зириллаб кетди. Хона четида ётган ўғлининг безовта бўлганини кўриб, Тўлқин шахд билан унинг ёнига ўтди. Коронгида оёғи қандайдир қозғаларини босганини ҳис қилди. Бола бамайлихотир ухлаб ётарди. Ўғли бирон кинони кўрса ёки бирор нарсани эшитса, ё ўқиса, тезда кўлпига қилм олиб шу нарсани расмларда акс эттиришга уринади. Унда кўпчиликда учрамайдиган бўндай ўзига хос одат борлиги Тўлқинни доим қувонтирарди.

Ҳозирги тулни кўрганида борми, балки у яратадиган санъат асарининг ибтидоси бўлармиди дея ўйлади, ўғлининг устини ётар экан. Дераза ёнига қайтаётиб боғли оёғи остидаги қозғаларни пайпаслаб тоқди-да, кўлда кўтариб юрадиган фонарини ахтара бошлади. Ҳозир унда аёли бўлганида, у тезда фонаринг қаерда эканини айтарди ё топиб берарди. Аксита олиб бутун у тулги сменада. Бир хаёли телефон қилиб фонар қаердалигини сўрасамми, деб ҳам ўйлади. Бирок, бу аёлини безовта қилишга аринмайдиган нарса эканини англади. Сабри чидамай тутурт ёригида расми кўришга ҳаракат қилди. Бирок у ҳеч нарсани тушунмади. Қороз фақат қорага бўялганди, холос. Буларни кўриб, унинг хафсаласи пир бўлди. Бу ниманинг расми, дегандай ухлаб ётган ўғлига бир қараб қўйди-да, ўзи ҳам ётди.

Тўлкин тонт энди ёриша бошлаган маҳал ўрнидан турди. Караса, ўғли аллақачон уйи-
ниб, яна нималарнидир қотозга тушираётган
экан. Бир қарашда боласининг бу иши аҳмоқо-
на кўринса-да, ота ўғлини қоймади. Аста
унинг ёнига борди. Қўчада кечаси йиқилган ул-
кан теракни кўрди. Ўғли эса отаси тушунмаган
расмини ёнига кўйиб, бошқа варақка шу теран
расмини чизмоқда эди.

— Ота кечаси ҳам капалаклар учадимми?
сўради у қутилмаганда.

Тўтриси, ўғлининг бу саволи уни бироз
ўйантириб қўйди.

— Билмадим, учса керак, нега сўрапсан?

— Тасвириларим учун керак, аниқроқ айтгин.
Масала жиддийлигини англаган Тўлкин-
нинг эсига бир маҳаллар отаси айтиб берган
тап тушди. Ўшанда у ҳам айни шу ёшдаги бол-
ади, чамаси. «Ўғлим, вақт ўтиб, сен ҳам катта
ўғлон бўласан. Ўшанда мана шу уйнинг чи-
роғини доим ёкиб қўй, менинг руҳим капалак
бўлиб намозшомда ўша ёруғлик атрофига кел-
ди», деганди отаси.

— Учади, кечаси эмас намозшомда учади,
деб айтганди раҳматлик отам менга.

— Раҳмат. Болакай янги қотозга батамон
бошқа расм чиза бошлади. Бирок у капалаклар
ни қаерга, қандай тасвирлаш кераклиги ҳақинда
ўйларди. Шу тобора бирдан Тўлкин ўзининг ёни-

лиги ўтган қишлоққа отланиб қолди. Ўғлини
ҳам ёнига шерик қилди. Машинада чамаси тўрт
соғитик йўл. Ота-бола йўлда одамлар тавжум
бир жойда тўхтаб, тамадди қилиб олишгач, йўл-
да давом этишди. Ниҳоят улар туғилиб ўсган
қишлоқга яқин жойдаги бозорчадан ул-бўл ха-
рид қилиш учун тўхташди. Бозор чунонам ўзга-
риб кетган, замонавий даражага келтирилганди.
Маҳсулотлар қўлигиданми ёки ҳамма ўзини
савдога урганиданми ҳар ҳолда одамлар қўча-
тага чиқиб олишибди. Улар йўл юзига қўлбола
столлар қўйишиб, уларнинг устида ҳам қизгин
савдо қилишарди. Айниқса, савдогар аёллар
тортишуви авжига минган. Бири:

— Нега энди сен одамларни алдаб: «Далада
етинтирилган қулупнайлардан опқонинг», де-
лмасан? Ахир иккимиз ҳам бир жойдан олдиқ-ку,
илдамасдан сотсанг-чи, — дер.

— Бу савдо, эглаб сотавер. Бўлмаса сен ҳам
шундай де. Ким кўрибди иккимизнинг бир
жойдан олганимизни. Кўрапсан-ку, одамлар
дэланики ширин деб меникини олишяпти, —
дея ўз сўзини маъқуллади иккинчи аёл.

Тўлкин ўғли билан уларнинг ёнида бироз
тўхтаб турди-да, одамларнинг мол-дунё учун
ҳеч нарсадан тап тортмай қолганига хайрат-
ланди ва: «Наҳотки шунчалар тубанлашиб кет-
дик», деганча юриб кетишди. Ахир қимми алда-
лшмиз, нега алдалшмиз? Шунга ўхшаш фикрлар

Тўлқиннинг хаёлидан тинмай ўтарди. Улар ҳам алданлими-йўқми ўзлари ҳам билмай, ота уйга куруқ кўл билан бормаслик учун ул-бул харид қилишди.

Кишлокка кириб борар экан, Тўлқин ўзи чангитган кўчаглардан боғлигини кидиргандай, у ёқдан-бу ёққа қарарди. Энди у кўнлар ўтди, ҳаммаси хаёлда. Шу тарика улар отасининг уйига ҳам етиб боришди. Укаси Обид кўча та-рафдан катта уй солган бўлиб, хозир худди ўша янги уйда яшарди. Отасидан қолган пасткамти-на синчли уй унинг олдида қичкина бўлиб кўринди. Ака-ука бир-бирларини бағирларига босишгач, ўша пасткамтина уй ёнига бориш-ди. Эшик анчадан бўён очилмаган. Ташқарига илгинган чирок олдида ўргимчаклар уя солган бўлиб, унда бир қанча қалақнинг ўралиб тур-ганини Тўлқин кўрганда кўзларига ёш ҳалқа-ланганча отасининг галларини қайтадан эсла-ди. Ўғлига аста ишора қилиб, ўргимчак инида-тутқунга тушганча қурбон бўлган қалақлар-ни кўрсатди. У эса бир четга ўтирди-да, кўли-даги қоғозга тонгда чизишни бошлаган расмини давом эттиришга киришди. Орадан кўп ўтмай уни яқунлади ҳам. Ота-бола расмини: «Чироғи ўчик уй» дея номлашди.

MUNDARIJA

Umid yug'otayotgan ijod	3
Nurafshon tonglar	8
Tog'lar balandligi	10
Bir siqim tuproq	13
Sadoqat haykali	31
Qabohat	57
O'g'irlanmagan sovg'a	65
Qarg'ish	70
Noraisida nidosi	77
Nikmat izlaganga hikmatdir duryo	85
Sog'indim seni, o'g'lim	93
Olislama oqibat	99
Qaldirg'ochning qanoti yetmagan joylar	107
Muhabbat yetim qolmasin	112
Bola bo'lib qolsaydim	123
Xom sut emgan bandomiz	126
Izg'itilni kup	133
Asl odam adashmaydi	137
Mung bostmasin majnuntollatni	140
Oxirzamon nishonasi?	142
Tashnatik	145
Oltin zanglamaydi, ko'ngil-chi?	147
Tungi karalak	150
Qartmaydigan odam	152
Avrimlar qiziq	153
O'zi insof bersin	154
Chirog'i o'chiq uy	156

Умид уйғотаётган ижод	162
Нурафшон тонглар	167
Тоғлар бағандлиги	169
Бир сиким тулпок	172
Садокат хайкали	190
Қабоҳат	215
Ўғирланмаган совға	222
Қарғиш	227
Норасида нидоси	235
Ҳикмат излаганга ҳикматдир дунё	242
Соғиндим сени, ўғлим	250
Олислама оқибат	256
Қалдирғочнинг қаноти етмаган жойлар	264
Муҳаббат етим қолмасин	269
Бола бўлиб қолсайдим	279
Хом сут эмган бандамиз	283
Изғиринли кун	289
Асл одам адашмайди	293
Мунг босмасин мажнунтоғларни	296
Охирзамон нишонасими?	298
Тапналик	301
Олтин зангламайди, кўнгил-чи?	303
Тунги капалак	306
Қаримайдиган одам	308
Айримлар кизик	309
Ўзи инсоф берсин	310
Чироғи ўчик уй	312

Адабӣ-бадиӣ нашр

Ҳинус Бек

БІР СИҚІМ ТУПРОҚ

Муҳаббат А. Зиядов

Бадӣ муҳаббат А. Гурова

Техник муҳаббат А. Саліхова

Композиторлар таърифловчи Т. Аббасов

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi. Toshkent viloyati, O'ra Chirchiq tumani, «Oq Olov» QFY, Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI №265. 24.04.2015.

Toshkent 2018-yil 9-iyulda nashr etildi. Bichimi 70 × 90^{1/32}. Ob'ekt qog'oz. «Times New Roman» gapitulasi. Shartli bosma tabog'i 10,0. Nashr tabog'i 9,3. Adadi 200 nusxa. 412-sonli buyurtma.

«NISO POLIGRAF» MCHJ boshmaxonasida chop etildi. Toshkent viloyati, O'ra Chirchiq tumani, «Oq Olov» QFY, Mash'al mahallasi Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Abdiyev, Yunusbek.

A 14 Bir siqim tuproq [Matn]: hikoyalar/
Yu. Abdiyev. – Toshkent: «Niso Poligraf»,

2018. – 320-b.

ISBN 978-9943-5084-4-6

UO•K 821.512.133-32

KBK 84(5)6